

SHARQ MASH'ALI



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

4
2024



Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yildan chiqa boshlagan
Jumal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi
ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)

Bosh muharrir:
G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:
D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinbosari)
X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)
A. MANNONOV (prof., f.f.d.)
Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)
R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)
SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)
Q. OMONOV (prof., f.f.d.)
U. MUHIPOVA (prof., f.f.d.)
D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)
X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)
B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)
A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)
M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)
X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)
D. XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD)
SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)
N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)
A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)
R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)
I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)
R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)
E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)
A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya univ. prof.)
G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.)
ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba univ. prof.)
LI DJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar univ. prof.)
V. MESAMED (Isroilning Quddus univ. prof.)
A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.)
A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)
G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.)
A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)
S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)
H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)

Nashrga tayyorlovchilar:
J. ISMOILOV, H. SULAYMONOVA
L. HAMDAMZODA,
G. HUSHNAZAROVA

Jumal O'zbekiston Respublikasi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va
tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop
etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jumal original-maket asosida bosildi.
Sharq mash'ali, 2024 yil 4-son.
e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi
mumkin.

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 4, 2024-yil

Adabiyotshunoslik

Muhiddinova D. Zamonaviy arab va o'zbek
yozuvchilari asarlarida qur'oniy qissa va
rivoyatlarning badiiy talqini.....2
Turdiyeva O. Eronda hikoya janri taraqqiyotida
Muhammad Ali Jamolzodaning o'rni7
Ashurova M. Xitoy adabiyotida esse janrining
paydo bo'lishi va taraqqiyoti14
Yusupova D. Siyovush Kasroiylar she'riyatida
Simurg' qushi talqini22
Umarova N. "Quyonglar" qisqa romanida
lakonizm va badiiy til xususiyatlari.....28
Jo'rayeva X. Husayn Boyqaro – Husayniy
adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi ...35

Tilshunoslik

Korayem S. Modern linguistic trends in language
education42
Азимджанова Д., Абсаломова Н. Выражение
гнева в персидском языке: лингвистический
и культурологический анализ 54
Abubakirov J. "Gunki monogatari" badiiy til
xususiyatlari va tipologiyasi.....64
Muxammadjonov A. "Arab tilida sinonimiya,
uning leksik-semantik rivojlanish sabablari:
klassik va zamonaviy yondashuvlar"71
Shukurov A. Arab tilidagi harbiy atamalarni
tasniflashning o'ziga xos xususiyatlari.....81

Tarix

Xodjimuratova D. Eron davlat boshqaruvi tizimida
diniy va dunyoviy institutlarning o'rni90
Taylaqov T. Falastinning demografik tarixi96

Tashqi siyosat

Худайбердиева С. Изучение пожилых людей в
геронтологии и их типы 104
Kushanova Y. Markaziy Osiyo va Fransiya
munosabatlari tadqiqotchilar nigohida113
Sayfullayev N. Turkiya tashqi siyosati bo'yicha
asosiy mafkuraviy yondashuvlar.....121
Xayrullayeva I. Hindiston ta'lim sohasida xotin-
qizlar ishtiroki va ahamiyati (Uttar-pradesh shtati
misolida129
Qalandarov O'. Eronning 1979-yildagi
inqilobdan keyin Afg'oniston bilan savdo-
iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi 144

ZAMONAVIY ARAB VA O'ZBEK YOZUVCHILARI ASARLARIDA QUR'ONiy QISSA VA RIVOYATLARNING BADIY TALQINI

DILAFRUZ MUXIDDINOVA

Dotsent, f.f.d., TDSHU

Annotatsiya: Arab va o'zbek adabiyotlarining jahon adabiy jarayoniga qo'shilishi va muloqotda bo'lishi, jahon adabiyotining turli yo'nalish va oqimlarining ta'siri va bu jarayonda o'z milliy adabiy an'analarini saqlab qolishga intilishi hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida (60-70 yillar) zamonaviy arab nasri yozuvchilarning ijodiy maqsadiga mos yangi badiiy vositalar bilan boyib bordi. Zamonaviy arab adabiyotidagi mazkur yangilanish jarayonlarining yuzaga kelishiga ma'lum ichki va tashqi omillar sabab bo'ldi. Ichki omillar sifatida XX asr o'rtalarida Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan, arab dunyosida muhim siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlarning ro'y berishi, jumladan, arab-isroil urushi, arab mamlakatlaridagi ichki nizolar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar, iqtisodiy tengsizlik, ayollar huquqlari, shaxs erkinligi uchun kurash va boshqa shu kabi holatlarning adabiyotga ta'sirini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, sharq xalqlariga xos bo'lgan boy adabiy meros, kuzatuvchanlik, voqelikning ichki mohiyatiga e'tibor bilan qarash, uning asl mazmunini qidirish va bu xususiyatlarning musiqa, she'riyat, borliqni anglash falsafasida kuzatilishini ham ichki omil sifatida ta'kidlash joiz. Tashqi omillardan jahon adabiyotining, undagi zamonaviy yo'nalish va oqimlarning ta'sirini ko'rsatib o'tish mumkin.

Tayanch so'z va iboralar: realizm, modernizm, simbolizm, yangilanish tamoyillari, rivoyat, iqtibos, talmeh, "safarnoma", syujet, kompozitsiya, "hikoya ichida hikoya qilish".

Аннотация: Вклад арабской и узбекской литературы в мировой литературный процесс и их взаимодействие, влияние различных направлений и течений мировой литературы, а также стремление сохранить свои национальные литературные традиции приобретают сегодня важное значение.

Во второй половине XX века (60-70-е годы) современная арабская проза обогатилась новыми художественными средствами, соответствующими творческим целям писателей. Процессы обновления в современной арабской литературе были вызваны определенными внутренними и внешними факторами. Внутренними факторами можно считать важные политические, социальные и экономические изменения, произошедшие в странах Ближнего Востока, особенно в арабском мире в середине XX века, включая арабо-израильскую войну, внутренние конфликты, противоречия и столкновения в арабских странах, экономическое неравенство, борьбу за права женщин, свободу личности и другие подобные явления, оказавшие влияние на литературу. В качестве внутреннего фактора следует отметить богатое литературное наследие восточных народов, пристальное обращение к внутренней сути действительности, поиск ее истинного смысла, а также проявление этих характеристик в музыке, поэзии и философии понимания бытия. В качестве внешних факторов можно указать влияние мировой литературы, современных направлений и течений.

Ключевые слова: реализм, модернизм, символизм, принципы обновления, сказание, цитата, аллюзия, путевые заметки, сюжет, композиция, обрамленная повесть.

Abstract: The contribution of Arabic and Uzbek literature to the global literary process and their interaction, the influence of various trends and movements in world literature, as well as the desire to preserve their national literary traditions, have gained significant importance today. In the second half of the 20th century (1960s-1970s), contemporary Arabic prose was enriched with new artistic means that aligned with the creative goals of writers. The processes of renewal in contemporary Arabic literature were triggered by certain internal and external factors. Internal factors recognize significant political, social, and economic changes that took place in the Middle



Eastern countries, particularly in the Arab world in the mid-20th century, including the Arab-Israeli war, internal conflicts, contradictions, and clashes in Arab countries, economic inequality, the struggle for women's rights, personal freedom, and other similar phenomena that influenced literature. An important internal factor is the rich literary heritage of Eastern peoples, a keen focus on the inner essence of reality, the search for its true meaning, as well as the manifestation of these characteristics in music, poetry, and philosophy of understanding existence. External factors comprise the influence of world literature, modern trends, and movements.

Keywords: realism, modernism, symbolism, principles of renewal, narrative, quote, allusion, travel notes, plot, composition, framed story.

KIRISH. Arab dunyosidagi yangilanish jarayonlari yangi avlod yozuvchilarning badiiy tafakkurida o'z ifodasini topdi. Umumjahon adabiy aloqalari ta'siri natijasida G'arb modernizmi zamonaviy arab nasriga badiiy tafakkur doirasida katta ta'sir ko'rsatdi. Uning mahsuli sifatida XX asr ikkinchi yarmida ijod qilgan N.Mahfuz, Yu.Idris, M.Hofiz Rag'ab, J.al-G'itoni, J.Salim, Z.Tamer, V. Ixlosiy, Diya ash-Sharqaviy va boshqa bir qator yozuvchilar modernizmning turli oqimlari (ekzistensializm, simvolizm, syurrealizm va h.) va neorealizm, postmodernizm kabi zamonaviy yo'nalishlarga ijodiy yondashgan holda arab xalqining dunyoqarashi, qadriyatlari, milliy xususiyatlari, qolaversa, diniy dunyoqarashiga mutanosib bo'lgan epik an'analarni saqlab qoldilar.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham bu yangilanish jarayoni XX asrning 80-yillarning oxiri 90-yillaridan boshlanib, buning o'ziga xos ichki va tashqi omillari mavjud. Tashqi omil bu jahon adabiy jarayonidagi modernizm, postmodernizm, neorealizm kabi turli zamonaviy yo'nalishlarning ta'siridir. Ichki omilni esa taniqli adabiyotshunos olim U.Normatov quyidagicha baholaydi: "80-yillar oxiri 90-yillarning boshlaridagi vaziyat bizda absurd adabiyotining, absurd inson obrazining tug'ilishiga zamin tayyorladi. Yetmish yillik va'da, orzu-umidlarning puchga chiqishi, jahonda eng adolatli, baxtli boqiy tuzum deb jar solingan tuzumning istiqbolsiz, eng ilg'or birdan-bir to'g'ri qarash sanalgan markscha-lenincha ta'limotning yaroqsiz bo'lib chiqishi ko'plarni sarosimaga solib qo'ydi. Bu hol hayotini, bor zakovatini shu ma'nisiz ta'limotga, yo'lga tikkan, adashgan, endilikda aqlini tanib mudroq vujudi uyg'ongan odamlar uchun mislsiz fojia bo'ldi. Biroq butun boshli ijtimoiy tuzumning, shu tuzum uchun hayotini tikkan shaxs faoliyatining bema'niligini izchil tarzda tag-tugi bilan ochib beruvchi asarlarning paydo bo'lishi uchun mana endi sharoit yetildi"¹. Demak, o'zbek adabiyotida ham shaklan, ham mazmunan yangi uslubdagi asarlarning shakllanishiga 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshlaridagi mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy vaziyat va istiqloldan keyingi ijoddagi erkinlik, ya'ni avval tanishish taqiqlangan modernizm oqimlari bilan bevosita tanishishga berilgan imkoniyat zamin bo'ldi.

Mustaqillikdan keyingi yillarda ba'zi o'zbek yozuvchilari modernizm ta'sirida modernistik san'atning turli texnik usullaridan unumli foydalangan holda o'zbek xalqining milliy xususiyatlari, mentalitetiga moslashtirgan holda badiiy asarlar yaratishmoqda. U.Normatov o'zining "Adabiy ta'limning yangi davri" nomli essesinde "Aminmanki, "Begona"ni anglamay turib hozirgi o'zbek adabiyotidagi yangicha yo'nalishga mansub Omon Muxtor, X.Do'stmuhammad. N.Eshonqul, U.Hamdani, S.Vafo hikoya va qissa va romanlarini, "Yoshlik" jurnalida e'lon etilayotgan o'nlab asarlarni, jumladan, Zulfiya Qurolboy qizining "Tafakkur", "Hilola" "Otlig" va "Alomat" hikoyalarini tushunish anglash qiyin"², shuningdek, "Nihoyat bizda ham hayot hodisalarini, inson shaxs jumboqlarini, realizm zaminida, ilohiy-ruhoniylar qarashlar jo'rligida badiiy tahlil-tadqiq etishga urinishlar bo'lyapti"³, kabi o'zbek zamonaviy nasri haqidagi fikrlarni bildirgan.

¹Норматов У. Умидбахш тамойиллар. Т. 2000. 6-7 б.

²Мустақиллик дари адабиёти. Адабий-танқидий мақолалар, бадиалар. Т., Ф.Ғулом, -2006, 81 –6.

³Норматов У. Умидбахш тамойиллар. Т. Маънавият, - 2000, 20- б.



MAQSAD VA VAZIFALAR. Zamonaviy arab va o'zbek yozuvchilar ijodida o'z zamonasining dolzarb masalalarini tasvirlash jarayonida Qur'oniy qissalarga va rivoyatlarga murojaat qilish kuzatilmoqda. Bunda yozuvchilar payg'ambarlar hayotiga oid qissa va rivoyatlarga ishora qilgan holda, asar syujetlarini yaratmoqdalar. Mazkur maqolada arab yozuvchisi Jo'rij Salim va o'zbek yozuvchisi Omon Muxtor asarlarida "iqtibos", "talmeh" badiiy san'atlari orqali Qur'oniy qissa va rivoyatlarning o'ziga xos badiiy talqini o'zaro qiyoslash maqsad qilingan.

USULLAR. Qiyosiy-tarixiy, tarixiy-tipologik, germenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MULOHAZA. Zamonaviy arab va o'zbek nasrida milliy adabiy an'analar har bir yozuvchida individul namoyon bo'lmoqda. Arab va o'zbek zamonaviy yozuvchilari zamonaviy nasrda modernistik texnik tasvir vositalardan foydalangan holda "rihla" (safarnoma), "tarixiy xronika" (solnoma), diniy-falsafiy ruhdagi nasriy janrlar va shuningdek, ularning kompozitsion xususiyatlari ("hikoya ichida hikoya", ya'ni badiiy qoliplash va b.), kabi miliy adabiy an'analarni saqlab qolishga intilmoqdalar.

Milliy ma'naviy merosga murojaat qilish adabiyotda payg'ambarlar, avliyolar haqidagi qissalardan foydalanish azal-azaldan davom etib kelayotgan an'analarda ham kuzatiladi. Bu an'ana har bir davr adabiyotida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. O'rta asrlarda musulmon adabiyotida, ayniqsa, she'riyatda (arab, o'zbek, fors, turk va boshqa musulmon mintaqalar adabiyoti) Qur'onda keltirilgan payg'ambarlar hayoti haqidagi rivoyatlardan didaktik tarzda iste'foda qilish uchun yondoshilgan. Mazkur an'ana zamonaviy arab va o'zbek adabiyotida davom etgan holda, o'ziga xos uslubda namoyon bo'lmoqda.

XX asrning 60-70 yillarida ijod qilgan taniqli suriyalik yozuvchi Jo'rij Salim¹ va taniqli o'zbek yozuvchisi Omon Muxtor ijodida arxetip obrazlar, ya'ni payg'ambarlar haqidagi qissalar syujetidan foydalangan holda zamonaviy voqelik bilan birlashtirib poklik, ezgulik, to'g'rilik, haqgo'ylik, iymon-e'tiqod kabi azaliy, ya'ni umuminsoniy masalalarni bayon etishi aks etadi.

Xususan, arab yozuvchisi Jo'rij Salim "Qonlar"² hikoyasida iqtibos³ badiiy san'atini qo'llagan holda, Qur'onda bayon etilgan Alloh Taoloni Ibrohim payg'ambar va uning o'g'lining iymonini sinash uchun bergan buyrug'ini asos qilib olgan⁴. Bu buyruqni so'zsiz ado etishga chog'langan Ibrohimga Alloh Taolo tomonidan sinovdan o'tgani haqidagi xabar bilan qurbonlik uchun o'g'li o'rniga jannatdan qo'chqor yuboriladi.⁵ Mazkur hikoyada aynan mana o'sha Qur'oniy qissaga ishora qilinadi, hikoya qahramonining ismini ham Ibrohim deb nomlaydi, hikoya qahramoniga Ibrohim payg'ambarining sifatleri berilgan. Ya'ni hikoya qahramoni Ibrohim nihoyatda pok, halol, chin e'tiqodli, komil inson sifatida gavlantiriladi. Hikoyada zalolatga botgan o'z shaharini poklashga urinayotgan inson, ya'ni Ibrohim atrofida voqealar bayon etiladi.

¹Jo'rij Salim (1933-1976) Suriyaning Halab shahrida tavallud topgan. Adib bolaligidan ilmga chanqoq, tirishqoq, iqtidorli bo'lib, adabiyotga yoshligidan qiziqishi kuchli bo'lgan. Yozuvchi ko'p yillar davomida Damashq universitetida o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullangan, Madaniyat Vazirligida ishlagan. Shuningdek, Jo'rij Salim dastlab Suriya yozuvchilar uyushmasi bo'lgan, keyinchalik Arab yozuvchilari uyushmasining tashkilotchisi va rahbarlaridan biri hisoblanadi. Jo'rij Salim adabiyot sahnasiga XX asr ikkinchi yarmida kirib kelgan. Uning qalamiga "Quv'g'inda" (1962) romani, "Bechora odamlar" (1968), "Ketish" (1970), "Karlar suhbatlari" (1973), "Qadimgi tashnalik hikoyasi" (1976), "Cheksiz kenglikdagi yolg'iz tovush" (1976) nomli hikoyalar to'plami mansub.

²جورج سالم. حكاية الظمأ القديم. قصص. - دمشق: منشورات اتحاد الكتاب العرب. 1976. - ص. 53-58.

³Иктибос – Қаранг: Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ: Аруз вазни ва бадийи воситалар ҳақида. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1981. – 242-243 б.

⁴Alloh Taolo Ibrohimning iymon-e'tiqodini sinash uchun o'g'lini qurbonlik qilishni buyuradi. Qur'onda keltirilishicha, Ibrohim Payg'ambar Xojardan bo'lgan o'g'li Ismoilni qurbon qilishga ahd qilgan.

⁵Qarang: Куръони Карим. Ва-Сафот сураси, 101 - 107 оятлар.



Mazkur hikoyaning asl g'oyasi, unda ko'zlangan maqsadni ochib beruvchi yetakchi epizod - bu sirli nido bo'lib, hikoyada bu holat sirli nido bilan Ibrohim o'rtasidagi suhbat orqali ochib boriladi:

- Ey, Ibrohim! Ey, Ibrohim! Joyingda to'xta!

Ibrohim joyida qimirlamay turib qoldi.

Ovoz qaytarildi: - Shahar aholisini ular yaratgan sharmsizlikdan xalos et!

- Qaniydi, buni qilolsam.

- Agar sen buni xohlar ekansan, men senga buni buyuraman!.

J.Salim mazkur dialogda sirli nido egasining mohiyatini ochishga harakat qilgan va o'quvchi bu suhbat, ya'ni sirli ovoznining buyruqlari orqali ovoz egasini Yaratganga muqoyasa qiladi.

"Qonlar" hikoya qahramoni Ibrohim samodan kelgan fidoiylik haqidagi ovozga quyidagicha javob beradi: *"Lekin mening o'g'lim yo'qki, men uni qurbonlik qilsam"*, *"u qorong'ulikda yon-atrofga alanglab, qurbon qilish uchun qo'chqorni izlaydi"*. Bu javobga Ibrohim yana boshqa javob oladi: *"Sen qo'chqorni qidirishga urinma, mo'jizalar zamoni o'tib ketgan, sizlar bugun insonlar mamlakatida yashamoqdasizlar. Sen o'zingni nafs va ifloslik to'lib toshgan shahring uchun fido qil"*. Ibrohim sirli ovoz bilan bo'lgan savol-javoblardan keyin, bu sharm-hayo yo'qolgan shaharni qanday qilib qutqarish mumkinligi to'g'risidagi o'y-fikrlarga berilib ketadi. Uni qo'rquv bosadi. Sirli ovozning Ibrohimga *"Sen o'z fidoiyliging bilan shahar iflosliklarini yuvishing kerak: qo'rquvni, irodasizlikni, razillikni, uyatni. Qoning shahar bo'ylab oqsin, shahar unga cho'milsin va abadiy poklansin"*, degan buyrug'ida ikki narsa: hikoya qahramonining savoliga javob hamda hikoyaning nima uchun "Qonlar" deb nomlangani asoslab berilgan.

J.Salim hikoya qahramonining ichki monologi orqali bu fidoiylikning ahamiyati, uning qoni shaharni poklashga qodir kuchga ega ekanligini bayon etish orqali, uni komil inson ekanligiga ishora qilgan.

O.Muxtorning "Muhabbat o'limdan kuchli" (Dengiz tubi sahro qa'rida) romani bosh qahramonining ismi ham Ibrohim. Roman qahramoni Ibrohim bilan bog'liq voqealarga Qur'oni karimdagi Ibrohim payg'ambar bilan bog'liq voqealar singdirib yuborilgan. Bu Ibrohim ham arab yozuvchisining Ibrohimidek halol, pok, mard, haqiqatparast inson. Romanda Ibrohim ismli zavod xodimining haqiqat uchun kurashishlari, bu yo'lda uning boshiga tushgan turli kulfatlar bayon etilgan. Roman sarlavhasi ramziy ma'no kasb etib, unda so'fiyona g'oyalar mujassamlashgan. Asar bosh qahramonining haqiqat uchun kurashishlari, ya'ni shaxsga nisbatan e'tiqodga qarshi chiqishi va bu yo'lda unga bo'lgan turli ofatlar, kulfatlar haqiqatga bo'lgan intilishini sindira olmagan bayon etilgan. Roman magik realizm uslubida yozilgan bo'lib, asar syujeti ikki rejada real va noreal voqealar tizimidan iborat. Roman bosh qahramoni atrofida kechadigan voqealar real va fantastik, mistik, mo'jizaviy voqealar aralashmasida ro'y beradi. Romanda Ibrohimning o'z xodimlarining o'ziga nisbatan quldek tutishlarini talab qiluvchi qabix, zolim, manmansiragan zavod boshlig'i G'ayrat Sur'at bilan bo'lgan kurashi voqealari aks ettirilgan. Yozuvchi mana shu ikki xil insonlar Ibrohim va G'ayrat Sur'at o'rtasidagi kurash zaminida ezgulik, poklik, iymon-e'tiqod bilan yovuzlik, zulm, kibr, adolatsizlik, nohaqlik o'rtasidagi kurashni bayon etgan. Roman qahramoni Ibrohim G'ayrat Sur'atga quldek itoat qilishni xohlamaydi, unga e'tiroz bildiradi. Yozuvchi G'ayrat Sur'at obrazi orqali shaxsiyatparastlikni, nohaqlikni, zulmni, adolatsizlikni aks ettirgan.

O.Muxtor ham roman qahramonining "chegaradosh vaziyat"dagi holatida, ya'ni o'lim bilan yuzlashish jarayonida ongida kechgan o'y-fikrlari orqali Ibrohim payg'ambarining o'z qavmini haq yo'lga chorlashi va o'z qavmini sig'inayotgan but va sanamlarni parcha-parcha qilgani, uning bu ishidan qavm boshlig'i uni olovda yoqishni buyurganda Ibrohim payg'ambarini olovda Yaratganning buyrug'i bilan salqin holatga keltirib yonmasliklari haqidagi Qur'on oyat¹larini keltirib o'tadi². Yozuvchi mazkur

¹Куръон. Анбиё сураси 68-73 оятлар, Соффат сураси 97-99 оятлар, Анкабут сураси 24 оятлар.

²Мухтор О. Муҳаббат ўлимдан кучли. Роман. Т. 2012. 31 -32 б.



oyatlarni keltirishdan maqsad roman qahramonining o'zining iymon-e'tiqodida sobit qolib hayot-mamot jangida tirik qolishidir.

O.Muxtor ham asar qahramonining zavod boshlig'i G'ayrat Sur'atning o'limida ayblashib, tuhmatga qolib qochish jarayonida o'zini ariqqa suvga tashlashi va unga o'q tegib o'lmay qolishi, hushiga kelganida dengizda va boshqa bir mamlakatda bo'lib qolishi va uning dengizda, kutilmaganda sahrodagi g'aroyib sayohatlari orqali Ibrohimning haqiqat izlashdagi kurashishlari aks ettirilgan.

J.Salim ham, O.Muxtor ham o'z asarlarida Ibrohim obrazini aks ettirishda muqaddas kitoblardagi Ibrohim payg'ambar haqidagi qissa syujetlaridan istifoda etganlar. J.Salimning "Qonlar" hikoyasi va O.Muxtorning "Muhabbat o'limdan kuchli" (Dengiz tubi sahro qa'rida) romanlari murakkab poetik uslubga ega, ramziy ma'no kasb etgan asarlardir. J.Salimning "Qon" hikoyasi va O.Muxtorning "Muhabbat o'limdan kuchli" romanidagi bosh qahramonlarning ismi Ibrohim. Mazkur yozuvchilar asar qahramonlarining ismini Ibrohim qo'yishi bilan chegaralanmay ularning asardagi hayotini, ya'ni voqealar tizimini Ibrohim payg'ambar hayoti va faoliyati asosida bayon etib bugungi kun jamiyatidagi poklik, haqgo'ylik, to'g'rilik, iymon-e'tiqod mustahkamligi, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash masalasini ko'targan. J.Salim ham, O.Muxtor ham asar bosh qahramoni Ibrohimni Ibrohim payg'ambaridek kuchli e'tiqodga, chidam va bardoshga ega, haqiqatgo'y, pokdomon sifatlarga ega inson sifatida namoyon etgan. Ikki adib asarlaridagi Ibrohim obrazlari hayot sinovlari girdobida sobit iymon-e'tiqodlari, ezgu g'oyalar sari intilishlari orqali, haqiqat uchun kurashishlarida Ibrohim payg'ambardek g'oliblikka erishadilar.

J.Salimning "Qonlar" hikoyasida ham O.Muxtorning "Muhabbat o'limdan kuchli" romanida ham magik realizm unsurlari aks etgan. Ikkala asar syujetida reallik va to'qimaning, kundalik va ertakonalik, oddiylik va mo'jizaviylik aks etadiki, syujet ikki reja asosida, ya'ni real va noreal tarzda bayon etiladi. Bu o'ziga xos uslub orqali J.Salim va O.Muxtorning mantiqiy fikrlashini, realistik asos va ramziy hamda majoziy tasvirdagi yangi imkoniyatlarning o'zaro munosabatini aks ettiradi.

J.Salim ham O.Muxtor ham asarlarida Ibrohim payg'ambarning hayotini asar qahramonining murakkab vaziyatdagi, hayot-mamot kurashida "ong oqimi" orqali bayon etgan. Har ikkala asar qahramoni ezgulik, poklik ramzi. Har ikkala yozuvchi o'z asarlarida insonning murakkab psixologik jarayonlarini, uning borlig'ini, mavjudlik mohiyatini diniy ekzistensializm falsafiy dunyoqarash bilan boyitadi. Nemis faylasufi, diniy ekzistensializm asoschisi Karl Yaspers fikricha, "insonning har kungi hayotida uning ichki mohiyati ochilmaydi. U faqat chegaradosh vaziyatlarda, ya'ni insonning hayoti va o'limi hal qilinayotgan jarayonlardagina yuzaga chiqadi. Insonning borliq sirlari kundalik hayotda mavhum, yashirin bo'lib, g'ayritabiyy vaziyatda bu mavhumlikning asl qiyofasi gavdalanadi. Kundalik hayotda inson ilohiy kuchni his qilishga qodir emas, chunki uning ongi hayotiy tashvishlar bilan band bo'ladi. G'ayritabiyy hollarda, o'lim va hayot o'rtasidagi chegaradosh vaziyatlarda inson ilohiy kuchdan najot istab, unga intiladi. Demak, qo'rquv orqali inson ongi ilohiy kuchga yaqinlashadi"¹. J.Salim "Qonlar" hikoyasi va O.Muxtor "Muhabbat o'limdan kuchli" romani qahramonlari, ya'ni Ibrohimlar hayot va o'lim o'rtasidagi vaziyatda ilohiy kuchga yaqinlashishi va o'z pokliklari, sadoqatlari, ezguliklari sabab hayot ziddiyatlarida g'olib bo'ladilar va haqiqatga erishadilar.

XULOSA. Arab yozuvchisi J.Salim va o'zbek yozuvchisi O.Muxtor Ibrohim obrazi orqali faqat Yetuk va komil insonlar tufayligina hayot davom etib kelayotganini bayon etgandek. Har ikki yozuvchi ham payg'ambarlar hayotidagi voqealarni takrorlanmas, o'ziga xos syujetlar orqali o'zi yashayotgan davrdagi insonlar orasida uchrovchi nopoklik va egrilik kabi illatlarga urg'u bergan. Mazkur asarlarda ko'tarilgan mavzu va g'oya nafaqat o'z zamonasiga, balki bugungi kun insoniyatiga, butun bashariyatga ham tegishli mavzu va g'oyadir, desak xato bo'lmaydi.

¹Гарб фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти «Шарқ», 2004. – 633-634 б.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 53-58. ص. – 1976. دمشق: منشورات إتحاد الكتاب العرب. (Jo'raj Salim. "Qadimgi tashnalik tarixi". Hikoyalar. – Damashq: Arab yozuvchilari uyushmasi nashriyoti. 1976. 53-58 betlar)
2. Мухтор О. Мухаббат ўлимдан кучли (Денгиз туби сахро қаърида). Роман. Т., F.Ғулом, 2012.
3. Мустақиллик даври адабиёти. Адабий-танқидий мақолалар, бадиалар. Т., F.Ғулом, 2006.
4. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. Т., Маънавият, 2000.
5. Ғарб фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти «Шарқ», 2004.
6. Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ: Аруз вазни ва бадий воситалар ҳақида. – Т.: F.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1981.
7. Куръони Карим.



ERONDA HIKOYA JANRI TARAQQIYOTIDA MUHAMMAD ALI JAMOLZODANING O'RNI

OYDIN TURDIYEVA

Dotsent, f.f.d., TDSHU

ORCID: 0000-0002-5202-1888



Annotatsiya. Maqola Eronda hikoya janri taraqqiyotida Muhammad Ali Jamolzodaning o'rni haqida. Shuningdek, maqolada ushbu janr kirib kelguniga qadar bo'lgan adabiy jarayonlar hamda ziddiyatlar ochib beriladi. Ma'lumki, XIX asr o'rtalariga qadar badiiy nasr pandnoma hikoyatlar, tarixiy-qahramonlik, fantastik asarlar, ertaklar shaklida ifodalab berilgan. Bu janrlarning ayrimlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan va zamonaviy fors badiiy nasrining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bir tomondan ming yillar mobaynida yaratilgan nasriy janrlar Eronda yangi hikoyanavislikning vujudga kelishida muhim omil hisoblanadi. O'rta asrlar adabiyoti syujetlari, obrazlari, iboralari, umuman badiiyati yangi davr hikoyanavisligi uchun tuganmas xazina sifatida xizmat qildi va xizmat qilib kelmoqda. Ikkinchi tomondan Eron adabiyotiga yangi tipdagi hikoya janrining kirib kelishi Yevropa adabiyotidan bo'lgan ta'sir bilan ham belgilanadi.

Mashrutiyyat (مشروطیت), ya'ni konstitutsion tuzum davrining oxirlari –1915-yildan so'ng an'ana va yangilanish to'g'risidagi bahs yanada keng quloq yoyib ketdi. Eronda adabiy o'zgarishlarga qarshi chiqib, qadim mumtoz uslubdan boshqa uslubda qalam tebratishni istamaganlar, yangicha uslubda yozishni tan olmagan adabiyot ahli juda ko'pchilikni tashkil etardi.

Bu davrda yangi tipdagi hikoyaning eng asosiy adabiy nazariyotchisi va targ'ibotchisidan yana biri Muhammad Ali Jamolzoda edi. Muhammad Ali Jamolzodaning 1922-yilda Berlinda "يکى بود و یکى نبود", ya'ni "Bor ekanda yo'q ekan" ilk hikoyalar to'plami chiqdi. Bu voqea yozuvchining yurti Eronda katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Shu to'plami bilan u Eron adabiyotiga yangi janr – hikoyani olib kirdi. Uning nomi zamonaviy Eron adabiyotining asoschilaridan biri bo'lib tarixda qoldi. To'plamdan joy olgan hikoyalar satirik va yumoristik ruhda bo'lib, Jamolzoda xalq hayoti, urf-odatlar, rasm- rusumlarini ko'rsata oldi, o'tkir siyosiy mavzularni qalamga ola bildi.

Kalit so'zlar: Eron, hikoya, mashrutiyyat, Muhammad Ali Jamolzoda, adabiy tanqid, adabiy jarayonlar.

Аннотация. Статья посвящена роли Мухаммеда Али Джамаalzода в развитии жанра рассказа в Иране. В статье также раскрываются литературные процессы. Известно, что до середины XIX века художественная проза выражалась в виде рассказов, историко-героических, фантастических произведений, сказок. Некоторые из этих жанров сохранились до наших дней и оказали большое влияние на формирование современной персидской художественной прозы. С одной стороны, прозаические жанры, создававшиеся на протяжении тысячелетий, являются важным фактором появления нового стиля

повествования в Иране. Сюжеты, образы, фразы, в целом художественность средневековой литературы служили и продолжают служить неисчерпаемым сокровищем для повествования новой эпохи. С другой стороны, появление в иранской литературе нового типа повествовательного жанра обусловлено также влиянием европейской литературы.

После конституционного периода (مشرویت), то есть в 1915 году, дебаты о традициях и обновлении получили более широкое распространение. Было много литераторов, которые выступали против литературных изменений и не хотели писать в стиле, отличном от старого классического стиля, и не признавали новый стиль письма в Иране.

В этот период одним из главных теоретиков литературы и сторонников нового типа повествования был Мухаммед Али Джамалзаде. Первый сборник рассказов Мухаммеда Али Джамалзаде “یکی و یکی نبود” (“Йеки буд ва йеки набуд”) был опубликован в Берлине в 1922 году. Это событие вызвало большой резонанс в стране писателя, Иране. Этим сборником он ввел в иранскую литературу новый жанр - рассказ. Его имя вошло в историю как одного из основоположников современной иранской литературы. Рассказы, вошедшие в сборник, сатиричны и юмористичны по духу, и Джамалзаде сумел показать жизнь людей, обычаи, обряды, а также написать на острые политические темы.

Ключевые слова: Иран, рассказ, конституционный период, Мухаммед Али Джамалзаде, литературная критика, литературные процессы.

Annotation. The article is about the role of Muhammad Ali Jamalzadeh in the development of the narrative genre in Iran. The article also reveals the literary processes and conflicts before the introduction of this genre. It is known that until the middle of the 19th century, artistic prose was expressed in the form of penname (books on ethics) stories, historical-heroic, fantastic works, fairy tales. Some of these genres have survived to this day and had a great influence on the formation of modern Persian artistic prose. On the one hand, prose genres created over thousands of years are an important factor in the emergence of new storytelling in Iran. Plots, images, phrases, in general, artistry of medieval literature served and continue to serve as an inexhaustible treasure for the storytelling of the new era. On the other hand, the introduction of a new type of narrative genre into Iranian literature is determined also by the influence of European literature.

After Mashrūtiyyat (مشرویت), that is, the end of the period of the constitutional system in 1915, the debate on tradition and renewal became more widespread. There were many literary people who opposed the literary changes and did not want to write in a style other than the old classical style, and did not recognize the new style of writing in Iran.

During this period, one of the main literary theoreticians and advocates of the new type of story was Muhammad Ali Jamalzadeh. Muhammad Ali Jamalzadeh's first collection of stories, “یکی نبود و یکی بود” (Yeki bud wa yeki nabud), i.e. “Once upon a time” was published in Berlin in 1922. This event caused a great uproar in the writer's country, Iran. With this collection, he introduced a new genre into Iranian literature - the story. His name went down in history as one of the founders of modern Iranian literature. The stories included in the collection are satirical and humorous in spirit, and Jamalzadeh was able to show people's life, customs, rituals, and write sharp political topics.

Keywords: Iran, short story, mashrutiyyat, Muhammad Ali Jamalzade, literary criticism, literary processes.

KIRISH. XIX asr o'rtalariga qadar badiiy nasr pandnoma hikoyatlar, tarixiy-qahramonlik, fantastik asarlar, ertaklar shaklida ifodalab berilgan. Bu janrlarning ayrimlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan va zamonaviy fors badiiy nasrining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Ming yillar mobaynida yaratilgan nasriy janrlar Eronda yangi hikoyanavislikning vujudga kelishida muhim omil hisoblanadi. O'rta asrlar adabiyoti syujetlari, obrazlari, iboralari, umuman badiiyati yangi davr hikoyanavisligi uchun tuganmas xazina sifatida xizmat qildi va xizmat qilib kelmoqda.

Eron adabiyotiga yangi tipdagi hikoya janrining kirib kelishi Yevropa adabiyotidan bo'lgan ta'sir bilan ham belgilanadi. Buni Eron olimlari doktor Hamid Abdullohiyon¹, G'ulomrizo Murodiy

¹ دكتور حميد عبد اللاهيان. کارنامه نثر معاصر تهران. 2000



Savma'saroyi ¹, Muhammad Huquqiy ², Jamol Mirsodiqiy ³, Muhammad Qosimzoda ⁴ kabi adabiyotshunoslar o'zlarining nazariy asarlarida ta'kidlab o'tganlar.

Adabiyotlar tahlili. Doktor Hamid Abdullohiyon “کارنامه نثر معاصر” (“Zamonaviy nasr solnomasi”) asarining bir bo'limini “Eron adabiyotiga roman va hikoyaning kirib kelishi” deb nomlaydi va unda yuqoridagi janrlarning kirib kelishini quyidagicha ko'rsatadi: “Eronga roman va hikoya janrining kirib kelishi uchun adabiy o'zgarishlarga ehtiyoj bor edi. Mashrutiyat (konstitutsion tuzum)gacha esa bunday adabiy o'zgarishlar sodir bo'lmadi. Mashrutiyatning o'zi ham Qojorlar davridan boshlab vujudga kelgan ma'rifatparvar Eronliklarning intilishlari mahsuli edi.”⁵ Albatta mashrutiyatdan oldin ham adabiy shakllarni o'zgartirishga harakatlar bo'lgan. Bunga misol qilib XIX asr oxirlarida Mirzo Fathali Oxundzodaning Mirzo Og'oxon Tabriziyga yozgan nomasini ko'rsatish mumkin: “Bugun “Guliston” va “Ziynat-e majoles”larning davri o'tdi. Bugun millatning manfaatlarini o'zida mujassamlagan va kitobxonlarning tabiatiga marg'ub bo'lgan drama va romanning davri keldi.”⁶ Fikrimizcha, Oxundzodaning bu fikrlarini, hech shubhasiz, hikoya janriga ham tadbiiq etish mumkin.

Ammo Eronda mana shunday o'zgarishlarga qarshi chiqib, qadim mumtoz uslubdan boshqa uslubda qalam tebratishni istamaganlar, yangicha uslubda yozishni tan olmagan adabiyot ahli ham juda ko'pchilikni tashkil etardi.

Mashrutiyat (مشروطیت), ya'ni konstitutsion tuzum davrining oxirlari –1915-yildan so'ng an'ana va yangilanish to'g'risidagi bahs yanada keng quloch yoyib ketdi. Bu bahsning markazi shoir va nazariyotchilar Malik ush-shuaro Bahor va Taqiy Ruf'atning “Doneshgoh” hamda “Jadid” nomli jurnallarida bosilayotgan maqolalari edi. Ularning mana shunday qotib qolgan adabiy vaziyatni o'zgartirishga, yangilashga bo'lgan sa'y-harakatlari, albatta, qarshiliklar, shubha-gumonlar, ikkilanishlar bilan kutib olindi. “Tabriz ittifoqi uyushmasining a'zolari Taqiy Ruf'at, Lohutiy, Shams Kesmoiy, Ja'far Xomaneiyalar Erondagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatdan rozi bo'lmaganliklari kabi, adabiy vaziyatni ham qabul qila olmagan edilar.”⁷

M.Bahorning fikricha, qadimgi va mumtoz adabiy merosga suyanib, yangilanishni asta-sekinlik bilan tadrijiy amalga oshirish kerak edi. Ruf'at esa adabiy inqilob tarafdori edi. Bahor: “Yangilikka asta-sekinlik va yumshoqlik bilan yondoshish kerak, biz hali jadidlik boltasi bilan o'tgan adiblarimiz va shoir bobolarimizning tarixiy imoratini buzishga jur'at qila olmaymiz. Biz hozircha imoratning ba'zi joylarini ta'mirlab, yonida yangi devor va ustunlari bor baland binolar qurish bilan mashg'ulmiz”, – desa, Taqiy Ruf'at: “Yangilik inqilobdek gap, inqilobni ommaning ko'ziga doriga o'xshab “tomchilab” tomizish mumkin emas...shoir va adib “bajaruvchi” emas, “boshqaruvchi” ekanini tushuninglar...oqimga qarshi suzinglar...erta uchun yozinglar...Bugun ko'rib turganingizdek, Sa'diy ham bizga javob bera olmaydi. Sa'diyning tobuti sizning beshigingizni bo'g'adi! XIII asr XX asr ustidan hukmrondir. Lekin o'sha qadimiy asr sizga aytadi: “Kim kelgan bo'lsa yangi imorat qurgandur...” Sa'diy o'z davrida ko'rsata olgandek o'z davringizda hech bo'lmasa istiqloq va yangilikni ko'rsating. O'tgan 700 yilning doirasida qolib ketmanglar...”, – deb javob beradi.⁸

¹ Фуломризо Муродий Савмаъсройи “Эрон ҳикоянавислиги тарихига бир назар”//Сино 2011 й 41-42-сонлар.

² حقوقی محمد، مروزی بر تاریخ ادب و ادبیات امروز ایران، ۱، نثر. تهران 1377

³ جمال میر صادقی. ادبیات داستانی. قصه. رمانس. داستان کوتاه. رمان. تهران. 1376

⁴ محمد قاسم زاده. داستان نویسان معاصر ایران. تهران 2004

⁵ دکتر حمید عبد اللاهیان. کارنامه نثر معاصر. تهران. 2000 ص 22

⁶ آخوندزاده میرزا فتحعلی. تمثیلات. نشر اندیشه. تهران 1970 ص 8

⁷ صد سال داتان نویسی ایران. جلد اول و دوم با تجدید نظر کلی. حسن میر عابدینی. تهران 1383 ص 75

⁸ Доктор Мухаммадризо Рўзбеҳ. Ҳозирги замон Эрон шеъряті: “янги шеър”нинг тарихий таҳлилі. Сино//2009 йил. Ёз-Куз-Қиш 34-35-36. 47-с.

Ruf'at ko'plab adiblar, hamfikrlarining yordami bilan adabiyot maydoniga kurashga chiqdi va jamiyat ehtiyojlariga asoslanib adabiyotni yangicha qabul qilish shaklini, konstitutsion inqilobidek (1905-1911-yillarda bo'lib o'tgan) adabiy inqilob qilish kerakligini muhokamaga qo'ydi. Ruf'at "Doneshkade", ya'ni "Fakultet" jurnalining a'zolari, an'ana tarafdorlari bo'lgan adiblar bilan adabiy yangilanish haqidagi suhbatda shunday deydi: "Biz, Sa'diy yashagan asrda mavjud bo'lmagan narsalarga ehtiyojimiz bor. Biz, Sa'diy hatto tasavvur qilishga ojiz bo'lgan milliy va siyosiy qarama-qarshi jarayonlar ta'siri ostida qolganmiz... Aziz birodarlar, biz adabiy inqilobning eng og'ir damlarini boshdan o'tkaz-yapmiz...Biz xohlayotgan narsa adabiyot olamida, ya'nikim, fikr va san'at olamida yangilanish asrini vujudga keltirish bilan barobar. Ko'hna va eski, ammo hukmron adabiy holatni ag'darib, uning o'rniga hukmronligi shu paytgacha mavjud bo'lmagan yangi bir holatni o'rnataylikki, bizning va hamfikrlarimizning g'alabamizga aylansin."¹

T.Ruf'at fransuz va turk adabiyotidan ta'sirlangan holda, yangi avlod ehtiyojlariga javob bera oladigan yangicha adabiyotning talabgori edi. Yangi fikrlar yaratuvchi va his-tuyg'ularni yangicha tarannum etuvchi eng yangi adabiy shakllar haqida o'ylay boshlaydi. Zero "Jahon doimiy yangilanish, o'zgarishdadir va dunyoviy o'zgarishlar bilan hamqadam bo'lish kerak", degan edi u "Doneshkade" jurnaliga bergan intervyusida. Ruf'at o'z e'tiborini o'sha davrda tez yangilanayotgan adabiy shakl, til, uslubga qaratdi. Taqiy Ruf'at Eron adabiy tanqidining yetakchi vakillaridan biri edi.

Bu davrda yangi tipdagi hikoyaning eng asosiy adabiy nazariyotchisi va targ'ibotchisidan yana biri Muhammad Ali Jamolzoda edi. Jamolzoda ham Ruf'at kabi fors adabiyoti islohini yangi adabiy turlar, yangi janrlarni qo'llashga bog'liq deb bildi: "Bugungi Eron adabiyotini rivojlantirishning eng to'g'ri yo'li shu mamlakat olim-u fuzalolari...adabiyotning barcha turlarida nasrdan tortib nazmgacha va xususan nasrda, ko'plab mamlakatlar adabiyotining bugungi kun oynasiga aylanib ulgurgan hikoya ustida ishlashlari va oddiy xalq iboralari va so'zlarini adabiy tilga kiritishlari kerak. Toki bizning adabiyotimiz ham sekin-asta o'z shukhi va dovrug'iga ega bo'lib, qadimiy adabiyotimiz kabi har bir Eronlikning g'ururu iftixoriga aylansin."²

Muhammad Ali Jamolzoda nasrnavislikda yangilanishni targ'ib qilar ekan, eng avvalo Erondagi adabiy qoloqlikka e'tiborini qaratib shunday deydi: "Taraqqiyot silsilasini qo'lga kiritgan barcha rivojlangan mamlakatlarda sodda va oddiy hammabop uslub boshqa uslublarni yengib chiqqan... Yozuvchilar hamisha bozor va ko'chalardagi odamlarning oddiy va keng tarqalgan tilini go'zal ibora va ifodalar bilan adabiy libosga burkab, san'atkorona nafosat bilan qog'ozga tushirayotgan bir paytda, baxtga qarshi, bizning Eronimizda avvalgi ajdodlarimizning uslubidan sal chetga chiqishni adabiyotning tanazzuliga sabab deb bilishadi. Umuman butun dunyoga mashhur Eron siyosiy istibdodining mohiyati adabiyot sohasida ham ko'zga tashlanadi, ya'ni yozuvchi shaxsi qo'lga qalam olar ekan bilimdon, o'qimishli odamlar guruhinigina nazarda tutadi, boshqalarga umuman ahamiyat bermaydi..."³

NATIJALAR. Albatta bu fidokor adiblarning urinishlari zoye ketmadi. Sekin-astalik bilan bo'lsa-da, tilda ham, shaklda ham, uslubda ham olg'a siljishlar ko'zga tashlana boshladi.

XIX asrning birinchi choragida hukmronlik qilgan Eron shohi Fathali Shohning (1794-1834) vorisi – ovro'palashtirish tarafdori Abbos Mirzo davridan boshlab nashrchilik, gazetalar chiqarila boshladi. Xohlovchilar Yevropa davlatlarida ta'lim olishga yuborildilar.

Eronda va mamlakat tashqarisida forscha gazeta va jurnallarnig paydo bo'lishi bilan nasriy janrga qiziqish sezilarli darajada o'sdi. Garchi Eron jamoatchiligi tomonidan vaqtli matbuot sahifalarini bezab

¹حسن میر عابدینی. صد سال داتان نویسی ایران. جلد اول و دوم با تجدید نظر کلی. تهران 2004 ص76

² صد سال داتان نویسی ایران. جلد اول و دوم با تجدید نظر کلی. حسن میر عابدینی. تهران 2004/ ص78

³ صد سال داتان نویسی ایران. جلد اول و دوم با تجدید نظر کلی. حسن میر عابدینی. تهران ص77



turgan she'rlar avvalgidek sevilib qabul qilinayotgan bo'lsa-da, gazetalar betlarining asosiy qismini nasr egallay boshladi. "Gazetalarning har bir sonida she'riy shaklda ifodalashning umuman ilojisi bo'lmagan mamlakatdagi ichki vaziyat, xorijiy siyosiy, iqtisodiy va madaniyat yangiliklari haqida ma'lumotlar chop etilishi kerak edi. Gazeta va jumallarda oddiy hikoyalar, kichik ocherklar va hatto feletonlar paydo bo'la boshladi."¹

Konstitutsion davrdan keyingi yillardan to 1921-yilning oxirlarigacha adabiy matbuotning gullab-yashnagan yillari bo'lib, asosiy e'tibor bahs-munozaralar va adabiy anjumanlar tashkil qilishga qaratildi. "Bahor" (1910), "Kove" (1916), "Doneshkade" (1916), "Armo'g'on" (1918) kabi jurnallar bu davrda nashr etib kelingan jurnallar jumlasidandir. Bu jurnallarda mumtoz adabiyot namunalari tahlili va Yevropa asarlarining tarjimalari nashr etilardi. Bu jurnallarning muntazam nashr etilishi adabiy jarayonlar rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Adabiy didni shakllantirishda, jahon adabiyoti bilan tanishtirishda bu jurnallarning roli katta bo'ldi.

Hikoyaning kirib kelishiga bo'lgan oxirgi "qadam" tarixiy romanlarning yozilishi bo'ldi. Muhammad Tohir Mirzo Aleksandr Dyumaning asarlarini tarjima qilishi bilan tarixiy romanlar yozilishiga yo'l ochib berdi. A.Tolibov, Mirzo Malkumxon, Mirzo Og'oxon Kermoniy kabi Eronning qadimiy tarixi bilan yaqindan tanish bo'lgan ma'rifatparvar yozuvchilar Qojorlar hukmronligining so'nggi yillarida, Eron har jihatdan eng og'ir sharoitni boshidan kechirayotgan bir paytda o'z asarlarida Ahamoniylar, Sosoniylar davri haqida yozdilar. Bunday asarlar xalq tomonidan juda iliq kutib olinar, asosan jurnal va gazetalarda nashr qilinib, o'z mualliflariga shuhrat keltirardi. Ular sodda tili, his-tuyg'uli, romantik sarguzashtlarga boy syujeti bilan endigina gazeta bilan oshno bo'lgan o'quvchi uchun o'ziga xos joziba kasb etardi.

Hikoya janrining Eronga kirib kelishida yuqorida nomlari zikr etilgan to'rt turdagi asarlar tagzamin bo'lib xizmat qildilar.

Ilk hikoyalar tarixiy romanlardan keyinroq, birinchi ijtimoiy romanlardan sal oldinroq nashr etila boshladi. Umuman olganda, 1920-yillarning boshi Eron zamonaviy adabiyotining turli ko'rinishlarining namoyon bo'lishini aniqlab bergan yillar bo'ldi. Hasan Mirobidiniy aytganidek: "Ba'zi davrlar tarixiy hodisalar va tarixiy dialektika isbotiga bog'liq bo'ladi. Bunday davrlarni tarix javharining birlashuv nuqtalaridan deb bilmoq kerak."² Darhaqiqat, 1920-yillarning boshi mana shunday birlashuv nuqtalaridan hisoblanadi. Aynan shu davrda ilk ijtimoiy roman (Mushfiq Kozimiyning "تهران مخوف" – "Qo'rqinchli Tehron"), yangi drama (Hasan Muqaddam asari "جعفرخان از فرنگ آمده" – "Ja'farxon Fransiyadan qaytdi"), yangi she'r (Nimo Yushijning "افسانه" – "Afsona") va ilk hikoyalar to'plami (Muhammad Ali Jamolzodaning "یکی بود و یکی نبود" – "Bor ekanda yo'q ekan") birin-ketin adabiyot maydonida paydo bo'la boshladi. Bular bir tomondan konstitutsion davrining ijtimoiy-madaniy harakatlari ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan keyingi adabiy izlanishlar uchun yo'l boshlovchi vazifasini ham o'tadi. Ammo so'zlashuv tilidagi an'anaviy qotib qolgan iboralar va zarbulmasallar, maqol-matallarga bo'lgan katta e'tibor ilk hikoyalarda ulardan haddan ziyod iste'foda qilishga olib keldi. "Bor ekanda yo'q ekan" to'plamida Jamolzoda ma'lum ma'noda hikoya qolipida maqol va hikmatlarni jamlash, ularni saqlash uchun bir vosita sifatida foydalanganligini tan oladi.

Muhammad Ali Jamolzodaning 1922-yilda Berlinda "یکی بود و یکی نبود", ya'ni "Bor ekanda yo'q ekan" ilk hikoyalar to'plami chiqdi. Bu voqea yozuvchining yurti Eronda katta shov-shuvga sabab

¹ Комиссаров Д.С. Пути развития новой и новейшей персидской литературы.–М.1982. стр. 84.

² صد سال داتان نویسی ایران. جلد اول و دوم با تجدید نظر کلی. حسن میر عابدینی. تهران 2004



bo'ldi.¹ Shu to'plami bilan u Eron adabiyotiga yangi janr – hikoyani olib kirdi. Uning nomi zamonaviy Eron adabiyotining asoschilaridan biri bo'lib tarixda qoldi. To'plamdan joy olgan hikoyalar satirik va yumoristik ruhda bo'lib, Jamolzoda xalq hayoti, urf-odatlarini, rasm- rusumlarini ko'rsata oldi, o'tkir siyosiy mavzularni qalamga ola bildi.²

Muhammad Huquqiy o'zining “Eron adabiyoti tarixi va zamonaviy adabiyotiga nazar” asarida Eronda hikoyaning asoschisi Sayid Muhammad Ali Jamolzoda ekanligini ta'kidlab shunday deydi: “Eronda hikoyaning asoschisi Jamolzoda bo'lib, olti hikoyani o'z ichiga olgan “Bor ekanda yo'q ekan” (1914-1921 yillar oralig'ida yozilgan) to'plamini yozgan va xalq orasida katta shov-shuvga sabab bo'lgan.³ Adabiyotshunos G'ulomrizo Murodiy Savma'saroyi ham Jamolzodani hikoya janrining kirib kelishida yo'l boshchi sanab, bu haqda shunday degan: “Bor ekanda yo'q ekan...” jumlasini bilan fors adabiyoti tarixida eng muhim adabiy voqea ro'y berdi.⁴

Muhammad Qosimzoda o'z asari “Eron zamonaviy yozuvchilari” asarining muqaddimasida hikoya janri Eronga g'arbdan kirib kelganini ta'kidlab, shunday deydi: “Hikoya shunday turki bizga g'arbdan kirib kelgan. Yuz yillik yoki sal kamroq tarixga ega... Eronliklar hikoya janri bilan tanishganlarida uning qadimiy hikoyatlar bilan o'xshashligi bois juda yaxshi kutib oldilar”⁵.

Oddiy xalq orasida qadimiy hikoyatlar juda mashhur bo'lgan. Ayniqsa Avfiy, Sa'diy, Ubayd Zokoni, Jomiyning hikoyatlarini alohida ko'rsatib o'tish joizdir. Bizga ma'lumki, “hikoyat sharq va janubiy sharqiy Osiyo xalqlarining adabiy termini. Har qanday she'riy va nasriy asarni, ko'pincha voqeband asarni anglatadi. Tor ma'noda esa muallifi yo'q yozma nasriy epos.”⁶

Balki hikoyalarda qadimiy hikoyatlar an'analari bilan o'xshash bo'lganligi uchun ham sal oldinroq tarixiy roman bilan oshno bo'lgan Eronliklar Jamolzodaning hikoyalarini Abdurahim Tolibov va Zaynalobidin Marog'ayning romanlaridanda ko'ra ancha iliq kutib oldilar. Jamolzodaning hikoyalari qahramonlari odatda oddiy, besavod, to'pori xalq vakillaridir. Hikoyalarining tili ham ba'zan so'zlashuv uslubida, ba'zida esa mashhur iboralar va maqollar bilan yo'g'rilgan. M. Huquqiy Jamolzodaning uslubiga alohida e'tibor berib yozadi: “Ba'zi yozuvchilar uning hikoyalari tilini haddan tashqari xalq tilida, so'zlashuv uslubida yozilganlikda, didsizlikda aybladilar. Boshqa bir guruh yozuvchilar esa vaziyatni, qahramonlarni qanday bo'lsa shunday, xalq tilida bayon qilganini yoqlab, uning uslubini qo'llab-quvvatladilar.”⁷

Rus sharqshunosi K.I.Chaykin ham aynan “Bor ekanda yo'q ekan” to'plami fors nasrining yangi yodgorligi sifatida yangi realistik maktabning boshlanishini ekanligini e'tirof etib shunday degan edi: “...va nihoyat Eron adabiyoti ming yillar mobaynida mistik oliy kuchlar pardasiga o'ralgan, balandparvoz she'riy uslub, behisob qoliplangan gullar, bulbullar va kapalaklar bilan xayrlashishga hamda real voqelik bilan yuzma-yuz kelishga qaror qildi”⁸.

Shu tarzda fors adabiyotida yangi tipdagi hikoya janri vujudga keldi hamda xalq og'zaki ijodi, qadimgi va mumtoz fors adabiy merosi, yevropa va boshqa adabiyoti rivojlangan mintaqalar yutuqlari uyg'unlashtirgan holda shakllanib bordi.

¹ Унинг бу илк тўплами Эронда – Техроннинг марказий майдонида омма олдида аксилинкилобчилар томонидан гулханга ташланди ва айнан шу “жазо” китобнинг машхур бўлиб кетишига хизмат қилди.

² جمالزاده. یکی بود و یکی نبود. برلین. چاپخانه کاویانی. 1339 (1960)

³ حقوقی محمد، مروری بر تاریخ ادب و ادبیات امروز ایران. ص 45

⁴ Фуломризо Муродий Савмаъсаройи “Эрон хикоянавислиги тарихига бир назар”// Сино 2011.41-42- сонлар. 69-бет

⁵ محمد قاسمزاده. داستان نویسان معاصر ایران. تهران 2004 ص 9

⁶ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т. 2005. 11-том, 331-6

⁷ حقوقی محمد، مروری بر تاریخ ادب و ادبیات امروز ایران ص 46

⁸ Чайкин К. Краткий очерк новейшей персидской литературы.-М.:1928. С.144-145



XULOSA. Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, fors adabiyotida hikoya janrining qaror topishida bir tomondan Eron xalqining boy adabiy merosi, ikkinchi tomondan Yevropa, Amerika va rus adabiyotining ta'siri katta bo'lgan. Xususan o'sha davrlarda Eron nasriga ta'sir etgan eng buyuk xorij yozuvchilaridan Mishel Zevago, Aleksandr Dyuma, Gyote, Anatol Frans, Viktor Gyugo, Aleksandr Pushkin, Charlz Dikkins, Onore Balzak, Dostoyevskiylar nomini keltirib o'tishimiz mumkin.

Albatta hikoya paydo bo'lganining ilk yillarida adib va adabiyotshunoslar diqqatini, e'tiborini tortmadi. "Bor ekanda yo'q ekan"ning muqaddimasidan olingan quyidagi jumla Jamolzodaning xijolatidan darak beradi: "Bu yozganlarimni jiddiy tatabbular, mashg'ulotlardan olgan ko'ngilochar g'oyalar hamda bugungi kun oddiy va iste'moldagi fors tili namunalariga qo'l urib yozdim." U yozganlarini hech qayerda hikoya deb nomlamaydi. Bu jihat hikoyaning mustaqil adabiy janr sifatida, mumtoz adabiy matnlar ustida ilmiy izlanishlar olib borish avjiga chiqqan yillarda qanchalik e'tiborsiz bo'lganligidan dalolat beradi. O'z davrining yetuk adibi Sodiqlar Hidoyat esa hikoyanavislikka bo'lgan e'tiborsizlikni kinoya bilan, hazilomuz shaklda shunday bayon etadi: "Yozuvchilik chegarasi ijod ibtidosidan boshlab mana shu to'rt mavzu – 1) ilmiy tadqiqot; 2) tarix; 3) tarjima va 4) axloq (didaktik asarlarni nazarda tutgan) bilan chegaralangan va agar biror kimsa mana shu to'rt mavzudan tashqari biror so'z desa va o'zini yozuvchi atasa unday kimsani la'natlamoq kerak."¹

Simurg' obrazidan atqali o'zbek shoiri Hamid Olimjon ham o'zining “Simurg'” dostonini yozishda foydalangan. Firdavsiy “Shohnoma”sidagi Simurg' bilan Hamid Olimjon dostonidagi Simurg' obrazida mushtaraklik mavjud. Har ikkala asarda ham Simurg' insonga do'st, insonning eng og'ir kunlarida u bilan birga bo'ladi. Firdavsiyda Semurg' bolalarining xohishi bilan Zolni boqadi, parvarish qiladi, til o'rgatadi, bilim beradi. Odam jaholatga yo'l qo'yadi, qush esa adolat yo'lini tutadi. U Rustamga ajdar, devlarni, hatto Isfandiyorini yengishga ham yaqindan madadkor bo'ladi. Hamid Olimjon dostonida chin sevgidan yiroq, jaholatga giriftor bo'lgan xon qizi Parizod shartni bajargan Bunyodni qabul qilmay uning halok bo'lishini istab, dev jangiga yuboradi. Inson razolatga yo'l qo'yadi, Simurg' esa Bunyodni jasorat sari yo'llaydi. Bunyodni dev maskaniga eltgan Simurg' jasur yigitning g'alabasiga tarafdorlik qiladi. Semurg'ning qahramon yigit bilan muomalasi hamda Bunyodning dev bilan yakkama-yakka olishuvi va g'alabasi tasvirida “Shohnoma” ga hamohanglik bor.

Zamonaviy eron she'riyatida ham mazkur obrazdan samarali foydalanilgan. 60-yillarga kelib shoirlar ijodida yana bir qancha qush obrazlari qo'shildi. Masalan, Soya, Kasroiy va Jole ijodida qaldirg'och, kaklik va burgut obrazi, Muhammad Zoheriy she'rlarida baklan (qora qush), kanareyka, to'rg'ay qushi, Noderpur she'rlarida esa xud-xud qushidan muayyan simvolik obraz sifatida foydalanishgan.³

Simurg' obrazi - Siyovush Kasroiy asarlaridan o'rin olgan qush obrazlaridan biri. Siyovush Kasroiyning “Siyovush qoni” majmuasidan o'rin olgan “Simurg' qayg'usi” nomli she'rida Simurg' afsonaviy qushini ko'ramiz. Qadimiy asarlar va afsonalarga ko'ra Simurg' bir qush bo'lib, qarindoshlariga yordam berishga boradi va o'zining bir qanotidan yulib ularga beradi. Simurg' ularning yordamchisi bo'lishi uchun faqat uning patini olib olovda kuydirish yetarli bo'ladi. Rustam va Isfandiyor dostonida, Zol zamonida Simurg'ning pati o'tda kuydiriladi. Bu qush Rustamning yarasiga darmon qilishga tayyor edi. Ammo bu qush Siyovush Kasroiyning she'rida biz dastlab uchratgan Simurg' obrazidan farq qiladi. Unda u o'zining ulug'vorligini yo'qotib, qanotidan ajralgan qush sifatida namoyon

¹Hamidjon Homidiy. “Firdavsiy va o'zbek adabiyoti” T.-2012. B-153

²O'sha asar, B-153

³Кляшторина В.Б.Новая поэзия в Иране.-М.1975. С.152



bo'ladi. Garchi dastlab qanotiga ega bo'lib, pahlavonlar va bahodirlar qoshiga shoshilsa-da, ammo endi u o'zining najotbaxsh qudratini yo'qotgan, qanotsiz, huddi "qari chinor", "istirobli va g'amgin" bo'lib qolgan edi. Quyida Siyovush Kasroiyning "Siyovush qoni" dostonidan parcha keltirib o'tamiz:

منم سیمورخ پنهان از نظرها	نهاده آشیانه بر سر کوه
نگاه خسته ام بر رهگذرها	دل بیتاب من در چنگ تشویش
چه رستم ها که آوردم به میدان	به زیر شاهبال سایه گستر
که امید بزرگم یافت پایان	چه بی سامان به هر کوهی پریدم
روان کردم به هر رزمی دلیری ¹	پی آبادی ویرتنه عشق

Tajimasi:

*Tutib o'zga tog'ustin makon,
O'shal Simurg'man ko'zlardan pinhon.
Mening xasta dilim tashvish domida,
Ko'zlarim tikarman yo'lovchiga giryon.
Ushbu mayin par soyasida,
Necha Rustam ko'ribdir bu maydon.
Umidlarim so'nganida,
Bevatan misoli har tog'ga uchdim.
Vayrona ishq obodligi yo'lida
Harbiy jasoratni o'rgatdim²*

Kasroiyning mazkur she'rida qadimgi asarlarda najotbaxsh bo'lgan, ammo hozirda o'z qobiliyatini qo'ldan boy bergan, oddiy xalqdek fikr yuritadigan, qanotlari va patlari to'kilgan, endi hech bir ishga kuchi qolmagan g'amgin va hijolat tortgan qushga aylangan Simurg' obrazini ko'ramiz³. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Nega Siyovush Kasroi hayotdagi umid va yelib-yugurishni ifoda etgan "Orash-e kamongir" dostonini yozib turib, uning ketidan ma'yus va g'amgin she'rlarni o'z ichiga olgan "Xun-e Siyovush" dostonini yozdi. Mazkur to'plamdan o'rin olgan "Anduh-e Simurg'" ("Simurg'ning g'ami") she'rida bu najotbaxsh qushni shunday tasvirlaydiki, endi u harakat qilish kuchiga ega emas, hatto yordamini ham berolmaydi.

Siyovush Kasroi metafizik elementlarni kamaytirish va zaiflashtirish istagida insonni sahnada (asarda) namoyon qildi. Negaki, bu asarda inson o'z taqdiriga mas'uldir, u o'z kelajagi va taqdirini belgilaydi. Bu nazariya insonlar ongida Yevropada renessans davri boshlanishi bilan shakllangan. Galilo va Dekart kabi buyuk shaxslar yaratgan qonunlarida insonning kuchi va roli tabiat ustidan hokimligini aytib o'tganlar. Albatta bu fikrlar g'arbda shakllangan. Eronda esa bu tarzdagi fikrlar mavjud emas edi. Ammo Eron xalqining g'arb madaniyati bilan tanishishi, qolaversa Mashruta inqilobi ularning fikrlash tarzini o'zgartirib yubordi. G'arbliklarga xos fikrlar ba'zi Eron ziyolilarini jiddiy o'zgarishlar tomon chorladi. Inson taqdiri va uning diqqat markazida ekanligi zamonaviy shoirlar she'rlarida juda ko'p ko'rinda boshladi. Xususan, fors zamonaviy she'riyatining otasi Nimoning fikricha "Bir lahzada inson ijtimoiy holatini o'zgartirish uning qo'lida va irodasidadir – inson tarixning haqiqiy afsonasidir va hamma narsa undan yaralgan".⁴

¹ ادبیات پژوهش، شماره 9، پاییز 1388، مقاله حسین حسن پور آلاشتی، مراد اسماعیلی. "تحلیل اسطوره ها در اشعار سیاوش کسرای". ص 96

² Таржима мақола муаллифиники

³ اخوان ثالث، مهدی (1371) "سطرهای آخرین، کیان، سال دوم، شماره 8، صص 57-69

⁴ ادبیات پژوهش، شماره 9، پاییز 1388، مقاله حسین حسن پور آلاشتی، مراد اسماعیلی. "تحلیل اسطوره ها در اشعار سیاوش کسرای". ص 98



Shoir ikki yo'l o'rtasida qoladi. Bir tarafdin Eronliklarning ko'pchiligi milliy harakatining mag'lubiyatidan xafsalasi pir bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan o'z umidlari va istaklarini qo'ldan boy berishni istamas edi. Shuni ham aytish kerakki, u hayot va o'lim oralig'ida qolgan edi. Shundan ko'rinadiki mazkur majmuada umid va g'am, vatan taqdiri va ozodligi turadi.

Shunday qilib, Simurg' obrazi juda qadimgi davrlarda paydo bo'lgan, ezgulik timsoli, sharq xalqlari ijodkorlarining sevimli timsollari qatoriga kiruvchi qush obrazidir. Bu borada Eron zamonaviy shoiri Siyovush Kasroiy qush obrazini yaratishda semurg' obrazidan samarali foydalangan. Simurg' qushi "Avesto"da, o'zbek, fors va turkiy adabiyotlarda ijobiy va ezgulik timsolini ifodalovchi obrazlardan sanaladi. Simurg' qushidagi ulug'vorlik, insonparvarlik kabi fazilatlar, garchi turli-tuman syujetlar orqali kitobxon e'tiboriga havola etilgan bo'lsa-da, sharq xalqlari madaniyatining o'zaro uyg'unligini namoyon qiladi. Turli davrlarda sharq xalqlari boshidan kechirgan og'ir vaziyatlar, taqdir sinovlari hamda jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar Simurg' qushi timsolida badiiy to'qimalar asosida yoritib berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Klyashtorina V.B. Novaya poeziya v Irane.-M.1975
2. M. Jo'rayev. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent, 2008
3. Oltin beshik. O'zbek xalq ijodi. - Toshkent, 1988, 214-bet
4. Abulqosim Firdavsiy. "Shohnoma" (Saylanma) T.-2012.
5. Hamidjon Homidiy. "Firdavsiy va o'zbek adabiyoti" T.-2012

6. اخوان ثالث، مهدی (1371) "سطرهای آخرین، کیان، سال دوم، شماره 8
7. ادبیات پژوهش، شماره 9، پاییز 1388، مقاله حسین حسن پور آلاشتی، مراد اسماعیلی. "تحلیل اسطوره ها در اشعار سیاوش کسرای"



“QUYONLAR” QISQA ROMANIDA LAKONIZM VA BADIY TIL XUSUSIYATLARI.

NASIBA UMAROVA

Tayanch doktorant, TDSHU

Annotatsiya. Roman taraqqiyot yo'li har bir jamiyat, har bir millat, har bir xalqning badiiy-estetik qarashlari va qadriyatlari, badiiy tafakkuri, fikr-o'ylari, qiziqishlari, qiyinayotgan muammolari kabi bir qancha xususiyatlarining badiiy in'ikosi sifatida shakllanib, o'sha elatning badiiy tafakkuri darajasini bildirar ekan, u har bir davr uchun asosiy mezon bo'lib qolaveradi. Har qanday roman poetik tahlilidagi janr me'yor va mezonlari, badiiy usullari, tasviriy vositalari, g'oyaviy tamoyillari, uslubiy o'zgarishlari har qanday davrda o'zgaradi, yangilanadi, takomillashadi. Shuning uchun ham roman janri taraqqiyotini ma'lum bir qonuniyatga bo'ysundirishning yoki ma'lum bir qolipga solishning ham iloji yo'q. Roman tadriji – davriy hodisa bo'lib, u doim o'zgarishda va yangicha izlanishda bo'ladi. Shu sabab bu janr xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yana yangicha talqinlar va yangicha yondashuvlar paydo bo'lib boraveradi. Misr romanchiligining tarixi, taraqqiyot tamoyillari qisman o'tmish va asosan zamonaviy voqelik bilan belgilanishini hisobga olgan holda, XX asrga kelib avval g'arb romanchiligi so'ngra rus romannavisligi va bir tarafdin milliy meros an'analari ta'siri ostida shakllanganini kuzatamiz. Misrdagi tarixiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy hodisalar albatta yozuvchilar e'tiboridan chetda qolmay, yangi o'zlashgan uslublar va yangi usullardan foydalangan holda romanlar yaratila boshlandi. Bu romanlar o'sha davr qiyofasini yorqin aks ettiruvchi oyna misol Misr xalqining ijtimoiy va g'oyaviy qarashlarini

o'zida mujassam etdi. Zamonaviy Misr qisqa romanlari ham roman janrining shakllaridan biri bo'lib, adabiy kontekstda rivojlanib yangicha qiyofa kasb etib takomillashib, ommalashib bormoqda. Maqolada misrlik mashhur romannavis adiba Salva Bakrning "Quyonglar" qisqa romani tahlilga tortilgan bo'lib, lakonizm va badiiy til xususiyatlari tadqiq etilgan.

Tayanch so'zlar: "Quyonglar" qisqa romani, lakonizm, portret, peyzaj, tashbeh, tazod, sarkazm.

Аннотация. Роман формируется как художественное отражение ряда особенностей каждого общества, каждой нации, каждого народа, таких как художественно-эстетические взгляды и ценности, художественное мышление, идеи, интересы, волнующие проблемы, и отражает уровень художественного мышления этого народа, оставаясь основным критерием для каждой эпохи. Жанровые нормы и критерии, художественные приемы, изобразительные средства, идейные принципы, стилистические изменения в поэтическом анализе любого романа меняются, обновляются, совершенствуются в каждую эпоху. Поэтому невозможно подчинить развитие жанра романа определенной закономерности или втиснуть его в определенную модель. Эволюция романа - это периодическое явление, которое находится в постоянном изменении и поиске нового. По этой причине, исходя из особенностей этого жанра, возникают новые интерпретации и новые подходы. Учитывая, что история и принципы развития египетского романа частично определяются прошлым и в основном современной действительностью, к XX веку мы наблюдаем, что он сформировался сначала под влиянием западной романистики, затем русской, а также под воздействием традиций национального наследия. Историко-политические и социально-культурные события в Египте, несомненно, не остались без внимания писателей, и романы начали создаваться с использованием новых освоенных стилей и приемов. Эти романы, словно зеркало, ярко отражающее облик того времени, воплотили в себе социальные и идейные взгляды египетского народа. Современные египетские короткие романы также являются одной из форм романного жанра, которые приобретают новый облик в литературном контексте, совершенствуются и становятся популярными. В данной статье анализируется короткий роман "Кролики" известной египетской романистки Салвы Бакр, исследуются особенности лаконизма и художественного языка.

Ключевые слова: короткий роман "Кролики," лаконизм, портрет, пейзаж, метафорическое искусство, антитеза, сарказм.

Abstract. The novel is formed as an artistic reflection of various characteristics of each society, nation, and people, such as artistic and aesthetic views and values, artistic thinking, ideas, interests, and pressing issues. It reflects the level of artistic thinking of a people, remaining the primary criterion for each era. Genre norms and criteria, artistic techniques, expressive means, ideological principles, and stylistic changes in the poetic analysis of any novel change, renew, and improve in each era. Therefore, it is impossible to subject the development of the novel genre to a certain pattern or confine it to a specific model. The evolution of the novel is a periodic phenomenon that is in constant change and search for the new. For this reason, new interpretations and approaches emerge based on the characteristics of this genre. Considering that the history and principles of the Egyptian novel's development are partially determined by the past and primarily by contemporary reality, we observe that by the 20th century, it was shaped first under the influence of Western novelists, then Russian, as well as by the traditions of national heritage. Historical, political, and socio-cultural events in Egypt undoubtedly did not escape the attention of writers, and novels began to be created using newly mastered styles and techniques. These novels, like mirrors vividly reflecting the face of that time, embodied the social and ideological views of the Egyptian people. Modern Egyptian short novels are also one of the forms of the novel genre that are acquiring a new look in the literary context, evolving, and gaining popularity. This article analyzes the short novel "Rabbits" by the renowned Egyptian novelist Salwa Bakr, examining the features of conciseness and artistic language.

Keywords: short novel "Rabbits," conciseness, portrait, landscape, metaphorical art, antithesis, sarcasm.

Hozirgi globallashgan, integratsiyalashgan, tezlashgan zamonamizda insonlarning ehtiyojidan kelib chiqib, barcha xalqlar adabiyotida ixchamlikka va qisqalikka intilish kuchayib bormoqda. Chunki, vaqt masalasi hamma jabhalarda eng muhim masalaga aylanib ulgurdi. Shu sababli arab adabiy jarayonlarida ham roman shakllarida yangilanishlar kuzatilmoqda. Qisqa roman “الرواية القصيرة” “Ar-rivaya al-qosira”



bu hikoya va roman o'rtasidagi oraliq shakl hisoblanadi. Qisqa roman muallifi syujet chiziqlarini ko'rsatib o'tish va voqealarni yaxlit bir obraz atrofida birlashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Salva Bakrning "Quyonglar" (أرانب) nomli romani ham aynan shu roman shaklida bitilgan.

Roman 78 sahifadan iborat. Asar kompozitsiyasi to'rt bo'limga bo'lingan, bo'limlar sarlavhalanmagan, faqatgina raqam bilan tartiblangan. Asar muallif-hikoyachi tomonidan bayon qilinadi. Bosh qahramon Qohirada yashovchi oddiy ishchi xodim Usama. Yoshi 45 da, rafiqasi Hayat va ikki qizi Fatin, Samiya bilan nurab tushay deb turgan juda tor kvartirada yashaydi.

Asar syujet tizimi retrospektiv bo'lib, bu muallifga vaqt chegaralarini bosib o'tib, qahramon hayotini to'liq va ixcham ochib berishga yordam bergan, qisqa romanning voqealar bayoni oddiy romannikidan ko'ra izchil va shiddatli tarzda sodir bo'ladi, markazda esa bosh qahramon Usama, barcha voqeahodisalar u bilan bog'langan. Misrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, iqtisodiy inqiroz, xalqning nihoyatda nochorligini oddiy xalq vakilining qashshoqlik bilan olishish jarayoni misolida ko'rsatilgan.

"Qisqa roman"larga xos bo'lgan xususiyatlar asar tarkibiga shunday singdirib yuborilganki, yozuvchining o'ziga xos badiiy mahorati bilan go'zal uyg'unlashgan. Asar voqealari huddi bizga qisqa metrajli kinoni eslatadi, voqealar rivoji jadal, ortiqcha tafsilotlar va belgilardan holi tasvirlangan. Asar bosh qahramoni Usama al-Laysiy esa asar markazida. Uning xarakter xususiyatlari va u bilan bog'liq barcha tafsilotlar asarni o'qish jarayonida shakllanib boradi.

Salva Bakrning qisqa romanlari Anton Chexov uslubini eslatadi. Salva Bakr o'z intervyularining birida quyidagicha fikrlarni bayon etgan: "Menda turli yozuvchilardan ilhomlanish va ta'sir qilish holatlari bo'lgan. Meni, masalan, Anton Chexov hayratda qoldirdi."¹

Yana bir mashhur rus yozuvchisi M.Gorkiy: "Badiiy asar so'z jihatdan siqiq, fikr jihatdan keng bo'lishi kerak"² degan fikrni ilgari surgan. O'zbek adabiyotshunos olimi Islomjon Yoqubov esa "roman odam va olamni miqyosli anglash, angamlarni badiiy ifodaga ko'chirish ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Bu janr tobora globallashayotgan, intensivlashayotgan hayot shiddati va zamondoshimiz kayfiyathollarini aks ettiradi. Binobarin, roman "kichraytirilgan koinot" (Saltikov-Shchedrin) va "miniatyuradagi olam"ga (V.G.Belinskiy) aylandi. Uning uchun hajm kattaligi emas, balki mazmun qamrovining kengligi va teranligi muhimdir"³ degan fikrni keltirib o'tgan.

Ha, zamonaviy Misr qisqa romanlarining ham asosi huddi mana shu lakonizmga asoslanganligi va so'zlarni siqiq ifodalash orqali keng, ko'p qamrovli fikr, g'oyani yetkazib bera olishga qurilganligini ushbu asar misolida ham ko'rish mumkin. Lakonizm har bir so'zning ma'no va kontekstga ega bo'lgan ixchamligi va ta'sirchanligini ta'kidlaydi. Adabiyotda lakonizm dialoglar, bayon uslubi yoki qahramonlar rivojlanishida namoyon bo'lib, chuqur ma'nolarni minimalistik til vositasida yetkazib beradi. Bu uslub ko'pincha vazminlik va diqqatni jamlash tuyg'usini uyg'otadi, e'tiborni aytilmagan ko'plab fikrlar yoki his-tuyg'ularga qaratadi.

Peyzaj tasviri insonning ruhiy olamini ochishda muhim o'rin tutadi. Har bir adib bu psixologik vositadan o'ziga xos uslubda foydalanib, qahramonning kayfiyatiga mos yoki zid ravishda ifodalash orqali uning ichki dunyosiga chuqur kirib boradi.⁴ Asarning boshlanish nuqtasida ham peyzajdan o'z o'rnida foydalanilgan, qahramon ruhiyatini ochishga ham imkon yaratgan.

Qisqa romanlarga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlardan biri bu, asarning boshlanishi ya'ni muqaddimasi juda ham katta ahamiyat kasb etishidir. Mashhur adabiyotshunos olim Hikmat al-Haj o'z

¹ حكايات جدتي كانت مخزناً للتراث الشفاهي | منتدى الكتاب العربي m جريدة البيان - 14 مايو 2001 <https://www.arabworldbooks.com>

² O'sha manba, o'sha bet.

³ I.Yoqubov. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi.Monografiya. T."Nurafshon business" 2021.B-31

⁴ Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. dis. ... filologiya fanlari doktori ., T-2002. B. 45 (<https://diss.natlib.uz/>)

لم يستطع قول: "لا" في أي وقت من أوقات عمره، لم يقل لا لأمه أبداً، حتى عندما كبر ونضج ودخل ديوان الرجال، وأصرت على تزويجه من حياة لمجرد أنها سترث عن أبيها ربع بيت قديم في حي المنيرة، فحياة لم تكن في يوم من الأيام فتاة أحلامه؛

*"U hech qachon "Yo'q" deya olmasdi. U butun umri davomida onasiga hech qachon "yo'q" demagan, hatto o'sib ulg'ayib, balog'at yoshiga yetib, erkaklar safiga kirganida ham onasiga "Yo'q" demagan va u Al-Muniradagi eski uyning to'rtidan bir qismini meros qilib olishi uchungina Hayatga uylanishga rozi bo'lgan. Hayat hech qachon uning orzusidagi qiz bo'lmagan."*¹

Usama, tabiatan irodasi bo'sh, kim ne desa ko'nib ketadigan, shaxsiy "men"i shakllanmagan, o'z dunyoqarashiga ega bo'lmagan, va hattoki orzularidan ham qandaydir bir arzimagan ulush ilinjida osongina voz kechadigan inson sifatida gavdalanadi. Chorasizlik va faqirlik ham bunday xarakterga ega bo'lishining eng katta sabablaridan biridir.

لم تخط يده كلمة «لاء؛ إذ كان مضطراً لقول: نعم؛ لأنه يشارك فيها عادة بناءً على تعليمات رؤسائه في الوزارة، فيذهب إلى المقر الانتخابي وكأنه أرنب صغير ممسوك قسراً من أذنيه لا يقوى على الإفلات، ويكتب منصاعاً الكلمة التي حفظها عن ظهر قلب وأجاد قراءتها وكتابتها «نعم»².

"Uning qo'li "Yo'q" so'zini yozmasdi. Agar uni "Ha" deyishga majbur qilishsa, u vazirlikdagi rahbarining ko'rsatmasiga ko'ra, odatda, saylov shtabiga borardi. U xuddi quloqlaridan zo'rlab ushlangan va qochib keta olmaydigan kichkina quyonchadek itoatkorlik bilan yoddan o'rgangan, o'qish va yozishni o'zlashtirgan "Ha" so'zini yozadi."

Bu huddi Misrdagi eng quyi tabaqa vakillari, ishchilarning umumlashma obrazi sifatida ham namoyon bo'ladi. Usama hayot ummonida qiyinchiliklarga sho'ng'ib, hamma sinovlarga labbay deb javob qaytaruvchi va hayot to'lqinida oqim bilan birga suzadigan va hech qachon oqimga qarshi bormaydigan, moslashuvchan oddiy inson sifatida gavdalanadi.

*"Hammasi yaxshi, azizim, ish sizning ishingiz va qaror sizniki, lekin sizning oilangiz va siz, aziz yaqinlarim hayotiga kelsak, o'ylab ko'ring va har qanday qadamga tayyorlaning, chunki zamon og'ir va dunyo qimmat va pullar uning ishchilari qushlar kabi uchishadi."*³

Biz bu o'rinda Hayatning dunyoga falsafiy qarashlari ifodasini ko'rishimiz mumkin, u o'z turmush o'rtog'ining fikrini qo'llab quvvatlashi va har bir ishda o'ylab qaror chiqarishini, uning ham o'z qarashlari, istaklari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Muallif shu o'rinda Hayat tilidan juda chiroyli o'xshatish - tashbeh san'atini qo'llab uning fikrlarini go'zal va ixcham shaklda ifoda etib bergan. Zamon og'irligi, turmush sharoiti, narx-navoning qimmatligi, pullar esa dunyoning ishchilari ekanligi va ular huddi qushlardek parvoz etishlari hayot haqiqatlarini bizga ochib beradi. Pullarni tutib olish amri mahol ekanligi, ularning qushlar kabi parvoz etishidan ham bilishimiz mumkin. Shu birgina jumla oddiy xalqning turmush sharoitiga bo'lgan qarashlarini umumlashtira olgani yozuvchining yuksak badiiy mahoratidan darak beradi.

Muallif Hayatning turmush o'rtog'i izsiz yo'q bo'lganidan iztirobga tushgan ruhiy olamini qisqa, lekin siqiq jumalalarda ochib bera olgan. Bunda muallif uchta nuqtadan samarali foydalanib, asarning badiiy yukini yanada oshirgan. Qisqa jumalar so'nggida kelayotgan uch nuqta (...) o'ziga xos ishora bo'lib, kitobxonning ochiq ruhiyati kengliklariga havola etiladi. Usamaning g'oyib bo'lishini esa tashbeh san'atidan samarali foydalanib, badiiy jihatdan go'zal tasvirlagan.

أعلنت حياة أنها ستتحرر... ستموت روحها... ستشعل النار في جسدها إذا لم يعد أسامة. تمننت أن يعود إليها بأي شكل، وبأية حال، حتى لو عاد أعمى، أو مشلولاً، أو مجروحاً، أو مصاباً بعاهة لو كان قد تعرض لحادث ماء، المهم أن يبقى على قيد الحياة. مضى أسبوع كامل، وأسامة مختلف كانه فص ملح وذاب¹.

¹ سلوى بكر، أرناب رواية و قصص قصيرة، مكتبة مدبولي، مصر القاهرة، ط3 2004، ص 33

² سلوى بكر، أرناب رواية و قصص قصيرة، مكتبة مدبولي، مصر القاهرة، ط3 2004، ص 34

³ سلوى بكر، أرناب رواية و قصص قصيرة، مكتبة مدبولي، مصر القاهرة، ط3 2004، ص 34

"Hayat o'z joniga qasd qilishini e'lon qildi... Uning ruhi o'ladi... Agar Usama qaytib kelmasa, u tanasini yoqib yuboradi. Usama unga har qanday yo'l bilan va har qaysi usul bilan bo'lsa ham qaytib kelishini xohlardi, hatto u ko'r, falaj, yarador yoki nogiron bo'lib qaytsa ham mayli, agar Usama bilan baxtsiz hodisa yuz bergan bo'lsa ham, asosiysi tirik qolsa bas. Bir hafta o'tdi va Usama bir chimdim tuz singari g'oyib bo'ldi, u erib ketdi."

Quyidagi parchada ham tashbeh san'atining go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin:

وعلى رغم كل تلك الساعات الطويلة التي كانت تمر عليه وكأنها دهر من الزمان، والتي يعود بعدها إلى بيته شاعراً بجسده وكأنه جوال ثقيل من الملح، وأنه لا يبغي من الحياة وحياة سوى الإلقاء بنفسه الفراش والنوم حتى صباح اليوم التالي على الرغم من كل ذلك الإجهاد والتعب كان يبيت ليلته راضياً مطمئناً بل يعتبر نفسه من المحظوظين؛ لأنه وفق في الحصول على عمل إضافي يُدر عليه مبلغاً يساعد في زيادة دخله المحدود؛²

"Uning uchun abadiyatdek tuyulgan uzoq soatlar o'tib, uyga qaytganida, go'yo tanasi tuz to'ldirilgan og'ir qopga aylangandek his qildi. Barcha stress va charchoqqa qaramay, o'zini to'shakka tashlab ertasi kuni ertalabgacha uxlashdan boshqa hech qanday istagi yo'q edi. Shunday bo'lsa-da, u tunni mamnun va xotirjam o'tkazdi, hatto o'zini omadlilardan biri deb hisobladi. Chunki u o'zining cheklangan daromadini oshirishga yordam beradigan qo'shimcha ish topishga erishgan edi."

Usamaning qo'shimcha ishida o'tkazgan soatlarini yozuvchi huddi asrga tenglashtiryapti, bu yerda mubolag'a san'atidan juda mahorat bilan foydalanib tasvirlagan. Bundan ko'rinib turibdiki, og'ir mashaqqat bilan o'tayotgan har bir soniya daqiqalarga, daqiqalar esa uzun soatlarga, soatlar esa asrlardek o'tayotganini go'zal tasvirilaydi. Hammaga ma'lumki inson sevimli mashg'uloti yoki yoqtirgan kasbi bilan shug'ullansa vaqt juda ham tez o'tib ketadi, hech ham charchamaydi va bundan zavqlanadi. Buning aksi bo'lganida esa, vaqt to'xtab qolgandek tuyiladi. Usamada ham huddi shunday vaziyat. Yozuvchi buni uzoq tavsiflamay, birgina tashbeh san'atini qo'llab, o'z fikrini aniq yetkazib bergan. Usama ishdan qaytib kelganida esa huddi og'ir tuz qopi singari og'irlashib, charchab, madorsiz qolganini mahorat bilan qiyoslagan. Lekin bularning barchasiga qaramay Usama o'zini "omadlilar"dan hisoblashini keltirib, shu o'rinda kuchli sarkazm qo'llagan. Qo'shtirnoq ichidagi "baxtlilar" bu qo'shimcha ish topganlar. Bu juda kulgili va shu bilan juda achinarli holat. Bu birgina jumla bizga Misrdagi o'g'ir ijtimoiy muammolardan biri bu ishsizlikni qanchalar keng yoyilganligini va og'ir turmush sharoitini izohlaydi. Qo'shimcha joydagi ishlab topadigan puli Usamaning hayotidagi muammolarining faqatgina ba'zilarini yechishgagina yordam berishini quyidagi parchada ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu yerda ham qarshilantirish san'ati(ya'ni tazod)ni ustalik bilan qo'llagan:

“إذ ساهمت في تقليل عدد وجبات البصارة والعدس بنوعيه الأصفر وأبو جبة التي كانت معدلاتها تتزايد اطرادياً مع اقتراب الشهر من نهايته. كما أنها لعبت دوراً حاسماً في تسديد القسط الشهري لسخان المياه الذي كان لابد من شرائه رضوخاً لرغبة البننتين.”³

"Bu oy oxiri yaqinlashganda ularning sanog'i doimiy ravishda ko'payadigan yasmiq⁴ning sariq⁵ va Abu Jibba⁶ turlari va basara¹ taomlari sonining kamayishiga yordam berdi, ikki qizning xohishiga ko'ra sotib olinishi kerak bo'lgan suv isitgichi uchun oylik to'lovni to'lashda ham u hal qiluvchi rol o'ynadi."

¹ سلوى بكر، أرائب رواية و قصص قصيرة، مكتبة مدبولي، مصر القاهرة، ط3 2004، ص44

² سلوى بكر، أرائب رواية و قصص قصيرة، مكتبة مدبولي، مصر القاهرة، ط3 2004، ص11-12

³ سلوى بكر، أرائب رواية و قصص قصيرة، مكتبة مدبولي، مصر القاهرة، ط3 2004، ص12

⁴ Yasmiq turlari: uning eng yumshoq va eng nozik turi bo'lgan jigarrang yasmiq odatda sho'rva va pishiriqlarda ishlatiladi. Yashil yasmiq, yong'oqqa o'xshash ta'mi bilan ajralib turadi. Qizil yasmiq: Bu tur odatda turli xil pyurelarda va ayniqsa hind taomlarida ishlatiladi. Qora yasmiq, pishganida biroz ikraga o'xshaydi.

⁵ Sariq yasmiq boshqa turdagi yasmiqlardan pishirish tezligi, yumshoq tuzilishi va mazali ta'mi bilan ajralib turadi. Sariq yasmiq to'yimli hisoblanadi va uni asosiy taom sifatida iste'mol qilish mumkin.

⁶ Yasmiq turlaridan biri hisoblanadi, jigarrang yasmiqning ta'mi ko'pchilik uchun ma'quldir. Ulardan mujaddara, yasmiq ragagi, koshari kabi taomlar tayyorlashda foydalaniladi,



Ta'sirchanlikni oshirish uchun muallif antonim, ya'ni ma'nosi bir-biriga zid bo'lgan so'zlarni qo'llash orqali ta'sir kuchini boyitgan, ya'ni bu (qo'shimcha oylik ish haqi) oy oxiri yaqinlashganda ularning sanog'i doimiy ravishda ko'payadigan yasmiqning sariq va Abu Jibba turlari va basara taomlari sonining kamayishiga yordam berdi deb ifodalagan. Bundan ko'rinib turibdiki, Usama oylikdan oylikkacha zo'rg'a kun ko'radi. Oyning oxiri oila uchun juda og'ir kechishini yasmiq va basara taomlari tayyorlanish adadining ko'pligidan ham bilishimiz mumkin. Qo'shimcha ish haqqi esa mana shu "ko'payish"larning "kamayish"iga yordam bera oladi xolos. Bu qo'shimcha oylik maoshning yana bir asosiy vazifasi bu ikki qizining orzusi bo'lgan suv isitgichning oylik to'lovini ado etishdir. Bunda biz Usamaning uyi xaroba ekanligini, unda hatto suv isitgich ham yo'q ekanligini sezishimiz mumkin. Bu juda ham achinarli holat. Shu o'rinda biz yozuvchining qisqa satrlarda ma'noni qanday kuchaytira olish qobiliyatiga ega ekanligi, Usamaning uyi qanday jihozlanganini, ahvoli haqida ishonarli tasavvur hosil qilamiz.

نظرت إليهم و تنهدت بحرقة ثم إنهم ذهبوا معها جميعا إلى المطار²

"U (Hayat) ular(Usama, Fatin, Samiya)ga qarab, og'ir xo'rsindi, keyin hammalari u bilan birga aeroportga jo'nashdi."

"Yangi roman"ning badiiy voqeligi muallifning hayotiy tajribasiga, uning ongi va qalbi prizmasidan o'tgan shaxsiy-subyektiv, erkin mulohazalari hamda his-tuyg'ulariga asoslanadi. Bu fikr va kechinmalar kompozitsion va mavzuga oid cheklovlardan xoli bo'ladi. Neoromanlar har doim ham tugallangan badiiy yechimga ega bo'lavermaydi.

"Quyonglar" qisqa romanida yangi romanning ushbu xususiyatini o'zida mujassam etgan holda tugal yechim berilmagan, asar so'nggi ochiq, xulosa qilish kitobxonning o'ziga havola qilingan.

XULOSA. Salva Bakrning "Quyonglar" asari oddiy misrlik ishchi hayoti misolida Misrning eng dolzarb va og'riqli muammolarini ochib berganligi bilan ahamiyatlidir. Roman jamiyat dinamikasi, alohida shaxslar kurashi va ijtimoiy, siyosiy muammolarining teran tadqiqi bo'lib, yozuvchining o'ziga xos uslubi orqali bayon etilgan. Zamonaviy Misr qisqa roman xususiyatlarini o'zida mujassam etgan. Asar lakonizm asosiga qurilgan bo'lib, badiiy til xususiyatlari ixcham uslubda tasvirlanadi va qahramon ruhiyatining yanada yorqinroq tasvirlash uchun xizmat qiladi. Bunda asosan tashbeh, tazod san'atlaridan unumli foydalanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. حكايات جدتي كانت مخزناً للتراث الشفاهي | منتدى الكتاب العربي جريدة البيان - 14 مايو 2001
<https://www.arabworldbooks.com>
2. I.Yoqubov. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. Monografiya. T. "Nurafshon business" 2021.
3. Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. dis. ... filologiya fanlari doktori ., T-2002.
4. (<https://diss.natlib.uz/>) <https://www.ahewar.org/debat/show.art.asp?aid=824418&nm=1>
5. بيان الرواية القصيرة جدا حكمت الحاج .
6. سلوى بكر، أرناب رواية و قصص قصيرة، مكتبة مدبولي، مصر القاهرة . 2004.



¹Basara - Marokash, Misr va Falastinda keng tarqalgan sho'rva taomi Sarimsoq piyoz, loviya, suv, tug'ralgan arpabodiyon, tug'ralgan koriandr, maydalangan zira, tuz va qora murch aralashmasidan tayyorlanadi.

² سلوى بكر، أرناب رواية و قصص قصيرة، مكتبة مدبولي، مصر القاهرة، ط3 2004، ص 78



HUSAYN BOYQARO – HUSAYNIY ADABIY MEROSINING O‘ZBEKISTONDA O‘RGANILISHI

XUSNIGUL JO‘RAYEVA

Tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. O‘zbek madaniyati va adabiyoti tarixida munosib mavqega ega bo‘lgan shoh va shoir Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosini ilmiy-nazariy asosda tadqiq etish zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki Husayn Boyqaro temuriylar davridagi madaniy ko‘tarilishning bevosita tashkilotchilaridan biri bo‘lish bilan birga iste‘dodli va nozikta‘b shoir sifatida o‘zbek adabiyoti tarixi sahifalarida o‘chmas iz qoldirdi. “Husayniy” taxallusi bilan turkiy va forsiy tillarda ijod qildi. Husayniydan “Devoni Sulton Husayn Boyqaro” hamda “Risolayi Sulton Husayn Boyqaro” asarlari meros bo‘lib qoldi. Ayni paytda buyuk shoir Alisher Navoiy dahosining shakllanishi, bashariyat uchun ulkan ma‘naviy xazina yaratishida hukmdor Husayn Boyqaroning xizmatlari katta bo‘ldi. Abdurahmon Jomiy, Xondamir, Zayniddin Mahmud Vosifiy, Shayxim Suhayli, Shayx Udiy, Kamoliddin Behzod singari turkiy xalqlar tamadduniga katta hissa qo‘shgan shaxslar ham aynan Husayn Boyqaroning mumtoz zamonasida yashab faoliyat yuritdilar. Husayniy tarjimai holi, faoliyati, “Devon” va “Risola”si o‘zi hayotlik chog‘idayoq adabiyot ahlining e‘tiborini tortgan. Husayniy faoliyati va ijodiy merosining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, Alisher Navoiydir. O‘z davridagi ilm-u adab ahliga “murabbiy va muqavviy” (Bobur) sanalgan Alisher Navoiy umri davomida yozgan deyarli barcha asarlarida Husayn Boyqaro shaxsiyati, faoliyati, ijodiy merosi xususida so‘z yuritadi. Do‘sti Husaynning insoniy xarakteri, hokimiyat tepasiga kelishi, Xuroson muzofotining ijtimoiy-siyosiy jabhalarida amalga oshirgan islohotlarini batafsil bayon etadi. Husayniyning balog‘atga yetgan tab‘i nazmini she‘rshunos olim, mohir tanqidchi sifatida tekshirib, yuqori baholaydi. Boyqaro zamondoshlaridan Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Davlatshoh Samarqandiy, Abdurahmon Jomiy, Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobur, Zayniddin Mahmud Vosifiy, Mirzo Muhammad Dug‘lat, Faxriy Hirotiy, Som Mirzo Safaviylar ham Husayniyning shoirlik mahorati, adabiy mahfillar tashkil etishi haqida to‘xtalib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: Xuroson, Hirot adabiy muhiti, qo‘lyozma, kotib, devon, g‘azal, she‘riyat, kulliyot.

Annotation. In the history of Uzbek culture and literature, Sultan and poet Hussein Baykhara—known by his pen name Hussein—holds a prominent place. The scholarly and theoretical study of Hussein’s literary legacy is one of the key tasks of contemporary Uzbek literary studies. Hussein Baykhara was not only a central figure in the cultural renaissance of the Timurid era but also a talented and refined poet who left an indelible mark on the history of Uzbek literature. Writing under the pseudonym Hussein, he composed works in both Turkic and Persian languages. His legacy includes such notable works as *Diwan of Sultan Hussein Baykhara* and *Risala of Sultan Hussein Baykhara*. At the same time, Sultan Hussein Baykhara played a significant role in shaping the genius of the great poet Alisher Navoi, who created a vast spiritual treasure for humanity. The era of Hussein Baykhara also saw the flourishing of prominent figures such as Abdurahman Jami, Khondamir, Zayniddin Mahmud Vasifi, Shaykhim Suhayli, Shaykh Udiy, and Kamoliddin Behzod, who made substantial contributions to the civilization of Turkic peoples. The biography, activities, and works of Hussein, including his *Diwan* and *Risala*, attracted the attention of literary scholars even during his lifetime. The first researcher of Hussein’s work was undoubtedly Alisher Navoi, who, as a mentor and supporter of the literary and scholarly community of his time, dedicated much of his writing to discussing the personality, activities, and creative legacy of Hussein Baykhara. Navoi detailed Hussein’s character, his rise to power, and the social and political reforms he implemented in the province of Khorasan. As a literary critic and connoisseur, Navoi evaluated Hussein’s poetic talent with high regard. Contemporaries of Hussein Baykhara, such as Abdurazzoq Samarkandi, Mirkhond, Davlatshah Samarkandi, Abdurahman Jami, Khondamir, Zahiriddin Muhammad Babur, Zayniddin



Mahmud Vasifi, Mirzo Muhammad Dughlat, Fakhr Herati, and Sam Mirza Safavi, also highlighted Husseini's poetic mastery and his contributions to organizing literary gatherings.

Keywords: Khorasan, Herat literary environment, manuscript, scribe, divan, ghazal, poetry, collected works.

Аннотация. В истории узбекской культуры и литературы выдающееся место занимает султан и поэт Хусайн Байкара — Хусайни. Научно-теоретическое исследование литературного наследия Хусайни является одной из важных задач современной узбекской литературоведения. Хусайн Байкара был не только непосредственным организатором культурного расцвета эпохи тимуридов, но и талантливым и утончённым поэтом, оставившим неизгладимый след в истории узбекской литературы. Под псевдонимом «Хусейни» он творил на тюркском и персидском языках. В его наследие вошли такие произведения, как «Диван Султана Хусайна Байкара» и «Рисала Султана Хусайна Байкара». Кроме того, султан Хусайн Байкара сыграл значительную роль в формировании гения великого поэта Алишера Навои, который создал огромное духовное наследие для человечества. В эпоху Хусайна Байкара жили и творили такие выдающиеся личности, как Абдурахман Джами, Хондемир, Зайниддин Махмуд Васифи, Шайхм Сухайли, Шайх Удий, Камолитдин Бехзад, внёсшие большой вклад в цивилизацию тюркских народов. Биография Хусайни, его деятельность, а также такие произведения, как «Диван» и «Рисала», привлекали внимание литераторов ещё при его жизни. Первым исследователем творчества Хусайни, без сомнения, был Алишер Навои. Будучи наставником и поддержкой учёных и литераторов своего времени, Навои в большинстве своих произведений рассказывал о личности, деятельности и творческом наследии Хусайна Байкара. Он подробно описывал характер своего друга Хусайна, его приход к власти, а также реформы, проведённые им в социальной и политической сферах Хорасана. Как знаток и критик поэзии, Навои высоко оценивал поэтический талант Хусайни. Современники Хусайна Байкара, такие как Абдураззак Самаркандий, Мирхонд, Давлатидах Самаркандий, Абдурахман Джами, Хондемир, Захириддин Мухаммад Бабур, Зайниддин Махмуд Васифи, Мирзо Мухаммад Дуглат, Фахри Хиротий и Сам Мирза Сефев, также отмечали поэтическое мастерство Хусайни и его роль в организации литературных собраний.

Ключевые слова: Хорасан, литературная среда Герата, рукопись, писец, диван, газель, поэзия, сборник произведений.

KIRISH. O‘zbekistonda Husayn Boyqaro hayoti va ijodiy merosining zamonaviy ilmiy mezonlar asosida o‘rganilishi bevosita Alisher Navoiy tavalludining 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko‘rish, Navoiy shaxsiyati, ilmiy-adabiy merosiga oid ma’lumotlarni to‘plash, ulug‘ adib asarlarini nashr ettirish ishlarining avj olishi bilan bog‘liq bo‘ldi. 1921-yil “Qizil bayroq” gazetasida Alisher Navoiy, Lutfiy, Husayn Boyqaro singari o‘zbek shoirlari she’rlaridan tarkib topgan majmuani tuzish bo‘yicha topshiriqning berilishi, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini o‘zida aks ettirgan maqolalarning bosilishi fikrimizning isboti bo‘la oladi. Abdurauf Fitrat tomonidan 1928-yilda “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasining tuzilishi va unga “Husayn Boyqaro “Devon”idan sarlavhasi ostida Husayniy she’rlarining kiritilishi boshlangan sa’y-harakatlarning mevasi edi.

Abdurauf Fitratning jonbozligi tuzilajak majmua va xrestomatiyalarga Husayniy g‘azallarining kiritilishiga zamin bo‘ldi. 1941-yili nashr etilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”da Husayniyning 102ta g‘azali, 2ta muxammasi va Alisher Navoiyning Husayniy g‘azaliga yozgan muxammasi o‘rin olgan. 1948-yil Hodi Zarif tayyorlagan “Navoiy zamondoshlari. Terma she’rlar” kitobida Husayniyning 39 g‘azali, 2 muxammasi va Navoiyning Husayniy g‘azaliga yozgan muxammasi berilgan. 1959-yilgi “O‘zbek adabiyoti” majmuasidan esa Husayniyning 31 g‘azali va muxammasilari joy olgan. Aytish zarurki, majmua va xrestomatiyalarda ketma-ket Husayniy



she'riyatidan parchalarning berilishi shoir g'azaliyotining keng ommaga yetib borishini ta'minladi, filologiyada uning ijodiy merosini tadqiq etish masalasini ko'ndalang qo'ydi.

Po'lotjon Domulla Qayyumiy tomonidan XX asrning o'rtalarida tuzilgan "Tazkirayi Qayyumiy"da Husayniy hayoti va faoliyati xususida muhim ma'lumotlar berilgan. Tazkira muallifi Qayyumiy (1998) "Olim, adib, shoir bo'lganidan Umarshayx avlodining obro'yi bo'lib tanilmishdur" (6.54), deb Husayniyning iste'dodini yuqori baholaydi. Davr fozillari, shoirlari orasida Husayn Boyqaroning mavqeyi yuqoriligi, she'rlari shuhrat tutganiligini ta'kidlab, "Sulton Husayn o'zi zo'r shoiri nuktasanj bo'lub, ash'ori obdorlari maqbuli omdur" (6.55), deb yozadi. Olim "Majolis ul-ushshoq" asarini Husayniyga nisbat beradi. Tazkirada "Bu g'azal nashidan ta'bidandur" sarlavhasi ostida Husayniyning "Ohkim bag'rim firoq-u dard o'qidin qoradur", "Necha hijron sog'aridin dambadam o'zdin boray", "To'kub qonim tarahhum qilmading hech" misrasi bilan boshlanuvchi g'azallari to'liq berilgan. "Aylama" va "Desam" radifli g'azallarining bir baytigina namuna sifatida keltirilgan. Po'lotjon domla tazkiraning tabiatidan kelib chiqib ko'proq Husayniy hayotiga to'xtalgan, ijodi to'g'risida qisqacha ijobiy mulohazalarni bildirish bilan cheklanib, she'riyatidan ayrim namunalar keltiradi.

TADQIQOTNING USULLARI. Ozarbayjonlik olim Hamid Araslining "Husayn Boyqaro "Risola"si haqida" nomli maqolasi ilk bor o'zbek ilm-faniga Husayniy qalamiga mansub nasriy asar borligini ma'lum qildi. Hamid Arasli turkiyalik olim Ismoil Hikmat tomonidan Omosiya kutubxonasidan topilib, 1945-yili Istanbul universitetida chop etilgan "Risolayi Husayn Boyqaro" fotosurati haqida xabar beradi. Shundan keyin Husayn Boyqaroning o'zbek tilida yozilgan nasriy asari borligi oydinlashadi. Hamid Arasli (1966) mazkur maqolada shunday yozadi: "Asli Omosiyada saqlangan bu risola turk professorining bergan ma'lumotiga ko'ra, Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin" asari bilan bir muqovada bo'lganidan kutubxonada Navoiy asari nomi bilan qayd etilgan" (6.6). "Risola"ning ushbu fotonusxasi 1954-yili turkolog Turxon Ganjaviy tomonidan italyancha tarjimasi bilan birgalikda Rimda nashr qilingan. Hamid Arasli o'zbek adabiyotshunoslaridan farqli o'laroq "Boburnoma"dagi dalillarga tayanib Husayn Boyqaroga nisbat berilgan, aslida, Kamoliddin Husayn qalamiga mansub "Majolis ul-ushshoq" asarining Husayniyga hech qanday aloqasi yo'qligini konkret dalillaydi. Maqolada "Risola"ning yozilish tarixi xususida bahs yuritilib, Hamid Arasli (1966), "Asar 1485-1492-yillar orasida yozilgan" (6.7) degan xulosaga kelingan. Hamid Arasli Porso Shamsiyev yordami bilan fotofaksimilini bosmaga tayyorlab maqola so'ngiga "Risolayi Husayn Boyqaro" matnini ilova qilgan. Alisher Navoiy tavalludining 525 yillik yubileyi munosabati bilan 1968-yili S.G'aniyevaning "Navoiy va Husayn Boyqaro" maqolasi e'lon qilindi. Olimaning Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari xususidagi qarashlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Navoiy va Husayn Boyqaro markazlashgan davlat asoschisi;
2. Navoiy va Husayn Boyqaro ilm-ma'rifat, san'at homiysi;
3. Navoiy va Husayn Boyqaro Hirot adabiy muhitining sarkori;
4. Navoiy va Husayn Boyqaro o'zbek tilining himoyachisi;
5. Navoiy – Husayniy ijodining ilk matnshunosi;
6. Husayniy – Navoiy ijodining ilk biografi.

S.G'aniyeva Navoiy shaxsiyati, shoirlik mahorati xususida so'z yuritganda Hamid Arasli ilm-fanga taqdim etgan "Risolayi Husayn Boyqaro" matniga murojaat qiladi. Maqola so'ngida berilgan "Husayn Boyqaro asarlari qo'lyozmalari va nashrlari to'g'risida"gi ilovada Husayniy devonining O'zbekistonda saqlanayotgan 6967, 7709, 1117, 1942-raqamli qo'lyozmalari hamda Rossiya, Turkiya, Angliya, Fransiya davlati kutubxona va fondlarida mavjud "Devon" qo'lyozmalarining

tavsifi berilgan.

S.G'aniyeva 1968-yili Sh.Abdullayeva bilan hamkorlikda "Husayn Boyqaro. Devon. Risola"ni nashr ettirdi. Kitob muqaddimasida Husayn Boyqaroning tarjimai holi, Xuroson davlatining ijtimoy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi boshqaruvi, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari, ularning ilm va olimlarga homiyligi xususida so'z yuritilgan. Mazkur so'zboshi Husayniy faoliyati haqida batafsil ma'lumot berishi bilan katta ilmiy ahamiyatga ega. Kitobga Husayniyning g'azal, muxammas, ruboiy kabi janrlardagi she'rlari va "Risolayi Husayn Boyqaro" asari kiritilgan.

NATIJALAR. Hamid Araslining "Risola" haqidagi tekshirishlari keyinchalik A.Abdug'afurovning "Risolayi Husayn Boyqaro"ning yaratilish tarixidan" maqolasining yozilishiga turtki bo'ldi. Mazkur tadqiqot nafaqat "Risola"ning yozilish sababini aniqlash, Husayniy ijodiy merosini tiklash va o'rganish nuqtayi nazaridan, balki Alisher Navoiy ilmiy-adabiy faoliyatining ayrim masalalariga aniqlik kiritishi, Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini kengroq tasavvur etish jihatidan ilmiy qimmatga molikdir. Olim "Risola"ning mazmun-mohiyatiga chuqur yondashib XV asr ikkinchi yarmi XVI asr boshlaridagi Hirot adabiy muhiti, "Oliy majlis" va "Madrasayi Oliya"lar faoliyati, ilm va san'at ahliga yaratilgan sharoitlar, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro faoliyatidagi mushtaraklik, Alisher Navoiy "Xamsa"si yozib tugatilganidan so'ng Husayn Boyqaroning ulug' shoirga munosabati, "Badoye ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" devonlarining yozilish tarixi xususida ilmiy xulosalarini bayon etadi. "Risolayi Husayn Boyqaro"ning 1485-yilda yozilganini aniqlaydi va "Risola"ning yozilish tarixiga oid noaniqliklarga chek qo'yadi.

A.Abdug'afurov "Risolayi Husayn Boyqaro" tadqiqiga oid ilmiy izlanishlarini davom ettirib, 1979-yilda ikkita: "Alisher Navoiy va "Risolayi Husayn Boyqaro" hamda "Alisher Navoiy "Risolayi Husayn Boyqaro" haqida" maqolalarini e'lon qiladi. "Alisher Navoiy va "Risolayi Husayn Boyqaro" deb nomlangan maqola yuqorida tahlil etganimiz "Risolayi Husayn Boyqaro"ning yaratilish tarixidan" sarlavhali tadqiqotning qayta ishlangan va to'ldirilgan variantidir. Olim "Risola" xususida adabiyotshunoslar tomonidan ilgari surilgan fikrlarni iqtibos tarzida keltirib o'z qarashlarni ilmiy asoslagan. "Alisher Navoiy "Risolayi Husayn Boyqaro haqida" nomli ikkinchi maqolada Husayn Boyqaro "Risola"sining Alisher Navoiyga bag'ishlanmaganligi aytiladi. Olimning bu xulosasi "Risolayi Husayn Boyqaro"ning mazmuniga aloqador bo'lib, darhaqiqat, "Risola" muqaddimasida an'anaviy hamd va na't qismidan keyin Husayn Boyqaro o'z shaxsiyati haqida so'z yuritadi, shoh bo'lganligiga shukrona keltiradi, hukmronligi zamonida Xuroson elida ko'p ijobiy o'zgarishlar ro'y berganidan faxrlanadi. A.Abdug'afurov Husayniyning e'tirof va ta'kidlariga urg'u berib, "Risola" Husayn Boyqaroning o'z xizmatlarini faxriya ruhida bayon qilishiga bag'ishlanganligini yozadi.

Husayniy she'riyatining ilk jiddiy tadqiqiga yetmishinchi yillarning o'rtalarida duch kelish mumkin. Mana shunday tadqiqotlardan biri sifatida "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'pjildlik tadqiqotini ko'rsatish mumkin. Ushbu kitobning "Husayn Boyqaro" qismi S.G'aniyeva tomonidan yozilgan. Bunda Husayniy devoniga kiritilgan lirik asarlarning deyarli barchasi muhabbat mavzusida yozilgani, shoir g'azallarida uch obraz: mahbuba, oshiq va "yana bir zot"ning yetakchi ekanligi, may mavzusidagi baytlarida an'ana yo'lidan borilgani tahlillar asnosida ochib beriladi. Shoir she'rlarining badiiy jihatdan puxta va yetukligi, rang-barang poetik vositalarning she'rlar badiiyatiga singdirib yuborilganligi g'azallar misolida asoslanadi.

MUHOKAMA. Mustaqillik yillarida Husayniy hayoti va ijodini o'rganish, targ'ib qilish, nashr etishda muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1991-yil Husayn Boyqaroning 56 g'azali kiritilgan "Jamolingdin ko'zum ravshan" kitobi chop etildi. Xuddi shu yili Alibek Rustam va Karimbek Hasan tomonidan "Risolayi Husayn Boyqaro" nashrga tayyorlandi. Risolaning to'liq matnini tuzishda turk



olimi Ismoil Ertaylon fotonusxasi, afg'onistonlik olim Muhammad Ya'qub Juzjoniyy tayyorlagan Kobul nashri, ozarboyjonlik olim Hamid Arasli taqdim etgan matn asos qilib olingan.

To'qsoninchi yillarda Husayniy hayoti va faoliyati, ijodiy merosini o'rganish, devonini nashrga tayyorlash ishlari ancha jadallashdi. 1995-yili tarixchi olim T.Fayziyevning "Husayn Boyqaroning sirli o'limi", A.Erkinovning "Shoh va shoir" kitoblari nashr etildi. "Husayn Boyqaroning sirli o'limi" kitobida Husayn Boyqaroning tarjimai holi, oilasi, o'g'il va qizlari hamda hayotining so'nggi kunlari haqida muhim ma'lumotlar berilgan. T.Fayziyev o'tmish manbalarga tayanib Xuroson hukmdorining hayot yo'li, saltanatdorligi, Alisher Navoiy bilan do'stligi, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini yoritadi. Risolaning ilmiy muharriri H.Bobobekov iborasi bilan aytganda, T.Fayziyev husayniyshunoslikda "kerakli va zarur tadqiqot" yarata oldi.

A.Erkinov "Shoh va shoir. Husayn Boyqaro. Risola. Devon" nomli kitobni nashrga tayyorlashda Husayniy devonining Kobul nashrini asos qilib olgan. Shuningdek, Toshkent nusxasi (1968)dan ham keng foydalangan. Kitobdan Husayniyning "Risolayi Husayn Boyqaro" asari va 202 ta g'azali o'rin olgan.

A.Abdug'afurov mustaqillik yillarida ham Husayniy ijodiga oid tadqiqotlar e'lon qildi. Olimning "Buyuk beshlik saboqlari" kitobiga "O'n birinchi taxmis" (Alisher Navoiyning Husayniy g'azaliga taxmisi) hamda "Navoiy va Husayniy" sarlavhali maqolalar kiritilgan. "O'n birinchi taxmis"da muallif Husayniy lirik merosining amalga oshirilgan nashrlarida hammasi bo'lib uch muxammas keltirilgani va barchasi Alisher Navoiy g'azallariga bag'ishlangan taxmislar ekanligi, ular Husayniyning "Navoiy g'azallariga muxammaslari" sarlavhasi ostida berilganligini yozadi. A.Abdug'afurov o'z fikrlarini ilmiy dalillashda taxmislar uchun asos bo'lgan g'azallarni aniqlab "G'unchayi xandon borib ko'nglumda qoldi xor-xor" g'azali Husayniyga tegishli ekanligi, muxammas esa Alisher Navoiyning Husayniy g'azaliga bog'langan taxmisi bo'lib, kotiblar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolik oqibatida muxammaslarning muallifi xususida ilmda xato fikrlar bayon qilinganini qayd etadi.

A.Abdug'afurov "Navoiy va Husayniy" nomli ikkinchi maqolasida Husayniyning iste'dodi, adabiy salohiyati, she'riyatining mazmundorligi, qo'llagan badiiy san'atlari va ravon uslubi, ayni paytda davr adabiy jarayonidagi xizmatlarining Alisher Navoiy asarlarida aks ettirilishi haqida so'z yuritilgan. A.Abdug'afurov adabiyothunoslikda Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari Hodi Zarif, V.Zohidov, S.G'aniyevalar tomonidan "davlat arbobi va hukmdor", "ijodkor va hukmdor" o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar negizida o'rganilgani kuzatilishini alohida qayd etadi. A.Abdug'afurov esa ushbu maqolada Navoiy va Husayniy o'rtasidagi munosabatlarni "ulug' shoir va mutafakkir Navoiy hamda iste'dodli ijodkor, sohibi devon Husayniy" misolida tadqiq etgan.

1996-yil S.Erkinovning "Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro forsiy g'azallariga tatabbulari" maqolasi bosildi. Maqolada Alisher Navoiyning "Devoni Foniyy"da "Tatabbuyi sulton ul-fusaho Husayniy, xallada mulkahu" sarlavhali ikkita g'azali tahlilga tortilgan. S. Erkinov Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro forsiy g'azallariga yozgan har ikki nazirasi ham "Monda" radifli ekaniga tayanib, Husayn Boyqaroning ham "Monda" radifli g'azali bir emas bir necha bo'lishi mumkin, degan xulosani bildiradi. S.Erkinov Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro forsiy g'azallarini qiyosiy yo'sinda o'rganib Husayniy she'ridagi o'ziga xoslik, obrazlilik, ayni paytda tasavvufiy ma'no-mohiyatga o'quvchi e'tiborini tortadi.

1997-yili B.Jalilov va Z.Eshonovlar tomonidan chop ettirilgan "Sulton Husayn Bayqaro" nomli risolada Husayn Boyqaroning o'zbek xalqi madaniyatini jahonga tanitishda qo'shgan hissiy, salohiyati, ilm-fan, san'at rivojidagi roli tog'risida fikrlar bildirilgan. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari ikki inson, ikki do'st hamkorligi, ikki ijodkor mushtarakligi negizida o'rganilgan. Risolada Husayniyning badiiy mahorati tekshirilar ekan davr she'riyatidagi o'rni, boshqa ijodkorlardan farqli tomonlari xususida so'z yuritiladi. Husayniy g'azallari kompozitsiyasini o'rganish



asnosida shoir devonidagi gʻazallarning koʻpchiligi parokanda gʻazallardan iboratligi, bu tur gʻazallarda baytlar oʻrtasida uzviy bogʻlanish yetarli boʻlmasligi misollar asosida izohlangan. Mualliflar Sulton Husayn Boyqaroning turkiy va fors-tojik adabiyoti hamkorligiga keng yoʻl ochib bergani Amir Temurning vorislari ichida Mirzo Ulugʻbek, Zahiriddin Muhammad Bobur qatorida Husayn Boyqaroning mehnati va tashabbusi katta boʻlganiga alohida eʼtibor qaratishgan.

Значение: Это моральное утверждение, связанное с религиозной верой в то, что зло и несправедливость будут наказаны, и гнев Всевышнего настигнет угнетателей.

وقتی او آن همه ظلم کرد، مردم گفتند ظلم پایدار نمی ماند *vaqti u ān hame zolm kard, mardom goftand zolm pāydār nemimānad* "Когда он совершил столько несправедливости, люди сказали: «Несправедливость не будет вечной.»"³

Эти примеры отражают сочетание религиозных и моральных убеждений, связанных с гневом и желанием справедливости в персидском языке.

Культурные аспекты выражения гнева

Социальные ограничения и нормы

Культурные нормы и социальные ожидания в Иране оказывают значительное влияние на выражение эмоций, включая гнев.

В традиционном персидском обществе существуют строгие социальные иерархии, и от младших ожидается проявление уважения к старшим. Это также относится к тому, как выражается гнев: публичное выражение этой эмоции может считаться нарушением норм приличия.

В семьях и общественных местах от людей ожидается сдержанность, и выражение гнева часто ограничивается косвенными средствами, такими как сарказм или тонкие намеки, чтобы избежать открытой конфронтации. Выражение гнева напрямую может быть воспринято как оскорбление и угрозой социальным связям, что делает сдержанность ключевым элементом культурной коммуникации.⁴

В персидском языке выражение гнева часто ограничивается культурными и социальными нормами, что отражает уважение к морали, общественным устоям и важность сохранения лица в обществе. Приведем примеры, которые иллюстрируют эти культурные и социальные аспекты выражения гнева:

1. **آبرویش را بردن** *ābru-yaš rā bordan* "Унести его честь (репутацию)"

¹ علی اکبر دهخدا «کتاب فرهنگ امثال و حکم فارسی انتشارات دانشگاه تهران، ۱۳۷۳

² محمد جعفری کتاب «اصطلاحات مذهبی در زبان فارسی» انتشارات طه، ۱۳۸۵

³ دکتر علی شریعتی «کتاب عدالت و ظلم در فرهنگ اسلامی انتشارات قلم، ۱۳۶۸

⁴ Amouzadeh M. Politeness and face-threatening acts in Persian: Issues in the translation of politeness in different languages. In Persian Linguistics – Tehran: University Press, 2003. – pp. 45-62



Значение: В персидской культуре важность чести (آبرو *ābru*) очень высока. Это выражение означает опозорить или уничтожить репутацию человека, что может вызвать гнев или напряжение. Гнев здесь выражен через социальное воздействие на честь и репутацию.

وقتی به او تهمت زدند، گفت این کار آبرویم را برد *vaqti be u tohmati zadand, goft in kar ābru-yam rā bord* "Когда ему клеветали, он сказал: «Это дело унесло мою честь.»"¹

2. دندان روی جگر گذاشتن *dandān ru-ye jegar gozāštan* букв. "Положить зубы на печень."

Значение: Это выражение означает терпеть и подавлять свой гнев, сдерживая эмоции ради сохранения спокойствия и общественного порядка. В иранской культуре сдержанность и терпение считаются важными добродетелями, особенно в конфликтных ситуациях.

با اینکه خیلی عصبانی بود، دندان روی جگر گذاشت و چیزی نگفت

bā inke xeyli asabāni bud, dandān ru-ye jegar gozāšt va čizi nagoft. «Несмотря на то, что он был очень зол, (букв. он положил зуб на печень) сдержался и ничего не сказал»²

3. خون سرد بودن *xun sard budan* "Быть с холодной кровью."

Значение: Описывает человека, который сохраняет спокойствие и самообладание даже в ситуации, которая могла бы вызвать гнев. В персидском обществе сдержанность и умение контролировать эмоции являются социально одобряемыми качествами.

او همیشه خون سرد است و در سخت‌ترین لحظات هم عصبانی نمی‌شود *u hamiše xun sard ast va dar saxt-tarin lahzāt ham asabāni nemišavad.*

"Он всегда хладнокровен и не сердится даже в самых сложных ситуациях."³

4. برو خودت را جمع کن *boro xodet rā jam kon* "Иди, собери себя."

Значение: Это выражение используется для того, чтобы сказать человеку успокоиться и держать себя в руках. Оно передаёт социальное давление на сдержанность в обществе и демонстрацию самоконтроля. В ситуации гнева человек может получить такой совет, чтобы не потерять лицо перед другими.

وقتی او شروع به داد و فریاد کرد، همه به او گفتند برو خودت را جمع کن *vaqti u shoru' be dād o faryād kard, hame be u goftand boro xodet rā jam kon.* "Когда он начал кричать, все ему сказали: «Иди, собери себя.»"⁴

5. کاسه صبر لبریز شدن *kāse-ye sabr labriz šodan* "Чаша терпения переполнилась."

Значение: Описывает момент, когда терпение человека заканчивается и он больше не может сдерживать гнев. Хотя в персидской культуре ценится терпение, существуют пределы, после которых гнев может вырваться наружу.

بعد از آن همه مشکلات، کاسه صبرش لبریز شد و شروع به اعتراض کرد *ba'd az ān hame moškelāt, kāse-ye sabreš labriz šod va šoru' be eterāz kard.* "После всех этих проблем его чаша терпения переполнилась, и он начал протестовать."⁵

Эти выражения отражают социальные и культурные ограничения в выражении гнева в персидском обществе, где сдержанность и уважение к общественным нормам ценятся выше, чем открытое проявление негативных эмоций.

Гендерные различия в выражении гнева

Гендерная динамика играет значительную роль в том, как гнев выражается и воспринимается в иранском обществе. От мужчин, как правило, ожидается более открытое

¹ علی بلوکباشی «کتاب «آداب و رسوم ایرانیان انتشارات پژوهشگاه میراث فرهنگی، ۱۳۸۰

² محمد جعفری «کتاب «فرهنگ عامه مردم ایران انتشارات امیرکبیر، ۱۳۷۵

³ حمید عنایت «کتاب «فرهنگ اجتماعی ایران انتشارات خوارزمی، ۱۳۶۳

⁴ دکتر صادق زیبا کلام «کتاب «مفاهیم و هنجارهای اجتماعی در ایران انتشارات نی، ۱۳۷۲

⁵ حسن انوری «کتاب «فرهنگ اصطلاحات فارسی انتشارات سخن، ۱۳۸۵

проявление эмоций, включая гнев, особенно если это связано с защитой чести семьи или собственной репутации. Мужской гнев может рассматриваться как проявление силы и авторитета.

В противоположность этому, женщины в традиционном иранском обществе, как правило, должны проявлять сдержанность в выражении гнева. Открытое проявление агрессии женщинами может быть социально неприемлемым и восприниматься как нарушение женских ролей, ассоциируемых с мягкостью, терпением и заботой. Однако это не означает, что женщины полностью лишены права выражать свои эмоции, но их гнев часто проявляется более косвенными способами, например, через пассивную агрессию или невербальные сигналы.¹

В персидском языке выражение гнева может варьироваться в зависимости от гендера, отражая традиционные социальные роли и культурные ожидания, связанные с поведением мужчин и женщин. Важно отметить, что в традиционном иранском обществе женщины и мужчины часто выражают гнев по-разному, следуя культурным нормам, которые поощряют сдержанность для женщин и определённую активность для мужчин. Приведем примеры:

1. چشم و ابرو آمدن *češm o abru āmadan* "Поднять брови и глаза."

Значение: Это выражение связано с женской манерой выражать недовольство или гнев через невербальные знаки, такие как поднятие бровей, взгляд, молчание. Это тонкое, но выразительное проявление гнева, ожидаемое от женщин, которым культурно предписывается выражать эмоции сдержанно.

وقتی دیر به خانه آمد، همسرش فقط با چشم و ابرو آمدن نارضایتی خود را نشان داد *vaqt-i dir be xāne āmad, hamsaraš faqat bā češm o abru āmadan-e nārezāyati xod rā nešān dād.*

"Когда он поздно вернулся домой, его жена выразила недовольство только через взгляд и поднятие бровей."²

2. داد و فریاد کردن *Dād o faryād kardan* "Кричать и вопить"

Значение: В традиционном иранском обществе кричать и открыто выражать гнев чаще ассоциируется с мужчинами. Мужчинам позволено выражать гнев громче и более активно в соответствии с культурными ожиданиями мужественности.

وقتی او از کارش اخراج شد، در خانه داد و فریاد کرد *vaqti u az kāraš exrāj šod, dar xāne dād o faryād kard.* "Когда его уволили с работы, он начал кричать и вопить дома."³

3. زهر زبان ریختن *zahr-e zabān rixtan* "Изливать яд языка"

Значение: Это выражение описывает словесное выражение гнева, чаще ассоциируемое с женщинами, когда гнев проявляется через язвительные, острые слова. В обществе ожидания часто заключаются в том, что женщины используют гнев в вербальной, а не физической форме.

وقتی او خیلی ناراحت شد، شروع به زهر زبان ریختن کرد *vaqti u xeyli narāhat šod, šoru' be zahr-e zabān rixtan kard.* "Когда она очень расстроилась, она начала изливать яд через слова."⁴

4. خون به جوش آمدن *xun be juš āmadan* "Кровь закипела."

¹ Zarifian M. Gender differences in expressing anger in Persian Tehran: Allameh Tabataba'i University Press, 2011 – pp. 57-68.

² زهرا یزدانپناه «کتاب» نقش زن در جامعه ایرانی انتشارات علمی، ۱۳۸۳

³ دکتر شهلا شفیعی «کتاب» جامعه‌شناسی جنسیتی در ایران انتشارات نگاه، ۱۳۸۶

⁴ دکتر مهرانگیز کار «کتاب» زنان و قدرت در ایران انتشارات روشنگران، ۱۳۸۰



Значение: Это выражение универсально и может использоваться как мужчинами, так и женщинами для описания сильного гнева, но с точки зрения культуры сильные эмоции и физическое проявление гнева больше допустимы для мужчин, чем для женщин.

وقتی شنید که به خانواده‌اش توهین کرده‌اند، خورش به جوش آمد *vaqt-i šenid ke be xānevāde-aš tohin karde-and, xun-aš be juš āmad*. "Когда он услышал, что оскорбили его семью, его кровь закипела."¹

5. گریه کردن از خشم *gerye kardan az xašm* "Плакать от гнева"

Значение: В иранской культуре плач часто ассоциируется с женским способом выражения сильных эмоций, в том числе гнева. Женщинам традиционно приписывают выражение гнева через слёзы, что считается приемлемой и «мягкой» формой выражения чувств.

وقتی فهمید که چه اتفاقی افتاده است، از خشم گریه کرد *vaqt-i fahmid ke če etefāqi oftāde ast, az xašm gerye kard*. "Когда она поняла, что произошло, она заплакала от гнева."²

Примеры показывают, как гендерные различия в выражении гнева могут проявляться в персидском языке, отражая ожидания общества и культурные нормы поведения для мужчин и женщин.

Невербальные формы выражения гнева

Жесты и мимика

Невербальные формы выражения гнева в персидской культуре также заслуживают внимания. Жесты, мимика и интонация могут иметь важное значение для передачи эмоционального состояния, даже если сам гнев не выражен словами. Например, интенсивное движение рук, резкие жесты, поджатые губы или сердитое выражение лица могут сигнализировать о внутреннем напряжении или раздражении.³

Сжатые кулаки – когда человек сжимает кулаки, это часто сигнализирует о внутреннем напряжении и гнeve.

وقتی او دستش را مشت کرده بود، فهمیدم که عصبانی است *vaqt-i u dast-aš rā mušt karde bud, fahmidam ke asabāni ast*. "Когда он сжал кулаки, я понял, что он зол."

Нахмуренные брови – часто свидетельствуют о недовольстве или гнeve.

او با چهره عبوس و برافروخته به من نگاه کرد *u bā čehre-ye abus va barāfruxte be man negāh kard*. "Он посмотрел на меня с нахмуренным и сердитым лицом."

Указание пальцем на собеседника или предмет может восприниматься как агрессивный жест.

او با انگشت به من اشاره کرد و فریاد زد *u bā angošt be man ešare kard va faryād zad*. "Он указал на меня пальцем и закричал."

Качание головой из стороны в сторону может выражать отказ или недовольство.

او سرش را تکان می‌داد و با بی‌حوصلگی حرف می‌زد *u saraš rā tekān midād va bā bi-hoselgi harf mizad*. "Он качал головой и говорил с раздражением."

Увеличение дистанции, когда человек отступает или удаляется от собеседника, это может сигнализировать о его гнeve или желании избежать конфликта.

¹ حسن انوری «کتاب فرهنگ اصطلاحات عامیانه انتشارات سخن، ۱۳۹۰»

² دکتر فریبا صادقی «کتاب روانشناسی زن ایرانی انتشارات آگاه، ۱۳۸۸»

³ Shirazi H. Non-verbal communication in Persian culture *Journal of Cross-Cultural Psychology*, № 39(6), 2008. – 793-814.

⁴ نیکویی بهزاد عواطف در زبان فارسی تهران: انتشارات فاطمی، ۱۳۹۵

⁵ انوری حسن فرهنگ بزرگ سخن تهران: انتشارات سخن، ۱۳۹۲

⁶ وفایی اسماعیل فرهنگ اصطلاحات فارسی تهران: انتشارات نگاه، ۱۳۹۳

⁷ روشن نسرين زبان و فرهنگ ایران تهران: انتشارات معین، ۱۳۹۱



او به آرامی از من دور شد، مشخص بود که عصبانی است¹

u be ārāmi az man dur šod, mošaxxas bud ke asabāni ast. “Он тихо отошел от меня, было очевидно, что он зол.”

Интонация и ритм речи

Изменение интонации и ритма речи — еще один способ выражения гнева. Персидская культура придает большое значение манере общения, и повышение голоса или ускорение речи могут являться индикатором эмоционального состояния. В то время как спокойная и размеренная речь ассоциируется с контролем и уважением, внезапное повышение голоса может восприниматься как сигнал к началу конфликта.

Повышение тона: При выражении гнева интонация часто возрастает, что может сигнализировать о напряжении и эмоциональном всплеске. Например, в предложении "چرا این کار را کردی؟" *čērā in kār rā kardi?* "Почему ты это сделал?" интонация на последнем слове может резко подниматься, выражая недовольство или удивление.

Ударение: В выражениях гнева определенные слова могут акцентироваться для усиления эмоций. Например, в фразе "من خیلی عصبانی هستم" *man xeyli asabāni hastam!* "Я очень зол!" слово "خیلی" *xeyli* "очень" может произноситься с особым ударением, подчеркивая силу гнева.

Монотонность: Иногда люди, испытывающие гнев, могут говорить монотонно, без эмоций, что может указывать на подавленный гнев или глубокое разочарование. В таких случаях фраза может звучать как "دیگر نمی‌توانم تحمل کنم" *digar nemitavānam tahammol konam!* "Я больше не могу терпеть!" с ровным, низким тоном, что подчеркивает безысходность ситуации.

ВЫВОД. Таким образом можно сделать вывод выражение гнева в персидском языке и культуре является сложным явлением, включающим как вербальные, так и невербальные формы. В лингвистическом плане гнев в персидском языке выражается через:

1. Лексические средства: специальные слова и выражения, описывающие разные степени эмоции.
2. Фразеологизмы: устойчивые выражения, передающие гнев в различных контекстах.
3. Морфологические средства: использование усилительных суффиксов и префиксов для создания более эмоциональных слов.
4. Интонация и акцент: изменение тона и ударения на ключевых словах для передачи интенсивности гнева.
5. Синтаксические средства: изменение структуры предложения, например, использование коротких, резких фраз или риторических вопросов, что усиливает выражение недовольства.

Социальные и культурные нормы, религиозные убеждения и гендерные различия оказывают значительное влияние на то, как эта эмоция проявляется и воспринимается в обществе. Лингвистический анализ показывает, что персидский язык предлагает богатый арсенал средств для выражения гнева, но социальные ограничения часто требуют от носителей языка проявления сдержанности и дипломатичности.

Выражение гнева — это многослойный процесс, который требует внимательного анализа различных компонентов языка и культуры. Осознание этих факторов не только обогащает наше понимание персидского языка, но и открывает новые горизонты для изучения и

¹ میرزایی فرهاد چالش‌های اجتماعی زنان در ایران تهران: انتشارات نی، ۱۳۹۰



межкультурного общения, подчеркивая важность эмоциональной интеллигентности в любой форме коммуникации.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

На русском языке:

1. Иванов В.Б. Очерк теории персидского языка. В двух томах изд. Садр. М. - 2020.
2. Павлова О.С. Психология религии в исламской парадигме: состояние и перспективы развития. Ислам в современном мире. 2015.
3. Рубинчик Ю. А., Грамматика современного персидского литературного языка. — Москва: Восточная литература РАН, 2001. — 601 с.
4. Суркова Е.В. Гендерные особенности авторского описания невербального выражения страха и гнева мужчин и женщин в текстах массовой литературы России и Германии // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2017. №3-1 (69).
5. Шаховский В.И. Лингвистическая теория эмоций: Монография. — М., Гнозис, 2008. — 416 с.

На английском языке:

1. Amouzadeh M. Politeness and face-threatening acts in Persian: Issues in the translation of politeness in different languages. In Persian Linguistics – Tehran: University Press, 2003.
2. Shirazi H. Non-verbal communication in Persian culture. Journal of Cross-Cultural Psychology, № 39(6), 2008.
3. Zarifian M. Gender differences in expressing anger in Persian. Tehran: Allameh Tabataba'i University Press, 2011.

На персидском языке:

1. دکتر حسن انوری. فرهنگ بزرگ سخن. جلد چهارم، ص. 3454
2. علی اکبر دهخدا. لغت نامه. تهران. ۱۳۱۰ - ۱۳۰۹
3. دهگان، بهمن. فرهنگ جامع ضرب‌المثل‌های فارسی. تهران: فرهنگستان زبان و ادب فارسی، ۱۳۸۳

Источники:

1. انوری، حسن. فرهنگ بزرگ سخن. تهران: انتشارات سخن، ۱۳۹۲.
2. انوری، حسن. فرهنگ اصطلاحات و تعبیرات فارسی. تهران: انتشارات سخن، ۱۳۹۰.
3. انوری، حسن. کتاب «اصطلاحات و ضرب‌المثل‌های فارسی». تهران: انتشارات سخن، ۱۳۹۰.
4. بلوکباشی، علی. آداب و رسوم ایرانیان. تهران: انتشارات پژوهشگاه میراث فرهنگی، ۱۳۸۰.
5. جعفری، محمد. اصطلاحات مذهبی در زبان فارسی. تهران: انتشارات طه، ۱۳۸۵.
6. جعفری، محمد. فرهنگ عامه مردم ایران. تهران: انتشارات امیرکبیر، ۱۳۷۵.
7. دهخدا، علی‌اکبر. لغت‌نامه دهخدا. تهران: انتشارات دانشگاه تهران، ۱۳۷۷.
8. شریعتی، علی. عدالت و ظلم در فرهنگ اسلامی. تهران: انتشارات قلم، ۱۳۶۸.
9. صادقی، فریبا. روانشناسی زن ایرانی. تهران: انتشارات آگاه، ۱۳۸۸.
10. عنایت، حمید. فرهنگ اجتماعی ایران. تهران: انتشارات خوارزمی، ۱۳۶۳.
11. موسوی، مرتضی. زبان‌شناسی و فرهنگ. تهران: انتشارات علمی، ۱۳۹۰.
12. نیکویی، بهزاد. عواطف در زبان فارسی. تهران: انتشارات فاطمی، ۱۳۹۵.
13. یزدان‌پناه، زهرا. نقش زن در جامعه ایرانی. تهران: انتشارات علمی، ۱۳۸۳.
14. زیبا کلام، صادق. مفاهیم و هنجارهای اجتماعی در ایران. تهران: انتشارات نی، ۱۳۷۲.
15. کار، مهرانگیز. زنان و قدرت در ایران. تهران: انتشارات روشنگران، ۱۳۸۰.
16. میرزایی، فرهاد. چالش‌های اجتماعی زنان در ایران. تهران: انتشارات نی، ۱۳۹۰.
17. وفایی، اسماعیل. فرهنگ اصطلاحات فارسی. تهران: انتشارات نگاه، ۱۳۹۳.



“GUNKI MONOGATARI” BADIYY TIL XUSUSIYATLARI VA TIPOLOGIYASI

JAVOXIR ABUBAKIROV

Mustaqil tadqiqotchi, TDSHU



Annotatsiya. Yaponiya adabiy an'analari boy va uzoq tarixga ega bo'lib, yapon adabiyoti uzoq vaqt xitoy adabiyoti ta'siri ostida bo'lgan va ko'p asarlar aynan eski xitoy yozuvida yozilgan. IX asr o'rtalarida bo'g'inli yozuv –kana ning kashf qilinishi Xitoy tili o'rniga yapon tilida ijod qilish imkonini berdi. Yozuvning kashf qilinishi erta o'rta asr (IX-XII) larga borib taqaladi.

Heyan davridan so'ng Kamakura davri boshlanadi va bu davr ijtimoiy hayoti va madaniyati ham Heyan davriga nisbatan keskin farqlanib, adabiyotda yangi janrlar paydo bo'ladi. Xususan, Gunki monogatari janri paydo bo'ldi. Bu janrga oid asarlarda asosan janglar va harbiy to'ntarishlarda orasida jasorat ko'rsatgan, o'z dushmanlariga qarshi tura olish jasorati va shafqatsizlik, o'z rahbarlariga ergashish burch tuyg'usi, vassal fidoyiliklari ularni asosiy dunyoqarashi sifatida o'z aksini topdi. Bir tomondan, buddizm g'oyalari, ikkinchi tomondan, fidoyi jangchi g'ururi bilan mustahkamlangan bu xususiyatlarning barchasi ular tomonidan madaniyatga singib bordi.

Tayanch so'z va iboralar: Kamakura davr adabiyoti, Gunki monogatari, Tanka she'riy janri, Bushido kodeksi, Samuray, Seppuku, Shyogun, emakimono.

Аннотация. Японская литературная традиция имеет богатую и долгую историю, японская литература долгое время находилась под влиянием китайской литературы, и многие произведения написаны старым китайским шрифтом. В середине IX века открытие сллабического письма - кана сделало возможным писать на японском языке вместо китайского. Открытие письменности относится к раннему средневековью (IX-XIII вв.).

После периода Хэйан наступает период Камакура, и общественная жизнь и культура этого периода резко отличаются от периода Хэйан, в литературе появляются новые жанры. Строгая целеустремленность и сила воли оставались их характерными чертами во все периоды периода Камакура. Храбрость и мужественная сила, которую они проявляли в Канто между битвами и военными сражениями, их дикая отвага и непоколебимая жестокость по отношению к своим врагам, их чувство долга перед своими лидерами и их вассальная преданность сделали их основным мировоззрением.

С одной стороны, идеи буддизма, а с другой стороны, все эти черты, подкрепленные гордостью самоотверженного воина, были впитаны ими в культуру. В застойной атмосфере Хэйана действительно пахло свежим, здоровым воздухом с гор Канто. Чувствительность хэйанской эмоциональности, хэйанская элегантность сменилась предельно мужественной и бесхитростной простотой Камакуры.

Ключевые слова: Литература периода Камакура, гунки моногатари, жанр поэзии танка, кодекс бусидо, Самурай, Сеппуку, Сёгун, эмакимоно.

Annotation. Japanese literary tradition has a rich and long history, Japanese literature has long been influenced by Chinese literature, and many works are written in the old Chinese script. In the middle of the 9th century, the discovery of syllabic writing - kana made it possible to write in Japanese instead of Chinese. The discovery of writing dates back to the early Middle Ages (IX-XII).

After the Heian period, the Kamakura period begins, and the social life and culture of this period differ sharply from the Heian period, and new genres appear in literature. Strict purposefulness and strong will



power remained their characteristics in all periods of the Kamakura period. The bravery and manly strength they displayed in Kanto between battles and military engagements, their wild courage and unwavering cruelty against their enemies, their sense of duty to their leaders, and their vassal devotion made them a major worldview. On the one hand, the ideas of Buddhism, and on the other hand, all these features, strengthened by the pride of a selfless warrior, were absorbed into the culture by them. In the stagnant atmosphere of the Heian, there was indeed a breath of fresh, healthy air from the Kanto Mountains. The sensibility of Heian emotionalism, Heian elegance was replaced by the extremely masculine and artless simplicity of Kamakura.

Key words: Kamakura period literature, Gunki monogatari, Tanka poetry genre, Bushido codex, Samurai, Seppuku, Syogun, Emakimono.

KIRISH. O'rta asrlar, xususan XII – XIV asrlar yapon nasrining tarixiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrda samuraylik madaniyatining rivojlanish, hamda inson va dunyo haqidagi o'zgargan tasavvurlarga mos yangi mazmunni o'zida mujassamlashtirgan, tasviriy va adabiyotning yangi shakli "Gunki" janrining shakllanish davridir. Aynan gunki o'rta asr (XII – XIV) yapon adabiyotining asosiy janri hisoblanadi. Yapon adabiyotshunosligida o'rta asr gunki janri bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq, uning shakllanish, tadrijiy rivojlanish yo'llari, janr xususiyatlari masalasi, g'oyaviy – estetik prinsiplari, poetikasi bilan bog'liq masalalari kopleks tarzda (to'liq) o'rganilmagan. Shu jihatdan, o'rta asr yapon gunki janrining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini o'rganish, uning o'rta asrlar yapon umumiy adabiy jarayonlaridagi o'rni va rolini aniqlash kabi masalalar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

MAQSAD VA VAZIFALAR. Yapon o'rta asrlar, XII – XIV asrlarni o'z ichiga oluvchi Kamakura davri adabiyoti, "Gunki monogatari" harbiy asarlarini tadqiq qilish, hamda bu davrdagi Hogen va Heiji monogatarilar eposini o'rganish orqali ularning o'ziga xos jihatlarini ochib berishdan iborat.

USULLAR: qiyosiy tarixiy, qiyosiy tipologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MULOHAZA. Saroy adabiyoti gullab yashnagan va epik janr – *monogatari* janri rivoj topgan bu -Heyan davri (平安時代, heyana-jidai) da o'ziga xos shakli va mazmun jihatidan ajralib turuvchi janrlar: "Yaponiyaning eski va yangi she'rlari to'plami" (古今和歌集, "Kokinwakasyu") antologiyasidagi (905y) o'ziga xos *tanka*¹ poetikasi yaratilgan; "Ise haqidagi hikoya" (伊勢物語, "Ise monogatari") (931y) da o'z aksini topgan Heyan romanining maxsus turi shakllangan; "Tosadan shaharga sayohat kundaligi" (土佐日記, "Tosa nikki") (935y) dagi *nikki*² janri va "Yostiqdagi qaydlar" (枕草子, "Makura-no soshi") (996y) asaridagi *zuyxitsu*³ janrlari paydo bo'ladi.

Gunki monogatari (yaponcha 軍記物語) – adabiy janri, Kamakura davri (XII-XIV asrlar) ning asosiy harbiy hikoyaviy janri hisoblanadi. Gunki syujetining asosini milliy tarixiy voqealar o'zaro fuqarolik urushlari mavzusi tashkil etadi. Ertaklar dostonga xos bo'lgan ko'plab xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Gunkining paydo bo'lishi va tarqalishi Yaponiyaning yangi davrga o'tishi va siyosiy va ijtimoiy kuchlar va diqqatga sazovor joylarning o'zgarishi bilan bog'liq. Bu davrda adabiyotdagi

¹ Tanka (短歌) "qisqacha qo'shiq" –5-7-5-7-7 shakldagi 31 bo'g'indan iborat beshlik bo'lib, yapon milliy she'riyatining asosiy shakli.

² Горегляд В.Н. Ки-но Цураюки. М., 1983

³ СэйСёнагон, Записки у изголовья. / Пер. Со старояп. В. Марковой. М., 1975. С. 15-16



asosiy mavzu urush bo'lib qolgan. 1156-1221-yillarda o'zaro urushlar Yaponiyani larzaga keltirdi, shundan so'ng Yaponiyada harbiy diktatura rejimi o'rnatilib, Minamoto sulolasi hokimiyatni qo'lga kiritadi va harbiy shogunlar davrini boshlab beradi va haqiqiy hokimiyat Bakufu harbiy shtab-kvartirasi qo'lga o'tadi, imperatorlar esa uzoq vaqt davomida hokimiyatdan chetlatilgan. O'sha vaqtda samuraylar siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritib, mamlakatda hukmronlik qilishgan.¹ Endilikda hokimiyat va barcha vakolatlar faqatgina harbiy sinfga oid bo'lgan shaxslar qo'lida to'planib qoladi. Bu nafaqat ijtimoiy siyosiy tuzumga o'z ta'sirini o'tkazadi balki adabiyot rivojida yangi bosqich shakllanishiga turtki bo'ladi.

Endilikda siyosiy hokimiyat cho'qqisiga chiqqan samuraylar qadimgi aristokratiyaning saqlanib qolgan madaniy merosi hukmronligiga duch keldilar. Shunday qilib, shyogunatning asosiy vazifalaridan biri aristokratik madaniyatga qarshi turadigan o'z madaniyatini, birinchi navbatda, badiiy madaniyatni yaratish edi. Uni yaratish natijasi o'laroq XII asr boshlarida "Gunki" harbiy-tarixiy dostoni paydo bo'ldi. Gunki janrining yorqin namunasi sifatida "Taira xonadoni haqidagi ertak" yoki "Heyke Monogatari" nomli asarni ko'rsatishimiz mumkin. Janrning sifat jihatidan yangi pog'onaga olib chiqilishi bilan bir qatorda adabiyot ixlosmandlari orasida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Agar Heyan davri madaniyati o'zining faqatgina yuqori tabaqa vakillari uchun yozilganligi va aholining katta qismini qamrab ololmaganligi bilan ajralib tursa, Kamakura davrida bu chegaralar sezilarli darajada kengaygan. Yaponshunos olim va tadqiqotchi N.I. Konrad shunday yozadi: "Birinchidan, kitobxonlar doirasi butunlay o'zgardi; adabiy asarlar yangi hayot, yangi davlat shakllari va yangi madaniyatga tegishli bo'lib samuraylar to'g'risida yaratila boshlangandi. O'quvchi endi boshqa doiraga tegishli bo'la boshladi. O'ziga xos fikrlash tarziga ega ijtimoiy muhit shakllana boshladi. Bu doiraning chegaralari ham sezilarli darajada kengayib, ular Yaponiyada misli ko'rilmagan o'quvchilar ommasini o'z ichiga olgan. Adabiyot nafaqat yangi odamlar tomonidan o'qilgan, balki, o'zining avvalgi, mohiyatan ancha ekzotik xususiyatini yo'qotib, qamrovi kengaygan." Haqiqatda ham Heyan davri adabiyotiga nazar soladigan bo'lsak ularda asosan zodagonlar hayotiga tegishli bo'lgan voqea hodisalar yoki marosimlar haqida gap boradi. Tabiiyki oddiy xalq uchun bu kabi mavzular dolzarb bo'lmagan.

Agar dastlabki gunki monogatari asosan yirik feodal urug'lari o'rtasidagi tartibsizliklar va qarama-qarshiliklarga bag'ishlangan bo'lsa, keyinchalik bu janrda yozilgan asarlar alohida taniqli shaxslarning taqdiriga asoslangan. Masalan Soga monogatari "Aka-uka Soga ertaklari" va "Yoshitsune ertaklari" kabi gunkilar XV asrda yozilgan bo'lsada, ammo XIII-XIV asrlarda og'zaki muhitda mavjud bo'lgan oldingi hikoyalarga asoslangan.² Ya'ni og'zaki keng tarqalgan hikoyalarga asoslanib yaratilgan. Shu sababdan ham asarlar alohida alohida bo'lgan hikoyalar to'plamidan iborat.

Harbiy hikoyalar bitta muallifga ega emas va odatda bir vaqtning o'zida bir guruh odamlar tomonidan tuzilgan. Ularning paydo bo'lishining zaruriy shartlaridan biri Yaponiyada Heyan davridan buyon mavjud bo'lgan, qadimgi rivoyatlar, afsonalarni yodga soladigan, kataribe hikoyachilarining uyushgan faoliyati edi. Buning natijasida og'zaki hikoya katarimononning maxsus janri shakllandi. Ikkinchidan, o'sha davrdagi buddaviy ibodatxonalarda nafaqat va'zlarni, balki setsuva janridagi ibratli hikoya va rivoyatlarni ham omma oldida aytish an'anasi mavjud bo'lib, bu ham harbiy afsonalarning paydo bo'lishiga ta'sir qilgan.

¹永積安明『軍記物語の世界』岩波書店 2002 年

²Конрад Н. И. Очерки японской литературы. Статьи и исследования. — М.: Художественная литература, 1973. — С. 214—221.



Bunday hikoyalar turli vaqt oralig'ida ko'p marta tahrir qilinish va qayta yozish natijasida yuzaga kelgan. Rivoyatlarning tarqalish usuli yo yozma matn (yomimono) larni jamlash, yoki biva-hoshi – yurib hikoya qiluvchilarning og'zaki hikoyalari an'anasi bo'lib, buning natijasida asarlar nafaqat yirik shaharlarda, balki viloyatlarda ham mashhur bo'lishiga sabab bo'lgan. Biva-hoshi buddist ruhoniylar qiyofasida sayohat qilib, to'rt torli biva musiqa asbobi va leyta jo'rligida samuraylar to'g'risidagi afsonalarni aytib bergan. Rivoyatchilar voqealarning barcha sanalari, geografik joylashuvi, voqealar ketma-ketligi va ularda ishtirok etgan jangchilarni sanab o'tishgan, chunki qahramonlarning boshidan kechirganlari va mardonavorlarini bunchalik batafsil bayon qilish ularning ruhini tinchlantirishga xizmat qilishi mumkin, degan qarash mavjud bo'lgan. Shunga qaramay, ba'zida ular o'yin –kulgu uchun ham ishlatilgan.

Umuman olganda, rivoyatlarning yaratilish tarixini quyidagicha ifodalash mumkin: ularning alohida epizodlari og'zaki ravishda jangchilar orasida tug'ilgan, aksariyat hollarda yozma adabiyotga qo'shilmagan. Keyin ular ko'zi ojiz rohiblar tomonidan mamlakat bo'ylab yoyilib shu shaklda ibodatxonalarga yetib kelgan. O'rta asr Yaponiya ibodatxonalari madaniyat markazlari bo'lgan. Butun mamlakatdan odamlar, shu jumladan biva-hoshilar ham bu yerga yig'ilishgan. Bilimli rohiblar voqealar asosida yilnomalar tuzib, qadimiy asarlarni qayta yozganlar, masalan Yaponiyadagi birinchi adabiy yodgorlik Kojikining (VIII asr) eng qadimgi qo'lyozmasi XIV asrda ibodatxonada ko'chirilganligi ma'lum. Shunday qilib, ibodatxonalarda gunkilar ham qayta ishlaniishi va yozib olinishi mumkin bo'lgan. Ularning yozma rivoyat asarlarida (yorimono) qayd etilishining boshlanishini XII-XIII asrlar boshiga to'g'ri keladi, deb aytish mumkin.¹ Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek voqealar silsilasi XII – XIII asrlarga to'g'ri kelsa-da ularning yozma shaklga kelishi birmuncha kechroq davrga borib taqaladi. Hamda bu narsa asarlarning har xil namunalari paydo bo'lishiga olib kelgan.

Gunki janrida yozilgan asarlar quyidagilar:

- Shomonki ("Masakado yozuvlari") –bu janrda yozilgan birinchi mashhur asari, Joxey va Tengyo (936-941 yillari) qo'zg'olonlariga bag'ishlangan.

- Mutsu-vaki ("Mutsu mamlakati haqidagi afsona") - 1051-1062-yillardagi Minamoto no Yoriyoshi va Minamoto no Yoshie Mutsu viloyatining isyonkor hukmdori Abe no Yoritoki va uning o'g'illari bilan bo'lgan to'qqiz yillik urush haqida hikoya qiladi.

- Oshu gosannen ki ("Oshu yurtidagi uch yillik urush yozuvlari") "Gosannen urushi" (1083-1087-yillar) deb nomlangan yangi samuray qo'zg'olonining Minamoto no Yoshie armiyasi tomonidan shu viloyatda bostirilgani haqida hikoya qiladi.

- Hogen monogatari (Hogen haqidagi ertak) — u Hogen qo'zg'oloni voqealari va ko'zga ko'ringan shaxslari bilan bog'liq. Bu adabiy va tarixiy klassika taxminan 1320-yillarda Kamakurada tugallangan deyiladi. Hogen hikoyasida aytilgan voqealar Heiji qissasidagi hikoyaning debochasi hisoblanadi.

- Heiji monogatari (Heiji haqidagi ertak) 1159-1160-yillardagi Heiji qo'zg'oloni voqealari haqida batafsil ma'lumot beradi, unda samuraylar urug'i boshlig'i Minamoto no Yoshitomo taxt uchun kurashib Kiotoga hujum qilib, uni qamal qilgan. Unga Taira xonadonining rahbari Taira no Kiyomori qarshilik ko'rsatgan. Qissa, ko'pchilik monogatarilar kabi, uchta asosiy shaklda mavjud: yozma, og'zaki va rasm ko'rinishida.

- "Tayheiki" ("Buyuk tinchlik ertagi") XIV asrning ikkinchi yarmida yozilgan yapon tarixiy feodal dostoni hajm jihatidan bu janrda yozilgan eng yirik asar bo'lib, 40 ta o'ram (svitka) dan

¹永積安明『軍記物語の世界』岩波書店 2002 年



iborat bo'lib, uning asosiy mavzusi 1318-1367-yillardagi Janubiy va Shimoliy sulolalar o'rtasidagi urush bilan bog'liq voqealar hisoblanadi.

Tarkibiy jihatdan Tayheiki uch qismga bo'lingan. 1-12-o'ramlar imperator Go-Daigoning shikkenlarni (shogunal regentlar) - mamlakatning haqiqiy hukmdorlarini ag'darish rejalarining kelib chiqishi haqida gapiradi. 13-21-o'ramlar Nanbokucho davri voqealariga ya'ni Kyotodagi Ashikaga Takauji shimoliy tarafdorlari va Nara yaqinidagi Yoshino shahridagi imperator Go-Daigoning janubiy tarafdorlari o'rtasidagi urushga bag'ishlangan. 22-40-o'ramlar hikoyasi Shimoliy sulolaning g'alabasi va Muromachi Shogunatining tashkil topishiga qaratilgan.¹ Taiheiki shuningdek, ko'p sonli romanlar va 60 dan ortiq buddist setsuva hikoyalarini o'z ichiga oladi.

Gunkilar birinchi navbatda adabiy tilning yangi turida yozilganligi bilan ajralib turadi. Unda Heyan davrida foydalanilgan "vabun" o'rniga "vakan-kongobun" (aralash xitoy-yapon tili) ishlatilgan. Bu til butunlay ikki xil kelib chiqishga ega bo'lgan, ikkita elementdan tashkil topgan bo'lib, ular allaqachon ko'plab xitoycha birliklarni qabul qilgan, ammo ularni hali to'liq o'zlashtirmagan o'sha davrdagi Yaponiyadagi so'zlashuv nutqining haqiqiy manzarasini aks ettiradi. Boshqa tomondan, gunki tili nutqning stilistik elementlarining quyidagicha aralashmasi bilan tavsiflanadi: gagenning "nafis so'zlari" va jokugoning "vulgar" iboralari. Boshqacha qilib aytganda, gunki tilida biz Heyan monogatarini tilining elementlarini, shuningdek, bir qator umumiy oddiy xalq ishlatadigan so'zlarni ham ko'ra olamiz.

Gunkidagi tasvirlash g'ayri-oddiylik bilan ajralib turadi. Semantik vositalardan foydalanganda ulardagi notekislik va nomutanosiblikni ko'rishimiz mumkin. Metaforik va metonimik bezaklar ko'pincha juda ko'p keltirilgan. Ayniqsa taassurot uyg'otish uchungina qo'llanilgan dabdaba va bo'sh ritorika, keraksiz bezak ko'p qo'llanilgan, ba'zan ular bo'g'inga butunlay sun'iy kirish orqali paydo bo'ladi va atrofdagi stilistik muhitga yetarli darajada moslashmaydi deyish mumkin.² Ya'ni asarlarda samuraylar kiygan sovutlariyu qilichining dastagining rangi ham e'tibordan chetda qolmaydi.

Ammo yuqoridagilarga qaramay, gunki juda o'ziga xos stilistik tuzilishga ega. Unda bir vaqtning o'zida - Heyan uslubi va qo'pol nutqning mavjudligiga qaramay, xitoycha so'zlar va "Azuma uslubi" (yarim xitoy, yarim kanto tili) deb ataladigan yo'nalish ruhi seziladi. Bu juda ham o'ziga xos uslub. Balki aynan shu holatda qorishgan elementlarning bunday birikmasi o'ziga xoslik taassurotini uyg'otar. Faqat bitta narsa aniqki, Gunki asarlarida Heyan davri adabiyotidagi kabi oxir-oqibat zerikarli bo'lib qolishi kabi zaiflik umuman yo'q. Gunki monogatarida jonlilik, nutq energiyasining xarakterli ta'siri yaratilgan; ekspozitsiya Kamakura davri adabiyotiga mutlaqo noma'lum kuch bera olgan. Misol uchun Kiyomorining o'limi tasvirida, nutqning o'tkirligi, keskinligi, go'yo nutqini kesib tashlangandek, umuman noma'lum bo'lib qolishini ko'rishimiz mumkin va ana shunday energiyani bera olgan. Bir vaqtning o'zida mavjud leksik elementlarning xilma-xilligi, masalan: "nafis so'zlar", vulgarizmlar, kitaizmlar va buddistik ifodalar, - tasvirning g'ayrioddiy jonli va rang-barang ritmini yaratadi: ko'pgina monogatarilarga xos bo'lgan monotonlik va bir xillik, endi bu yerda uchramaydi. Ularning o'rniga - leksik turlarning tez o'zgarishi va qisman sintaktik qurilish; turli semantik ahamiyatga ega bo'lgan so'zlarning boyligi, kutilmagan burilishlar ko'p uchraydi.

Jang sahnalari odatda jangchining kiyimi va qurol-aslahalarining tavsiflarini o'z ichiga olib, ular jangchini ta'riflash va shaxsiy xususiyatlarni tasvirlash uchun ishlatilgan. Yana bir xarakterli

¹兵藤裕己校注『太平記』岩波書店 2014 年

²The Cambridge History of Japanese Literature. — Cambridge University Press, 2015.



xususiyat - bu jangchi haqida yoritilgan qism bo'lib, unda nafaqat uning shaxsiy ismi va unvoni, balki uning oilaviy aloqalari va yutuqlari ro'yxati ham keltirib o'tilgan.¹ Bu kabi asarga xos bo'lgan xususiyatni Gunki monogatari Heyan davri adabiyoti monogatari janridan meros qilib olgan. Lekin bunday tasfir jangichining qanday inson ekanligi va erishgan yutuqlari haqida ham to'laqonli ma'lumot bergani uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Janglarni tasvirlashda gunkilar eposga xos ko'tarinkilik va giperbolizm, keskinlik va harakat tezligini ifodalovchi dinamikaga katta e'tibor qaratgan. Afsonalar mualliflari tasvirida jangchilarning kuchi va epchilligi oddiy odamlar bajara olmaydigan hatti-harakat bo'lgan. Jangchilar odatda "yuz odam qo'zg'atishi qiyin bo'lgan" toshni ko'tarishga qodir, "besh yuzta otliq jangchining eng qalin qismini yorib kirib, ularni g'arbdan sharqqa va shimoldan janubga haydab chiqara oladigan", kutilmagan hujum bilan "dushmanlarni har tarafga chirpirak qilib uloqtirib yubora oladi"gan haybatli va g'ayrioddiy kuch-quvvat egalari sifatida tasvirlangan. Asarning umumiy shakli odatda uch qismdan iborat bo'lib, ular mos ravishda urush sabablari, janglarning borishi va urush oqibatlarini tavsiflaydi. Matnlar odatda epizodlardan tashkil topgan bo'lib, asosiy qismi qisqa hikoyalarga bo'linib, ko'pincha aniq voqealarga qaratilgan. Buning sababi matnning og'zaki uzatilishi deb hisoblanadi.

Gunki monogatari axloqini boshqaradigan yana bir asosiy qadriyatlar tizimi buddizmdir. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, buddizm va jangchi axloqi bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi bo'lib ko'rinmaydi.

Gunki monogataridagi asosiy buddist g'oyalaridan biri karma, hozirgi holatlar o'tmishdagi harakatlar uchun jazo yoki mukofot ekanligi haqidagi g'oya va o'zgarmaslik, bu yerdagi hech narsa uzoq davom eta olmaydi degan g'oyani o'z ichiga oladi. Heyke monogatarini, xususan, buddizmga oid bir uzun va'z sifatida tasavvur qilish mumkin.

Gunki monogatarilar "haqiqiy samuray"ning estetik qiyofasini hamda samuray so'zsiz rioya qilishi kerak bo'lgan bir qancha qoidalarni o'z ichiga olgan manba sifatida alohida qiziqish uyg'otadi. Ushbu tamoyillar asosida Bushido kodeksi shakllangan. Bushido XVI-XVII asrlarda shakllangan bo'lsa-da, unda keltirilgan sifatlar, talablarni gunki qahramonlari misolida kuzatish mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki Bushidoning asosi Kamakura davriga borib taqaladi.

Vassalning o'z xo'jayiniga sodiqligi - nafaqat yashash va u uchun kurashish, balki kerak bo'lganda uning uchun o'z jonini berishga tayyorligi, shuningdek, unga xizmat qilish uchun barcha hayot lazzatlaridan voz kechishi samurayda bo'lishi lozim bo'lgan sifatlarning eng yorqin namunasidir.

Buddizm va jangchi etikalarini bir-biriga qarama-qarshi deb qaralmaydi. O'ziga xos farqlarga qaramay, gunki ularning aralashmasidir. Bu birinchi navbatda, buddizmning gunkida yoritilgan shakli Amida buddizmidir, unga ko'ra, gunohlaridan tavba qilgan va Budda Amidaga murojaat qilgan har bir kishi ma'rifatga erisha oladi.

Gunkidagi asosiy buddist g'oyalar - hozir sodir bo'layotgan narsalar o'tmishdagi harakatlar uchun jazo yoki mukofot, shuningdek, moddiy olamning hayoliy tabiati va o'zgarmasligi, yer yuzida hech narsa abadiy qololmaydi degan g'oyalar hisoblanadi.

Yaponiyaning o'rta asrlar davri (Kamakura, Nanbokuchō va Muromachi davrlari, ba'zan esa Azuchi-Momoyama davri ham) millat adabiyoti uchun o'tish davri edi. Butun mamlakat bo'ylab

¹ ¹ Горегляд В. Н. Японская литература VIII—XVI вв. Начало и развитие традиций. — СПб.: Центр «Петербургское востоковедение», 1997. — 416 с.



yo'zuvchilar va ularning o'quvchilari paydo bo'la boshlaganligi sababli, Kyoto yagona adabiy markaz bo'lishni to'xtatdi va shunga mos ravishda turli xil janrlar va adabiy shakllar rivojlandi. Gunki monogatari, otogi-zōshi, nasriy rivoyatlar va renga kabi turli xil teatr shakllari paydo bo'lgan.

Yapon adabiyot ming yillardirki mavjud. Bu vaqt mobaynida, u qayta-qayta o'zgardi: yangi uslublar, yo'nalishlar, badiiy tendentsiyalar qo'shildi.

Gunkilar Kamakura va Muromachi davrlarida yozilgan bo'lsa ham uslub jihatidan Heyan davri adabiyoti bilan bir qator o'xshashliklari mavjud. Lekin Heyan davri adabiyotidan farqli o'laroq Gunki monogataridagi asosiy mavzu dastavval 1156-1568-yillarda kechgan qonli fuqarolik urushi va undagi samuraylarning mardonavor harakatlarini batafsil yoritish bo'lgan.

Gunkilar nafaqat Kamakura – Muromachi tarixiy davrlari maishiy-madaniy hayotini va shu davrlardagi nizolarni yoritish uchun, balki bu davrda samurayning odamlar orasidagi o'rni, uning mas'uliyati, burchi kabi masalalarni ham yoritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu esa keyinchalik samuraylarning qomusi bo'lmish Bushidoga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak Kamakura-Muromachi tarixiy davrlariga kelib butunlay yangi, o'zgacha janr Gunki shakllangan va keyingi adabiyot vakillari uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan materiallarni qoldirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. Избр.тр. –Л.: Наука, 1972. 495 с.
2. История всемирной литературы. Том 3, -М. 1985.658 с.
3. З.К. Рехо. Современны японский роман. –М. “Наука” . 1999. 560 с.
4. ХализевВ. Теориялитературы. - М.: 2000. 280 с.
5. 5.Н.Конрад. Японскаялитературав образахи очерках.1991. 553 с.
6. Н. Чегодар “Литературный жизнь Японии между двумя войнами” -М.: 1977. 380 с.
7. 7.Н. Мешеряков “Книга Японскихсимволов” 2004. 510 с.
8. 8.Конрад Н.И. Очерки японской литературы. – М.: Художественная литература, 1973. 466 с.
9. Конрад Н.И. Избранные труды. Литература и театр. – М.: Наука, 1978. 462с.
10. 織田作之助.西鶴新論.天地書房, 昭和 23. 211 p.
11. 井原西鶴集. 近代日本文学大系. 第 3 卷.国民図書, 昭 949 p.
12. 鈴木敏也.西鶴の研究.天佑社, 大正 366 p.
13. 谷脇理史.井原西鶴 :浮世の認識者.新典社, 1987.278 p.
14. 市川通雄.井原西鶴の世界.笠間書院, 1976.269 p.
15. The artistic features of 人口庭園 “A fake garden” of Abe Tomoji
16. Javokhir Abubakirov1 Dilafruz Mukhiddinova2 Society and innovations Special Issue – 4 (2021) / ISSN 2181-1415

Internet saytlari

1. <https://www.jstor.org/stable/29753692>
2. <http://www.jazzsoda.com/haruki.htm>
3. http://www.ttcn.net/no_second_life/archives/17900
4. <http://www005.upp.so-net.ne.jp/Kaede02/sakuhin2/norway.html>
5. <http://d.hatena.ne.jp/yagian/20110923/1316721100>





ARAB TILIDA SINONIMIYA, UNING LEKSIK-SEMANTIK RIVOJLANISH SABABLARI: KLASSIK VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

AZIZJON MUXAMMADJONOV

Tayanch doktorant, TDSHU

Annotatsiya. Tadqiqot arab tilining tarixiy rivoji davomida sinonim tushunchasining shakllanishi va semantik imkoniyatlarining kengayishini o'rganadi. Maqolada sinonimlar arab tilidagi tabiiy tasnif natijasida shakllangan leksik hodisalardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Unda sinonimlarning klassik manbalardagi ta'riflari, turlari, G'arb tilshunosligi nuqtayi nazaridan izohi hamda zamonaviy arab tilida qo'llanish masalalari yoritiladi.

Tadqiqotning maqsadi sinonimlarni arab tili leksik tizimida mustahkam ilmiy mezonlar asosida aniqlash, ular yordamida semantik tafovutlarni belgilash, ilm-fan sohalariga oid ifodalarni kengaytirish va terminologiya yaratishda imkoniyatlarni baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun arab tilida yozilgan lug'aviy, lingvistik manbalar hamda turli tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

Natijalarda sinonimlarning asl ildizlari, ma'no o'xshashligi, qo'llanish chegaralari va semantik boylikka qo'shgan hissasi aniqlanadi. Ma'lumotlar sinonimlarning sohada qo'llanishini izchil o'rganishga, tadqiqotchilar va tarjimonlar uchun tegishli amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Sinonim, qisman sinonim, to'liq sinonim, kognitiv sinonim, leksik-semantik tizim, leksikizatsiya.

Annotation

The study examines the development of the concept of synonymy and the expansion of semantic possibilities during the historical evolution of the Arabic language. The article considers synonyms as one of the lexical phenomena resulting from the natural classification of the Arabic lexicon. It explores the definitions of synonyms in classical sources, their various types, interpretations from the perspective of Western linguistics, and their usage in modern Arabic.

The study aims to identify synonyms within the Arabic lexical system based on robust scientific criteria, determine their semantic distinctions, expand expressions related to scientific fields, and evaluate the potential for terminology development. To achieve this, the study utilizes Arabic linguistic and lexicographical sources and applies various research methods.

The findings identify the original roots of synonyms, their semantic similarities, usage boundaries, and contributions to linguistic enrichment. The information serves to systematically study the application of synonyms in the field and provides practical guidelines for researchers and translators.

Key words: Synonym, partial synonym, complete synonym, cognitive synonym, lexico-semantic system, lexicalization.

Аннотация. Исследование изучает формирование понятия синонимии и расширение семантических возможностей в ходе исторического развития арабского языка. В статье синонимы рассматриваются как одно из лексических явлений, сформировавшихся в результате естественной классификации в арабском языке. Исследуются определения синонимов в классических источниках, их различные виды, интерпретации с точки зрения западной лингвистики, а также вопросы их использования в современном арабском языке.

Цель исследования состоит в том, чтобы определить синонимы в лексической системе арабского языка на основе прочных научных критериев, выявить их семантические различия, расширить выражения, относящиеся к научным областям, и оценить возможности для создания терминологии. Для достижения этой цели используются лексикографические и лингвистические источники на арабском языке, а также применяются различные методы исследования.

В результате выявлены исходные корни синонимов, их семантическое сходство, границы использования и вклад в языковое обогащение. Полученные данные служат основой для систематического изучения применения синонимов в данной области и предоставляют практические рекомендации для исследователей и переводчиков.



Ключевые слова:Синоним, частичный синоним, полный синоним, когнитивный синоним, лексико-семантическая система, лексикализация.

KIRISH. O'zbek tilida "ma'nodosh so'zlar" (sinonimiya) deb atalayotgan tushuncha G'arb tillarida "Synonymy" deb nomlanib, zamonaviy arab tilida esa "الترادف" (at-tarāduf) atamasi bilan ifodalanadi. Taraduf (ترادف) so'zi ر-د-ف (r-d-f) ildizidan hosil qilingan masdar-harakat nomi bo'lib, bu so'zning lug'aviy ma'nosi "bir narsani kuzatish" yoki "bir narsaning ortidan borish"dir.¹ Ibn Fâris (vaf. 395/1005) o'zining مَعْجَمُ مَقَابِيسِ اللُّغَةِ - *Mu'jam Maqāyīs al-Luġha* - "Til o'lchovlari lug'ati" asarida tarāduf so'zini bitta ma'noni ifodalash uchun hosil qilingan masdar sifatida izohlagan. Unga ko'ra, bu so'zning ma'nosi "bir narsani izlash" va "bir narsaning ortidan kelish"dir. Bundan tashqari, Ibn Fâris "johiliya davri arablari أَرْدَافُ الْمُلُوكِ (Ardāf al-Mulūk) – ya'ni "shohlarning izdoshlari" degan iborani ishlatganligini" ham qayd etgan.

Arablar bir narsaning orqa tomoniga رَدْف (ridf) yoki رَدْف (rodff) deb atashadi. Agar narsalar ketma-ket kelganda, "تَرَادُفُ الْأَشْيَاءِ" Taraadafat al-Ashyā'u ya'ni "narsalar bir-birining ortidan keldi" deyishadi. Ridf – bu minilgan hayvonning ortida o'tirgan shaxsni anglatadi, ya'ni izdoshlik ma'nosini bildiradi. Shundan kelib chiqib, otning ortida o'tiradigan odamga رَدِيف radīf deb nom berilgan². Bundan tashqari, vaqt o'tishi bilan "biror narsaning ortiga o'tirish" yoki "uning orqasiga o'tkazish" ma'nosida if'āl bobidan أَرْدَف (ardafa) fe'li hosil bo'lgan. Eng sodda tarzda aytganda, ترادف tarāduf – "bitta ma'lum narsa uchun bir nechta nom qo'llash" demakdir. Bu ma'no bo'yicha tarāduf "mu'allad" (muvallad, ya'ni zamonaviy) so'z bo'lib hisoblanadi.⁴

Asosiy qism. Tarāduf so'zining lug'aviy va terminologik ma'nolari o'rtasidagi bog'liqlik shundan iboratki, qanday qilib kimdir minilgan hayvonning ortiga o'tirsa, ketma-ketlikda birinchi odamning ortidan keladi va shu tarzda "izdoshlik" ma'nosi yuzaga keladi. Xuddi shunday, sinonim so'zlar orasida ham مُتَرَادِفٌ mutarādifun-sinonim so'zlar birinchi ma'nodan keyin keladi. Bu o'xshashlik asosida ular metaforik tarzda bir-biriga bog'lanadi. Shunday qilib, الترادف at-tarāduf, ya'ni "bir-birining ortidan kelish", arab tilida sinonimik leksik birliklarni ifodalovchi lingvistik tushunchaga aylangan.⁵

Arab tilshunoslarining sinonimiya tushunchasini ta'riflash borasida yagona qarorga kelolmaganlarining asosiy sababi, ularning ترادف tarāduf yoki o'zbek tilidagi "ma'nodosh so'z" (sinonimik so'z) atamasiga yuklagan ma'nolari turli bo'lganligidadir. Ushbu mavzuni o'rgangan olimlar sinonimiyaga berilgan ma'noning aniq tushunilmaganligini asosiy muammo sifatida ko'rsatishgan. Yana

¹ Rohi Baalbaki, *A Modern Arabic-English Dictionary*, (Bayrut: Dâru'l-Ilm li'l-Melâ'în, 11nashr 2002), 204; Magdi Wahba, *An-Nafees The 21st Century English-Arabic Dictionary*, (Cairo: Egyptian International Publishing Company – Longman, 2000), 1645.

² Abu'l-Husayn 'Ahmad b. Faris b. Zakariyyâ ar-Râzî, *Mu'jamu Maqāyīs al-Luġa*, thk. İbrâhîm Şamsuddin, (Bayrut: Dâru'l-Kutubi'l-Ilmiyya, 1999), 2/519.

³ Jamâleddîn ABU'L-Fadl Ibn Manzûr, *Lisan al-'Arab*, tahqiqchi: Amin Muhammad Abdulvahhob va Muhammad as-Sodiq al-'Ubaydiy, (Bayrut: Daru't-Turath al-'Arabiyy & Muassasatu't-Tarikh al-'Arabiyy, 2-nashr, 1997), "ر-د-ف" moddasida, 5/189-bet. Ayyub ibn Musa al-Husayni Abu'l-Baqa al-Kafaviy, al-Kulliyyat, tahqiqchi: Adnan Darvish va Muhammad al-Misriy, (Bayrut: Muassasatu'r-Risala, 2-nashr, 1993), 465-bet.

⁴ Hayat, *Mu'jamu'n-Nafâ'isi'l-Kabîr*, (Bayrut: Daru'n-Nafâ'is, 2007), jild: "E-D/682"..

⁵ Muhammad Nuriddin al-Munajjid, *at-Tarādūf fi'l-Qur'āni'l-Karîm bayni'n-Nazariyyati va't-Taṭbîq*, (Bayrut: Daru'l-Fikri'l-Mu'asir, 1997), 30-bet. Muhammad Murtado al-Husayni az-Zabidi, *Taju'l-'Arus min Jawahiri'l-Qamus*, tahqiqchi: Abdussattar Ahmad al-Farraj, (Kuvayt: Matba'at Hukumat al-Kuvayt, 1971), 9/327-328-bet, "ر-د-ف" moddasida.

⁶ Ali ibn Muhammad as-Sayyid ash-Sharif al-Jurjani, *Mu'jamu't-Ta'rifat*, tahqiqchi: Muhammad Siddiq al-Minsawiyy, (Qohira: Daru'l-Fadila, nashr sanasi berilmagan), 167-bet. Hamid Sidqiy, Tayyiba Sayfiy, "Qadiyyatü't-Taraduf bayna'l-Isbat va'l-Inkar", *Majallatü'l-Lughati'l-'Arabiyye va 'Adabiha*, Yil: 1, Son: 3, 2006, 48-bet.

qilishdagi eng muhim manbalardan biridir. Ushbu asarda olim lugʻat birliklarining semantik tahlilini amalga oshirib, ular orasidagi maʼno farqlari va stilistik nozikliklarni batafsil koʻrsatib bergan.

Asar sinonimlarning oʻxshash jihatlarini emas, balki ularning semantik komponentlari va pragmatik qoʻllanilishidagi farqlarni aniqlashga qaratilgan. Bu tilshunoslikda semantik differensial tahlil (tafriqiy semantika) tamoyillaridan foydalanilganiga dalolat qiladi. Masalan, Abu Hilol bir xil maʼnoga ega boʻlib tuyuladigan soʻzlar orasidagi farqlarni aniqlashda quyidagilarga eʼtibor qaratgan:

1. Konnotativ maʼno: Soʻzning hissiy va uslubiy yuklamasi.
2. Denotativ maʼno: Soʻzning asosiy maʼnosi yoki referensial vazifasi.
3. Pragmatik farq: Soʻzning kontekstga koʻra qoʻllanilishdagi oʻziga xos xususiyatlari.

Misol uchun, ذَهَبَ (dhahaba) va اِنْطَلَقَ (intalaqa) feʼllarini tahlil qilarkan, olim ularning "ketmoq" maʼnosini ifodalashidagi kontekstual oʻzgarishlarni koʻrsatgan. ذَهَبَ — umumiy harakatni bildirsa, اِنْطَلَقَ — joʻnash jarayonida tezlik va qatʼiylilikni ifodalaydi.

Shu bilan bir qatorda, أَبُو عبيد قاسم بن سلام (Abū 'Ubayd Qāsim ibn Sallām, vaf. 224/839) oʻzining "الأسماء المختلفة لشيء واحد" (al-Asmā' al-Mukhtalifa li-Shay'in Wāhid- Bitta narsa uchun turli nomlar) asarida arab tilidagi sinonimik birliklarni koʻrib chiqib, morfologik va semantik jihatlarini chuqur oʻrgangan.¹ المبرد (al-Mubarrad, vaf. 286/899) esa Qurʼoni Karimda uchraydigan sinonim soʻzlarni oʻrganib, oʻzining "ما اتفق لفظه واختلف معناه من القرآن المجيد" (Mā Ittafaqa Lafzuhu wa-Ikhtalafa Ma'nāhu min al-Qurʼān al-Majīd- "Qurʼoni Majiddagi lafzi bir xil boʻlib, maʼnosi turlicha boʻlgan iboralar") asarida sinonimik va omonimik birliklarni taʼriflagan. Masalan, قَعَدَ (qaʼada) va جَلَسَ (jalasa) – "oʻtirdi", ظَنَ (zanna) va حَسِبَ (hasiba) – "oʻyladi, taxmin qildi" soʻzlarini oʻrganib, bu sinonimiya arab tilining leksikografik xususiyati ekanini taʼkidlagan.²

Sinonimiya tushunchasiga birinchi boʻlib tarāduf atamasini bergan shaxs ثعلب (Saʼlab, vaf. 291/904) boʻlgan. Garchi sinonim soʻzlarni tahlil qiluvchi asarlar oldin ham yozilgan boʻlsa-da, leksik birliklar orasidagi sinonimik munosabatni birinchi marta tarāduf atamasi bilan tushuntirgan tilshunos aynan Saʼlab boʻlgan.³ Shu tariqa, sinonimiya tushunchasi arab lingvistikasi doirasida muhim termin sifatida shakllangan.

ابن جني (Ibn Jinniy, vaf. 392/1002) oʻzining "الخصائص" (al-Khaṣāʾiṣ- "Xususiyatlar") asarida ushbu masalani "باب في إيراد المعنى المراد بغير اللفظ المعتاد" (Bābun fī Īrād al-Maʼnā al-Murād bi-Ghayr al-Lafz al-Muʼtād- Odatdagi lafzdan boshqa soʻz bilan maqsad qilingan maʼnoni ifodalash boʻlimi) nomli boʻlimda tahlil qilgan.⁴ Ibn Jinni arab tilida har bir maʼno uchun alohida leksik birlik – yaʼni, har bir متباين (mutabāyin, farqli) soʻz oʻziga xos bir semantik komponentga ega boʻlishi kerakligini taʼkidlagan. Bu til tizimida har bir soʻzning denotativ va konnotativ jihatdan alohida boʻlishi kerakligini bildiradi.

Hijriy V asrgacha tarāduf tushunchasiga aniq taʼrif berilmagan edi. Shuningdek, zamonaviy lingvistikada sinonimiya va (qisman sinonimlik) tushunchasi keng tarqalgandan keyin rivojlanish bosqichiga erishgan. Soʻz va semantik maʼno oʻrtasidagi munosabatlarni aniq ifodalash masalasi keyinchalik, taxminan ikki asr oʻtgach, usuliy tilshunos أبو حامد الغزالي (Abū Hāmid al-Ghazālī, vaf. 505/1111) tomonidan belgilangan. Al-Gʻazoliy oʻzining "المستصفى" (al-Mustaṣfā) asarida soʻzlarni toʻrt guruhga ajratgan⁵:

¹ Şıdkî, Sayfî, "Kaḍıyyatü't-Tarâdüf", 50.

² Abu'l-'Abbās Muhammad ibn Yazīd al-Mübarrid, Ma't-Tafakḥ lafzuhû va'htalafa Ma'nāhu mina'l-Qur'āni'l-Majīd), tahqiqchi: Ahmad Muhammad Abu Ra'd, (Kuvayt: Kuvayt Vaqflar vazirligi nashriyoti, 1988), 28-29-betlar.

³ al-Munajjid, at-Terādūf fī'l-Qur'āni'l-Karīm), 31-bet.

⁴ Abu'l-Faṭḥ Usmon ibn Jinnī, al-Ḥaṣāiṣ, tahqiqchi: Muhammad Ali an-Najjar, (Nashr joyi: al-Maktabatü'l-'Ilmiyya), 466-bet..

⁵ al-Gʻazālī, al-Mustaṣfā min Uṣūli'l-Fiqh, 1-jild, 95-96-betlar.



1. Mutaradif (مترادف, sinonim): Fonetik va morfologik jihatdan farqli bo'lsa-da, leksik birliklar bir xil semantik komponentni ifodalaydi.

2. Mutabayin (متباين, farqli ma'noli): Har bir so'zning o'ziga xos denotativ va konnotativ ma'nosi bo'ladi.

3. Mutawāti (متواطي, yaqin ma'noli): Lafzlar yaqin semantik maydonlarni qamrab oladi, lekin ular bir xil ma'noni ifodalamaydi.

4. Mushtarak (مشتراك, omonim): Fonetik jihatdan bir xil, lekin semantik jihatdan farqli so'zlar.

Al-G'azoliydan bir asr keyin فخر الدين الرازي (Fakhriddin ar-Roziy, vaf. 606/1209) o'z tahlillarida sinonimik lafzlar nafaqat fe'llar va harflar uchun, balki ismlar uchun ham ahamiyatli ekanligini ta'kidlagan. Uning fikricha, *mutaradif (sinonimik) lafzlar denotativ ma'no va referensial ma'no jihatdan bir xil bo'lib, ular bir narsaga ishora qiladi va o'zaro almashtirilishi mumkin.*¹ Yana unga ko'ra, sinonim, ya'ni mutaradif lafz "bitta nuqtai nazardan bir xil narsaga (musamma) ishora qiluvchi mustaqil lafzdir." Bu yondashuv bilan ar-Roziy, Sibawayh (سبويه, vaf. 180/796)dan farq qiladi. Sibawayh sinonimik so'zlar uchun "ذهب" (dhahaba) va "اُتْلِقَ" (intalaqa) – "ketdi" va "jo'nadi" fe'llarini misol sifatida keltirgan holda, sinonimik so'zlar orasida fe'l va ism farqini ajratishni zarur deb hisoblamagan.

Klassik arab tilshunoslari orasida arablarning bir musamma (مسمى, narsa) uchun bir nechta nom berishi keng tarqalgan tushuncha edi. Bu tushuncha klassik tilshunoslarning sinonimik lafzlar haqidagi ta'riflarida ham aks etgan. Biroq, keyinchalik tilshunoslikda biror narsa uchun bir nechta lafz bo'lishi mumkin emas degan tushuncha keng tarqalgan.

Fahriddin ar-Roziy (فخر الدين الرازي)ning taraduf yoki sinonimik lafzni *"bitta jihatdan bir xil narsaga ishora qiluvchi mustaqil (mufrad) lafz"*² deb ta'riflashidan so'ng, keyingi davrlarda tilshunoslar orasida taraduf ta'rifi bo'yicha bilvosita kelishuv yuzaga kelgan. Jaloliddin as-Suyutiy (جلال الدين السيوطي, vaf. 911/1505) ham Fahriddin ar-Roziyning *"bitta jihatdan bir xil ma'noga ishora qiluvchi mustaqil lafz"*³ ta'rifini tasdiqlagan va bu ta'rif keyinchalik boshqa tilshunoslar tomonidan ham qabul qilingan.

Zamonaviy tilshunoslarning sinonimik so'zlarga yondashuvlariga o'tishdan avval, klassik arab tilshunoslarining lafz va ma'no munosabatlariga bo'lgan qarashlarini ko'rib chiqish lozim. Lafz va ma'no o'rtasidagi munosabatlar to'rtta asosiy turga bo'linadi:

1. Mufrad lafz (مفرد لفظ): Bitta ma'noni ifodalash uchun faqat bitta lafz ishlatiladi. Masalan, Alloh (الله) lafzi yagona bo'lib, uni ifodalash uchun boshqa sinonimik lafz yo'q. Bu turdagi lafzlar mufrad (مفرد, bir ma'noli) deb ataladi.

2. Mutabayin (متباين): Turli ma'nolarni ifodalovchi lafzlar bir-biriga zid bo'lib, ular na sinonim, na antonim va na omonim bo'ladi. Masalan, inson (إنسان) va ot (فرس) lafzlari o'zaro ma'noviy bog'liqlikka ega emas.

3. Mutaradif (مترادف): Bir ma'noni bir nechta lafz orqali ifodalash mumkin. Bu arab tilida taraduf (ترادف) yoki sinonimiya deb nomlanadi. Masalan, أَسْوَدُ (aswad, qora) va حَالِكٌ (hālik, qora) – ikkalasi ham "qora rangni" bildiruvchi sinonim so'zlardir.

¹ Fakhriddin Muhammad ibn 'Omar al-Husayn ar-Râzî, al-Maḥşûl fi 'Ilmi Uşûli'l-Fiqh, tahqiqchi: Tâhâ Jâbir Fayyâz al-Alavânî, (Nashr joyi: Mûassasatü'r-Risâla, 1-jild, 253-bet.

² ar-Râzî, al-Maḥşûl fi 'Ilmi Uşûli'l-Fiqh 1-jild, 253-bet.

³ Abdurrahmon Jaloliddin as-Suyutiy, al-Muzhir fi 'Ulûmi'l-Luġa va Anvâ'ihâ, tahqiqchi: Muhammad Ahmad Jâde'l-Mavlâ va boshqalar, (Qohira: Maktabatü Dâri't-Turâs, 3-nashr, 1-jild, 402-bet.

4. Mushtarak (مشتراك): Bitta lafz bir nechta ma'noni ifodalaydi. Bu holat arab tilida omonimiya deb nomlanadi. Masalan, ām (عام) so'zi "yil" va "qamrab oluvchi" ma'nolarini anglatadi. Shu holat mushtarak lafz (مشتراك لفظ) sifatida tan olinadi.¹

Qadimgi tilshunoslarning "bir xil semantik tarkibga ega va bir-birining leksik o'rmini egallaydigan so'zlar" yondashuvidan farqli o'laroq, bugungi kunda "agar semantik farq bo'lmaganida, lafz farqli bo'lmas edi" degan gipoteza asosida, bir xil ma'noni ifodalash deb hisoblangan har bir lafzga juda sinchkov va batafsil tahlil bilan yondashish lozim degan til yondashuvi hukmronlik qilmoqda. Bugungi kunda tilshunos va tafsirchi at-Tāhir ibn 'Āshūr (الطاهر بن عاشور) sinonimiyaga shunday ta'rif beradi: "Arab qabilalari tomonidan ishlatilgan, shakllanish paytida fonologik o'zgarishlarga duch kelgan, qo'llanilishi va denotativ ma'nosi mustaqil bo'lib, har biri alohida tarzda bir xil semantik tarkibga ega bo'lgan mustaqil lafzlardir."² Ibn 'Āshūr sinonimiya ta'rifini kengaytirib, istishhād davrida (hijriy 150-yilgacha milodiy 767-yilga mos keladi) arab tiliga kirib kelgan xorijiy tillardan olingan "المعرب"³ (al-mu'arrab, arablashtirilgan) so'zlarni ham sinonim sifatida ko'radi.

Muhammad Nuriddin al-Munajjid (محمد نور الدين المنجد) esa tarāduf atamasini "bir nechta leksik birliklar o'zaro haqiqiy, asl va har biri alohida shaklda ishlatilsa ham, bir xil referensial ma'noni bildiradi,"⁴ deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, bu ta'rif mukammal bo'lib, barcha holatlarni qamrab oladi va boshqa turdagi semantik tahlillarni istisno qiladi.

Al-Munajjid sinonimiyaga quyidagi lingvistik shartlarni qo'shadi:

1. Sinonimik so'zlar orasida "murakkab" (مركب, birikma) so'zlar taraduf ta'rifidan chiqarib tashlanadi, ya'ni faqat mustaqil leksemalar sinonimik bo'lishi mumkin.
2. So'zning ishlatilishidagi ma'no haqiqiy bo'lishi kerak, ya'ni denotativ ma'no nazarda tutiladi. Bu bilan majoziy (مجازي, ko'chma ma'no) qo'llanishlari sinonimiyadan chiqarib tashlanadi.
3. Sinonimik so'zlar orasida "asl" shart mavjud bo'lib, bu degani lug'aviy jihatdan o'zgarishlarga uchragan va semantik metamorfoz kechirgan so'zlar sinonimik hisoblanmaydi.
4. Sinonimiyaga faqat mustaqil so'zlar kiradi, ya'ni tābi' (تابع, ergashuvchi) va tawkīd (توكيد, ta'kidlovchi) so'zlar, morfologik jihatdan bog'langan birliklar ta'rif doirasidan chiqarib tashlanadi.
5. Sinonimik so'zlar bir xil semantik jihatdan sifat farqlariga ega bo'lmasligi kerak. Masalan, السيف (sayf, qilich) va الصارم (sārim, kesuvchi) kabi bir xil narsa uchun ishlatiladigan leksik birliklar sinonimik deb hisoblanmaydi.
6. Sinonimiyaga faqat bir xil lug'aviy muhitda ishlatiladigan so'zlar kiradi. Turli arab qabilalari bir xil ma'noni ifodalash uchun turli-tuman leksik birliklarni ishlatgan bo'lsa, bu so'zlar sinonimiyadan chiqarib tashlanadi⁵.

¹ Abu'l-Hasan Ali ibn 'Īsā ar-Rummānī, al-Alfāzu'l-Mutarādifatu'l-Mutakāribatu'l-Ma'nā, tahqiqchi: Fathullah Sālih, Ali al-Miṣrī, (Mansura: Dāru'l-Vafā, 1987), 6-bet (tahqiqchining kirish so'zi). Abu Maṣṣūr Muhammad ibn Sahl ibn al-Marzubān al-Karhī, tahqiqchi: Yahyā Murād, 3-bet.as-Suyutiyy, al-Muzhir, 1-jild, 402-bet.

² al-Munajjid, at-Tarāduf fi'l-Qur'āni'l-Karīm, 34, (Qahira Majallatu'l-Majma'i'l-Qāhira, 1937), 4/221-268.

³ "Al-Mu'arrab (المعرب)" – "Bu atama begona tillardan kirib, arablashtirilgan asliyati begona so'zlarni anglatadi. Bir so'zning mu'arrab hisoblanishi uchun quyidagi ikki shart amalga oshishi lozim. Bular: 1. So'zning fonetik (صوتية) va morfologik (صرفية) tuzilishida arablarning artikulyatsion apparatiga mos ba'zi o'zgarishlar bo'lishi kerak. 2. So'zning arab tiliga ko'chirilishi istishhād (استشهاد) davrida amalga oshirilgan bo'lishi zarur. Keyingi davrda yuzaga kelgan ko'chirishlar esa "muwallad" (مولد) yoki "dahil" (دخيل) deb ataladi. Batafsil ma'lumot uchun qarang: al-Javāliqī, al-Mu'arrab 14, (المعرب)."

⁴ al-Munajjid, at-Tarāduf fi'l-Qur'āni'l-Karīm, 34.

⁵ Muḥammad Abdurrahman Saliḥ aṣ-shāyī, al-Furūqu'l-Luḡaviyye va Aṣ aruhā fi Tafsihi'l-Qur'āni'l-Karīm, (Riyād: Maktabatu'l-'Abikān, 1993), 30-31; al-Munajjid, at-Tarāduf fi'l-Qur'āni'l-Karīm, 34.



Zamonaviy arab tilshunoslari sinonimiyani yuqoridagi lingvistik shartlarga javob beruvchi soʻzlar deb biladilar. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa arab tilidagi soʻzlarning kelib chiqishini va ular orasidagi semantik farqlarni aniq tahlil qilish kerakligini taʼkidlaydilar. Ularning fikricha, *sinonimik deb oʻylangan soʻzlar orasidagi semantik tafovutlarni ochib berish arab tiliga koʻrsatiladigan katta ilmiy xizmat boʻladi*¹.

Arab tilidagi sinonimiya masalasidagi lingvistik qarashlar oqibatida ikki asosiy nazariya shakllangan:

a) Furūq (فروق, yaqin maʼnoli soʻzlar) nazariyasi: "arab tilida haqiqiy sinonimik soʻzlar yoʻq" degan qarashni qoʻllab-quvvatlaydiganlar. Ularning fikricha, arab tilida sinonimik deb hisoblangan soʻzlar aslida yaqin maʼnoli boʻlib, ular orasidagi farq semantik jihatdan ahamiyatli.

b) Taraduf (ترادف, sinonimiya) nazariyasi: "arab tilida sinonimik soʻzlar mavjud" degan qarashni qoʻllab-quvvatlaydiganlar. Ularning fikricha, *arab tilida koʻplab soʻzlar bir xil denotativ va referensial maʼnolarni bildiradi*.

Arab tili sinonimik soʻzlar (ترادف) jihatidan nihoyatda boy til hisoblanadi. Bu qarash tilshunoslar orasida keng tarqalgan. Biroq, aslida, sinonimik soʻzlar, ayniqsa arab tilida va umuman dunyo tillarida mavjud deb oʻylanganidek koʻp emas. Sinonimiya (ترادف) tarafdorlari bu qarashlarini arab tilining leksik zahirasi va leksikografik manbalarga asoslaydilar. Chunki sinonimik soʻzlar va ularning semantik farqlari haqida soʻz yuritadigan koʻplab lugʻatlar va mustaqil asarlar arab tilida sinonimiyaning mavjudligini koʻrsatadi.

Shuningdek, soʻzlarning haqiqiy (حقيقي) yoki majoziy (مجازي) maʼnolarda qoʻllanishi arab tilidagi semantik boylikni oshiradi. Bu esa tilga dinamiklik olib keluvchi yana bir omil hisoblanadi. Sinonimiya tarafdorlariga koʻra, arab tilining boy semantik xususiyatlari Qurʼonda ham yaqqol koʻzga tashlanadi, chunki Qurʼonda koʻplab sinonimik soʻzlar mavjud boʻlib, ular bir xil yoki oʻxshash maʼnolarni ifodalaydi. Bu esa arab tilining stilistik va semantik boyligini koʻrsatadi.

Boshqa bir yondashuv esa arab tilida sinonimik soʻzlarning mavjudligini inkor qilish oʻrniga, soʻzlarni semantik va pragmatik tahlil qilishni taklif etadi. Ushbu yondashuvga koʻra, *qaysi soʻz sinonimik, qaysi soʻz yaqin yoki uzoq maʼnoli ekanligini aniq belgilash lozim*.² Arab dunyosida tilshunos olimlardan biri boʻlgan az-Ziyadiy (الزيادي) arab tilida sinonimik soʻzlarning mavjudligini inkor qilishning asossizligini taʼkidlaydi. U *eski soʻzlarning qayta yuzaga chiqishi orqali sinonimiya hodisasining tobora kuchayib borayotganini taʼkidlaydi*³ va bu jarayonni lingvistik evolyutsiya sifatida koʻradi.

Az-Ziyadiyning fikriga koʻra, sinonimiya, yaqin maʼnolilik va semantik oʻzgarishlar soʻzlarga vaqt oʻtishi bilan qoʻshilgan semantik xususiyatlardir. U soʻzlarning semantik taraqqiyoti va ularning maʼnolaridagi oʻzgarishlarni tarixiy jihatdan oʻrganish zarurligini taʼkidlaydi. Bundan tashqari, u arab tili uchun katta bir lugʻat yaratish kerakligini, bu lugʻatda har bir soʻzning sinonimik, yaqin maʼnoli yoki boshqa semantik tasnifga kiritilishini zarur deb biladi.

Arab tilidagi sinonimiya boʻyicha tadqiqot olib borgan zamonaviy arab tilshunoslari koʻp hollarda gʻarbiy tilshunoslik yondashuvidan sezilarli darajada taʼsirlangan. Zamonaviy arab tilshunoslari soʻz-maʼno munosabatlariga qarashlarini gʻarbiy manbalar yondashuviga mos ravishda shakllantirganlar. Bunda tarjimalar orqali gʻarbiy manbalar arab tilshunoslariga sezilarli darajada taʼsir koʻrsatgan. Yana bir yondashuv shundan iboratki, arab tilining asl manbalariga murojaat qilingan boʻlsa ham, tilni tahlil

¹ Muḥammad Yâsin Ḥadr ad-Dûrî, *Daḳâʾiḳuʾl-Furûḳiʾl-Luġaviyye fiʾl-Bayâniʾl-Ḳurʾânî*, (Bagʻdod: Bagʻdod universiteti, Ibn Rushd taʼlim fakulteti, 2005), 24.

² Ramaḍân ʿAbduṭṭavvâb, *Fuṣûl fi Fîḳhiʾl-ʿArabiyya*, (Qohira: Maktabatüʾl-Ḥânî, 6-nashr, 1999), 315.

³ az-Ziyâdî, *at-Tarâdüf fiʾl-Luġa*, 306.



qilishda g'arbiy tilshunoslikning ta'siri seziladi. Bugungi kunda arab tilshunoslari, xuddi g'arbiy zamondoshlari kabi, ikki xil sinonimiya haqida so'z yuritadilar:

1. **Mutlaq sinonimiya** (الترادف المطلق): Bu tushuncha bo'yicha, ikki yoki undan ortiq so'z bir xil denotativ ma'noga ega bo'lib, bir-birining o'mida to'liq ishlatilishi mumkin.

2. **Nisbiy sinonimiya** (الترادف النسبي): Bu sinonimiya turi shuni ko'rsatadiki, bir xil denotativ ma'noni ifodalovchi so'zlar pragmatik, stilistik yoki ma'noviy tafovutlar bilan farqlanadi.

Ushbu turli yondashuvlar arab tilida sinonimiya va yaqin ma'noli so'zlar bo'yicha tahlillarni yanada aniqroq ko'rib chiqish va tilning boy semantik imkoniyatlarini kengroq ochib berishga yordam beradi.

Tilshunos Cruse tomonidan to'liq sinonimiya (perfect synonymy) deb nomlangan tushuncha barcha tillarda kam uchraydigan hodisa sifatida tasvirlanadi. Cruse bu atamani barcha sintaktik va semantik kontekstlarda bir-birini to'liq almashtira oladigan leksik birliklar majmuasi sifatida ta'riflaydi.

To'liq sinonimiya so'zlar juftligi til tizimlarida juda kam uchraydi yoki umuman mavjud emas. So'zlarning sinonimik deb hisoblanishi uchun, ikki leksik birlik orasida yuqori darajada semantik moslik bo'lishi kerak. Bunday so'zlar faqatgina periferik xususiyatlar jihatidan farq qilishi mumkin, masalan, stilistik yoki pragmatik tafovutlar.

Tilshunos Lyonsga ko'ra, mutlaq sinonimiya (absolute synonymy)ning asosiy mezoni identiklik ya'ni to'liq o'xshashlikdir. Lyons sinonimik so'zlar deb hisoblanishi uchun quyidagi ikkita shartni belgilaydi:

a. Semantik birlik: So'zlarning barcha denotativ ma'nolari bir xil bo'lishi kerak, ya'ni ular har qanday semantik nuqtai nazardan bir-biriga mos bo'lishi shart.

b. Kontekstual moslik: So'zlar barcha kontekstlarda sinonimik bo'lishi lozim, ya'ni har qanday pragmatik sharoitda birini boshqasi bilan almashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

c. So'zlar bir-birini almashtirganda ularning sintaktik va morfologik jihatlari ham mos bo'lishi zarur, ya'ni so'z turkumlari (ot-ot, sifat-sifat) bir xil bo'lishi kerak. Shuningdek, ular morfologik tarkib va sintaktik roli bo'yicha ham o'xshash bo'lishi kerak.

Lyons, Cruse, Hurford va Saeed kabi ko'plab tilshunoslarda to'liq sinonimik so'zlar mavjud bo'lsa-da, bu hodisa juda kam uchraydiganini qayd etganlar. Cruse *sinonimiyaning barcha kontekstlarda identiklik prinsipiga asoslanishi kerakligini ta'kidlaydi*¹, ya'ni sinonimik deb hisoblangan so'zlar barcha kontekstlarda bir xil ma'noni bera olishi shart. Bu masalaga doir ikkinchi yondashuv esa "to'liq sinonimiya" yoki "mutlaq sinonimiya" kabi lingvistik tushunchalar tillarda mavjud emas deb hisoblaydi. Ular bu qarashni shunday izohlaydilar: "Komple sinonimiya" yoki "haqiqiy sinonimiya" atamalaridan qat'i nazar, hech bir til tizimida to'liq sinonimik so'zlar mavjud emas.

Tilshunoslardan biri bo'lmish Do'gan Aksan mutlaq sinonimiya haqida shunday fikr bildiradi: "*Bir tushunchani ifodalash uchun bitta so'z qabul qilinganidan so'ng, bir necha so'zning xuddi shu tushunchani ifodalashi mumkin emas.*" Shu nuqtai nazardan, Aksan ham mutlaq sinonimiya tushunchasiga qarshi bo'lgan tilshunoslardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, har bir semantik birlik o'ziga xos denotativ va konnotativ xususiyatlarga ega bo'lishi shart.

Ushbu yondashuvlar tilshunoslikda sinonimik so'zlarning haqiqiy mavjudligi va ularning semantik to'liq moslik darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

G'arb tilshunosligida "ikki til birliklari biror gapning referensial ma'nosini o'zgartirmasdan barcha kontekstlarda bir-birini to'liq almashtirishi" holati kognitiv sinonimiyasi tushunchasi bilan ifodalanadi. Ushbu yondashuv tarafdorlari shuni ta'kidlashadiki, *sinonimik deb qabul qilingan so'zlar o'rtasidagi farqlar juda kichik bo'lib, ularni faqat semantik jihatdan chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassis tushuna*

¹ Göksel Sert, "Ma'no sohasi va ma'no ohangi nuqtai nazaridan sinonim holat sifatleri: Muhtamal va olasi misoli", Xalqaro turkcha adabiyot madaniyat ta'lim jurnali, 2019, 8(1), 99-100.



oladi. Bu soʻzlar denotativ maʼnosi boʻyicha bir-biriga yaqin boʻlsa-da, ular toʻliq sinonimik emas. Albatta, soʻzlar oʻrtasida semantik tafovutlar mavjud. Shunga qaramay, bu farqlarni tilshunos mutaxassis boʻlmaganlar seza olmasligi sababli, ushbu soʻzlar odatda sinonimik deb qaraladi. Aslida esa, bu soʻzlar toʻliq sinonimik emas, balki yaqin maʼnoli hisoblanadi.

Sinonimik deb qabul qilingan va shu sababli leksikografik manbalarda sinonimik deb qayd etilgan koʻplab soʻzlar aslida yaqin maʼnoli yoki yarim sinonimik (semi-synonymous) hisoblanadi. Bu esa soʻzlar oʻrtasidagi semantik tafovutlarni inobatga olgan holda sinonimiya tushunchasiga yangi yondashuvni koʻrsatadi. Yarim sinonimik soʻzlarni quyidagi lingvistik kontekstlarda koʻrib chiqish kerak:

a. Soʻzlar bir-birining oʻrnida qoʻllangandan keyin ham gapning umumiy semantik tarkibi oʻzgarmasa,

b. Soʻzlardagi fonetik oʻzgarishlar natijasida ikki xil lafz paydo boʻlgan boʻlsa,

s. Soʻzlar orasidagi farqlar juda nozik boʻlib, ularni faqat semantik tahlil orqali mutaxassislar sezishi mumkin boʻlsa,

d. Umumiy bir semantik maydonda ishlatiladigan sifatlar yoki nisbiy soʻzlar ham yarim sinonimik sifatida qaralishi mumkin.

Yarim sinonimiyaning yuzaga kelishiga olib keluvchi omillarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Bu shart as-Suyuti tomonidan tilga olingan. Unga koʻra, *sinonimik deb hisoblangan soʻzlar bir xil dialekt ichida sinonimik boʻlishi kerak*.¹ Biroq, bir soʻz bir qabilada sinonimik hisoblanishi, boshqa qabilada yaqin maʼnoli boʻlishi mumkin. Bu holat sinonimik soʻzlar aslida yarim sinonimik boʻlishi mumkinligini koʻrsatadi.

XULOSA. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, arab tilidagi sinonimiya tushunchasi tarixiy rivojlanish davomida murakkab jarayonlardan oʻtgan boʻlib, klassik manbalarda sinonimik soʻzlar koʻpincha amaliy misollar orqali izohlangan, lekin aniq ilmiy-taʼrifiy mezonlarga ega boʻlmagan. Zamonaviy lingvistikada gʻarb tilshunosligi nuqtayi nazaridan olib borilgan tadqiqotlar sinonimiya fenomeniga ilmiy-nazariy yondashuvlarni kengaytirdi. Natijada, arab tilida haqiqiy yoki toʻliq sinonimik soʻzlar juda kam uchrashi, asosan qisman yoki kognitiv sinonimiya holatlari mavjudligi aniqlandi. Ushbu xulosalar arab tilida sinonimiyaning murakkab leksik-semantik tabiati borligini, til tarixiy taraqqiyoti davomida sinonimik soʻzlar semantik imkoniyatlarning kengayishi va boyishiga hissa qoʻshganini koʻrsatadi. Ayniqsa, ilm-fan sohalarida terminologiya yaratishda sinonimiyadan foydalanish, yaqin maʼnoli soʻzlar orasidagi nozik farqlarni aniq belgilash va shu orqali atamalarni yanada boyitish zarurligi ayon boʻldi. Shunday qilib, sinonimlarning ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan chuqur oʻrganilishi nafaqat arab tilining semantik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi, balki tarjimonlar, tilshunoslar va terminologlar uchun amaliy koʻrsatmalar ham ishlab chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rohi Baalbaki, *A Modern Arabic-English Dictionary*, Bayrut: Dâru'l-Ilm li'l-Melâ'în, 11-nashr, 2002.
2. Magdi Wahba, *An-Nafees The 21st Century English-Arabic Dictionary*, Cairo: Egyptian International Publishing Company – Longman, 2000.
3. Abu'l-Husayn Ahmad ibn Faris ibn Zakariyya ar-Roziy, *Mu'jamu Maqayisi'l-Lug'a*, tahqiqchi: Ibrohim Shamsuddin, Bayrut: Daru'l-Kutubi'l-Ilmiyya, 1999.
4. Jamâleddin Abu'l-Fadl Ibn Manzur, *Lisan al-'Arab*, tahqiqchi: Amin Muhammad Abdulvahhob va Muhammad as-Sodiq al-'Ubaydiy, Bayrut: Daru't-Turath al-'Arabiyy & Muassasatu't-Tarikh al-'Arabiyy, 2-nashr, 1997.

¹ as-Suyûṭî, *al-Mūzhir*, 1/405.



5. Ayyub ibn Musa al-Husayni Abu'l-Baqa al-Kafaviy, *al-Kulliyyat*, tahqiqchi: Adnan Darvish va Muhammad al-Misriy, Bayrut: Muassasatu'r-Risala, 2-nashr, 1993.
6. Hayat, *Mu'jamu'n-Nafâ'isi'l-Kabîr*, Bayrut: Daru'n-Nafâ'is, 2007.
7. Muhammad Nuriddin al-Munajjid, *at-Tarâdüf fi'l-Qur'âni'l-Karîm bayni'n-Nazariyyati va't-Taṭbîq*, Bayrut: Daru'l-Fikri'l-Mu'asir, 1997.
8. Muhammad Murtado al-Husayni az-Zabidi, *Taju'l-'Arus min Jawahiri'l-Qamus*, tahqiqchi: Abdussattar Ahmad al-Farraj, Kuvayt: Matba'at Hukumat al-Kuvayt, 1971.
9. Ali ibn Muhammad as-Sayyid ash-Sharif al-Jurjani, *Mu'jamu't-Ta'rifat*, tahqiqchi: Muhammad Siddiq al-Minsawiy, Qohira: Daru'l-Fadila.
10. Hamid Sidqiy, Tayyiba Sayfiy, "Qadiyyatü't-Taradüf bayna'l-Isbat va'l-Inkar", *Majallatü'l-Lughati'l-'Arabiyye va 'Adabiha*, Yil: 1, Son: 3, 2006.
11. Muhammad 'Ali ibn 'Ali at-Tahanaviy, *Kashshaf Istilahat al-Funun wa'l-'Ulum*, tahqiqchi: Rafiq al-'Ajjam va 'Ali Dahrush, Bayrut: Maktabat Lubnan, 1996.
12. Abu Bishr 'Amr ibn 'Uthman ibn Qanbar Sibeveyh, *al-Kitâb*, tahqiqchi: 'Abdussalâm Muhammad Hârûn, Qohira: Maktebatü'l-Khanji.
13. Abu Hilol al-'Askariy, *al-Furûq al-Lughawiyya*, Qohira: Dar al-'Ilm wa al-Thaqafa.
14. Abu'l-'Abbâs Muhammad ibn Yazid al-Mübarrid, *Ma't-Tafakḥ lafẓuhû va'ḥtalafa Ma'nâhu mina'l-Qur'âni'l-Majîd*, tahqiqchi: Ahmad Muhammad Abu Ra'd, Kuvayt: Kuvayt Vaqflar vazirligi nashriyoti, 1988.
15. Abu'l-Fatḥ Usmon ibn Jinnî, *al-Hasâis*, tahqiqchi: Muhammad Ali an-Najjar, Nashr joyi: al-Maktebatü'l-'Ilmiyya.
16. al-G'azâlî, *al-Mustasfâ min Uşûli'l-Fiqh*.
17. Fakhruddin Muhammad ibn 'Omar al-Husayn ar-Râzî, *al-Maḥşûl fi 'Ilmi Uşûli'l-Fiqh*, tahqiqchi: Tâhâ Jâbir Fayyâz al-Alavânî, Müassasatü'r-Risâla.
18. Abdurrahmon Jaloliddin as-Suyutiy, *al-Muzhir fi 'Ulûmi'l-Luġa va Anvâ'ihâ*, tahqiqchi: Muhammad Ahmad Jâde'l-Mavlâ va boshqalar, Qohira: Maktabatü Dâri't-Türâs, 3-nashr.
19. Abu'l-Hasan Ali ibn 'Îsâ ar-Rummânî, *al-Alfâzu'l-Mutarâdifatu'l-Mutakâribatu'l-Ma'nâ*, tahqiqchi: Fathullah Sâlih, Ali al-Miṣrî, Mansura: Dâru'l-Vafâ, 1987.
20. Muḥammad Abdurrahman Saliḥ aş-Şâyi', *al-Furûqu'l-Luġaviyye va Aşaruhâ fi Tafsiri'l-Qur'âni'l-Karîm*, Riyâd: Maktabatü'l-'Abikân, 1993.
21. Muḥammad Yâsin Ḥadr ad-Dûrî, *Daḳâ'iku'l-Furûqu'l-Luġaviyye fi'l-Bayâni'l-Qur'ânî*, Bag'dod: Bag'dod universiteti, Ibn Rushd ta'lim fakulteti, 2005.
22. Salâḥ Abdulfattâḥ al-Ḥâlidî, *I'jâzu'l-Qur'âni'l-bayânî wa dalâ'ilu maşdarihi'r-rabbânî*, 'Amman: Dâru 'Ammâr, 2000.
23. Ramaḍân 'Abduttavvâb, *Fuṣûl fi Fikhi'l-'Arabiyya*, Qohira: Maktabatü'l-Ḥânjî, 6-nashr, 1999.
24. az-Ziyâdî, *at-Tarâdüf fi'l-Luġa*.
25. Göksel Sert, "Ma'no sohasi va ma'no ohangi nuqtai nazaridan sinonim holat sifatleri: Muhtamal va olası misoli", *Xalqaro turkcha adabiyot madaniyat ta'lim jurnali*, 2019





ARAB TILIDAGI HARBIY ATAMALARNI TASNIFLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ABDURAHMON SHUKUROV

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilidagi harbiy atamalarning turli toifa va mezonlarga ko'ra tasniflanishi, atamalarning yasash usullari va tahlili ko'rib chiqiladi. Bu esa harbiy tilshunoslik sohasida tadqiqot olib borish, arab tilida harbiy tarjimaning dolzarb muammolarini hal qilish va xalqaro harbiy hamkorlikni lingvistik ta'minlash uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu mavzuning yetarli darajada o'rganilmaganligi, harbiy tarjima uslublarini takomillashtirishning zarurligi, harbiy terminologiyani tasniflash va tahlil qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish kerakligi – maqolaning dolzarbligini belgilaydi. Leksikaning ushbu turi arab tili terminologiya tizimining bir qismi hisoblanar ekan, uni chuqur o'rganish zaruriyati ayniqsa, O'zbekiston va arab mamlakatlari o'rtasida fan va texnikaning turli sohalari bo'yicha aloqalarning rivojlanib borayotganligi bilan bog'liqdir.

Bundan tashqari, arab tilidagi harbiy terminologiya arab dunyosining tarixiy, madaniy va siyosiy jihatlarini aks ettiruvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning shakllanishi ko'p asrlik harbiy an'analar, diniy mafkuralar, shuningdek, xalqaro mojarolar, globallashuv va texnologiyaning rivojlanishi bilan bog'liq zamonaviy voqeiklar ta'siri ostida sodir bo'ldi.

Hozirgi geosiyosiy vaziyat, arab mintaqasining global mojarolardagi ahamiyati va tinchlikparvar tashabbuslar bu mavzuni nafaqat tilshunoslik, balki xalqaro munosabatlar sohasida ham talabga aylantirmoqda. Tadqiqot natijalari arab tili bilan ishlaydigan tarjimonlar, harbiy mutaxassislar, tilshunoslilar va tahlilchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: harbiy terminologiya, harbiy atama, harbiy atamalarning tasniflanishi, harbiy atamalarning yasash usullari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются классификация арабских военных терминов по различным категориям и критериям, способы их образования и анализ. Это имеет большое значение для проведения исследований в области военной лингвистики, решения актуальных задач военного перевода на арабский язык, а также для лингвистического обеспечения международного военного сотрудничества. Актуальность темы определяется недостаточной изученностью данной области, необходимостью совершенствования методов военного перевода и разработки новых подходов к классификации и анализу военной терминологии. Поскольку данный пласт лексики является частью терминологической системы арабского языка, потребность в его глубоком изучении особенно актуальна в контексте развивающихся научно-технических связей между Узбекистаном и арабскими странами.

Кроме того, арабская военная терминология обладает уникальными особенностями, отражающими исторические, культурные и политические реалии арабского мира. Её формирование происходило под влиянием многовековых военных традиций, религиозных идеологий, а также современных факторов, связанных с международными конфликтами, глобализацией и развитием технологий.

Современная геополитическая обстановка, значимость арабского региона в глобальных конфликтах и миротворческих инициативах делают данную тему востребованной не только в области лингвистики, но и в сфере международных отношений. Результаты исследования могут быть полезны для переводчиков, военных специалистов, лингвистов и аналитиков, работающих с арабским языком.

Ключевые слова: военная терминология, военные термины, классификация военных терминов, способы образования военных терминов.

Annotation. This article discusses the classification of military terms in Arabic according to different

categories and criteria, methods of forming terms and their analysis. This is of great importance for conducting research in the field of military linguistics, solving current problems of military translation into Arabic, and linguistic support for international military cooperation. Insufficient knowledge of this topic, the need to improve military translation methods, the need to develop new approaches to the classification and analysis of military terminology determine the relevance of the article. Since this type of vocabulary is considered part of the terminological system of the Arabic language, the need for its in-depth study is especially related to the development of relations between Uzbekistan and Arab countries in various fields of science and technology.

In addition, military terminology in Arabic has unique features that reflect the historical, cultural and political characteristics of the Arab world. Its formation took place under the influence of centuries-old military traditions, religious ideologies, as well as modern realities associated with international conflicts, globalization and technological development.

The current geopolitical situation, the importance of the Arab region in global conflicts and peacekeeping initiatives make this topic in demand not only in the field of linguistics, but also in the field of international relations. The results of the study may be useful for translators, military specialists, linguists and analysts working with the Arabic language.

Key words: military terminology, military terms, classification of military terms, methods of forming military terms.

So'nggi yillarda dunyoda ro'y berayotgan voqea va hodisalar harbiy ishlar jadallashib bora-yotganligini tasdiqlaydi, ommaviy axborot vositalari esa tinimsiz va har soatda sayyoramizning tirli burchaklaridagi jangovar harakatlar va harbiy to'qnashuvlar haqidagi so'nggi yangiliklar oqimlarini efirga uzatishmoqda. Shuning uchun bugungi kunda harbiy terminologiya alohida va juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ayrim arab davlatlaridagi siyosiy vaziyat keskinligicha qolmoqda – unda tez-tez sodir bo'layotgan qurolli to'qnashuvlar inson hayotining barcha sohalariga harbiycha so'zlamning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Ba'zi bir arab mamlakatlarida qurolni erkin olib yurish ko'pdan beri noodatiy yoki notabiiy holat hisoblanmaydi. Oddiy fuqarolar o'zlarining va yaqinlarining hayotini himoya qilish uchun qurolga ega bo'lishga ehtiyoj sezishlari tabiiy, shuning uchun harbiy leksikadan faqat urush va jangovar harakatlar vaqtida mutaxassislar tomonidan foydalaniladi, deyishimiz noo'rin. Endilikda diplomatlar, siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar va hatto oddiy insonlar harbiy atamalarda erkin so'zlashishadi.

Atama – bu fan, texnika, san'at va h.k. sohalaridagi maxsus tushunchalarni ifodalovchi va maxsus ta'rifni talab qiluvchi so'z yoki so'z birikmasini anglatadi¹. Shunday ekan, harbiy atamalar – faqat harbiy sohada qo'llaniladigan so'z yoki so'z birikmasidir.

Harbiy terminologiya – muayyan harbiy tushunchalarni anglatuvchi harbiy terminlar, so'zlar va so'z birikmalari yig'indisidir. Harbiy terminologiya milliy tilda bosqichma-bosqich yuzaga kelib, muayyan davrga xos bo'lgan lingvistik madaniyat holatini, harbiy fan, texnologiya va strategiyadagi o'zgarishlarni aks ettiradi.

Shunday ekan, mavzuning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- arab tilining xalqaro munosabatlardagi rolining ortib borayotganligi, shu jumladan, harbiy sohada;
- harbiy tarjima uslublarini takomillashtirishning zarurligi, xususan, harbiy terminologiyani tasniflash va tahlil qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish;

¹ Ахметова М.Э., Отечественный и зарубежный опыт изучения терминоведения: эволюция понятия «термин» в лингвистике // Филологические науки. Вопросы теории и практики. №8 (38). 2014. с. 23.



- harbiy texnika va strategiya rivojlanishining faol dinamikasi. Bu esa yangi harbiy atamalarning vujudga kelishiga, mavjud atamalar mohiyatining o'zgarishiga hamda boshqa tillardan o'zlashtirilishiga olib keladi;

- ushu mavzuning yetarli darajada o'rganilmaganligi, ayniqsa, arab tilidagi harbiy atamalarni semantik, morfologik, uslubiy va pragmatik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasniflash va tahlil qilishga kompleks-tizimli yondashilmaganligi.

Harbiy atamalarni belgilashning aniq chegaralarini o'rnatish juda qiyin, chunki harbiy terminologiyani qo'llashning sohalari keng bo'lib, tez-tez qo'llaniladigan so'zlar, qisqartmalar va atamalar o'ziga xos tor doiradagi mazmunga ega.

Harbiy kasb boshqa kasbiy faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu harbiy terminologiyada harbiy kasbning muayyan sohalarining funktsional tizimida ta'riflar bilan tartibga solinadigan va o'z nomlarini olgan tushunchalarning mavjudligini anglatadi. Ushbu sohalarning har birini mustaqil bilim sohasi sifatida ajratish mumkin¹.

Shu munosabat bilan, harbiy terminlarni quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi²:

- harbiy-siyosiy terminologiya (strategik, taktik);
- harbiy-diplomatik terminologiya (tashkiliy);
- harbiy-texnik terminologiya (qurolli kuchlarning turli bo'linmalari va qo'shin turlariga nisbatan qo'llaniladi).

Mazkur guruhlarning atamalari qurolli kuchlar bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan turli kasb vakillari tomonidan keng qo'llaniladi. Ular orasida siyosatchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari, huquq-tartibot idoralari xodimlari va boshqalar bor. Harbiy terminologiya ularning nutqida, faoliyat sohalarida zarur bo'lgan darajada mavjud. Harbiy xizmatchilarning nutqiga kelsak, ular orasida va harbiy adabiyotlarning ayrim turlarida ham rasmiy ham norasmiy qo'llaniladigan harbiy terminologiya bilan ifodalanadi.

Shunday qilib, harbiy terminologiya lug'atning maxsus turi bo'lib, ixcham va aniq shakllantirilishi, shuningdek, hissiy ohanglarning mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Harbiy lug'at – harbiy sohada muloqot qilish uchun xos bo'lgan maxsus harbiy atamalar, so'zlar va birikmalarni o'z ichiga oladi.

Turli mamlakatlarning harbiy terminologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu esa uni tarjima qilishda qiyinchiliklarga olib keladi. Shuning uchun ham u yoki bu davlatdagi lingvistik vaziyat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun harbiy lug'atlarning shakllanish yo'llarini sinchiklab o'rganish lozim.

Ma'lumki, arab tili tushunish va tarjima qilish uchun eng qiyin tillardan biridir. Xususan, harbiy terminologiya arab davlatlarining vujudga kelishi davomida sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Ular harbiy lug'atning tarkibi va xilma-xilligiga qanday ta'sir qilganligini, maqola davomida batafsil aniqlashga harakat qilamiz.

Zamonaviy arab terminologiyasining shakllanish tarixi ikki yo'nalish – klassik va zamonaviy yo'nalishlar faoliyati bilan bog'liq. An'anachilar arab mamlakatlarining o'rta asrlar leksik merosining boyligini ta'kidlab, zamonaviy tushunchalarni o'rta asrlar terminologiyasi bilan bog'lashga harakat qilishdi. Yangi atamalarni yaratish uchun so'z yasash usuli qo'llanildi, buning natijasida ikkita otdan iborat bo'lgan ikki komponentli atamalar paydo bo'ldi³.

¹ Кочарян Ю.Г. Языковая природа военного термина // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. 2012. с. 106.

² Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение. М.: Академик, 2008. с.304.

³ Ал-Малаики Д. Научный термин и унификация трактовок // Иракское научное общество. Т. 34. №3. 1983. с.99.



Biroq, ushbu yondashuv samarasiz bo'lib chiqdi, chunki arab tilining lug'ati arab mamlakatlari aholisi nutqida faol ishlatiladigan xorijiy so'zlarning katta hajmini qamrab ololmadi. Bu davlatlarning mustamlakachilik o'tmishi ularning tiliga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, olimlarning zamonaviy atamalarni talqin qilishdagi qarashlari bir-biridan farq qildi, shuning uchun ular shunchaki juda ko'p turli xil ta'riflar bilan to'planib qoldi.

Lekin arab terminologiyasining asosiy muammosi – bu uning bir xillashtirilmaganligi (unifikatsiya qilinmaganligi) edi. Yechim sifatida arab mamlakatlari uchun yagona terminologik lug'at yaratish taklif etildi, ammo bu yerda ham vaziyatni yanada og'irlashtiradigan ko'plab muammolar yuzaga keldi. Natijada, Qohira Arab tili akademiyasi zamonaviy arab terminologiyasiga asos solgan tamoyillar majmuasini ishlab chiqdi.

Asosiy yo'nalishlar sifatida quyidagilar belgilab olindi¹.

- eskirgan lug'atlarning qayta tiklanishi;
- so'z yasalishi darajasida zamonaviy terminlarni yaratish;
- o'zlashtirma so'zlarning ma'nosini hisoblash;
- xorijiy atamalarning transliteratsiyasi (bir alfavit harflarini boshqa alfavit harflari bilan yozish).

Boshlangan ish, afsuski, arab terminologiyasida vujudga kelgan vaziyatni to'liq barqarorlashtira olmadi. Bu ingliz va fransuz tillari ta'sirida mintaqaviy shevalarning xilma-xilligini hisobga olgan holda, ayrim atamalarning ko'p ma'noliligi va atamalarni tarjima qilishning murakkabligi bo'yicha tilshunolar o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjudligi bilan izohlandi². Shuning uchun yagona arab terminologik lug'atni yaratish bo'yicha arab tilshunolari aytgan natijalarni keltira olmadi.

Ta'kidlash lozimki, hozirgi zamonaviy bosqichda qurol-yarog' va harbiy texnikaning ahamiyati ortib bormoqda. Dunyodagi vaziyat lug'at zahirasi harbiy terminologiya bilan yangilash va to'ldirish, demak, arabcha harbiy atamalarning maxsus lug'atini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi.

Uning o'ziga xosligi shundaki, ushbu atamalarni shakllantirishning juda ko'p usullari mavjud bo'lib, ularning aksariyati o'xshash sxemalarda qurilgan. Ushbu usullar o'zlashtirilganidan so'ng, maxsus lug'atni, shu jumladan, harbiy atamalarni tarjima qilish ancha osonlashadi³.

Jumladan, xorijiy davlatlar razvedka xizmatlarining nomlanishi misolida arabcha qisqartmalarni ko'rib chiqish qulayroq hisoblanadi. Misol uchun: الإستخبارات التركية (al-istixbaaraatu t-turkiyya) – “turk razvedkasi”, bu aniq va to'g'ri tarjima hisoblanadi. Shunga qaramasdan, turk razvedkasi rasmiy nomlanishga ega - “Millî İstihbarat Teşkilatı” (Milliy razvedka tashkiloti), M.I.T. nomi bilan mashhur bo'lib, ko'pgina Yevropa mamlakatlarida, Rossiya va ingliz tilida so'zlashadigan davlatlarda an'anaviy ravishda qo'llaniladi.

Ammo arab dunyosi bunday qisqartmalardan foydalanmaydi, balki o'z ekvivalentidan foydalanishni afzal ko'radi. Biroq, bu o'zlashtirma qisqartmalar arab tiliga xos emas, degani emas.

Misol uchun, arab tilida Maxfiy Razvedka Xizmatining (англ. Secret Intelligence Service, S.I.S.) so'zma-so'z ekvivalenti mavjud: خِدْمَةُ الإِسْتِخْبَارَاتِ السِّرِّيَّةِ (hidmatu-l-istixbaaraati-s-sirriyya). Shuningdek, SIS – الإِسْ اِي ايس (al-is ay is) leksikallashtirilgan qisqartma so'zi ham mavjud. Ammo ushbu tashkilot jamoatchilikka “MI-6” nomi bilan ma'lum.

¹ Эл-Сабрути. К вопросу о функционировании современной арабской терминологии // Язык и культура. № 3(35). 2016. с.111.

² Фаид В.К. Ситуация арабского языка и пути его развития// Международная конференция по арабскому языку. Дубай. 2015.

³ Кочарян Ю.Г. Языковая природа военного термина // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. 2012.



Hamma joyda “Mossad” (ivrit tilidan – muassasa, institut) nomi bilan ma’lum bo’lgan razvedka va maxsus tadbirlar instituti, arab tilida so’zma-so’z tarjimasiga ega: *الموساد للاستخبارات والمهام الخاصة* (al-muusaad li-listihbaaraat wal-mahaammil-haassa) – razvedka va maxsus operatsiyalar instituti. “Al-muusaad” so’zi leksik o’zlashtirma bo’lib, tarjima qilinmaydi, arab tilida faqatgina Isroil razvedkasini nomlash ichun qo’llaniladi. “Al-muusaad” so’ziga tutashgan (al-istihbaaraat wal-mahaammil-haassa) tushuntirish nuqtai nazaridan o’ziga xos qo’shimcha bo’lib, ko’pincha tushirib qoldiriladi va bizga ko’p so’zli otni bir so’zga qisqartirish (elliptirovanie) hodisasini namoyon qiladi¹.

Tarjimaning adekvatligi haqida so’z borganda, semantikani (ma’noni) tushunish biroz qiyin bo’lgan holatlarni ham ko’rib chiqish lozim.

Misol uchun, “*عناصر الإستخبارات*” (‘anaasiru-l istihbaaraat) so’z birikmasini aniq tarjima qilish uchun, nafaqat so’z birikmasining o’ziga sinchiklab qarash, balki boshqa so’z turkumlariga ham e’tibor qaratish lozim.

“*عناصر*” (‘anaasiru) – element, tarkibiy qism, kelib chiqish, bir nafar harbiy xizmatchi, bir nafar qurollangan unsur (guruh a’zosi sifatida) v.b. so’zining ko’plik shakldir. Keng semantik qatorga (keng ma’noli so’zlar qatoriga) ega bo’lgan ushbu so’z, izofaning birinchi a’zosi sifatida u yoki bu ma’noga ega bo’lishi mumkin. Shu tariqa, “*عناصر الإستخبارات*” (‘anaasiru-l istihbaaraat) so’z birikmasini “razvedkaning tarkibiy qismlari”, ya’ni, agarda ushbu iborani kontekstdagi ma’nosidan uzib talqin qilsak, “razvedka bo’linmasi”, deb tarjima qilinsa umuman olganda mantiqan to’g’ri bo’ladi.

Yana bir e’tiborga loyiq misolni ko’rib chiqamiz: *القوات الحكومية أعادت فتح مركز الشرطة في مدينة الخالدية التي تُسيطر عليها عناصر من داعش* (Al-quwwaat ul-hukumiyya ‘aadat fatha markazi-shurta fi-madiinatil-haalidiyya allati tusaytiru ‘alayha ‘anaasiru min daa’ish) – “Hukumat kuchlari Al-Xalidiya shahrida IShID jangarilari nazorati (so’zma-so’z: hukumronligi) ostidagi polisiya shtabini zabt etish bo’yicha amaliyotni qayta boshlashdi”².

Matnlarda ko’p tarqalgan *عناصر من داعش* (‘anaasiru min daa’ish) so’z birikmasi “IShID jangarilari (noqonuniy qurollangan unsurlar)”, deb tarjima qilishga undaydi. Ilgari aniqlik kiritilganidek, *عناصر* (‘anaasiru) so’zi chuqur semantikaga (ma’noga) ega. Shubhasiz, ushbu ibora “IShID bo’linmasi” ma’nosini anglatishi mumkin edi. Biroq, ushbu guruh aniq shakllangan shtatli harbiy tuzilmaga ega emasligi sababli “IShID bo’linmasi” deb tarjima qilish to’g’ri emas³.

Quyida arab tilidagi harbiy terminlarning tasniflanishini chuqurroq o’rganib chiqishga harakat qilamiz.

Unga ko’ra, arab tilidagi harbiy terminlarni turli xil mezonlar bilan tasniflash mumkin.

I. Kelib chiqishi bo’yicha tasniflanishi:

a) asl arabcha atamalar:

- arabcha so’z yasaliş modellari bo’yicha hosil bo’lgan atamalar. Misol uchun: *جُنْد* (qo’shin, armiya) so’zidan *جُنْدِي* (askar).

- arab tilining boshqa semantik guruhlaridan o’zlashtirilgan atamalar mohiyatini qayta ko’rib chiqish bilan. Misol uchun: *سَنَم* (o’q, nayza) – “snaryad”. Shuningdek, “snaryad” so’zi arab tilida *فَدَيْفَة*, deb ham tarjima qilinadi.

¹ Хадыева З.М., Зубовский М.С. Военная терминология в арабском языке // Вестник Омского государственного педагогического университета. Гуманитарные исследования. №3 (7). 2015. с. 61.

² Терещенко В.В. Лексико-грамматические особенности образования многокомпонентных военных и военно-технических терминов в арабском языке: в сопоставлении с русским языком, 2001. с. 142.

³ Мустафаева А.А. Основные способы терминообразования в арабском языке // Вестник КазНУ. №3 (48). 2009. с. 98.



b) o'zlashtirilgan atamalar:

هيلوكتير (vertolyot), atama ingliz tilidagi helicopter “vertolet” soʻzining transliteratsiyasi hisoblanadi; تانك (tank), ingliz tilidagi tank - “bak, sistema, rezervuar” soʻzidan kelib chiqqan. Atamaning kelib chiqishi temir yoʻl boʻylab olib ketilayotgan qoʻshinlar va qurollarni kuzatayotgan dushmanning aygʻoqchilarini chalgʻitish bilan bogʻliq. Yaʼni, dastlabki tanklarning hajmi juda katta boʻlganligi sababli temir yoʻli orqali sistema koʻrinishida harakatlanishgan.

II. Harbiy atamalarning tematikasi boʻyicha tasniflanishi:

a) qoʻshin turlari:

- ushbu atamalar qurolli kuchlardagi qoʻshinlarning turlariga xos boʻlgan atamalar hisoblanadi. Misol uchun: قواۋت البرية (quruqlikdagi qoʻshinlar), قواۋت الجوى (harbiy havo kuchlari), قواۋت الدفاع الجوى (havo hujumidan mudofaa qoʻshinlari), مشاة البحرية (dengiz piyoda qoʻshinlari), مدفعية (artilleriya) va h.k.

b) harbiy texnika va jihozlar:

Ushbu atamalarga turli harbiy texnika, jihoz va qurollar kiradi.

Misol uchun: دبابة (tank), سلاح كيميائي (kimyoviy qurol), مدفعية (artilleriya), طائرة بدون طيار (uchuvchisiz uchish apparati), مقاتلات (qiruvchi samolyot), السفن الحربية (harbiy kemalar).

v) harbiy taktika va strategiya:

Ushbu atamalar jangovar harakatlarning turli taktikalari, strategiya va shakllarini tavsiflaydi. Misol uchun: محاصرة (qamal qilish, qurshab olish), هجوم (hujum), دفاع (mudofaa) yoki انسحاب (chekinish).

g) qoʻmondonlik va nazorat qilish bilan bogʻliq atamalar:

- ushbu atamalar harbiy kuchlarning qoʻmondonligi, boshqaruvi va tashkiliy tuzilmalarini tavsiflash uchun ishlatiladi. Misol uchun: قائد (komandir), معسكر (lager), وحدة الجيش (harbiy qism), كتيبة (otryad, batalyon), أفراد الجيش (askarlar, oddiy askarlar) va b.

III. Morfologik tarkibi boʻyicha tasniflanishi:

a) oddiy atamalar:

- bitta soʻzdan iborat boʻlgan atamalar, misol uchun: بندقيّة (miltiq).

b) qoʻshma (murakkab) atamalar:

- ikki va undan koʻp soʻzlardan iborat atamalar, misol uchun: قاذفات الّهب (ognemyot, oʻtsochar); قاذفات القنابل (bombardimonchi samolyot).

IV. Stilistik (uslubiy) tusi boʻyicha tasniflanishi:

a) neytral atamalar:

- rasmiy-ishga doir nutqlarda qoʻllaniladigan atamalar, misol uchun: جيش (armiya), الأفراد (shaxsiy tarkib).

b) ekspressiv (ifodalovchi) atamalar:

- publisistik va ogʻzaki nutqda qoʻllaniladigan atamalar, misol uchun: بطل (qahramon).

V. Funktsional vazifasiga (qoʻllanilishiga) koʻra tasniflanishi:

a) umumiy qoʻllaniladigan atamalar:

- ushbu atamalar qurolli kuchlarning barcha turlarida qoʻllaniladi va umumiy harbiy tushunchalarni anglatadi, misol uchun: حرب (urush), جندي (askar), سلاح (qurol) va b.

b) maxsus atamalar:

- ushbu atamalar maʼlum bir qoʻshin turlarida qoʻllaniladi va unga xos tushunchalarni anglatadi, shuningdek, harbiy fan va texnikaning tor sohalarida qoʻllaniladi, misol uchun: قارب تحت الماء (suv osti



kemasi).

v) eskirgan atamalar:

- ushbu atamalar zamonaviy harbiy sohada boshqa qo'llanilmaydi, biroq, tarixiy matnlar va badiiy adabiyotlarda uchraydi¹. Misol uchun: بِسَاقِيَّة (revolver, to'pponcha).

VI. Xronologik belgisi bo'yicha tasniflanishi:

a) tarixiy atamalar:

- o'tgan, qadimgi davrlar tushunchalari, hodisalari, voqe'liklarini anglatuvchi atamalar, misol uchun: فَارِس (otliq, suvoriy), سَيْف (qilich), رُمْح (nayza).

b) zamonaviy atamalar:

- zamonaviy harbiy ish voqe'ligini aks ettiruvchi atamalar, misol uchun: طَائِرَةٌ بِئُونِ طَيَّار (uchuvchisiz uchish apparati).

Arab tilidagi harbiy terminlarni mezonlar bilan tasniflar ekanmiz, mazkur atamalarning o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlari haqida ham to'xtalib o'tish lozim.

Xususan, arab tilidagi harbiy atamalar bir necha usullar bilan yasalishi mumkin. Atamalarning bir qismi masdar orqali yasalgan bo'lsa, atamalarning boshqa qismi uning funksiyalarini tavsiflash orqali, boshqalari esa aniq nisbat sifatidoshi usuli bo'yicha yasalgan. Shuningdek, harbiy atama yasalishining ko'p tarqalgan usuli – bu obyektini tavsiflashdir.

Buni bir necha misollar bilan ko'rib chiqamiz.

فَرْد (pistolet, to'pponcha) - ushbu so'z فَرْد [farada] «yagona bo'lmoq» fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, ilk davrlarda pistolet bir marta o'qlanadigan xususiyatga va yagona patronga ega bo'lgan. *Atama fe'lining masdar shakli bo'yicha yasalgan.*

بَنْدَقَة (o'q) – ushbu so'z بَنْدَق (otmoq, o'q uzmoq) fe'lidan kelib chiqqan, ya'ni, o'q – bu otiladigan narsa. *Ushbu atama fe'lining funksiyasini tavsiflash orqali yasalgan.*

رَصَاصَة (o'q) – ushbu so'z رَصَّاص (qo'rg'oshin) so'zidan kelib chiqqan, ya'ni, o'q qo'rg'oshindan yasalganligi uchun shunday deb atalgan. *Ushbu holatda atama obyektini tavsiflash orqali yasalgan.*

خَزَنَة (o'qdon) – ushbu so'z خَزَن (g'amlamoq, zahiralamoq) fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, o'qdon – ya'ni o'q, patronlar zahirasi ma'nosini anglatmoqda. *Ushbu atama fe'lining funksiyasini tavsiflash orqali yasalgan.*

سِكِّين (pichoq) – so'z سَكَيْنَة «jimlik, sukunat» so'zidan kelib chiqqan, ya'ni, pichoq – sovuq qurol sifatida «shovqinsiz, tovush chiqarmaydigan» ma'nosini anglatmoqda. *Ushbu atama uning obyektini tavsiflash orqali yasalgan.*

صَارُوْخ (raketa) – ushbu so'z صَارَخ «bo'kiruvchi, qichqiruvchi» ma'nolarni anglatuvchi *aniq nisbat sifatidoshidan kelib chiqan bo'lib*, raketaning start olishi bo'kirishni eslatgani uchun shunday atalgan. *Ushbu atama fe'lining funksiyasini tavsiflash orqali yasalgan.*

قَنْبَلَة (bomba, granata) - so'z قَنْبَلَ «bomba tashlamoq» fe'lidan olingan bo'lib, *atama fe'lining funksiyasini tavsiflash orqali yasalgan.*

سِتْرَةٌ وَاقِيَةٌ مِنَ الرِّصَاصِ (bronejilet) so'zma-so'z «o'qdan himoya qiluvchi erkaklar kamzuli» deb tarjima qilinadi. *Ushbu atama uning obyektini tavsiflash orqali yasalgan.*

دِرْعُ الرَّأْسِ (kaska, dubulg'a, sovut), so'zma-so'z «bosh zirhi, sovuti» ma'nosini anglatadi. Ushbu so'z دَرَع «sovut kiydirmoq, zirhlamoq» fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, *fe'lining funksiyasini tavsiflash orqali yasalgan.*

¹ Адыгезалов А.Р. Особенности образования военных терминов в современном арабском языке // Вестник Московского университета. Серия 9. №6. 2021. с.134-145.



تَنْبَلَة (tank), ushbu soʻz تَنْبَل “sudraluvchi, emaklovchi” *aniq nisbat sifatdoshi orqali yasalgan*. Yaʼni تَنْبَل feʼli “sudralmoq, emaklamok” maʼnosini anglatadi.

Dastlabki tanklarning tezligi juda past boʻlgan va jang maydonida sudralib yurgan.

طائرة (samolyot) – soʻz طَار “uchmoq” feʼlidan “uchuvchi” *aniq nisbat sifatdoshi sifatida yasalgan*.

ناقلة جنود مدرعة (Zirhli transport vositasi, rus.: BTR, Bronetransportyor,) – soʻzma soʻz “zirhlangan qoʻshin tashuvchi”, ushbu atama *uning obyektini tavsiflash orqali yasalgan*.

مطرادة (qiruvchi-tutuvchi samolyot), atama طَارِد “taʼqib qilmoq, quvmoq, shiddatli hujum qilmoq” feʼlining *aniq nisbat sifatdoshi* “taʼqib qiluvchi, quvuvchi, shiddatli hujum qiluvchi” *sifatida yasalgan*.

طائرة قاذفة (Bombardimonchi samolyot) – soʻzma-soʻz “tashlovchi samolet”, bu yerda atama *feʼlining funksiyasini tavsiflash orqali yasalgan*.

طائرة بدون طيار (uchuvchisiz uchish apparati) – soʻzma-soʻz “uchuvchisiz samolet”, atama *uning obyektini tavsiflash orqali yasalgan*.

XULOSA. Yuqorida harbiy terminlarni turli xil mezonlarga koʻra tasniflaganimiz arab tilidagi harbiy terminologiyani tartibga solishga yordam beradi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, harbiy lugʻat zahirasi juda xilma-xil boʻlib, turli tarixiy, texnik va madaniy kontekstdagi atamalarni oʻz ichiga olishi mumkin. Shuningdek, bir atama faqatgina bir toifaga kirmasligi mumkin, balki bir vaqtning oʻzida bir necha toifalar tarkibiga kirishi mumkin¹.

Taʼkidlash lozimki, arab tilidagi harbiy atamalarni oʻrganish va tahlil qilish harbiy harakatlarni samarali oʻtkazish, harbiy kommunikatsiyalarni toʻgʻri tushunish va talqin qilishni taʼminlash uchun zarurdir. Harbiy leksikani turli mezonlarga koʻra tasniflash yoʻnalishdagi lugʻat zahirasi tizimlashtirish va strukturalash imkonini beradi, bu esa uni oʻrganish va amaliy maqsadlarda qoʻllashni osonlashtiradi.

Shuningdek, jangovar harakatlarni oʻtkazishning yangi shakllari va usullari mohiyatining yaxlit nazariyasini yaratishi kerak boʻlgan harbiy fan rolining tobora ortib borayotganligini taʼkidlash lozim. Shunga koʻra, tor darajada ixtisoslashgan va yangi maʼnoga ega boʻlgan atamalarni oʻzlashtirishga boʻlgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shuning uchun ham matbuotda harbiy lugʻatdan foydalanishning spetsifikasini (oʻziga xos xususiyatlarini) aniqlash muhim vazifalardan biri boʻldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Адыгезалов А.Р. Особенности образования военных терминов в современном арабском языке // Вестник Московского университета. Серия 9. №6. 2021.
2. Дёмин П.Э. Современные принципы арабского военного терминоведения. Военный университет Министерства обороны Российской Федерации, 123001, г. Москва;
3. Дёмин П.Э. Особенности образования военных терминов в современном арабском языке // Научный альманах. №3.2 (65). 2020.
4. Демина Э.А. Лексико-семантические особенности военных терминов современного арабского языка // Вестник Челябинского государственного университета. № 33 (243). 2010.
5. Ал-Малаики Д. Научный термин и унификация трактовок // Иракское научное общество. Т. 34. №3. 1983.
6. Ахметова М.Э., Отечественный и зарубежный опыт изучения терминоведения: эволюция понятия «термин» в лингвистике // Филологические науки. Вопросы теории и практики. №8 (38). 2014.
7. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение. М.: Академик, 2008.
8. Кочарян Ю.Г. Языковая природа военного термина // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. 2012.

¹ Адыгезалов А.Р. Особенности образования военных терминов в современном арабском языке // Вестник Московского университета. Серия 9. №6. 2021. с.134-145.



9. Мустафаева А.А. Основные способы терминообразования в арабском языке // Вестник КазНУ. №3 (48). 2009.
10. Терещенко В.В. Лексико-грамматические особенности образования многокомпонентных военных и военно-технических терминов в арабском языке: в сопоставлении с русским языком, 2001.
11. Sharustam Shamusarov. Uchites uchitsya. Tashkent. 2-oye izdaniye. 2016
12. Фаид В.К. Ситуация арабского языка и пути его развития // Международная конференция по арабскому языку. Дубай. 2015.
13. Хадыева З.М., Зубовский М.С. Военная терминология в арабском языке // Вестник Омского государственного педагогического университета. Гуманитарные исследования. №3 (7). 2015.
14. Эл-Сабрути. К вопросу о функционировании современной арабской терминологии // Язык и культура. № 3(35). 2016.



ERON DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA DINIY VA DUNYOVIY INSTITUTLARNING O'RNI

DILSHODA XODJIMURATOVA

Boshqarma boshlig'i, TDSHU

Annotatsiya: Maqolada Eron Islom Respublikasidagi davlat boshqaruvi tizimidagi institutsional o'ziga xosliklar tahlil qilingan va ilmiy asosda yoritishga qaratilgan. Eron hokimiyatidagi teokratik va dunyoviy elementlarning o'zaro ta'siri davlat boshqaruvining samaradorligini belgilaydigan muhim omil sifatida ko'rib chiqilgan. 1979-yilgi Islom inqilobidan keyin shakllangan siyosiy tizimning transformatsiyasi asosida "Veloyate fakih" konsepsiyasi markaziy o'rin tutishi ko'rsatilgan. Ushbu konsepsiya davlat boshqaruvi tizimining teokratik asoslari va shia siyosiy an'alarining uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Oliy rahbar institutining vakolatlari nuqtayi nazaridan eng yuqori o'rinda turuvchi markaziy boshqaruv organi sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, Ekspertlar kengashi, Konstitutsiyani qo'riqlash kengashi, Maqsadlarga muvofiqlik kengashi kabi teokratik institutlarning roli davlat iyerarxiyasining muvozanatini ta'minlash doirasida o'rganilgan. Maqolada institutsional evolyutsiya jarayonida parlament, Vazirlar Mahkamasi va boshqa demokratik hokimiyat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tadqiq qilingan. Hozirgi Eron siyosiy boshqaruv modelining barqarorligi va samaradorligi mamlakatning ichki va tashqi xavflarga qarshi tura olish qobiliyati bilan izohlangan. 1989-yildagi konstitutsiyaviy islohotlar boshqaruv tizimini takomillashtirganligi bilan baholanadi.

Kalit so'zlar: "Veloyate fakih", Oliy rahbar, Ekspertlar kengashi, Konstitutsiyani qo'riqlash kengashi, Maqsadlarga muvofiqlik kengashi, siyosiy tizim, Parlament, Konstitutsiyaviy islohotlar, siyosiy barqarorlik.

Annotation: The article analyzes and scientifically examines the institutional features of the state governance system in the Islamic Republic of Iran. The interaction between theocratic and secular elements of power in Iran is considered an important factor determining the effectiveness of state governance. It is shown that the concept of "Velayat-e Faqih" occupies a central place in the transformation of the political system formed after the Islamic Revolution of 1979. This concept ensures the synthesis of theocratic foundations of governance and Shiite political traditions. The institution of the Supreme Leader is analyzed as the central governing body with the highest authority. The role of such theocratic institutions as the Assembly of Experts, the Guardian Council, and the Expediency Council in maintaining the balance of the state hierarchy is also examined. The article explores the relationships between the parliament, the cabinet of ministers, and other democratic bodies of power during the process of institutional evolution. The stability and efficiency of the modern political governance model in Iran are explained by its ability to withstand internal and external threats. The constitutional reforms of 1989 are evaluated as an improvement of the governance system.

Keywords: "Velayat-e Faqih", Supreme Leader, Assembly of Experts, Guardian Council, Expediency Council, political system, parliament, constitutional reforms, political stability.

Аннотация: В статье проанализированы и раскрыты на научной основе институциональные особенности системы государственного управления в Исламской Республике Иран. Взаимодействие теократических и светских элементов власти в Иране рассматривается как важный фактор, определяющий эффективность государственного управления. Показано, что центральное место в трансформации политической системы, сформировавшейся после Исламской революции 1979 года, занимает концепция «Велаят-э факих». Эта концепция обеспечивает синтез теократических основ системы государственного управления и шиитских политических традиций. Рассмотрен институт Верховного лидера как центральный орган управления, обладающий наивысшими полномочиями. Также изучена роль таких теократических институтов, как Совет экспертов, Совет по охране Конституции, Совет целесообразности, в

обеспечении баланса государственной иерархии. В статье исследованы взаимосвязи между парламентом, кабинетом министров и другими демократическими органами власти в процессе институциональной эволюции. Устойчивость и эффективность современной модели политического управления в Иране объясняется её способностью противостоять внутренним и внешним угрозам. Конституционные реформы 1989 года оцениваются как усовершенствование системы управления.

Ключевые слова: «Велаят-э факих», Верховный лидер, Совет экспертов, Совет по охране Конституции, Совет целесообразности, политическая система, парламент, конституционные реформы, политическая стабильность.

Eron Islom Respublikasi siyosiy modelining o'ziga xosligi ushbu mamlakat davlat boshqaruvi tizimida diniy va dunyoviy institutlarning o'zaro uyg'unlashgan faoliyatini ilmiy o'rganishning dolzarbligini oshirmoqda. Eron boshqaruv tizimini ilmiy tahlil qilish teokratik davlatlarning hozirgi rivojlanishi innovatsion tus olayotganligi bilan ahamiyatga molik.

Diniy va dunyoviy tuzilmalarning institutsional o'zaro ta'sirini tadqiq etish Eron davlat boshqaruvining o'ziga xos modelini ko'rish imkonini beradi. 1979-yilgi islom inqilobidan keyin Eron siyosiy tizimining transformatsiyasi natijasida davlat boshqaruvining teokratik va dunyoviy unsurlarining sinteziga asoslangan mexanizmi vujudga keldi. Eron davlat qurilishi tajribasini nazariy jihatdan anglash uchun siyosiy taraqqiyotning muqobil modellarini tushunish talab etiladi.

Xususan, dunyoviy institutlarni har tomonlama tahlil qilish Erondagi barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini aniqlashga imkon beradi. Institutsional o'zaro munosabatlarni, xususan, dunyoviy hokimiyat idoralarining o'zaro munosabatlarini tadqiq etish ham muayyan ilmiy yangilik bo'lmoqda. Eron modelini o'rganish ruhoniyyatning davlat boshqaruvi tizimiga ta'siri usullarini ko'rsatib beradi. Eron siyosiy tizimining institutsional tuzilishini o'rganish hokimiyatning legitimligini ta'minlash mexanizmlarini ochib beradi.

Eronda 1979-yilda amalga oshirilgan islom inqilobi davlatning tuzilishini tubdan o'zgartirib yubordi. Yangi davlat tizimining konstitutsiyaviy rasmiylashtirilishi 1979-yil dekabr oyida Eron Islom Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan yakunlandi. Hokimiyatni legitimlashtirishning markaziy elementi sifatida R.Xumayniy tomonidan ishlab chiqilgan "Veloyate fakih" konsepsiyasi belgilandi¹. Bu konsepsiyaga ko'ra, davlatdagi oliy hokimiyat eng obro'li faqihga tegishli bo'lishi kerak, chunki bu zamonaviy boshqaruv shakllari va shia siyosiy an'analarining uyg'unlashtirilishini ta'minlaydi.

Davlat tuzilishining ushbu modeli respublika boshqaruvining zamonaviy prinsiplari va an'anaviy shia siyosiy-huquqiy konsepsiyalari o'rtasidagi institutsional murosani ifodalab, Eronning o'ziga xos rivojlanish yo'lini belgilab berdi.

Joriy etilayotgan "veloyate fakih" tamoyilining asosiy institutsional yangiligi Eron davlat iyerarxiyasida oliy vakolatlarga ega bo'lgan Oliy rahbar lavozimining ta'sis etilishi bo'ldi. Oliy rahbarning konstitutsiyaviy mustahkamlangan vakolatlari keng qamrovli ekanligi bilan ifodalanadi. Bunda diniy yetakchining funksiyalari hokimiyatning barcha tarmoqlariga (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) ta'sir qiluvchi vakolatlari bilan birlashgan. Teokratik tizim samarali ishlashini ta'minlash uchun keng qamrovli institutsional tuzilma, jumladan, Ekspertlar kengashi, Konstitutsiyani qo'riqlash kengashi (yoki Kuzatuv kengashi), Maqsadga muvofiqlik kengashi kabi asosiy idoralar tashkil etildi. Bu tizim zamonaviy davlatchilikning rasmiy atributlarini saqlab qolgan holda boshqaruvning teokratik tamoyilini ta'minlaydi.

Ekspertlar kengashi Eron davlat boshqaruvi tizimida o'ziga xos mavqega ega. Oliy rahbarni saylash, faoliyatini nazorat qilish va lavozimidan chetlashtirish vakolatiga ega bo'lgan yagona davlat organi

¹ روح الله خمینی، ولایت فقیه، حکومت اسلامی موسسه تنظیم و نشر آثار امام خمینی (ره)، 1383، ص. 184.



hisoblanadi. Tashkiliy jihatdan bu organ mamlakat Oliy rahbarining faoliyatini nazorat qiluvchi kollegial tuzilma sifatida faoliyat yuritadi.

Ekspertlar kengashi bir va ko'p mandatli saylov okruglari bo'yicha umumiy va to'g'ridan-to'g'ri saylovlar o'tkazish orqali tashkil etiladi. Tarixan belgilangan sakkiz yillik vakolat muddati o'n yilga uzaytirilgach, bu hol saylov siklida ham o'z aksini topdi: 1982, 1990, 1998, 2006, 2014-yillardagi saylovlardan so'ng 2024-yil 1-martda o'tkazildi. 24,5 million saylovchi (ularning 48 foizi ayollar) ishtirokida o'tkazilgan mazkur (2024-yil 1-mart) ovoz berish natijasida shia ruhoniylarining 72 nafar vakili saylandi. Qolgan 16 ta o'rinni taqsimlash saylovning 2024-yil may oyiga mo'ljallangan ikkinchi bosqichiga qoldirildi¹. Bu natijalar Eron siyosiy tizimida konservativ yo'nalish muayyan kuchayganini ko'rsatadi.

Ekspertlar kengashining kelib chiqishi aslida, bu organ Eron Konstitutsiyasini yaratish uchun tashkil etilgan, ammo institutsional rivojlanish jarayonida u o'ziga xos vakolatlariga ega bo'ldi. Eron Asosiy qonunining 107-moddasida Oliy rahbari saylaydigan Ekspertlar kengashining asosiy vakolatlari belgilangan. Uning 108-moddasida esa ushbu organi shakllantirishning tartibi ko'rsatilgan². Muhim jihati shundaki, Kengash faoliyatini belgilovchi qoidalarni dastlab Kuzatuv kengashi ishlab chiqadi va Oliy rahbar tasdiqlaydi, ammo ushbu qoidalarni keyinchalik Ekspertlar kengashining o'zi yangilab boradi.

Ekspertlar kengashi boshqaruv kengashi va oltita komissiyadan iborat. Boshqaruv kengashi a'zolari yashirin ovoz berish yo'li bilan ikki yil muddatga saylanadi. Ularga rais, ikkita rais o'rinbosari, ikkita kotib va ikkita yordamchi kiradi. Tashkil etilganidan beri Kengashda beshta rais almashdi. Birinchi rais Ali Meshkiniy Kengashni 1983-yildan 2007-yilgacha boshqardi. Uning vorisi Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoni 2014-yilda vafot etgach, Kengashda hokimiyat uchun kurash boshlanib, uch yil davomida har yili rais almashdi. 2016-yilda oyatulloh Ahmad Jannatiy rais bo'ldi. 2024-yilgi saylov natijasida bu lavozimni Muhammadali Movahidiy Kermoniy egalladi³.

Konstitutsiya qo'riqchilari kengashi (Kuzatuv kengashi) Eron davlat boshqaruvi tizimida muhim rol o'ynaydigan yana bir teokratik xususiyatga ega institut hisoblanadi. Uning 12 nafar a'zosidan 6 nafari Oliy rahbar tomonidan tayinlanadigan faqihlar bo'lib, qolgan 6 nafari esa yuristlar tashkil etadi. Ularning nomzodlarini Majlis⁴ taklif etadi, shu bilan birga, ularni Oliy rahbar ham tasdiqlashi talab etiladi. Kuzatuv kengashining vazifasi Majlis tasdiqlagan qonunlarning Konstitutsiya va islom aqidalariga muvofiqligini nazorat qilishdan iborat. Agar qonunlar islom shariati ahkomlariga mos kelmasa, qayta ishlab chiqish va tahrir qilish uchun parlamentga qaytariladi. Shuningdek, Kengash Majlisning har qanday qaroriga veto qo'yishi hamda konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Majlis Kuzatuv kengashining rozilgisiz ma'qullangan har qonun loyihasini bekor qilish huquqiga ega. Hatto R.Xumayniyning aralashuvi ham qonunlarni qabul qilish jarayonini tezlashtira olmagan. Shu bois u Majlis va Kuzatuv kengashi o'rtasida o'ziga xos hakam bo'ladigan qo'shimcha oliy davlat organi — Maqsadga muvofiqlik kengashi (Nizom kengashi)ni tashkil etilishiga rozi bo'ldi. Kuzatuv kengashi mamlakatning asosiy lavozimlariga nomzodlarni, jumladan, prezident, Majlis deputatlari, Ekspertlar kengashi a'zolari va

¹ مرحله دوم انتخابات مجلس شورای اسلامی ۲۱ اردیبهشت ۱۴۰۳ برگزار می‌شود. (Isлом kengashi saylovlarining ikkinchi bosqichi 2024-yilning 21-mayida bo'lib o'tadi)[Elektron manba]. URL: <https://www.ima.ir/news/85421995/>.

² قانون اساسی جمهوری اسلامی ایران.

(Eron islom respublikasi Konstitutsiyasi, 111-modda) http://rc.majlis.ir/fa/content/iran_constitution

³ Васкин И. Совет экспертов Исламской Республики Иран: социально-демографические и политические факторы рекрутирования (1983–2024) // Социологическое обозрение. 2024. Т.23. №1. С. 116.

⁴ Majlis (parlament) 290 a'zodan iborat bo'lib, ular to'g'ridan-to'g'ri, ochiq va yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Majlisga saylovlar, prezidentlik saylovlari kabi, turli siyosiy guruhlar o'rtasidagi keskin kurash sharoitida o'tadi. Ayni shu paytda turli birlashmalar, koalitsiyalar tashkil etiladi, partiyalar faoliyati kuchayadi yoki yangi partiyalar tuziladi.



vazirlar, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarida qaror qabul qiluvchi shaxslarni tasdiqlash orqali tashqi siyosat sohasida ham muhim rol o'ynaydi.

Maqsadga muvofiqlik kengashi Eron davlat tizimidagi asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Kengashni tahlil qilish borasida ikki xil fikr mavjud. Birinchidan, ushbu kengashni Eron parlamenti va Kuzatuv kengashi o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish uchun mas'ul bo'lgan siyosiy organ sifatida baholash mumkin¹. Ikkinchidan, uni inqirozlar sharoitida Oliy rahbardan keyin mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan asosiy boshqaruv institutlaridan biri sifatida ham ta'riflanadi². Bu yondashuvlar bir-birini to'ldiradi, chunki birinchisi ushbu institutning huquqiy jihatini ko'rishga imkon bersa, ikkinchisi uni xavfsizlik nuqtai nazardan faoliyatini belgilaydi.

1989-yilda Maqsadga muvofiqlik kengashining konstitutsiyaviy legitimligi Eron siyosiy tizimida amalga oshirilgan katta o'zgarishlar, xususan, bosh vazir lavozimini tugatilishi orqali prezident hokimiyatining mustahkamlanishi, Oliy rahbarga nafaqat diniy, balki siyosiy vakolatlar ham berilishi bilan birga kechdi³.

Ushbu kengash rayosat, kotibiyat, oltita doimiy komissiya va tadqiqot markazlaridan iborat yaxlit tuzilmani tashkil etadi. Har bir tuzilmaga rais boshchilik qiladi. Bundan tashqari, tashqi dunyo bilan aloqalarni yuritishga mutasaddi bo'lgan to'rtta qo'shimcha ixtisoslashgan qo'mita faoliyat olib boradi⁴.

Eronning institutsional arxitekturasini 1989-yilda tashkil etilganidan beri ko'plab tarkibiy o'zgarishlarga uchradi. Uning kadrlar tarkibi Eron Oliy rahbarining qarori bilan shakllantiriladi. Birinchi toifaga Milliy xavfsizlik oliy kengashining oltita vakili, hokimiyat uch tarmog'ining rahbarlari, parlamentning tegishli komissiyalari vakili, vazirlar va Xavfsizlik kengashining kotibi kiradi. Ikkinchi guruh Oliy rahbar tomonidan bevosita tayinlanadi.

Mazkur guruhlar o'rtasidagi mutanosiblik institutsional tuzilmaning evolyutsiyasi va hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishini o'zida aks ettiradi. Parlament va Kuzatuv kengashi o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishda mediativ funksiyani bajarishiga qaramay, faqat ikkinchi tarkibda vakillik oldi. Bunga Oliy rahbarlarning konservativ yo'nalishi bilan parlamentdagi islohotchilik tendensiyalari o'rtasidagi mafkuraviy dualizm sabab bo'lgan⁵.

Eron Islom Respublikasining Konstitutsiyasida Oliy rahbarga davlat boshqaruvi sohasida keng vakolatlar berilgan. Asosiy qonunning 110-moddasiga muvofiq, Oliy rahbarning vakolatlari davlatning ichki va tashqi siyosatidagi muhim jihatlarni qamrab oladi. U umumiy siyosiy strategiyaning amalga oshirilishini nazorat qiladi hamda referendum o'tkazish tashabbusi bilan chiqish vakolatiga ega.

Harbiy sohada Oliy rahbar qurolli kuchlarning oliy bosh qo'mondoni hisoblanadi, urush va tinchlik holati haqida qarorlar qabul qiladi, harbiy safarbarlik e'lon qiladi. Shuningdek, u oliy harbiy qo'mondonlikning yuqori bo'g'in kadrlari, Islom inqilobi qo'riqchilari korpusi (IIQK)ning boshliqlarini tayinlaydi. Oliy rahbar Kuzatuv kengashi tarkibi, oliy sud raisi, bosh prokuror va davlat teleradiokompaniyasining raisini tayinlash orqali asosiy davlat institutlarini o'zgartirish yo'li bilan hokimiyatni tamomila o'z

¹ Naini. Iran's second chamber? The guardian council // The Journal of Legislative Studies, Vol. 12, 2, 2006, P. 198–222.

² Ghiabi, M. The council of expediency: crisis and statecraft in Iran and beyond // Middle Eastern Studies, Vol. 55, 5, 2019, P. 837–853.

³ Valibeigi, M. Islamic Economics and Economic Policy Formation in Post Revolutionary Iran: A Critique // Journal of Economic Issues, 1993. Vol. 27, 3, P. 799.

⁴ Васькин И. Влияние политического курса избираемых органов власти на неизбираемые в опекунских режимах: кейс рекрутирования в Ассамблею по определению целесообразности Ирана // Вестник Пермского университета. Политология. Т. 15. №4. 2021. С. 100.

⁵ Akhavi-Poor, H., Azodanloo, H. Economic bases of political factions in Iran // Critique: Journal for Critical Studies of the Middle East, 1998. Vol. 7, 13, pp. 69–82.



qo'lida mujassamlashtiradi. U saylangan prezidentni lavozimida tasdiqlaydi va muayyan shart-sharoitlarda uni lavozimidan chetlashtirish vakolatiga ega.

Eron siyosiy tizimidagi eng murakkab munosabatlar ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyat tarmoqlari o'rtasida yuzaga kelgan. Teokratik siyosiy tuzum davrida hatto ularning tarkibi ham o'zgar-gan. Konstitutsiyaning dastlabki tahririga ko'ra, ijroiya hokimiyatni prezident va bosh vazir boshchi-ligidagi hukumat amalga oshirgan. Ammo ijroiya hokimiyatdagi bu ikki tarmoqning qarashlari ko'pincha o'zaro mos kelmagan. Eron-Iroq urushi davrida hukumat raisi bo'lgan Mirhusayn Musaviy harbiy safarbarlik tipidagi iqtisodiyotni yaratish orqali mamlakatda moliyaviy-iqtisodiy inqirozning oldini olishga muvaffaq bo'ldi. M.Musaviy ilgari davlatning iqtisod va siyosatga maksimal darajada aralashishi zarurligi g'oyasini ilgari surgan bo'lsada, bosh vazir lavozimiga tayinlanganidan so'ng Oliy rahbarga "yashil harakat" nomi ostida Eron siyosiy va iqtisodiy hayotini liberallashtirish talablarini ilgari suruvchi muxolifat yetachisiga aylandi. M.Musaviy boshchiligidagi hukumat doimo bir tomondan rahbar, boshqa tomondan prezident nazoratida edi. Ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyat tarmoqlari o'rtasida keskin ziddiyatlar mavjud edi. Parlament va M.Musaviy hukumati o'rtasidagi munosabatlarning yorqin ifodasi shunda ko'rinadiki, uning davrida birorta ham muhim iqtisodiy qonun qabul qilinmadi.

Eron-Iroq urushi tugaganidan keyingi davrda iqtisodiyotni tiklash va aholining farovonligini oshirish vazifalari ustuvor bo'ldi. Bu vazifalarni bajarish ijro hokimiyatini institutsional jihatdan mustahkamlash hamda iqtisodiy sohada tegishli qonunchilik bazasini shakllantirishni taqozo etdi.

R.Xumayniy davrida birinchi besh yillik rejasini qabul qilish tashabbusi parlamentda qizg'in bahs-munozaralarni keltirib chiqardi. Uning vafotidan so'ng hukumat konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazishiga, shu jumladan, bosh vazir lavozimini tugatishga, Oliy rahbarga qo'yiladigan malaka talablarini o'zgar-tirishga ruxsat berildi. Oliy rahbar bilan birgalikda davlat siyosiy kursini o'zgartirish mexanizmidan foydalanish muhim yangilik va tashabbus bo'ldi.

Ushbu konstitutsiyaviy islohotlar prezident Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniya liberal iqtisodiy siyosatni amalga oshirish imkonini berdi. 2003–2017-yillardagi islohotchilik tashabbuslariga qaramay, Eron siyosiy tizimi teokratik hokimiyat va saylov tizimining diniy xarakteriga oid konstitutsion normalarni o'zgarishsiz saqlab qolgan holda, joriy sharoitga moslashuvchanlikni ta'minlab berdi¹.

Eronda prezidentlik instituti yashirin ovoz berish yo'li bilan umumiy saylov prinsiplariga asoslanadi. Prezidentning vakolati to'rt yil bo'lib, ketma-ket ikki muddatga saylanish huquqi bilan cheklangan. Prezidentning legitimligi va legalligi mazkur normalar bilan belgilanadi. Prezident Vazirlar Mahkamasi-ning raisi sifatida vitse-prezidentni tayinlash vakolatiga ega. Prezident Vazirlar Mahkamasini shakllan-tiradi, hukumatning faoliyat dasturini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun parlamentga kiritadi. Parlamentga tasdiqlash uchun kiritiladigan Vazirlar Mahkamasining tarkibini to'liq yoki qisman taqdim etish mumkin. Biroq bunda parlament tomonidan ishonch votumi har bir vazirga alohida bildiriladi.

Eron siyosiy tizimiga ko'ra, vazirlarning vazifalari siyosiy, iqtisodiy hamda ma'muriy funksiyalarni o'z ichiga oladi. Ularning faoliyati parlament va uning tegishli qo'mitalari, hukumat, Ekspertlar kengashi va Oliy rahbar institutini birlashtiruvchi moliyaviy tarmoqqa integratsiya qilingan.

Parlament tomonidan vazirlarni tasdiqlash to'g'risidagi qarorni qabul qilish murakkab moliyaviy muvozanat tizimini o'zida aks ettiradi. Zero, vazir lavozimiga nomzodlar prezident manfaatlaridan ko'ra ko'proq parlamentdagi o'z siyosiy fraksiyalarining mavqeini ilgari suradi. Bu tendensiya turli hukumat organlari faoliyatida ham kuzatiladi. Masalan, M.Ahmadinajodning prezidentlik davrida Vazirlar

¹ Дунаева Е.В. Иран: изменение баланса политических сил после выборов Х.Роухани // Актуальные проблемы Ближнего и Среднего Востока. М.: ДА МИД РФ. 2017. С. 25.



Mahkamasida kuch strukturalari vakillari ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lsa, H.Ruhoniy hukumatida tub islohotlar tarafdori bo'lgan pragmatik siyosatchilar ustuvorlik qildi.

Eronda Vazirlar Mahkamasini tashkil etish jarayoni parlament fraksiyalari va prezident komandasini shakllantirish yuzasidan qarama-qarshilik maydoniga transformatsiya bo'lmoqda. Bunda an'anaviy ravishda ruhoniya tomonidan nazorat qilinadigan ichki ishlar, adliya, madaniyat va islom ishlari vazirligi ustidan boshqaruvni o'rnatish alohida ahamiyat kasb etadi.

Parlament H.Ruhoniy hukumati tarkibini to'liq qo'llab-quvvatladi. Ammo e'tiborga loyiq tomoni shundaki, buning natijasida uni saylovlarda qo'llab-quvvatlagan islohotchilar bloki vakillarining Majlisdagi deputatlik mandati keskin kamaytirildi. Ushbu holat parlamentdagi mazkur blok vakillari tomonidan prezidentga nisbatan bildirilgan siyosiy bayonotlar bilan izohlanadi. Shu bilan birga Eron hukumatining iqtisodiy bloki vitse-prezidentlar orqali islohotchilar institutini saqlab qoladi. Biroq bunday sharoitda Islom inqilobi qo'riqchilari korpusi bilan aloqasi bo'lmagan general Amir Xotamiyning Mudofaa vaziri lavozimiga tayinlanishi prezident H.Ruhoniyni yuqorida zikr etilgan jarayondagi eng katta siyosiy yutug'i sifatida baholanadi.

Eron Islom Respublikasi ijroiya hokimiyati tarkibida vitse-prezidentlar boshchilik qiladigan (rejalashtirish-byudjet, atom energetikasi va boshqa) ixtisoslashtirilgan tashkilotlar mavjud. Mazkur strukturalar parlament tomonidan nazorat qilinishi bois, amalda vazirlik funksiyalarini bajaradi.

Eron davlat boshqaruvining institutsional xususiyatlari vazirlik tuzilmasida filial maqomida yetakchi davlat kompaniyalari mavjudligida ko'rinadi. Ularning orasida Eron milliy neft kompaniyasi, Taraqqiyot va innovatsion sanoat kompaniyasi, harbiy sanoat va Islom inqilobi qo'riqchilari korpusining ishlab chiqarish kompaniyalari kabi strategik korxonalar alohida ahamiyat kasb etadi¹.

Adliya va axborot vazirlari lavozimlariga ruhoniya vakillarini tayinlash amaliyoti ushbu tashkilotning Oliy rahbar tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlamoqda. Hokimiyat dualizmi (parlament va Oliy rahbar) sharoitida vazirlar maqomining huquqiy kabineti prezidentlik-parlament respublikasi modeliga mos keladi.

Prezident H.Ruhoniy davrida mazkur institutsional hamkorlik natijasida erishilgan yadro dasturi bo'yicha xalqaro kelishuvni yuqoridagi amaliyotning dalili sifatida ko'rsatish mumkin. Oliy rahbar ruxsatiga binoan, vakolatlarining Milliy xavfsizlik oliy kengashidan hukumatga o'tkazilganiga qaramay, 2015-yilda Eron yadro dasturi bo'yicha Qo'shma keng qamrovli harakatlar rejasini ratifikatsiya qilish jarayoni parlamentda jiddiy qarshilikka uchradi. Parlament spikeri Ali Larijoniyni vositachiligi natijasida yuzaga kelgan murakkab vaziyatni H.Ruhoniy hukumati uchun ijobiy hal qilishga erishildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Eron Islom Respublikasining institutsional arxitekturasi boshqaruvning teokratik va respublika davlat boshqaruvi elementlarini o'zida mujassamlashtirgan o'ziga xos rivojlanish modelini namoyon etadi. Bu tizimning markaziy elementi davlat boshqaruvi sohasida mutlaq vakolatlarga ega bo'lgan Oliy rahbar institutidir. Ushbu davlat modelining samaradorligi uning ichki va tashqi xavf hamda tahdidlarga nisbatan barqarorligi bilan ta'minlanadi. Shia ruhoniya elitasining maqsadi Eronda islom tamoyillariga asoslangan yangicha davlat boshqaruvi modelini qaror toptirish edi. Shu bois davlat siyosiy tizimida ruhoniylarning rahbarlik funksiyalari kengaytirilgan.

Islom inqilobidan keyin 1979-yili siyosiy tizimning transformatsiyasi davlatni teokratik boshqaruv usullarini saqlab qolgan holda joriy voqelikka moslashish imkoniyatlarini ko'rsatdi. 1989-yildagi konstitutsiyaviy islohotlar bosh vazir lavozimini tugatish va Oliy rahbarga qo'yiladigan malaka talab-

¹ Сажин В.И. Корпус стражей исламской революции в Иране – государство в государстве // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. Т. 10. № 3. 2017. С.107–108.



larini o'zgartirish orqali davlat boshqaruvi tizimini maqbullashtirdi. Keyingi institutsional o'zgarishlar diniy rivojlanish barqarorligini saqlab qolgan holda boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Eron islom respublikasi Konstitutsiyasi, http://rc.majlis.ir/fa/content/iran_constitution قانون اساسی جمهوری اسلامی ایران.
2. Naini. Iran's second chamber? The guardian council'// The Journal of Legislative Studies, Vol. 12, 2, 2006, P. 198–222.
3. Ghiabi, M. The council of expediency: crisis and statecraft in Iran and beyond // Middle Eastern Studies, Vol. 55, 5, 2019, P. 837–853.
4. Valibeigi, M. Islamic Economics and Economic Policy Formation in Post Revolutionary Iran: A Critique // Journal of Economic Issues, 1993. Vol. 27, 3, P. 799.
5. Akhavi-Poor, H., Azodanloo, H. Economic bases of political factions in Iran // Critique: Journal for Critical Studies of the Middle East, 1998. Vol. 7, 13, pp. 69–82.
6. Васькин И. Влияние политического курса избираемых органов власти на неизбираемые в опекунах режимах: кейс рекрутирования в Ассамблею по определению целесообразности Ирана // Вестник Пермского университета. Политология. Т. 15. №4. 2021. С. 100.
7. Сажин В.И. Корпус стражей исламской революции в Иране – государство в государстве // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. Т. 10. № 3. 2017. С.107–108.
8. Дунаева Е.В. Иран: изменение баланса политических сил после выборов Х.Роухани // Актуальные проблемы Ближнего и Среднего Востока. М.: ДА МИД РФ. 2017. С. 25.
9. مرحله دوم انتخابات مجلس شورای اسلامی ۲۱ اردیبهشت ۱۴۰۳ برگزار می‌شود.
10. (Islom kengashi saylovlarining ikkinchi bosqichi 2024-yilning 21-mayida bo'lib o'tadi). [Elektron manba]. URL: <https://www.irna.ir/news/85421995/>.
11. روح‌الله خمینی. ولایت فقیه. حکومت اسلامی موسسه تنظیم و نشر آثار امام خمینی (ره). 1383. ص. 184.
12. (Ruhulloh Xumayniy. Veloyate fakih. Imom Xumayniy asarlarini tahrir qilish va nashr etish bo'yicha Islom hukumati instituti. 1383 yil. 184 b.)



FALASTINNING DEMOGRAFIK TARIXI

TO'YCHI TAYLAQOV

Tayanch doktorant, TDSHU

Annotatsiya: Ushbu maqola Falastin hududining demografik tarixini qadimgi davrlardan hozirgi kungacha qamrab oladi. Unda Falastinning geografik joylashuvi, iqlimi, tarixiy va siyosiy bo'linishlari, shuningdek, aholi tarkibidagi o'zgarishlar keng tahlil qilingan. Maqolada 1948-yilda Isroil davlatining tashkil etilishi va undan keyingi arab-isroil urushlari natijasida Falastin aholisi tarkibidagi keskin o'zgarishlar bayon etiladi. Urush natijasida paydo bo'lgan Falastin qochoqlari masalasi, shuningdek, yahudiylarning turli mintaqalardan ko'chib kelishi natijasida yuzaga kelgan migratsiya jarayonlari hamda Falastin aholisining soni va tarkibi turli davrlarda qanday o'zgarib borganligi muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqot Falastinning tarixiy demografik jarayonlarini chuqur tahlil qilish bilan birga, ushbu hududning ijtimoiy va siyosiy murakkabliklarini tushunishga xizmat qiladi.

Maqola, shuningdek, Falastin hududining bugungi kun demografik muammolariga ham e'tibor qaratadi. Isroil davlatidagi yahudiylar va arablar o'rtasidagi demografik nisbiy o'zgarishlar, Falastindagi

yuqori tug'ilish darajalari va migratsiya masalalari hududning siyosiy kelajagini belgilovchi asosiy omillar sifatida baholangan. Tadqiqot Falastin tarixi va bugungi kunini birgalikda tahlil qilib, hududdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy murakkabliklarning ildizlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Falastin, demografik tarix, yahudiy, arab, Isroil, G'arbiy sohil, G'azo sektori, falastin qochoqlari, migratsiya

Abstract: This article explores the demographic history of Palestine from ancient times to the present day. It provides a detailed analysis of Palestine's geographical location, climate, historical and political divisions, as well as changes in its population composition. The article describes the dramatic shifts in Palestine's demographic structure resulting from the establishment of the State of Israel in 1948 and the subsequent Arab-Israeli wars. It examines the Palestinian refugee crisis that emerged as a consequence of the war, as well as the migration processes triggered by the resettlement of Jews from various regions. The dynamics of Palestine's population size and composition across different historical periods are discussed. This study, along with its in-depth analysis of Palestine's historical and demographic processes, contributes to a better understanding of the social and political complexities of this region.

The article also focuses on the current demographic challenges in the Palestinian territories. Demographic shifts between Jews and Arabs in the State of Israel, high birth rates in Palestine, and migration issues are assessed as key factors determining the region's political future. The study analyzes both the history and present-day situation of Palestine, serving to identify the roots of existing socio-political complexities in the area.

Key words: Palestine, demographic history, Jewish, Arab, Israel, West Bank, Gaza Strip, Palestinian refugees, migration

Аннотация: В этой статье освещается демографическая история Палестины с древних времен до наших дней. В ней подробно анализируются географическое положение, климат, историческое и политическое деление Палестины, а также изменения в составе ее населения. В статье описываются резкие изменения в демографической структуре Палестины в результате образования Государства Израиль в 1948 году и последующих арабо-израильских войн. Рассматривается проблема палестинских беженцев, возникшая в результате войны, а также миграционные процессы, вызванные переселением евреев из различных регионов. Обсуждается динамика численности и состава населения Палестины в разные исторические периоды. Данное исследование, наряду с глубоким анализом историко-демографических процессов Палестины, способствует пониманию социальных и политических сложностей этого региона.

Статья также уделяет внимание современным демографическим проблемам палестинской территории. Относительные демографические изменения между евреями и арабами в государстве Израиль, высокий уровень рождаемости и вопросы миграции в Палестине рассматриваются как ключевые факторы, определяющие политическое будущее региона. Исследование анализирует историю Палестины в совокупности с ее нынешним положением, что позволяет выявить корни существующих социально-политических сложностей на этой территории.

Ключевые слова: Палестина, демографическая история, евреи, арабы, Израиль, Западный берег, сектор Газа, палестинские беженцы, миграция.

METODLAR. Falastin hududining demografik tarixini o'rganish uchun tarixiy-demografik tahlil usulidan foydalanildi. Birinchi navbatda, arxeologik ma'lumotlar, tarixiy hujjatlar va yozma manbalar tahlil qilindi [7]. Ikkinchidan, internet platformasida mavjud rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanib, aholi sonining turli davrlardagi o'zgarishlari aniqlandi. Bundan tashqari, aholi tarkibidagi etnik va diniy o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kontekstida tahlil qilinib, demografik dinamikaga bo'lgan ta'siri baholandi.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Falastin hududining demografik tarkibi tarix davomida ko'plab omillarga, jumladan, siyosiy va iqtisodiy holatlar, urushlar, migratsiya va


tabiiy o'sish jarayonlariga bog'liq holda o'zgarib kelgan. Yahudiy podsholiklari davrida aholi sonining ko'payishi, keyinchalik Rim imperiyasi davridagi pasayish, Arab xalifaligi va Usmoniylar davridagi o'zgarishlar muhim bosqichlar sifatida qayd etiladi [1]. XX asrda yahudiylar va arablarning migratsiya jarayonlari hududda demografik muvozanatni keskin o'zgartirgan.

1. Geografik hudud va iqlimi

Falastin hududi o'z tarixida turli nomlar va chegaralarga ega bo'lgan. Usmoniylar imperiyasi davrida bu hudud yagona ma'muriy hudud bo'lmay, Bayrut, Damashq, Akka hamda Quddus kabi shaharlar boshqaruvi ostidagi viloyatlar va tumanlarga bo'lingan edi. Hududning ma'muriy bo'linishi asosan gorizontol (sharqdan g'arbga) yo'nalishda amalga oshirilgan bo'lsa-da, Iordan daryosi Falastinni shimoliy va janubiy qismlarga ajratuvchi tabiiy chegara hisoblangan.

Birinchi Jahon urushidan keyin Falastin hududi Britaniya Mandatiga berildi. Bu davrda uning chegaralari g'arbda O'rta Yer dengizidan sharqda Iordan daryosigacha, shimolda Livan chegarasidan janubda Aqaba ko'rfazi qirg'oqlarigacha qilib belgilandi. Ushbu hududning umumiy maydoni taxminan 28,000 km²ni tashkil etgan bo'lib, bu O'zbekistonning Qashqadaryo viloyati bilan tengdir [11].

Falastinda iqlim sharoiti juda xilma-xil. G'arbiy hududlar asosan O'rta Yer dengizi iqlimiga ega bo'lib, tekis qumli qirg'oqlar va ayrim joylarda kichik qoyalar bilan ajralib turadi [8]. Shimolda unumdor qishloq xo'jaligi yerlari, o'rmonlar va karst zonalari joylashgan. Markaziy mintaqa tepaliklardan iborat bo'lib, ayrim joylarda balandligi ming metrgacha yetadi. Sharqiy hudud Iordan daryosi vodiysi, Tiberiya ko'li va O'lik dengiz qirg'oqlarini qamrab oladi. Janubiy qism esa asosan Negev cho'lidan iborat bo'lib, hududning taxminan 13 000 km² maydonini egallaydi.



FALASTIN HUDUDI: USMONLI IMPERIYASINING SO'NGGI DAVRI.

Manbaa: <https://www.un.org/unispal/wp-content/uploads/2016/07/3.jpg>

2. Tarixiy va siyosiy hududiy bo'linishlar.

1947-yil 29-noyabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan 181-sonli rezolyutsiyada Falastin hududi yetti qismga bo'linishi belgilangan edi [9]. Unga ko'ra, hududning uch qismi arab davlatiga, uch qismi esa yahudiy davlatiga berilishi, Quddus va Baytla'hm shaharlari esa xalqaro BMT nazorati ostida qoldirilishi aytiladi.

1948-yil 14-may kuni Isroil davlati e'lon qilingach, birinchi arab-isroil urushlari boshlanib ketdi. Urush natijasida Isroil o'z hududlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Birinchi arab-isroil urushlari davomida Isroil BMT tomonidan ajratilgan hududlardan tashqari Misr bilan chegaradosh janubi-g'arbiy hududlarni, shuningdek, mamlakatning markaziy-sharqiy qismlarini qo'shib oldi.

Falastin arablari nazorati ostida qolgan hududlar ichida Iordan daryosi bo'yidagi yerlar G'arbiy sohil deb atalgan. Ushbu mintaqa Falastin tepaliklarining markaziy qismlarini va Sharqiy Quddusni qamrab olib, 5,506 km² hududdan iborat edi. Isroilliklar bu joylarni tarixiy yahudiy podsholiklari nomiga ko'ra Samariya (shimolda) va Yahudiya (janubda) deb atay boshlashdi.



1948-yildan 1967-yilgacha bu hududlar Transiordaniya Qirolligi (keyinchalik Iordaniya Qirolligi) tarkibida edi.

G'azo sektori Falastin arablari nazorati ostida bo'lgan yana bir hudud bo'lib, 1967-yilgacha Misr harbiy boshqaruvi ostida edi. Bu hudud janubi-g'arbda Sinay yarim oroli bilan chegaradosh bo'lib, O'rta Yer dengizi bo'yidagi 378 km² maydonni o'z ichiga olgan.

1967-yil iyun oyida bo'lib o'tgan uchinchi arab-isroil urushlari natijasida Isroil butun Falastin hududini, shu jumladan, G'azo sektori va G'arbiy sohilni ishg'ol qildi [7]. Isroil, shuningdek, Suriyaning Golan tepaliklari (1,154 km²) va Misrning Sinay yarim orolini ham nazoratiga oldi. 1979-yilgi tinchlik kelishuvlari asosida Sinay yarim oroli Misrga qaytarildi.

Urushdan so'ng Isroil Quddusning shimoliy, sharqiy va janubiy qismlarini qo'shib olib, shaharni to'liq nazoratiga oldi. Natijada, Quddusning 73 km² maydonini tashkil etgan hududlar, asosan arab qishloqlari, Isroil tarkibiga kirdi. 1980-yilda Isroil Golan tepaliklari ustidan rasmiy nazoratni e'lon qildi. G'arbiy sohil va G'azo sektoridan tashqari, Isroil davlati tarkibiga kirgan hududlar maydoni 22,072 km²ni tashkil etdi.

1968-yildan boshlab Isroil G'arbiy sohil, G'azo sektori, Golan tepaliklari va Shimoliy Sinayda yangi aholi punktlarini tashkil qila boshladi. 1982-yilda Sinaydagi aholi punktlari buzib tashlangan bo'lsa-da, G'azo sektori va G'arbiy sohil hududlariga yahudiylarni ko'chirish siyosati davom ettirildi.



BMTning 1947-YILGI FALASTIN HUDUDINI BO'LIQ REJASI XARITASI

Manbaa: https://www.un.org/unispal/wp-content/uploads/images/3cbe4ee1ef30169085256b98006f540d_image0.GIF

3. Demografik o'zgarishlar

Falastin hududida aholi soni uzoq tarix davomida keskin o'zgarishlarga uchrab kelgan. Hududning demografik tarixini arxeologik, iqtisodiy, qishloq xo'jaligi sohasidagi tadqiqotlar va yozma manbalar asosida qisman tiklash mumkin. Ushbu tadqiqotlar aholi sonining turli davrlarda ko'payib va kamayib turganligini ko'rsatadi. Shuningdek, aholi tarkibidagi diniy va etnik o'zgarishlar hududning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Miloddan avvalgi X asrda Isroil podsholigi paytida aholi soni ko'paygan bo'lsa, miloddan avvalgi VIII va VI asrlarda Isroil va Yahudiya podsholiklarining qulashi bilan aholi soni keskin kamaygan. Bu demografik inqiroz yahudiylarning qullikka olib ketilishi bilan izohlanadi. Miloddan avvalgi II asrda yahudiy aholisi soni o'sib, hududda ellinizm madaniyatining tarqalishiga hissa qo'shgan. Milodiy I asrga kelib aholi soni sezilarli darajada oshgan. Tadqiqotlarga ko'ra, bu davrda aholi soni 800 mingdan 2,5 milliongacha bo'lishi mumkin. Ammo V asrda, boshqa O'rta Yer dengizi mintaqalaridagi kabi, Falastinda ham demografik pasayish kuzatilgan. G'arbiy Rim



imperiya qulaganidan so'ng boshlangan iqtisodiy-siyosiy inqiroz, keng ko'lamli epidemiyalar bunga sabab bo'lgan.

VII asrdan boshlab mintaqada Arab xalifaligi ta'siri kuchayishi bilan Falastinda arablar soni ko'paya boshladi. Aholining umumiy soni bu davrda 150 mingdan 250 minggacha yetgan deb taxmin qilinadi. XV-XVI asrlarda esa Ispaniya va boshqa mintaqalardan yahudiylarning Falastinga ko'chib kelishi hududda aholi sonining oshishiga olib keldi.

XIX asrda yahudiylar Yevropa, Shimoliy Afrika, Yaman va Yaqin Sharq davlatlaridan Falastinga kichik guruhlar ko'rinishida ko'chib kela boshladi. 1800-yildan 1890-yilgacha yahudiylar soni 7 mingdan 43 minggacha, xristianlar soni 22 mingdan 57 minggacha, arablar esa 246 mingdan 432 minggacha oshgan.

XX asrda hududda aholi soni va o'sish sur'ati sezilarli darajada oshdi. Bu Sharqiy Yevropadan yahudiylarning migratsiyasi bilan bog'liq edi. Britaniya hukumati yahudiylarning Falastinga ko'chib kelishini cheklashga harakat qilgan bo'lsa-da (masalan, 1939-yilgi Makdonald Oq kitobi), aholi soni ortishda davom etdi. 1922-yildan 1948-yilgacha Falastinda aholi soni 757 mingdan 1,970 mingga oshib, yahudiylar ulushi 11%dan 32%gacha yetdi.

1947-yildan 2024-yilgacha Falastin aholisi yetti martadan ko'proq oshib, 14 millionga yaqinlashdi [11]. Hududda aholi o'sishi va turli diniy, etnik guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar hududning ijtimoiy-siyosiy dinamikasini shakllantirishda muhim omil bo'ldi.

1947-yilda Falastin hududida taxminan 2 million aholi yashagan, ular orasida 1,2 million arab (60%), 650 ming yahudiy (32%) va 150 ming druz (7%) mavjud edi [5]. Ammo 1948-1949 yillardagi birinchi arab-isroil urushi ushbu hududning siyosiy chegaralari bilan birga demografik tarkibini ham keskin o'zgartirdi. Urush davomida taxminan 625 mingdan 750 minggacha falastinlik arablar o'z uylarini tark etdi [5]. Ushbu arablar va ularning avlodlari keyinchalik Falastin qochoqlari deb atalgan katta jamoaning asosini tashkil qildi.

Falastin qochoqlari masalasida turli nuqtai nazarlar mavjud: falastinliklar ular Isroil harbiylari tomonidan majburiy chiqarib yuborilganini va arab qishloqlarida ommaviy qirg'inlar uyushtirilganini ta'kidlashsa, isroilliklar bu ko'proq arab rahbarlari tomonidan boshlangan ixtiyoriy evakuatsiya bo'lganligini aytadilar. Ko'pchilik qochoqlar Isroil nazoratidagi hududlardan G'arbiy Qirg'oq va G'azo sektorlariga yoki Transiordaniya, Suriya va Livan kabi qo'shni davlatlarga o'tib ketgan.

1948-yilda Isroil davlatining tashkil topishi bilan yahudiylar ommaviy ravishda Falastin hududiga ko'chib kela boshladilar [4]. 1948-1951-yillar orasida yangi kelganlar orasida fashistik rejimlardan omon qolgan Yevropa yahudiylari, shuningdek, Yaqin Sharq (masalan, Yaman, Iroq, Turkiya) va Shimoliy Afrika (jumladan, Misr, Liviya, Marokash, Tunis) mamlakatlaridan ko'chib kelganlar bor edi.

Falastin hududi bu davrda siyosiy jihatdan uch qismga bo'lindi: Isroil davlati hududi, G'azo hududi (Misr nazorati ostida), va G'arbiy sohil hududi (Iordaniya tarkibida). Isroil davlatida yahudiylar ko'pchilikni tashkil etgan bo'lsa, G'azo va G'arbiy sohil aholisi arablardan iborat edi. Bu davrdagi katta migratsiyalar va tabiiy o'sish demografik muvozanatga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Isroilda yahudiylarning aholi ulushi 1950-yillarning oxiriga kelib migratsiya tufayli 90%ga yetgan bo'lsa, keyinchalik arab aholisi orasidagi yuqori tug'ilish va pasaygan o'lim darajasi natijasida arablarning ulushi asta-sekin oshib bordi. 1990-yillarda Sharqiy Yevropadan kelgan yahudiylar migratsiyasining katta to'liqini ham bu demografik tendensiyaning sezilarli darajada o'zgartira olmadi.

2017-yilga kelib, O'rta Yer dengizidan Iordan daryosigacha, shuningdek Golan tepaliklarini o'z ichiga olgan Isroil davlatining umumiy aholisi taxminan 13,2 million kishini tashkil etgan.



Ularning taxminan 6,5 millionini yahudiylar bo‘lib, bu umumiy aholining 52 foizini tashkil qilgan. Falastin hududidagi 4,3 millionlik arab aholisining taxminan 2,5 millionini G‘arbiy qirg‘oqda, 1,8 millioni esa G‘azo hududida yashagan. Isroil davlatida 1,8 millionlik aholi, G‘azo va G‘arbiy sohil hududlaridagi 4,3 millionlik aholi bilan jami 6,1 million kishini (46,3 foiz) tashkil qilgan. Shuningdek, Afrikadan kelgan mehnat muhojirlari, hujjatsiz turistlar va qochoqlar soni 200,000 dan ortiq (1,7 foiz). 2017-yilda Isroil davlatining aholisi – buning ichiga 223,300 yahudiy va 332,000 arab, shuningdek G‘arbiy qirg‘oq va Golan tepaliklarida yashovchi 401,700 yahudiylar – jami 8,631,900 kishini tashkil qilgan.

FALASTIN AHOLISI – I ASRDAN 2015-YILGACHA

DAVR	Yahudiylar (ming)	Boshqalar (ming)	Arablar (ming)	Jami (ming)	Yahudiylar %
I asr 1-yarmi	Ko‘pchilik	-	-	800 – 2.500	>50
IV asr	Ozchilik	Ko‘pchilik	-	> I asr	<50
XII asr oxiri	7	Ozchilik	Ko‘pchilik	> 225	<3.1
XIV asr (Qora o‘latdan avval)	(5)	Ozchilik	Ko‘pchilik	225	(2.2)
XIV asr (Qora o‘latdan so‘ng)	(3)	Ozchilik	Ko‘pchilik	150	(2.0)
1533–1539	5	6	145	187	3.2
1600	(15)	(10)	(200)	(225)	(6.7)
1690–1691	2	11	219	232	0.9
1800	7	22	246	275	2.5
1890	43	57	432	532	8.1
1914	94	70	525	689	13.6
1922	84	71	589	752	11.2
1931	175	89	760	1.033	16.9
1947	630	143	1.181	1.970	32.0
1950	1.203	72	910	2.200	54.7
1960	1.911	85	1.090	3.416	61.4
1967	2.374	102	1.204	3.716	63.9
1975	2.979	116	1.447	4.568	65.2
1985	3.517	149	2.166	5.908	59.5
1995	4.522	191	3.241	7.954	56.9
2005	5.234	235	4.338	10.263	51.0
2015	6.336	275	5.492	12.663	50.0

Eslatma: Boshqalarga xristian druzlari va boshqa kichik guruhlar kiradi.

Manbaa: 1947-yilgacha – Bachi (1977) [2]; 1947-yildan keyin – Israel Central Bureau of Statistics (annual publication) [4]; PCBS (2018) [6].

Bugungi kunda, Isroil va Falastin hududida demografik tarkib hanuz murakkab bo‘lib

qolmoqda [3]. Isroilda yahudiylar ko'pchilikni tashkil etsa-da, arablar ulushi muntazam o'sib bormoqda [8]. G'arbiy sohil va G'azoda esa falastinlik arablar aholi ko'pchiligini tashkil qiladi. Ushbu demografik muvozanat hududning siyosiy va ijtimoiy dinamikasini shakllantirishda muhim omil bo'lib qolmoqda.

4. Demografik muammolar

Falastin hududidagi demografik muammolar nafaqat tarixiy, balki zamonaviy siyosiy jarayonlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Quyida Falastin hududining bugungi kun demografik muammolari tahlil qilinadi:

1. Aholining tez o'sishi

ekan, “Markaziy Osiyoda sodir bo‘layotgan jarayonlar va voqealarni realistik baholash dolzarb sanaladi. Mintaqa Yevropa Ittifoqi tashqi siyosatida va xalqaro xavfsizlikning global tizimi sharoitida muhim rol o‘ynaydi. Yevropa Ittifoqining mintaqa bilan munosabatlari strategiyasi mintaqaning umumiy manfaatlari doirasida hamda Markaziy Osiyoning har bir davlatini alohida rivojlanish strategiyasi va pozitsiyasini hisobga olgan holda belgilanishi zarur”¹, deb ta’kidlaydi. Alohida qayd etish lozimki, aynan Fransiya Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqilligini tan olgan dastlabki Yevropa davlati hisoblanadi. Shu boisdan ham Fransiyaning Markaziy Osiyo bilan siyosiy munosabatlari dastlab ikki tomonlama doirada 90 yillar boshlaridan faol ravishda rivojlana boshladi. Xususan, Fransiya Prezidenti Fransua Mitteran 1993-yilda Qozog‘istonga, 1994-yilda O‘zbekiston va Turkmanistonga Fransiyaning dastlabki rasmiy tashriflarini boshlab berdi. 2001-yil 11-sentyabrda AQSHda sodir etilgan terroristik voqealardan so‘ng Fransiya Markaziy Osiyo bilan ko‘p tomonlama aloqalarni yo‘lga qo‘yishga kirishdi. Buning yorqin misoli sifatida YIning “Yangi hamkorlik strategiyasi: Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo” dasturi Fransiya taklifi bilan tuzilib, 2007-yilda amaliyotga joriy etildi². 2008-yil sentyabrda Markaziy Osiyo va Yevropa tashqi ishlar vazirlari, YIning tashqi aloqalar va siyosiy masalalar bo‘yicha komissari, YUNESKO direktori K. Masura, YIning tashqi siyosat va xavfsizlik masalalari bo‘yicha Oliy vakili X. Solanu, YXHT Bosh kotibi M. de. Brishambo, NATO Bosh kotibi Y. de. Sxeffer, YIning Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili P. Morelya ishtirokida Fransiya tashabbusi bilan “Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo” forumi tashkil etildi. Forum yakunida YI va Markaziy Osiyo mamlakatlarining xavfsizlik masalalari bo‘yicha Qo‘shma bayonoti qabul qilindi³. Bundan tashqari, Fransiya Senatida “Fransiya-Markaziy Osiyo” parlamentlararo guruhi, Milliy Assambleyasida esa “Fransiya-Markaziy Osiyo” do‘stlik guruhlarini faoliyat yuritmoqda. Fransiyaning Markaziy Osiyo mintaqasiga qaratilgan tashqi siyosatining yangi bosqichga ko‘tarilishida 2017-yilning 29-mart kuni Fransiya va Markaziy Osiyo diplomatik munosabatlari o‘rnatilganligining 25 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan Tashqi ishlar vazirlari darajasidagi uchrashuvning o‘rni nihoyatda katta. Fransiyaning tashqi ishlar va xalqaro taraqqiyot vaziri Jan Mark Ero mazkur uchrashuvning ahamiyatini baholab, quyidagicha fikr bildirdi: “Ilk bor Fransiya va Markaziy Osiyo sherik mamlakatlari bunday formatda uchrashmoqda. Shunday qilib biz mazkur mintaqa bilan o‘z muloqotimizning yangi bosqichini ochish istagini bildirdik”⁴.

Fransiya va Markaziy Osiyo iqtisodiy munosabatlari doirasida

Tadqiqotchilar va tahlilchilarning tasdiqlashicha, Markaziy Osiyo mintaqasi Osiyo va Yevropa savdo yo‘llari chorrahasi sifatidagi o‘zining tarixiy ahamiyatini tiklamoqda. Ayni paytda Markaziy Osiyoda temir yo‘l va avtomobil transporti samaradorligining oshishi, aviatsiya aloqalarining rivojlanishi transport marshrutlari tizimida mintaqaning raqobatbardoshligi oshishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, iqtisodiy aloqalarning telekommunikatsiyalar va axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan bog‘liq yangi shakllari dengiz yo‘llariga ehtiyoj sezmasdan, eng qisqa, to‘ppa-to‘g‘ri yo‘llardan harakatlanmoqda. Demak, ular muhim iqtisodiy markazlar - Yevropa va Osiyo-Tinch okeani mintaqasini birlashtirib, Markaziy Osiyo orqali o‘tmoqda.

¹ В Париже состоялась научная конференция «Центральная Азия лицом к лицу с глобализацией». www.news.tj/ru/news/v-parizhe-sostoyalas-nauchnaya-konferentsiya-tsentrlnaya-aziya-litsom-k-litsu-s-globalizats.

² Regional Strategy Paper for Assistance to Central Asia for the period 2007-2013/<http://eeas.europa.eu/pdf>.

³ Европейский Союз и Центральная Азия: новое партнерство в действии. (Сборник документов) Европейское Сообщество. – С. 49-57.

⁴ Fransiya Markaziy Osiyo bilan “muloqotning yangi bosqichi”ni ochishga tayyor. www.gazeta.uz/oz/2017/03/30.



Markaziy Osiyo davlatlari hududida Buyuk ipak yo'lining yangi va zamonaviy loyihalar orqali tiklanayotganligi, bu davlatlarni istiqbolda Yevropa bilan bog'lanishiga va ochiq dengiz yo'liga chiqishga imkoniyat yaratadi.

Ma'lumki, ikki tomonlama munosabatlarni harakatga keltiruvchi asosiy yo'nalishlardan biri bu - savdo hisoblanadi. Fransiya mazkur yo'nalishda Markaziy Osiyoning O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik bo'yicha qo'shma komissiya tashkil etgan. Fransiyaning Markaziy Osiyo mamlakatlaridan savdo sohasidagi importi asosan uglevodorod, uran va boshqa qazilma resurslaridan tashkil topgan. Eksport asosini esa mexanika jihozlari, elektr va elektron materiallar, informatsiya texnologiyalari, kimyoviy mahsulotlar, attorlik mollari, farmatsevtika mahsulotlari, transport materiallari va tibbiyot jihozlari tashkil etadi.

Qozog'iston bu borada Fransiyaning muhim iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. 2008-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanmasi 2,7 mlrd yevroni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda eng yuqori ko'rsatkich 3,4 mlrd yevroga yetdi. Shuningdek, Parij Qozog'istonga to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritish bo'yicha beshinchi eng muhim sherik sanaladi. Qozog'iston eksportining Fransiya'dagi umumiy ulushi 7,5 foizni tashkil etib, to'rtinchi o'rinda turadi¹. Fransiya Prezidenti Fransua Ollandning 2014-yil dekabridagi Ostonaga uyushtirgan rasmiy tashrifida "Fransiya Qozog'istonning Yevroosiyo integratsiyasi masalasida qo'llab-quvvatlashini va shu ma'noda yevropalik hamkorlar bilan ham munosabatlar yanada rivojlanishi" muhim ekanligiga urg'u berdi².

Turkmaniston ham fransuz xususiy kompaniyalarining faol hamkori hisoblanadi. Turkmaniston iqtisodidagi eng katta ulush 1994-yildan o'z faoliyatini boshlagan Fransiyaning "Bouygues" kompaniyasiga tegishli. O'z navbatida, Fransiya Ashxobod ayeroportida havo harakatini boshqarish va kosmik aloqalar tizimini yaratishda ishtirok etmoqda³.

Fransiyaning Qirg'iziston va Tojikiston bilan iqtisodiy munosabatlari biroz chegaralangan bo'lib, buning asosiy sababini ushbu mamlakatlarda xorijiy kompaniyalari uchun investitsiya iqlimining qiyinchiliklari bilan izohlash mumkin. Biroq, elektronika va gidroenergetika doirasida o'zaro hamkorlik rivojlanib bormoqda.

Fransiya va Markaziy Osiyo madaniy-gumanitar va ilmiy tadqiqot munosabatlari doirasida

Markaziy Osiyo nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy jihatdan ham eng qadimgi davrlardan Yevropa bilan bog'langan. Jumladan, Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar, Yunon-Baqtriya hamda Parfiya podsholigi boshqaruvi davrida aynan shunday mustahkam aloqalar o'rnatilgan va rivojlangan. Ayniqsa, Yevropa va Sharq o'rtasidagi ellinizm davri ikki tomonning madaniy aloqalari shakllanishida muhim o'rin egallagan. O'rta asrlardan boshlab diniy va dunyoviy fanlarda olamshumul kashfiyotlar qilgan, Markaziy Osiyo hududidan yetishib chiqqan allomalar Fransiya'da katta qiziqish uyg'otgan. Sharq, jumladan, qadimgi Movarounnahr'dagi taraqqiyot Fransiyaning o'sha paytdagi hukmdorlari va tafakkur olami vakillarini hayratga solgan. Milodiy XIII asrda qirol Lui IX fransiyalik ruhoniylar Giyom de Rubrukni Osiyoga jo'natadi. Ruhoniyning lotin tilida bitilgan yo'l xaritalari fransiyaliklar va yevropaliklarning Markaziy Osiyo haqidagi tasavvurlarini sezilarli darajada boyitgan. Parij Milliy kutubxonasida Sharl VI ning Amir Temurga 1403-yilda yo'llagan javob maktubining lotin tilidagi nusxasi saqlanadi. Ikki hukmdor o'rtasidagi yozishmalar tarixi

¹ Посольство Франции в Казахстане: Relations politiques, economiques, culturelles et scientifiques, 15 March 2012. www.ambafrance-kz.org/relations-politiques-economiques

² Итоги года. Kazinform. 2014. www.inform.kz/rus/article/2730580

³ Французская "Bouygues" обсудила реализацию новых проектов в Туркменистане. www.trend.az/casia/turkmenistan/2307802.

birinchi marta mashhur fransuz sharqshunosi Silvester de Sasi tomonidan o'rganilgan. Yevropa sharqshunoslik maktabiga aynan Fransiyada asos solingan¹. Fransiyada zamonaviy Markaziy Osiyo mintaqasining yangi jihatlarini xolis va haqqoniy yoritish jarayonida fransuz tarixshunos olimlari, tadqiqotchilari va soha vakillarining o'ziga xos ilmiy yondashuvlari va qarashlarini o'rganib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo atamasini ilmiy tadqiqotning alohida obyekti sifatida o'rgangan dastlabki fransuz olimi Yulius Klapproz hisoblanadi. Markaziy Osiyoni kengroq o'rganish va uni ilmiy jamoatchilikka tanishtirishda esa arxeolog Paul Pelliotning xizmatlari kattadir. U XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida arxeologik izlanishlar olib bo-rib mintaqaning tarixiy kelib chiqishi xususida batafsil ma'lumotlar yozib qoldiradi². Markaziy Osiyo mamlakatlari o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng fransuz tadqiqotchilari birinchilardan bo'lib mintaqani izchil o'rganishga kirishdi. Shu maqsadda 1993-yilda Toshkentda "*Markaziy Osiyoni tadqiq etish fransuz instituti*" (IFEAC) tashkil etildi. "IFEAC"ning asosiy maqsadi mintaqada arxeologiya va turli xil ijtimoiy-gumanitar fanlar (tarix, sotsiologiya, etnol-ogiya, antropologiya, ekonomika, geografiya) bo'yicha tadqiqot olib borayotgan fransuz va mar-kaziy osiyolik tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Shu bilan birgalikda, mazkur institut Markaziy Osiyoning mahalliy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ilmiy faoliyatni kengaytirish, ilmiy va ijtimoiy tadqiqot sohasida Fransiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligini rivojlantirish va boshqa maqsad va vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Shu ma'noda, ilmiy tadqiqot instituti tomonidan Markaziy Osiyo tarixi, hozirgi davr siyosiy jarayonlari, Markaziy Osiyoning iqtisodiy va madaniy jihatlarini xususida ilmiy nashrlar chop etib kelinmoqda. Jumladan, 2016-yil noyabrda fransuz siyosatshunosi Oliver Ferrandoning "1989-yil: Markaziy Osiyoda siyosiy mobilizatsiya" kitobi nashrdan chiqdi. Unda 1989-yilda Markaziy Osiyoda yuz bergan ijtimoiy va siyosiy transformatsiya jarayonlari yoritilgan bo'lib, to'rtta qismni o'z ichiga oladi³. Shuningdek, fransuz sharqshunoslari Marlen Laruyel va Sebastyan Peyruza tomonidan bir qator hind tadqiqotchilari hamrohligida "Markaziy Osiyo xaritasi: Hindiston qarashlari va strategiyasi" monografiya ham nashr etildi⁴.

Markaziy Osiyo mintaqasining markazi hisoblangan O'zbekiston Fransiyaning uzoq muddatli va muhim hamkor mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Xususan, ilk munosabatlar O'zbekiston hududidan o'tgan Buyuk ipak yo'li karvonlari Yevropa bo'ylab qatnagan davrlarga borib taqaladi. 1992-yil yanvarda Fransiya Respublikasi O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan. Birinchi Prezidentimizning 1993 va 1996-yillarda Fransiya tashrifi, 1994-yilda Fransiya Prezidenti Fransua Mitteranning yurtimizga kelishi oliy darajadagi siyosiy muloqotni boshlab berdi. Hamkorlikni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish va ikki xalq o'rtasidagi hamjihatlik ruhini oshirishga qaratilgan parlamentlararo aloqalar izchillik kasb etmoqda. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasida Fransiya Senati va Milliy Assambleyasi bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha parlamentlararo guruh faoliyat ko'rsatmoqda. So'nggi ikki yil ichida O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi hukumatlar darajasidagi aloqalar ham kuchaydi. Yilda bir marta vazirliklararo siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazish mexanizmi ishlab turibdi⁵. Ta'kidlash

¹ Миноваров III. Ўзбекистон-Франция: маданий-маърифий ҳамкорлик йўлида. www.uza.uz/oz/society.

² Paul Pelliot. Le Cha Tchou Tou Fou T'ou king' et la colonia sogdienne de la region du Lob Nor. Journal asiaticque. Series 11, no 7, January-February 1916. – P. 111-123.

³ Ollivier Ferrando. 1989, Cahiers d'Asie central. 2016. <http://journals.openedition.org/asiacentrale/3224>

⁴ Mapping Central Asia: Indian Perceptions and Strategies. Eds. by M. Laruelle and S. Peyrouse. Ashgate, 2011. – 248 p.

⁵ O'zbekiston-Fransiya: hamkorlikni kengaytirish yo'lida. <http://xs.uz/uz/post/ozbekiston-frantsiya-hamkorlikni-kengaytirish-yolida>



joizki, O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi munosabatlarning yanada rivojlanishi va yangi bosqichga ko'tarilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 8-9-oktyabr kunlari Fransiya uchun rasmiy tashrifi beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi. Ahamiyatli shuki, bu Prezidentimizning Yevropa qit'asiga ilk rasmiy tashrifi sanaladi. Shavkat Mirziyoyev va Emmanuel Makron o'rtasidagi muzokarlarda ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi. Muzokarlarda mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi mavjud imkoniyat va salohiyatga mos emasligi ta'kidlandi. Shu munosabat bilan O'zbekistonning tegishli vazirlik va idoralari tomonidan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, "MEDEF" Fransiya tadbirkorlari harakati hamkorligida tashkil etilgan biznes-forumda Yevropaning ilg'or tajribasi va texnologiyalari asosida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Xususan, Fransiya taraqqiyot agentligi bilan umumiy qiymati 600 million yevro bo'lgan infratuzilma loyihalarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlik dasturi imzolandi. Fransiyaning "Eirbas", "Total", "Vinci", "Orano", "Total Eren", "Veolia", "Vivis Shteyn", "Buig", "Ranjis" va boshqa ko'plab kompaniyalari bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshirishga kelishib olindi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Fransiya uchun tashrifi fransuz siyosatchilari, tadqiqotchilari va ekspertlari tomonidan yuqori baholanmoqda. Jumladan, Yevropa xavfsizlik va istiqboli instituti prezidenti Emmanuel Dyupuy bu haqida shunday ta'kidlaydi: "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Fransiya uchun ilk rasmiy tashrifi tarixiy voqea sanaladi. Bu tashrif ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy hamkorlik ko'lamini kengaytirishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatli. O'zbekiston-Fransiya hamkorligida yangi bosqich boshlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning rasmiy tashrifi doirasida Fransiya Buyuk ipak yo'li madaniyat ko'rgazmasi ham bo'lib o'tdi. Bu tadbir nafaqat Sharqdan Yevropaga yo'l ochishi, balki O'zbekiston va Fransiya o'rtasida mutlaqo yangi aloqalarning shakllanishiga zamin yaratadi". O'zbek-fransuz ishchi kengashi raisi Kristof Fonten esa "Biz uchun O'zbekiston jahondagi eng katta bozorlardan biri sanaladi. Biz o'zaro manfaatli texnologik hamkorlikni uzoq muddatga rivojlantirishni maqsad qilganmiz", deb aytadi². Fransiya Avitsenna assotsiatsiyasi prezidenti Mark Bonnel buyuk allomamiz Abu Ali Ibn Sinoning buyuk xizmatlarini yuqori baholab, "dunyo O'zbekistonni buyuk shaxslar va boqiy durdonalar mamlakati sifatida qayta-qayta kashf qilishi uchun sabablar ko'p. Fransiya ham bugun ana shunday yangi bosqichdagi munosabatlar arafasida turibdi"³, deya o'z munosabatini bildirdi.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston va Fransiya munosabatlarining tarixi, Markaziy Osiyoning tarixiy hududlari va boy ma'naviy va madaniy merosini Fransiya va G'arb davlatlarida ilmiy asoslangan holda keng jamoatchilikka yetkazilishida fransuz olimlarining ham katta xizmatlari mavjud. Jumladan, taniqli fransuz yozuvchisi Amin Maaluf insoniyat sivilizatsiyasining markazlaridan biri – Samarqand shahri tarixi, madaniyatining targ'ibotchi muallifi sifatida "Samarqand" romanini bundan 30 yildan oldin chop etgan. Asar nafaqat fransuzlar, balki yevropaliklar nazarida Samarqandning yangi qiyofasini ochib beradi. Markaziy Osiyo tarixi bilimdoni, taniqli arxeolog olim Frans Grene Samarqandning qadimiy Afrosiyob shahri xarobalaridagi devoriy suratlarni o'rganish, restavratsiya qilish va qayta tiklash hamda Samarqand

¹ O'zbekiston-Fransiya: uzoq muddatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash yo'lida. <http://uza.uz/politics/o-zbekiston-fransiya-uzoq-muddatli-hamkorlikni-yanadakengayt-10-10-2018>.

² Парижские встречи. Uzbekistan today. № 41 (632) 11 октября 2018 года.

³ O'zbekiston-Fransiya: yangi bosqichdagi munosabatlar arafasida. <http://uza.uz/politics/o-zbekiston-fransiya-yangiafs-bosqichdagi-munosabatlar-arafasid-09-10-2018>.



shahrining 2750-yilligini aniqlash ishlarining tashabbuskori va fidoiysi hisoblanadi. Olimning ilmiy xulosalari va bevosita amaliy ishtiroki natijasida VII-VIII asrlarga oid qadimgi Afrosiyob hukmdori Varxumaning xorijiy elchilarni qabul qilish jarayoni aks ettirilgan bebaho devoriy surati qayta tiklandi. Fransiya'dagi "Temuriylar tarixi va madaniyatini o'rganish assotsiatsiyasi" prezidenti, tarixchi olim Frederik Bopertyus Bressen sohibqiron Amir Temur va temuriylarning dunyo sivilizatsiyasi rivoji, insoniyat ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy hayotidagi jahonshumul o'rni, ahamiyatini chuqur tadqiq etadi. Shu nuqtai nazardan yuqorida sanab o'tilgan olimlarning ilmiy xizmatlarini inobatga olgan holda, ularga "Samarqand shahar faxriy fuqarosi" unvoni berildi¹.

XULOSA. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi umumiy xulosalarni keltirish mumkin:

Birinchidan, Markaziy Osiyo o'zining qulay geosiyosiy joylashuvi, Osiyo va Yevropa savdo yo'llari kesishgan, ayniqsa, yetakchi va mintaqaviy davlatlarning manfaatlari tutashgan mintaqasi sifatida xalqaro munosabatlar jarayonlarida muhim o'rin egallaydi;

Ikkinchidan, G'arb nazariyotchi olimlari o'zining ilmiy qarashlarida Markaziy Osiyoning jo'g'rofiy hududini kengaytirilgan tarzda tadqiq etadi. Bunda mintaqasi geosiyosiy talqiniga ko'ra, kengroq va ko'proq tadqiq etilganini ko'rish mumkin. Hozirgi kunda G'arb olimlarining "Katta Markaziy Osiyo" konsepsiyasi etnomadaniy, diniy, iqtisodiy va geosiyosiy omillarga asoslanadi.

Uchinchidan, Fransiya va Markaziy Osiyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnik munosabatlari XX asr 90-yillari boshlaridan to XXI asr boshlarigacha ikki tomonlama tarzda rivojlangan bo'lsa, 2001-yildan so'ng Fransiya o'zaro munosabatlarga nafaqat ikki, balki ko'p tomonlama doirada, xususan, Markaziy Osiyoning besh mamlakatini bir butun mintaqasi sifatida qarash amaliyotini kuchaytirdi;

To'rtinchidan, Fransiya va O'zbekiston munosabatlarining yangi davrini boshlanishi Yevropa davlatlarining Markaziy Osiyo mintaqasiga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Byrd W. Economic Cooperation in the Wider Central Asia Region/ William Byrd, Martin Raiser and others// World Bank. Working Paper. – 2006. – No.75.
2. Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018. – Б. 264.
3. Сафоев С. С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. – Т.: 2005. – Б. 16-29.
4. 4.В Париже состоялась научная конференция «Центральная Азия лицом к лицу с глобализацией». www.news.tj/ru/news/v-parizhe-sostoyalas-nauchnaya-konferentsiya-tsentrlnaya-aziya-litsom-k-litsu-s-globalizats.
5. 5.Regional Strategy Paper for Assistance to Central Asia for the period 2007-2013/<http://eeas.europa.eu/pdf>.
6. Европейский Союз и Центральная Азия: новое партнерство в действии. (Сборник документов) Европейское Сообщество. – С. 49-57.
7. Fransiya Markaziy Osiyo bilan "muloqotning yangi bosqichi"ni ochishga tayyor. www.gazeta.uz/oz/2017/03/30.
8. Посольство Франции в Казахстане: Relations politiques, economiques, culturelles et scientifiques, 15 March 2012. www.ambafrance-kz.org/relations-politiques-economiques
9. Итоги года. Kazinform. 2014. www.inform.kz/rus/article/2730580

¹ Taniqli fransuz yozuvchisi Amin Maalufga "Samarqand shahar faxriy fuqarosi" unvoni berildi. <http://uza.uz/politics/taniqli-fransuz-yozuvchisi-amin-maalufga-samarqand-shahar-fa-08-10-2018>.



10. Французская “Boyques” обсудила реализацию новых проектов в Туркменистане. www.trend.az/casia/turkmenistan/2307802.
11. Миноваров Ш. Ўзбекистон-Франция: маданий-маърифий ҳамкорлик йўлида. www.uza.uz/oz/society.
12. Paul Pelliot. Le Cha Tcheou Tou Fou T'ou king' et la colonia sogdienne de la region du Lob Nor. Journal asiaticque. Series 11, no 7, January-February 1916. – P. 111-123.
13. Ollivier Ferrando. 1989, Cahiers d'Asie central. 2016. <http://journals.openedition.org/asiacentrale/3224>
14. Mapping Central Asia: Indian Perceptions and Strategies. Eds. by M. Laruelle and S. Peyrouse. Ashgate, 2011. – 248 p.
15. O'zbekiston-Fransiya: hamkorlikni kengaytirish yo'lida. <http://xs.uz/uz/post/ozbekiston-fransiya-hamkorlikni-kengaytirish-yolida>
16. O'zbekiston-Fransiya: uzoq muddatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash yo'lida. <http://uza.uz/politics/o-zbekiston-fransiya-uzoq-muddatli-hamkorlikni-yanadakengayt-10-10-2018>.
17. Парижские встречи. Uzbekistan today. № 41 (632) 11 октября 2018 года.
18. O'zbekiston-Fransiya: yangi bosqichdagi munosabatlar arafasida. <http://uza.uz/politics/o-zbekiston-fransiya-yangiafs-bosqichdagi-munosabatlar-arafasid-09-10-2018>.
19. Taniqli fransuz yozuvchisi Amin Maalufga “Samarqand shahar faxriy fuqarosi” unvoni berildi. <http://uza.uz/politics/taniqli-fransuz-yozuvchisi-amin-maalufga-samarqand-shahar-fa-08-10-2018>.



TURKIYA TASHQI SIYOSATI BO'YICHA ASOSIY MAFKURAVIY YONDASHUVLAR

NURSULTON SAYFULLAYEV

Tayanch doktorant, JIDU

Annotatsiya. Turkiyaning ko'p vektorli tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan bir qancha mafkuralar mavjud. Bu mafkuralar turli tarixiy davrlarda paydo bo'lib, bugungi kunda ham Turkiya tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Jumladan, osmanizm, panturkizm va panislamizm XIX asrning ikkinchi yarmida Usmoniylar imperiyasi davridayoq keng tarqalgan bo'lsa, kemalizm 1923-yilda Turkiya Respublikasi tashkil etilgandan keyin yuzaga kelgan. Neoosmanizm esa osmanizمنىning yangi ko'rinishi sifatida ayrim manbalarda XX asrning oxirgi choragidan beri Turkiya tashqi siyosati bilan bog'lansa-da, uning konseptual asoslari Turkiya hukumati tomonidan rasmiy darajada 2000-yillarning oxirlarida bayon qilindi. Barcha mafkuralar Turkiyadagi muayyan tarixiy o'zgarishlar davrida davlatning ichki va tashqi siyosatining shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, o'tgan asrda Turkiyada demokratik tamoyillarga tayangan va G'arb mamlakatlari bilan yaqin hamkorlikka yo'naltirilgan kemalizm mafkurasi yetakchi edi. Bipolyar dunyo tartiboti tugagandan so'ng, Turkiya tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari o'zgarib, unda panturkizm, panislamizm va neoosmanizm mafkuralariga qaytadan e'tibor kuchaydi. Bundan tashqari, shu davrdan boshlab ko'plab tahlilchilarning ilmiy ishlarida Turkiya yevrosiyonizmi degan yondashuvni keng qo'llanilishi kuzatiladi. Mazkur yondashuv Turkiyaning Rossiya kabi Yevropa va Osiyoni bog'lab turuvchi hududda joylashuviga asoslanadi. Umuman olganda, har bir mafkura o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Shu bilan birga, ba'zi mafkuralar o'zaro uyg'un holda bir-birini to'ldirishi ham mumkin. Turkiyaning zamonaviy tashqi siyosatini yaqindan o'rganish uchun esa ushbu mafkuralarni batafsil tahlil qilish talab etiladi.

Kalit so'zlar. Osmanizm, panturkizm, panislamizm, kemalizm, neoosmanizm, eurasianizm.

Abstract. There are several ideologies that reflect the specific features of Turkey's multi-vector foreign policy.

These ideologies emerged in different historical periods and still determine the priorities of Turkey's foreign policy today. In particular, Ottomanism, pan-Turkism, and pan-Islamism were widespread during the Ottoman Empire in the second half of the 19th century, while Kemalism emerged after the establishment of the Republic of Turkey in 1923. Although neo-Ottomanism, as a new form of Ottomanism, has been associated with Turkish foreign policy in some sources since the last quarter of the 20th century, its conceptual foundations were officially outlined by the Turkish government in the late 2000s. All ideologies played an important role in the formation and development of the state's domestic and foreign policy during certain historical changes in Turkey. In particular, in the last century, the ideology of Kemalism, based on democratic principles and aimed at close cooperation with Western countries, was the leading ideology in Turkey. After the end of the bipolar world order, the priorities of Turkey's foreign policy changed, and the ideologies of pan-Turkism, pan-Islamism, and neo-Ottomanism gained renewed attention. In addition, since this period, the approach of Turkish Eurasianism has been widely used in the scientific works of many analysts. This approach is based on Turkey's location, like Russia, in the region connecting Europe and Asia. In general, each ideology is distinguished from the other by its own features. At the same time, some ideologies can also complement each other in harmony. In order to closely study Turkey's modern foreign policy, a detailed analysis of these ideologies is required.

Keywords: Ottomanism, pan-Turkism, pan-Islamism, Kemalism, neo-Ottomanism, Eurasianism.

Аннотация. Существует несколько идеологий, отражающих уникальные особенности многовекторной внешней политики Турции. Эти идеологии появлялись в разные исторические периоды и даже сегодня определяют приоритеты внешней политики Турции. Например, османизм, пантюркизм и панисламизм были широко распространены в Османской империи во второй половине XIX века, а кемализм возник после создания Турецкой Республики в 1923 году. Неоосманизм как новая форма османизма в некоторых источниках ассоциируется с внешней политикой Турции с последней четверти XX века, но его концептуальные основы были официально изложены турецким правительством в конце 2000-х годов. Все идеологии приобрели значение в формировании и развитии внутренней и внешней политики государства в ходе определенных исторических изменений в Турции. В частности, в прошлом веке в Турции лидировала идеология кемализма, опиравшаяся на демократические принципы и ориентированная на тесное сотрудничество со странами Запада. После распада биполярного мирового порядка приоритеты внешней политики Турции изменились, усилились идеологии пантюркизма, панисламизма и неоосманизма. Кроме того, с этого периода подход турецкого евразийства широко используется в научных трудах многих аналитиков. Этот подход основан на расположении Турции, как и России, на просторстве, соединяющем Европу и Азию. В целом каждая идеология отличается своими особенностями. В то же время некоторые идеологии могут гармонично дополнять друг друга. Детальный анализ этих идеологий необходим для внимательного изучения современной внешней политики Турции.

Ключевые слова. Османизм, пантюркизм, панисламизм, кемализм, неоосманизм, евразийство.

Panturkizm

Dastlab XIX asming ikkinchi yarmida paydo bo'lgan panturkizm mafkurasining asosiy mohiyati Usmoniylar imperiyasi va Chor Rossiyasi tarkibidagi turkiy xalqlarning "Buyuk Turon" davlatini tuzish uchun siyosiy birlashuv g'oyasi edi. O'sha paytda panturkizmnining turkiy xalqlar orasida keng tarqalishida jadidchilik harakati namoyandalarning faoliyati muhim o'rin tutadi. Jumladan, qrim tatar ma'rifatparvari Ismoil Gaspirali mafkuraning shakllanishiga katta hissa qo'shadi. Uning "Tilda, fikrda va ishda birlik" degan mashhur iborasi o'sha davrda panturkizm mafkurasining shoriga aylangan edi. Bundan tashqari, yana bir kelib chiqishi tatar bo'lgan yozuvchi va panturkizm targ'ibotchisi Yusuf Akchura esa 1904-yilda yozgan "Uch siyosiy tuzum" (Uc tarzi siyaset) nomli manifestida osmanizm, panislamizm va panturkizm mafkuralarini ta'riflab, ulardan biri Usmoniylar imperiyasining davlat boshqaruvidagi bosh mafkura bo'lishi mumkinligini bayon etadi.¹

¹ Юсуф Акчура (1876–1935) и теория стадияльного развития. 16.05.2020.



Panturkizm Usmoniylar imperiyasida 1908-yildagi inqilobdan keyin hokimiyatni egallagan yosh turklar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Yosh turklar orasida Enver pasha, Ziya Gyokalp, Alibek Huseynzade va Ahmedbek Agayev kabi yozuvchi va siyosiy arboblarning panturkizm tarafdorlari edi. Ular o'zining asarlarida va faoliyatida panturkizm g'oyalarini keng targ'ib qiladi. 1920 yillarning boshida Turkiyadagi milliy ozodlik kurashi paytida panturkizmning o'rni natsionalizm mafkurasi egallaydi. Chunki bu tarixiy vaziyatda panturkizm mafkurasi tarafdorlari ham Anatoliyadagi turklarning millatparvarligi va vatanparvarligini namoyon qiluvchi mazkur mafkura ostida birlashadi. Umuman olganda, Chor Rossiyasining o'mida Sovet Ittifoqi va Usmoniylar imperiyasining vorisi sifatida esa Turkiya Respublikasining tashkil topishi oqibatida panturkizm g'oyalarining ahamiyati yo'qolgan edi. Shu o'rinda, Turkiya Respublikasida kemalizm asosiy mafkuraga aylangan davrda ham Jihal Atsiz, Alparslan Tyurkesh va boshqa bir qancha panturkizm tarafdorlari bo'lganligini qayd etish joiz.

1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanishi oqibatida uning tarkibidagi 5 ta turkiy davlat mustaqillikni qo'lga kiritadi. Turkiya bu qardosh davlatlarning mustaqilligi birinchi bo'lib rasmiy tan oladi va diplomatik aloqalarni o'rnatadi. Shu paytdan beri turkiy davlatlar o'rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama va institutsional jihatdan mustahkamlandi. Ayniqsa, oxirgi paytda Turkiy davlatlar tashkilotining faoliyati yangi bosqichga chiqib, mustaqil turkiy mamlakatlarni birlashtirgan siyosiy ittifoqqa aylandi. Turkiyaning Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazdagi faol tashqi siyosati, turkiy mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga doir qator tashabbuslari va shubhasiz, xalqaro maydonda Turkiy davlatlar tashkilotining yuzaga kelishi ilmiy doirada panturkizm mafkurasining qaytadan jonlanishiga olib keldi.

Bugungi kunda siyosatshunos va tahlilchilar tomonidan asosan, Turkiyaning qardosh davlatlar bilan munosabatlaridagi Yumshoq kuch omili panturkizmning yangi ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Turkiyaning hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA), TRT Avaz telekanallari tarmog'i, TURKSOY tashkiloti va Yunus Emre institutlarining qardosh davlatlardagi faoliyati esa Turkiya tashqi siyosatidagi Yumshoq kuch salohiyatining asosiy vositalari hisoblanadi. Turkiya mintaqaviy mamlakatlari bilan madaniyat, san'at, ta'lim va turizm sohalarida ham yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Shuningdek, oxirgi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlarida turkiy davlatlarning yagona alifbosi va tilini ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan edi. Xususan, tashkilotning 2023-yilda Ostona shahridagi "Turkiy davri" shiori ostida bo'lib o'tgan sammitida Turkiya prezidenti R.T.Erdogan umumiy alifboni yaratish taklifini bergan edi. "Tilimiz, madaniyatimiz va tariximiz asosidagi munosabatlarimizni kuchaytirish uchun oliy ta'lim sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarimizni davom ettirmoqdamiz. Shubhasiz, birligimiz uchun umumiy til muhim. Umumiy alifbo ham muhim va bu borada prezidentlarning qo'llab-quvvatlashi talab etiladi. Oliy ta'lim kengashining tashkilotimiz kotibiyatiga bergan taklifi tashkilotimiz tomonidan ko'rib chiqilishiga ishonaman", degan edi R.T.Erdogan.¹ 2024-yilning 9-11-sentabr kunlari Boku shahrida turkiy davlatlarning tilshunos olimlaridan iborat komissiya uchunchi yig'ilishida esa umumiy turkiy alifboning lohiyasi rasman tasdiqlandi.

Shuningdek, joriy yilning oktabr oyida Turkiya Milliy ta'lim vazirligi tarix fani o'quv dasturiga fundamental o'zgartirishlar kiritilishini e'lon qildi. Yangi yondashuvga ko'ra, "Markaziy Osiyo" atamasi "Turkiston" bilan almashtirilishi ma'lum qilingan. Turkiyalik mutaxassislarning ta'kidlashicha, bu o'zgarish turkiy dunyodagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan keng qamrovli strategiyaning bir qismi sanaladi. Ushbu strategiya umumiy tarix, adabiyot, xaritalar va alifbo yaratishni o'z ichiga oladi.²

<https://idmedina.ru/ramazan/?7119>

¹ Эрдоган предложил ввести единый алфавит тюркских стран. Аружан Дарибай. 03 ноября 2023.

https://tengrinews.kz/kazakhstan_news/erdogan-predlozil-vvesti-edinyiy-alfavit-tyurkskih-stran-515763/

² Turkiya "Markaziy Osiyo" atamasini "Turkiston"ga o'zgartiradi. 11.10.2024.

<https://kun.uz/69817956>



6-noyabr kuni Bishkekda bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkilotining 11-sammitida esa Turk dunyosi g'oyasi qabul qilindi. Turk dunyosi g'oyasi turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashni maqsad qilgan muhim hujjat bo'lib, Naxchivan kelishuvi va Turk dunyosi 2040 doirasida ilgari qabul qilingan qarorlar va hujjatlar asosida tayyorlangan. Hujjatda turkiy o'ziga xoslik asosida tarixiy, madaniy, til va an'anaviy aloqalarni mustahkamlash, turkiy davlatlar o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik ko'lamini kengaytirish va xalqaro huquq tamoyillariga sodiq qolishga alohida e'tibor qaratilgan.¹

Kemalizm

Kemalizm mafkurasini dunyoviy davlatning Turkiya modeli sifatida ta'riflash mumkin. Osmanizmdan farqli ravishda, kemalizm asosan, Anatoliyadagi turklarning millatparvarligi va vatanparvarligini ilgari suradi. Bu mafkuraning mohiyatini to'liqroq yoritish uchun uning paydo bo'lishining tarixiy sabablariga to'xtalib o'tamiz. Birinchi Jahon urushida Usmoniylar imperiyasi mag'lubiyatga uchragan, ulkan hududdagi turli millat va dinga mansub aholiga ega bo'lgan imperiya parchalana boshlaydi. Saltanat poytaxti bo'lgan Istanbul shahri g'olib davlatlar tomonidan egallab olinadi. Shundan so'ng, 1918-1923-yillarda bo'lib o'tgan mustaqillik uchun kurashda Mustafa Kamol boshchiligidagi Turkiya milliy vatanparvar kuchlari g'alaba qozonadi. Bu kurash turk xalqining milliy ozodlik urushi va Turkiya inqilobi deb nomlanadi. 1923-yilda esa Turkiya Respublikasi tashkil etilib, mamlakat milliy rahnamosi Mustafa Kamol birinchi prezident etib saylanadi. U hokimiyat tepasiga kelgach, mamlakatda qator tub islohotlarni amalga oshiradi. Dastlab 1921-yilda va so'ngra 1924-yilda Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasi ishlab chiqilib, Buyuk Milliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi. 1923-yilda Turkiyada Respublika xalq partiyasi tuziladi. Davlat boshqaruvida dinning ta'siri cheklanadi va shariat qonunlari o'rniga, davlat qonunlari joriy qilinadi.

Bu davrda uzoq davom etgan kurashlardan chiqqan yosh Turkiya Respublikasi tashqi siyosatida tinchlik tamoyili asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Birinchi prezident Mustafa Kamolning "Yurtida tinchlik, dunyoda tinchlik" (Yurtta sulh, cihanda sulh) jumlasida Turkiya Respublikasining rasmiy shioriga aylanadi. Ushbu shiorga muvofiq, Turkiyaning har sohada salohiyatini ro'yobga chiqarishiga imkon beradigan mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik va barqarorlik muhitini yaratish uchun harakat qilinadi. Shuning uchun, barcha muammolarni diplomatiya va muzokaralar yo'li bilan o'zaro manfaatlarni hisobga olgan holda hal etishga e'tibor qaratiladi. Zamonaviy qadriyatlarga asoslanib, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy huquqiy davlat bo'lish yo'lida olg'a qadam tashlagan Turkiya Respublikasi o'xshash tamoyillarga ega bo'lgan davlatlar bilan do'stona aloqalarini o'rnatdi. Turkiya va G'arb davlatlari o'rtasidagi azaliy qarama-qarshilikka barham berilib, bu davlatlar bilan munosabatlarning mustahkam poydevori yaratildi. Buning natijasida Turkiyaning Gretsiya va Bolqon mamlakatlari bilan munosabatlarida ilgari kuzatilmagan ijobiy o'zgarishga erishildi. Shuningdek, Turkiya Millatlar Ligasiga ariza bermasdan taklif qilingan yagona davlat sifatida 1932-yilda tashkilotga a'zo bo'ldi.²

O'sha davrdan boshlab, Turkiyada G'arb andazasi asosida dunyoviy va demokratik davlat tamoyillari o'rnatiladi. O'tgan asrda barcha davlat rahbarlari tomonidan G'arbga yo'naltirilgan tashqi siyosat yuritiladi. Mustafa Kamol tomonidan asos solingan bu mafkuraviy siyosat kemalizm deb ataladi. Kemalizm dunyoviy davlat me'zonlaridan iborat 6 ta bandni (Alti Ok) o'z ichiga oladi. 1927-yilda Respublika xalq partiyasining sezida dastlab 4 ta tamoyil qabul qilinadi: Respublikachilik, (Cumhuriyetcilik) Xalqchilik, (Halkcilik) Milliychilik, (Milliyetcilik) Dunyoviychilik (Laiklik). 1931-yildagi sezda esa ular qatoriga

¹ Turk Dunyosi g'oyasi qabul qilindi: Tafsilotlar TRT Xabarda. 25.11.2024.

<https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2024/11/25/1234567890-2213421>

² Turkish Foreign Policy During Ataturk's Era. Official website of the Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Türkiye.

<https://www.mfa.gov.tr/turkish-foreign-policy-during-ataturks-era.en.mfa>



Davlatchilik (Devletcilik) va Inqilobchilik (Inkilapcilik) tamoyillari qo'shiladi. 1937-yilda ular Turkiya Respublikasining konstitutsiyasi bilan davlat mafkurasining asosiy tamoyillari sifatida mustahkamlanadi.¹

Keyinchalik Turkiyaning G'arb bilan yaqinlashuvi institutsional darajada davom etadi. Bu jarayon davlatning xalqaro tashkilotlar va tuzilmalar doirasidagi AQSH va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligida kuzatiladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Turkiya hukumati tomonidan Sovet Ittifoqiga jiddiy xavf sifatida qaralgan. Chunki Turkiya ushbu davlat bilan quruqlik va dengizda katta chegaraga ega edi. Shuning uchun Turkiya Sovuq urush davrida AQSH boshchiligidagi G'arb mamlakatlari tarafida bo'lishni afzal biladi. Xususan, Turkiya Respublikasi 1952-yilda Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkilotiga (NATO) a'zo bo'ladi. Tashkilotning tinchlikparvar qo'shinlari tarkibida esa 1950-yillarda Koreya yarimorolidagi shimol va janub o'rtasidagi to'qnashuvlarda turk askarlari ham qatnashadi. Shuningdek, Turkiya 1949-yilda Yevropa Kengashi tuzilgandan beri tashkilotga a'zo hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish esa uzoq vaqtdan beri Turkiya tashqi siyosatining ustuvor maqsadi sanaladi. Hatto Yevropa Ittifoqidan oldin, 1987-yilda Turkiya hukumati tomonidan Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga ariza topshiriladi. 1999-yilda Turkiyaga tashkilotga kirish uchun rasmiy nomzod maqomi beriladi. 2000-yillarning o'rtalarida ham Yevropa Ittifoqi va Turkiya Respublikasi o'rtasida tashkilotga a'zolik yuzasidan ko'p marotaba muzokaralar o'tkaziladi.

Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo'shilishiga to'sqinlik qiladigan turli ichki va tashqi omillar mavjud. Birinchidan, diniy va etnik jihatdan Turkiya Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlardan farq qiladi. Ikkinchidan, Turkiyaning iqtisodiy, harbiy va demografik salohiyati Yevropa Ittifoqini global miqyosda kuchaytirishi bilan birga, Fransiya va Germaniya kabi yetakchi davlatlarning ittifoqdagi o'rniga salbiy ta'siri qilishi mumkin. Bundan tashqari, Kipr masalasi Yevropa Ittifoqi va Turkiya munosabatlaridagi og'riqli nuqtaga aylangan. Kipr uchun Gretsiya va Turkiya o'rtasida ko'p marotaba to'qnashuvlar yuz berib, buning natijasida ushbu orolda ikkita alohida davlat tashkil etiladi.

Turkiyadagi kurd diasporasi ham azaliy muammolardan biri bo'lib, ularning mamlakatdagi ijtimoiy mavqei Yevropa Ittifoqining yuqori doiradagi siyosatchilarining rasmiy bayonot va muhokamalarida tez-tez tilga olinadi. Shuningdek, oxirgi paytda Turkiyaning boshqa mintaqalarga qaratilgan ko'p yo'nalishli tashqi siyosati Yevropa Ittifoqiga nisbatan e'tiborning kamayishiga olib keldi. Shu va boshqa omillar sababli Turkiyaning Yevropa Ittifoqi qo'shilish jarayoni to'xtab qolgan. Bugungi kunda Turkiya uchun tashkilotga a'zolik oldingidek muhim bo'lmasada, tashqi siyosatdagi strategik maqsadlardan biri sanaladi.

Neosmanizm

Neosmanizm XIX asrning so'nggi choragida Usmoniylar imperiyasi davrida paydo bo'lgan osmanizmning yangi ko'rinishi hisoblanadi. Shuning uchun, dastlab osmanizm mafkurasini va uning mohiyatiga to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. XIX asrning ikkinchi yarmida Usmoniylar imperiyasida "Tanzimat" deb nomlangan keng qamrovli ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar amalga oshiriladi. Bu islohotlar faol tashabbuskorlar tomonidan imperiyani modernizatsiya qilish orqali markaziy hokimiyatni mustahkamlash hamda ichki va tashqi muammolarni bartaraf etish maqsadida o'tkaziladi. O'sha davrda yangi o'zgarishlarning tarafdorlaridan tashkil topgan "Yangi usmonlilar" harakati vujudga keladi. Aynan ular tomonidan osmanizm g'oyalari siyosiy konsepsiya tarzida ishlab chiqiladi. Osmanizm targ'ibotchilari dini va millatidan qat'i nazar barcha kishilar imperiyaning umumiy fuqarolari va ular

¹ Kemalism – The Turkish Model of a Secular Republic. Sara-Marie Demiriz. 2023-07-24.

<https://www.ieg-ego.eu/en/threads/models-and-stereotypes/from-the-turkish-menace-to-orientalism/sara-marie-demiriz-kemalism-the-turkish-model-of-a-secular-republic>



qonun oldida teng, degan g'oyani ilgari suradi. Boshlang'ich ta'lim, harbiy majburiyat va soliqlar hamma uchun birdek daxldor bo'lishi zarurligini targ'ib qiladi.

Osmanizm mafkurasi 1908-yilda "Yosh turklar" inqilobi paytida qaytadan jonlanadi. Hokimat tepasiga kelgan yosh turklar tomonidan osmanizm mafkurasi asosida imperiya tarkibidagi xalqlarning tengligini ta'minlash va yagona usmoniylar millatini yaratish maqsadi e'lon qilinadi. Lekin turli isyonlar va urushlar mafkura tarafdorlarining keskin kamayishiga olib keladi. Natijada, ushbu mafkura o'zining ahamiyatini yo'qotib, uning o'rniga ziyoli qatlam orasida panturkizm va panislamizm g'oyalari kuchayadi.

Tarixchi Kemal Karpatning ta'kidlashicha, neoosmanizm atamasi 1974-yilda turk harbiy kuchlarining Kiprdagi operatsiyasidan keyin paydo bo'lgan. Atamaning muallifi esa britaniyalik jurnalist va tarixchi Devid Barchard bo'lib, u o'zining 1985-yildagi "Turkiya va G'arb" asarida ushbu ta'rifni ilk marta qo'llagan.¹ Ammo neoosmanizm ta'rifi asosan, bipolyar dunyo tartiboti barham topgandan so'ng, Turkiya Respublikasi tashqi siyosatidagi yo'nalishlarning kengayishi jarayonida keng qo'llanila boshlandi. Darhaqiqat, Turkiyaning zamonaviy tashqi siyosatini nazariy va amaliy baholash uchun neoosmanizm mafkurasi ko'proq mos keladi. Chunki bu mafkuraning negizida avval Usmoniylar imperiyasi tarkibida bo'lgan hududlarni Turkiyaning ta'sir doirasiga kiritish maqsadi ifodalanadi. Mazkur hududlar mamlakatga geografik yaqin bo'lgan Bolqon, Kavkazorti, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqalarini qamrab oladi.

Ko'p qutblilik davrida xalqaro maydonda global yetakchilardan tashqari, yangi mintaqaviy kuch markazlari yuzaga keldi. Bundan tashqari, ushbu davrda global va mintaqaviy yetakchi davlatlar tomonidan tashqi siyosatda "Yumshoq kuch" vositalaridan keng foydalanish amaliyoti kuzatildi. Chunki "Yumshoq kuch" siyosati an'anaviy harbiy kuch ishlatishdan farqli ravishda, bir davlatning ikkinchi davlatga ta'sir o'tkazishi uchun siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa vositalardan foydalanib, strategik maqsadlarga erishishni mo'ljallaydi.

Sovuq urush davrida kollektiv G'arb tomonida bo'lgan Turkiya Sovet Ittifoqi parchalanishi sharoitida tashqi siyosatda yangi imkoniyatlarga ega bo'ldi. Xususan, 2001-yilda tashkil etilgan Adolat va taraqqiyot partiyasi (AKP) keyingi yili o'tkazilgan saylovlarda Respublika xalq partiyasi ustidan g'alaba qozonib, hukumatdagi yetakchi partiyaga aylandi. Ushbu partiyaning boshqaruvi davlatning norasmiy tashqi siyosiy strategiyasi sifatida neoosmanizm mafkurasining rivojlanishiga turtki berdi. Neoosmanizm esa norasmiy tashqi siyosiy doktrina sifatida Turkiyaning "Yumshoq kuch" vositalari bilan qo'shni mamlakatlar hududida ta'sir doirasini kengaytirishni nazarda tutadi.

Ko'plab turk va xorijiy tahlilchilar tomonidan Turkiya zamonaviy tashqi siyosatining asoschisi sifatida Ahmet Davutoglu e'tirof etiladi. Asli siyosatshunos bo'lgan Ahmet Davutoglu bir qancha ilmiy asarlar va mamlakat zamonaviy tashqi siyosatining maqsad va vazifalarini mujassam qilgan "Strategik chuqurlik: Turkiyaning xalqaro mavqei" monografiyasining muallifi edi. Aynan uning rahbarligida tinchlikparvar siyosatning timsoliga aylangan "Qo'shnilar bilan muammolarni nollashtirish" doktrinasi shakllanadi. U 2009-2014-yillarda tashqi ishlar vaziri va 2014-2016-yillarda bosh vazir lavozimidagi faoliyati mobaynida ham o'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq etadi. Jumladan, uning quyidagi so'zlari ham fikrimizni tasdiqlaydi: "Ha, biz yangi usmonlilarmiz. Biz qo'shni davlatlar bilan hamkorlik qilishga majburmiz. Hatto Afrikaga ham boramiz. Katta mamlakatlar buni sarosimalik bilan kuzatmoqda".²

¹ Неоосманизм: что с ним не так? Али Нуриев. 9 апр. 2021. <https://www.trtrussian.com/mnenie/neoosmanizm-chto-s-nim-ne-tak-5086468>

² Неоосманизм. Базовая идеология и геостратегия Турции. Владимир Аватков. 2021. <http://svom.info/entry/458-neoosmanizm/>

Yevrosiyonizm

Turkiya geosiyosiy o'liga ko'ra, Rossiya singari Yevropa va Osiyoni tutashuruvchi hududda joylashgan bo'lib, yevrosiyonizm mafkurasi Turkiyaning ham geosiyosiy manfaatlariga xizmat qiladi. Shu sababli, o'tgan asrning 90-yillari boshida bipolyar dunyo tartiboti tugaganidan so'ng, Turkiya tashqi siyosatida yevrosiyonizm mafkurasi namoyon bo'ladi. Bu mafkura Turkiya hukumati tomonidan yangi dunyo tartibotidagi xafv-xatarlarga javob berishga intilish sifatida izohlanadi.

O'sha davrdan beri, ko'plab turk va xorijiy siyosatshunoslar tomonidan Turkiya yevrosiyonizmga doir turli yondashuvlar bildirilib, uning Rossiya yevrosiyonizmi bilan farqli va o'xshash jihatlari tahlil qilindi. Turkiya yevrosiyonizmi bir-biridan farq qiladigan uch davrga bo'linadi.¹ 1990-yillarning boshlarida Turkiya tashqi siyosatida yevrosiyonizmning birinchi namoyon bo'lishi Rossiyaga qarshi va g'arbparastlik edi. Sobiq Turkiya tashqi ishlar vaziri Ismoil Jem (1997-2002) davridagi ikkinchisi Turkiyaning Sovuq urushdan keyingi geosiyosiy voqelikda o'z o'rnini qidirishini ifodalaydi. Uchinchi va bugungi ko'rinish esa ham 2000-yillarning boshidan kelib chiqqan va G'arbga qarshi mafkuraviy pozitsiyaning kuchli elementlarini o'z ichiga oladi. Yevrosiyonizmning dastlabki ikki ko'rinishini geosiyosiy bo'lsa, uchinchisini mafkuraviy deb belgilash mumkin.

Geosiyosiy yevrosiyonizm

Sovet Ittifoqining qulashi oqibatida Turkiya uchun Markaziy Osiyoda o'z ta'sir doirasini yoyish imkoniyati yuzaga keladi. Chunki Turkiya Markaziy Osiyo davlatlari bilan nafaqat etnik, balki diniy, madaniy va til jihatidan umumiy o'xshashlikka ega edi. Aholisining aksariyat qismi islom diniga mansub, lekin boshqa islom davlatlaridan farqli ravishda, din siyosatdan ajratilgan holda, dunyoviy davlat qurish yo'lini tanlagan mintaqa mamlakatlari uchun Turkiyaning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish tajribasi juda muhim edi. Bu tajriba demokratik va dunyoviy davlatning Turkiya modeli deb nomlanadi. Mazkur mamlakatlarning siyosiy boshqaruvida demokratik tamoyillarni o'rnatilishini ta'minlash va post-sovet hududida Rossiyaning ta'sirini cheklash uchun Turkiyaning bu tashqi siyosati Aqsh va Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Biroq Turkiyaning Markaziy Osiyoda tashqi siyosati kutilgan natijalarni bermadi. Bunga bir qancha ichki va tashqi omillar to'sqinlik qiladi.² Birinchidan, ushbu respublikalarning rahbarlari demokratiyadan ko'ra, ko'proq avtoritarizmni afzal ko'radi. Ikkinchidan, Turkiya iqtisodiyoti o'sha paytda jiddiy muammolarni boshidan kechiradi. Shuningdek, Rossiya ham Sovet Ittifoqidan keyingi tushkunlik davridan o'tib, qo'shni respublikalarni yana ta'sir doirasiga qaytarish maqsadida mintaqaga nisbatan e'tiborni kuchaytiradi. Turkiyada esa Rossiya bilan raqobat qilish uchun yetarli darajada resurslar mavjud emasligi ma'lum bo'ladi.

1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlarida Turkiya-Rossiya munosabatlari sezilarli darajada yaxshilaniib, yevrosiyonizm, asosan, Turkiya sobiq tashqi ishlar vaziri Ismoil Jemning tashqi siyosiy qarashlari bilan bog'liq holda muhokama qilindi. Biroq, Ismoil Jem Turkiyaning yevrosiyonizm qarashlarini na G'arbga, na Rossiyaga qarshi muqobil sifatida belgiladi. To'g'rirog'i, u yevrosiyonizmni G'arbiy Yevropa va Osiyo o'rtasidagi sun'iy tafovutlar barham topishi va global, texnologik va iqtisodiy jarayonlar bu ikki mintaqaning integratsiyalashuviga yordam beradi, deb hisoblagan. Bundan tashqari, Turkiyaning yevrosiyonizm siyosati, Rossiyaga qarshi bo'lmasa-da, G'arb manfaatlariga ko'proq mos kelishini bayon qilgan.

Mafkuraviy yevrosiyonizm

Sovuq urushdan keyingi davrdagi geosiyosiy yevrosiyonizmdan farqli ravishda, mafkuraviy yevrosiyonizm Turkiyaning qisman G'arbga nisbatan chuqur noroziligi sababli Rossiya va Xitoy bilan yaqinroq

¹ Turkey's Geopolitical and Ideological Eurasianism and its Relations with Russia. Galip Dalay. September 21, 2021. <https://www.gmfus.org/news/turkeys-geopolitical-and-ideological-eurasianism-and-its-relations-russia>

² Евразийство и евразийская интеграция в политической идеологии и практике Турции. Павел Вячеславович Шлыков. Сравнительная политика. 2017 Т.8 No1. С 62.

<https://www.sravpol.ru/jour/article/view/576/480>



munosabatlarni o'rnatishga intilishiga asoslanadi. Turkiya tashqi siyosatidagi yevrosiyonizmning uchinchi davri 2000-yillarning boshlarida G'arbga nisbatan ishonchsizlik holatida paydo bo'ladi. Uning bu namoyon bo'lishini Moviy vatan doktrinasini orqali ham ko'rish mumkin.

Moviy vatan doktrinasini birinchi marta 2006-yil 14-iyunda Admiral Gem Gurdeniz tomonidan "Qora dengiz va dengiz xavfsizligi" simpoziumida ifodalanadi va keyin Admiral Cihat Yayachi tomonidan Turkiyaning Qora dengiz, Marmara dengizi va Egey dengizidagi chegaralarini belgilash orqali yakuniga yetkaziladi. Ushbu konsepsiyani maqsadi dengizdagi chegaralarni chizishdan tashqari, Turkiyaning dengiz hududlarida strategiyasini aniqlash va bu strategiya uchun harbiy-sanoat birikmasini ishlab chiqish edi.¹ Turkiya tashqi siyosati bo'yicha ekspert va mutaxassislarning Moviy vatan konsepsiyasiga doir turli qarashlari mavjud. Konsepsiya G'arb siyosatchilari tomonidan esa ko'p marotaba tanqid qilinib, uni Turkiyaning "Qo'shnilar bilan muammolarni nollashtirish" konsepsiyasiga teskari ekanligi ta'kidlangan.

Rus siyosatshunosi va yevrosiyonizm mafkurasi tarafdori Aleksandr Duginning fikriga ko'ra, bugungi kunda Rossiya hukumati AQSHning yakka gemonligini hududiy chegaralab, ko'p qutbli dunyo tartibotini yuzaga kelishi uchun astoydil urinmoqda.² R.T.Erdoganning AQSH va Yevropa Ittifoqiga yoqmaydigan ko'p vektorli zamonaviy tashqi siyosati esa bunga mos keladi. Vladimir Putin Turkiyaning yevrosiyonizm mafkurasiga qarshi emas, lekin bu siyosat Rossiya yevrosiyonizmi bilan muvofiq bo'lishi zarur. Chunki Turkiya tashqi siyosatining Rossiya manfaatlariga to'g'ri kelmaydigan jihatlari ham mavjud. Xususan, bu davlatlarning tashqi siyosiy manfaatlari Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqalarida to'qnashadi.

XULOSA. Turkiyaning zamonaviy tashqi siyosatida barcha mafkuralarning konseptual asoslari mavjud. Bu mafkuralar davlatning turli mintaqalar bo'yicha tashqi siyosatidagi o'ziga xos xususiyatiga ko'ra, bir-biridan ajralib turadi. Xususan, Turkiya tashqi siyosatida panturkizm Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz davlatlari, neoosmanizm Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari, kemalizm AQSH va Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarni aniqroq ifodalab berishi mumkin. Ushbu mafkuralar Turkiyada muayyan tarixiy davrda yuzaga kelgan bo'lsa, ulardan farqli ravishda, yevrosiyonizm mafkurasining asosida esa mamlakatning geosiyosiy joylashuvi muhim o'rin tutadi. Shunday bo'lsa-da, Turkiya tashqi siyosatida yevrosiyonizm mafkurasi bipolyar dunyo tartibotidan keyin namoyon bo'lganligini qayd etish joiz.

Bugungi kunda R.T.Erdogan boshqaruvidagi Turkiya mintaqaviy yetakchi davlat sifatida yuqoridagi mafkuralarga tayanib, faol tashqi siyosat yuritmoqda. Turkiya AQSH va Yevropa davlatlari bilan turli tashkilotlar doirasida hamkor bo'lsada, bugungi kunda Rossiya, Xitoy va Eron bilan ham iliq munosabatlarni o'rnatgan. Turkiya o'zining strategik va tranzit salohiyatidan foydalangan holda, tashqi siyosatda Kollektiv G'arb va Global Janub mamlakatlari bilan pragmatik va muvozanatli tashqi siyosat yuritishga urinmoqda. Bu omil Turkiya tashqi siyosatidagi yevrosiyonizm mafkurasining mohiyatini aniqroq ifodalashga yordam beradi. Umuman olganda, Turkiyaning ko'p yo'nalishli zamonaviy tashqi siyosatidagi yevrosiyonizm mafkurasi siyosatshunos va tahlilchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Юсуф Акчура (1876–1935) и теория стадияльного развития. 16.05.2020.
2. Аружан Дарибай. Эрдоган предложил ввести единый алфавит тюркских стран. 03 ноября 2023.
3. Turkiya "Markaziy Osiyo" atamasini "Turkiston"ga o'zgartiradi. 11.10.2024.

¹ The Blue Homeland Doctrine of Turkey. Jaleleddin Namini Mianji. 23 November 2020.
<https://www.ipis.ir/en/subjectview/619031/the-blue-homeland-doctrine-of-turkey>

² Турецкое евразийство. Александр Дугин. 20 августа 2021.
https://zavtra.ru/blogs/mifi_i_realii_tureckoj_geopolitiki



4. Turk dunyosi g'oyasi qabul qilindi: Tafsilotlar TRT Xabarda. 25.11.2024.
5. Turkish Foreign Policy During Ataturk's Era. Official website of the Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Türkiye.
6. Sara-Marie Demiriz. Kemalism – The Turkish Model of a Secular Republic. 2023-07-24.
7. Али Нуриев. Неоосманизм: что с ним не так? 9 апр. 2021.
8. Владимир Аватков. Неоосманизм. Базовая идеология и геостратегия Турции. 2021.
9. Galip Dalay. Turkey's Geopolitical and Ideological Eurasianism and its Relations with Russia. September 21, 2021.
10. Павел Вячеславович Шлыков. Евразийство и евразийская интеграция в политической идеологии и практике Турции // Сравнительная политика. 2017 Т.8 No1. С 62.
11. Jaleddin Namini Mianji. The Blue Homeland Doctrine of Turkey. 23 November 2020.
12. Александр Дугин. Турецкое евразийство. 20 августа 2021.



HINDISTON TA'LIM SOHASIDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI VA AHAMIYATI (UTTAR-PRADESH SHTATI MISOLIDA)

IRODA XAYRULLAYEVA

Tayanch doktorant, TDSHU



Annotatsiya: 1947-yil 15-avgustda Hindiston mustaqillikka erishdi va 1950-yil 26-yanvardan boshlab demokratik tizim orqali boshqariladigan federal respublikaga aylandi. Hindiston hukumati mustaqillikni qolga kiritgach iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarda islohot o'tkazishi, xalq manfaatlarini ko'zda tutgan holda chora-tadbir ko'rishi lozim edi. Birinchi galda xalqning mustabid tuzum davridagi chekkan asoratini bartaraf etish hamda jamiyat uchun yangi milliy ruhda yo'g'irilgan zamonaviy, siyosiy, madaniy strategik yo'l qurish kabi masalalarni hal etish choralari ko'ra boshladi. Shu maqsadda hukumat birinchi o'rinda ta'lim sohasiga e'tibor qaratdi, xususan bu sohada ayollarning ishtirokini kengaytirish, xotin-qizlarning savodxonlik ko'rsatkichini erkaklarniki bilan tenglashtirish zarur ekanligi ta'kidlandi.

Ushbu maqolada Hindiston davlatining mustaqillikdan keyingi davrda ta'lim sohasida olib borgan siyosati, xususan xotin-qizlarning savodxonlik ko'rsatkichi, ta'lim sohasida ayollarning ishtiroki, erkaklar va ayollar savodxonlik ko'rsatkichi o'rtasidagi gender nomutanosiblik sabablari, ijtimoiy-siyosiy hayotda xotin-qizlarning o'rni va ular duch keladigan muammolar, hukumat va nodavlar tashkilotlar tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar Uttar-Pradesh shtati misolida ochib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: Uttar-Pradesh, ayollar savodxonlik ko'rsatkichi, gender notenglik, besh yillik reja, Milliy ta'lim siyosati (NPE), Ta'lim to'g'risidagi qonun (RTE), Beti bachao, beti parhao, musulmon xotin-qizlar ta'limi, shtat tumanlarida ta'lim holati.

Аннотация: 15 августа 1947 года Индия обрела независимость и с 26 января 1950 года стала федеративной республикой, управляемой демократической системой. После обретения независимости индийскому правительству пришлось провести реформы в экономической, политической, социальной, культурной и других сферах, принять меры с учетом интересов народа. Прежде всего, он начал принимать меры по решению таких вопросов, как решение проблем народа во время самодержавного режима и построение современного политического, культурного стратегического пути общества, основанного на новом национальном духе. Для этого правительство в первую очередь уделило внимание

сфере образования, в частности, подчеркивалось, что необходимо расширить участие женщин в этой сфере, сравнять уровень грамотности женщин с уровнем грамотности мужчин.

В данной статье рассматривается политика индийского штата в области образования в период после обретения независимости, в частности уровень грамотности женщин, участие женщин в сфере образования, причины гендерного дисбаланса уровня грамотности. мужчин и женщин, роль женщин в общественной и политической жизни - роль девушек и проблемы, с которыми они сталкиваются, меры, принимаемые правительством и неправительственными организациями, раскрываются на примере штата Уттар-Прадеш.

Ключевые слова и фразы: Уттар-Прадеш, уровень грамотности женщин, гендерное неравенство, пятилетний план, Национальная политика в области образования (NPE), Закон об образовании (RTE), Бети Бачао, Бети Пархао, образование мусульманских женщин, состояние образования в округах штата.

Abstract: On August 15, 1947, India gained independence and from January 26, 1950 became a federal republic governed by a democratic system. After gaining independence, the Indian government had to carry out reforms in the economic, political, social, cultural and other spheres, and take measures keeping in mind the interests of the people. First of all, he began to take measures to solve issues such as solving the problems of the people during the autocratic regime and building a modern, political, cultural strategic path for the society based on a new national spirit. For this purpose, the government first of all paid attention to the field of education, in particular, it was emphasized that it is necessary to expand the participation of women in this field, to make the literacy rate of women equal to that of men.

In this article, the policy of the Indian state in the field of education in the post-independence period, in particular, the literacy rate of women, the participation of women in the education sector, the reasons for the gender imbalance between the literacy rate of men and women, the role of women in social and political life - the role of girls and the problems they face, the measures taken by the government and non-governmental organizations are revealed in the case of Uttar Pradesh state.

Key words and phrases: Uttar Pradesh, female literacy rate, gender inequality, five-year plans, National Education Policy (NPE), Education Act (RTE), Beti bachao, beti parhao, education of Muslim women, state of education in state districts.

KIRISH. Ta'lim nafaqat jamiyat, shuningdek barcha rivojlanayotgan davlatlar taraqqiyotida muhim o'rin tutadi, xususan barcha jamiyat kelajagi professional kadrlar qo'lida hisoblanadi. Hindiston davlati ham mustaqillikning ilk kunlaridanoq ta'lim sohasida chora-tadbirlar ko'rishni boshlab yubordi. Hukumat avvalo, mustamlaka davrida shakllangan ta'lim tizimini hind xalqi milliy ruhiyatiga mos, zamon talabiga javob beradigan usulda qaytadan shakllantirish ishlarini ko'ra boshladi. Shuningdek, jamiyatning deyarli yarmini tashkil qiluvchi xotin-qizlarning ta'limdagi rolini oshirish maqsadida ijtimoiy-siyosiy dasturlar ishlab chiqildi.

Uttar-Pradesh shtati Hindistonning shimoliy mintaqasida joylashgan, eng ko'p aholi yashaydigan hudud bo'lib, mamlakat aholisining 16.5 foizi yoxud dunyo aholisining taxminan 3 foizini tashkil qiladi. Mustaqillikdan keyingi davrda barcha shtatlar qatori Uttar-Pradesh shtati hukumati tomonidan ham barcha sohalarda, shuningdek ta'lim sohasida ham ko'pgina sa'y-harakatlar amalga oshirildi.

TADQIQOTNING USULLARI: Maqolada Hindiston davlati Uttar-Pradesh shtatining mustaqillikdan keyingi davrda xotin-qizlarning ta'limdagi ishtiroki, jamiyatning bu davrda ayollar ta'limiga bo'lgan munosabati, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muammolar, davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy dasturlar, musulmon ayollarning savodxonlik ko'rsatkichi, ularning jamiyatga ko'rsatayotgan ta'sirlarini tahlil qilish davomida xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari, hind hukumati bayonotnomalari, xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari, ilmiy adabiyotlarga tayangan xolda tarixiy, xronologik, qiyosiy, tizimli tahlil usullaridan samarali foydalanildi.



NATIJA VA MUHOKAMALAR: Uttar-Pradesh Hindistonning shimoliy-markaziy qismida joylashgan bo'lib, aholisi ko'p va maydoni kattaligi bo'yicha to'rtinchi o'rinda turadi. Uttar-Pradesh shimolda Uttarkhand va Nepal, sharqda Bihar, janubiy-sharqda Jharkhand hamda Chattisgarh, janubda Madhya-Pradesh va Rajasthan shtatlari bilan chegaradosh¹.

Uttar-Pradeshda qadimgi va o'rta asrlarda Hindistonda mavjud bo'lgan yirik siyosiy hukumat vakillari, jumladan mauriylar, harsha, gupta, pala, Dehli sultonligi vakillari hamda boburiylar shuningdek, boshqa sulolalar hukmronlik qilishgan. XX asr boshlarida Hindiston mustaqillik harakati davrida Uttar-Pradeshda uchta yirik knyazlik shtatlari - Ramgadi, Rampur va Banoras mavjud edi.

1950-yil 26-yanvarda Hindiston Respublika deb e'lon qiliganida shtatga hozirgi Uttar-Pradesh (so'zma-so'z "Shimoliy shtat") nomi berildi. Shtat poytaxti Lakhnau hisoblanib, u hududning g'arbiy-markaziy qismida joylashgan. Maydoni 243286 km, aholisi 199581477 kishini tashkil qiladi².

Mustaqillikka erishgandan so'ng, Uttar-Pradesh shtati bir necha yillar davomida ta'limning barcha sohalariga sarmoya kiritishni davom ettirdi va umumiy ta'limning qoloqligi hamda aholi savodsizligini bartaraf etish choralari ko'ra boshladi. Xususan, Hindiston davlati tomonidan 1950-yil 26-yanvarda qabul qilingan Konstitutsiya orqali ta'lim sohasi yanada mustahkamlandi, xususan, Konstitutsiyaning 45-moddasida 1960-yildan olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolalarning bepul va majburiy sakkiz yillik boshlang'ich ta'lim olishi davlat tomonidan kafolatlanishi qayd etildi. Konstitutsiyaning 15-moddasida esa nafaqat barcha fuqarolarga, shu jumladan, xotin-qizlarga ham dini, irqi, tabaqasi (kasta), jinsidan qat'iy nazar ta'lim olish huquqiga ega ekanligi, ayollar va bolalar manfaati davlat himoyasi ostida ekani, 51-moddasining (e) bo'limida har bir fuqaroga ayollarning qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlarga nisbatan qonuniy chora ko'rilishi kiritildi³.

Bu qonunlar orqali hukumat jamiyatdagi xotin-qizlar erkaklar bilan teng huquqli ekanligi, ijtimoiy-siyosiy kamsitish, zo'ravonlikka qarshi qonuniy jazo ko'rilishi hamda ular davlat himoyasi ostida ekanligi qonuniylashtirildi.

Shuningdek, hukumat tomonidan xotin-qizlarni ta'limga jalb etish maqsadida bir qancha qo'mita va komissiyalar ham tashkil etildi. Mustaqillikdan keyingi birinchi tashkil etilgan qo'mita "Durgabay Deshmuh"⁴ yoxud "Ayollar ta'limi milliy qo'mitasi" (1958-1959) bo'lib, u nafaqat Uttar-Pradesh, shuningdek, butun mamlakat bo'ylab xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy ahvolini yaxshilash ustida faoliyat olib borishga qaratilgan edi. Qo'mita ayollarning ta'limdagi faoliyati rivojlantirish uchun quyidagi fikrlarni ilgari surdi⁵:

- Barcha maktablarda ayol o'qituvchi kadrlar sonini oshirish;
- Barcha aralash maktablarda qizlar uchun alohida hojatxona tashkil etish;
- Ota-onasining daromadi ma'lum darajadan past bo'lgan qiz bolalarga moddiy yordam berish (kitob hamda o'quv qurollari, maktab formasi va boshqalar);
- Qiz bolaning uka-singillari uchun bolalar bog'chalarini tashkil etish;
- Qiz bolalar soni ko'p bo'lgan hududlarni ro'yxatga olish va o'rtacha davomatini ko'rsatadigan qishloqlar uchun mukofot dasturlarini ishlab chiqish;
- Qizlarning bilim olishi uchun kuchli jamoatchilik fikrini shakllantirish;

¹ Raj Mathur. (2024) Uttar-Pradesh state, India. The editors of encyclopedia Britannica. July 9, 2024. <https://www.britannica.com/place/Uttar-Pradesh>

² Raj Mathur. (2024) Uttar-Pradesh state, India. The editors of encyclopedia Britannica. July 9, 2024. <https://www.britannica.com/place/Uttar-Pradesh>

³ Constitution of India | Legislative Department | India <https://legislative.gov.in/constitution-of-india/>

⁴ 1953-1962-yillarda Hindiston markaziy ijtimoiy ta'minot kengshi asoschisi doctor Durgabay Deshmuh nomi bilan atalgan.

⁵ Dr. Durgabai Deshmukh Award | Wikigender. <https://wikigender.oecdcode.org/index.html%3Fp=950.html>



• Majburiy qonunchilikni qabul qilishdan ko'ra, ota-onalarni qiz farzandlarini maktabga berishlarini rag'batlantirish uchun maktablarda qulay shart-sharoitlarni yaratish;

• Qo'shma ta'lim maktablarida ayol rahbarlarni ko'paytirish;

• Boshlang'ich va o'rta maktablarga oson yetib borish uchun bepul va imtiyozli transport tashik etish;

• Yotoqxonalar barpo etish va boshqalar.

Qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan reja va dasturlarni belgilangan vaqt oralig'ida ishga tushirish boshlab yuborildi, biroq iqtisodiy taqchillik tufayli mahalliy aholi hayotiga to'laqonli tatbiq etishning imkoni bo'lmadi.

Xotin-qizlarning ta'limdagi rolini oshirish, ularning savodxonlik ko'rsatkichini erkaklarniki bilan tenglashtirish maqsadida hukumat keyingi yillarga mo'ljallangan bir nechta siyosiy dasturlarni ilgari surdi, jumladan, 1962-1963-yillarda faoliyat olib borgan "Ayollar maqomi bo'yicha qo'mita"¹ xotin-qizlarning maktabni tashlab ketishining oldini olish uchun o'quvchilarni rag'batlantirishni taklif qilgan bo'lsa, Ta'lim komissiyasi (1965-1966) Milliy qo'mita tavsiyasiga ko'ra, xotin-qizlarning ta'lim olishini ma'qulladi. Shuningdek, Komissiya Uttar-Pradesh hududida quyidagi ishlarni amalga oshirishni taklif qildi²:

• Qizlar ta'lim olishiga qarshi aholining an'anaviy noto'g'ri qarashlarni bartaraf etish maqsadida jamoatchilik fikrini o'zgartirish;

• Ayol o'qituvchilar sonini ko'paytirish;

• Imkoniyat va talab darajasida aralash boshlang'ich maktablarni ommalashtirish va yuqori boshlang'ich bosqichda qizlar uchun alohida maktablar ochish;

• Bepul kitob, o'quv materiallari va kerak bo'lganda kiyim-kechak bilan ta'minlash.

Hukumat tomonidan olib borilgan islohotlar asta-sekin o'z natijasini ko'rsata boshladi. 1951-yilda Uttar-Pradeshda umumiy savodxonlik ko'rsatkichi 12.02 foiz bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda ko'rsatkich ko'tarila boshlandi, xususan, 1961-yilda 20.87 foiz, 1971-yilda esa 23.99 foizga oshdi³. Bu esa davlat mustaqillika erishganidan so'nggi o'ttiz yil ichida hududning umumiy savodxonligi deyarli ikki baravarga oshganligidan dalolat berar edi.

Mustaqillika erishganidan so'ng hukumat besh yil muddatga rejalashtirilgan besh yillik reja dasturlarini amalga oshira boshladi. Ushbu besh yilga mo'ljallangan reja dasturlar doirasiga xotin-qizlarning ta'limdagi ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari ham qo'shildi, xususan, birinchi besh yillik rejada (1951-1956) ayollarga nisbatan konstitutsiyaviy vakolat berish o'z aksini topgan. U xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rini mustahkamlash choralari ko'rdi va 1953-yilda ayollar farovonligi dasturlarini amalga oshirish uchun "Markaziy ijtimoiy ta'minot kengashi" deb nomlanuvchi milliy organ tashkil etildi. Bir vaqtning o'zida "Mahila Mandallar (ayol modeli)"⁴ deb nomlanuvchi ijtimoiy xizmat orqali ayollarni jamiyatdagi faoliyatini kengaytirish harakati boshlandi.

Ikkinchi besh yillik reja (1956-1961)⁵ yosh talabalarni atom energetikasida ishlashga tayyorlash uchun iqtidorli kadrlarni izlash va stipendiya dasturlari ishlab chiqildi. Uchinchi reja (1961-1966) xotin-

¹ स्वतंत्रता के बाद महिलाओं की शिक्षा पर भारत स. <https://testbook.com/question-answer/hn/who-chaired-the-first-committee-constituted-by-the--628b6fbc56af93ce35cde4c1>

² िम्नलिखित में से राष्ट्रीय महिला शिक्षा परि. <https://testbook.com/question-answer/hn/who-among-the-following-was-the-chairperson-of-the--63b2de05d621188d9d11f0e1>

³ State-wise literacy rates (1951-2001). – P. 114. https://www.indiabudget.gov.in/budget_archive/es2006-07/chapt2007/tab94.pdf

⁴ Malvika Sharma. Mahila Mandals: A way leading wards financial empowerment. //International journal for multidisciplinary research. Vol.6, Issue 3, may-june 2024. -p.10.

⁵ Chapter – 7. Five year plans.

https://www.mospi.gov.in/sites/default/files/Statistical_year_book_india_chapters/ch7.pdf



qizlarlar ta'limi va reproduktiv salomatligini yaxshilash, qishloq hududlarida boshlang'ich maktablarini ochishga qaratilgan bo'lsa, to'rtinchi besh yillik rejada (1969-1974) esa ayollarning farzandlar sonini rejalashtirishi va ommaviy tarbiyalashga qaratilgan edi.

Ishlab chiqilgan har bir besh yillik rejada belgilangan dasturlar aholining farovon kelajagiga yo'naltirilgan bo'lib, ayollarning roli, imkoniyatlari va huquqlarini cheklovchi asosiy ijtimoiy va madaniy muammolarni hal qilishga qaratilgan edi.

Beshinchi besh yillik rejada (1974-1979) ayollarning daromad olishi va funktsional savodxonlik qobiliyatini shakllantirish orqali, ularni jamiyatda, shuningdek, oilada ham mehnatlarini qadrlash maqsadida amalga oshirildi. Bu davr oralig'ida ayol kadrlar orasida o'z qadr-qimmatini anglash, o'zlariga bo'lgan ishonchni ortganligini ko'rish mumkin.

Oltinchi rejada (1980-1985) oila jamiyat rivojlanishning asosiy birligi deb e'tirof etildi va bunda ayollar o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi. Keyingi yettinchi besh yillik rejada (1985-1990) ayollarning huquq va imtiyozlari haqida xabardorligini oshirish va ularni yanada samarali iqtisodiy faoliyatga yo'naltirish orqali imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqildi.

Shuningdek, reja orqali hukumat ayollarning iqtisodiy faoliyati, yangi texnologiyalardan foydalanish, nazorat qilish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash uchun doimiy yordam berishga intildi¹. Shuningdek, rejada Uttar-Pradesh hududida ijtimoiy adolat orqali jamiyatda iqtisodiy-siyosiy samaradorlikka erishish, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonliklarni oldini olish, ularni davlat himoyasiga olish choralari ko'rilgan bo'lsa, 1992-1997-yillar uchun ishlab chiqilgan sakkizchi besh yillik rejaga 1989-1991-yillarda vujudga kelgan iqtisodiy beqarorlik davrida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish, qashshoqlikni kamaytirish, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash ishlari olib borilgan². Shuni aytish muhimki, iqtisodiy besh yillik rejalariga ko'ra, yo'naltirilgan davlat sarmoyasi boshqa sohalarga qaraganda ta'limga yetarlicha ajratilmagan (1-jadval). Bu esa o'z navbatida rejaga kiritilgan loyihalarni amalda bajarish holatini qiyinlashtiradi.

1-jadval. *Uttar-Pradesh shtatida besh yillik rejalar asosida sohalarga yo'naltirilgan mablag` taqsimoti (%)*

	I reja	II reja	III reja	IV reja	V reja	VI reja	VII reja	VIII reja
Agroiqtisod	25.5	30.7	29.3	20.7	14.6	13.7	19.1	21.6
Irrigatsiya	36.6	35.2	39	54.2	57.8	49.4	41.2	37.6
Industriya	4.2	5.5	3.7	3.6	6.2	6.5	5.8	2.7
Transport	4.5	6.6	5	6.7	8.5	10.3	10.7	11.7
Ijtimoiy sector	29.2	15	13	14.8	12.9	20.1	23.2	24.8
Salomatlik	8.5	4.2	4.4	4.9	3.2	2.9	3.8	2.6
Ta'lim	12.8	6.1	8	5.6	3.7	3.3	4	5.3
Umumiy	153	233	560	1165	2909	6594	11948	21679

Manba:

¹ Bharati Ray, Aparna Basu (Eds). (1999) From Independence towards Freedom, Indian Women since 1947. – New Delhi.1999. – P 106.

² Economic Plannin-Eighth Five Year Plan (1992-1997). <https://unacademy.com/content/ssc/study-material/indian-economy/economic-planning-eighth-five-year-plan-1992-1997/#:~:text=The%20Eighth%20five-year%20plan%20targeted%20the%20generation%20of%20adequate,infrastucture%2C%20and%20safe%20drinking%20water>



Hindiston hukumati jamiyatdagi ayollarning o'z o'rniga ega bo'lishi, o'z xaq-huquqlarini tanishi va buning uchun avvalo, ularga bilim berib, savodini chiqarish uchun harakat qildi. 1988-2000-yillarga mo'ljallangan "Ayollar uchun milliy istiqbol rejasini"ni ishlab chiqdi va barcha hududdagi xotin-qizlar 2000-yilga kelib ta'limda ustuvor yo'nalishga ega bo'lishlari uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilab qo'yildi:

- Ta'lim sohasini qayta ishlash va maktab o'quv dasturlaridagi gender nomutanosiblikni bartaraf etish;

- Ommada qizlarni o'qitish zarurligi to'g'risida xabardorlikni shakllantirish, buning uchun ommaviy axborot vositalarini yo'naltirish va keng jamoatchilik hamda ta'lim xodimlari o'rtasida samarali aloqa o'rnatish;

- Boshlang'ich maktablarda 50 foiz o'rin ayol o'qituvchilar uchun ajratilishi, har bir maktabda kamida bitta ayol o'qituvchi bo'lishi;

- Maktab vaqtlari moslashuvchan bo'lishi va maktab aholi istiqomat qilayotgan hududlarga yaqin joyda barpo etilishi (agar qizlar qatnaydigan maktab 3 km uzoqlikda joylashgan bo'lsa, ular uchun yotoqxonalar qurish) va boshqalar.

Hukumat tomonidan xotin-qizlar hayotini yaxshilashga qaratilgan dasturlar Uttar-Pradshda o'z ta'sirini ko'rsatdi, masalan, 1981-yilda Uttar-Pradeshda savodxonlik darajasi 28 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1991-yilda u 42 foizgacha ko'tarildi. 1991-yilda kattalar savodxonlik darajasi 38 foizni tashkil etdi va 1998-yilda u 49 foizga oshdi. Biroq, ayollar va erkaklar savodxonligi o'rtasidagi gender nomutanosiblik saqlanib qoldi, masalan, 1991-yilda erkaklar savodxonligi 56 foizni tashkil etsa, ayollar savodxonligi 25 foiz bo'lgan, sakkiz yil o'tgach, 1999-yilda so'rov natijalariga ko'ra, erkaklar savodxonligi 73 foiz, ayollarniki esa 43 foizga yetgandi¹, ular o'rtasidagi tafovut bu davrda qariyb 30 foiz edi.

Shtatdagi yana bir e'tiborga molik xususiyat bu qishloq joylaridagi ayollar orasida savodsizlik darajasining yuqoriligidir. 1980-yillarning oxirida 10-14 yosh aholi savodsizlik darajasi qishloq erkaklari uchun 32 foiz, ayollarniki esa 61 foizni tashkil etdi va bu davrda 12-14 yosh guruhidagi qishloq qizlarining uchdan ikki qismi esa umuman maktabga bormagan. 1991-yilda yetti yosh va undan yuqori guruhidagi qizlarning atigi 25 foizi o'qish va yozishni bilgan va qishloq joylarida bu ko'rsatkich 19 foizni ko'rsatgan. 1992-1993-yillarda asosiy ta'limni (boshlang'ich yoki o'rta ta'lim) yakunlash bo'yicha sakkiz yillik o'qish davrini savodli erkaklarning atigi 50 foizi va ayollarning esa 40 foizi tugatgan². Uttar-Pradesh hukumati chekka hududlardagi bu muammoni bartaraf etish maqsadida qishloq hududida istiqomat qiluvchi aholi hayotini yaxshilash uchun 1956-1961-yillarga mo'ljallangan ikkinchi besh yillik reja, 1996-yilda ishlab chiqilgan प्रधान मंत्री आवास योजना (Pradhan Mantri Awas Yojana³) nomini olgan dasturlar ishlab chiqdi. Ushbu loyihalar ko'p tarmoqli bo'lib, unda hududda yashovchi ayollar imkoniyatlarini kengaytirishga yordamlashish vazifalari yuklatilgan edi.

XXI asr boshida Uttar-Pradesh hukumati o'z siyosiy dasturiga ta'lim sohasida xotin-qizlar ishtirokini kengaytirish, o'quvchilar orasida gender nomutanosiblikni bartaraf etish, ayol kadrlar sonini oshirish kabi muammolarni hal etishni kiritdi. Bu borada 2001-yil Hindiston hukumati tomonidan सर्व शिक्षा अभियान - Sarva Shiksha Abhiyan programmasi orqali hududda 6-14 yoshdagi bolalar bilim olishini nazorat ostiga olish, Mahila shiksha dasturi doirasida o'g'il va qiz bolalar ta'lim olishida tenglikka erishish choralarini ko'rish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, hukumat tomonidan 2004-2005-yillarda Kasturba Gandhi

¹ Census of India, Uttar-Pradesh from 1951 to 2001.

² Census of India, Uttar-Pradesh from 1951 to 2001.

³ प्रधान मंत्री आवास योजना - Pradhan Mantri Awas Yojana-Housing for All (Rural) | District Amroha, Government of Uttar Pradesh | India. <https://amroha.nic.in/scheme/pmay-r/>



Vidyalaya Yojana dasturi ishga tushirilib, unda maktabni tashlab ketgan, ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmagan quyi kasta va qabila qiz farzandlarini ta'lim sohasiga qaytarish maqsad qilindi. 2004-2005-yillarda ushbu loyiha yordamida 746 nafar shu toifadagi o'quvchilar maktabga qaytarildi.

Bundan tashqari, hukumat besh yillik reja dasturlariga ham xotin-qizlarning bilim olishini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga oid siyosiy rejalar ishlab chiqdi, xususan, 2002-2007-yillarga mo'ljallangan o'ninchi besh yillik reja dasturiga 2007-yilga kelib savodxonlik va ish haqqi stavkalaridagi gender tafovutlarni kamida 50 foizga qisqartirish, o'n birinchi rejada (2007-2012) keying besh yil oralig'ida 18-23-yoshdagi aholi oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinishini ta'minlash, masofaviy ta'lim, IT ta'lim muassasalari faoliyatini yaxshilash, inklyuziv ta'limni rag'batlantirish, ta'limdagi gender tengsizlikni kamaytirish ishlari reja qilingan bo'lsa, o'n ikkinchi besh yillik rejada (2012-2017) maktabga qabul qilishda gender va ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish, oliy ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish, 0 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida to'yib ovqatlanmaslik darajasini kamaytirish choralari ko'rib chiqildi¹.

2014-yil Narendra Modi hukumati tomonidan Rejalashtirish komissiyasi (1951-2014) o'rniga Modi hukumati NITI Aayog siyosat komissiyasini taklif qildi². Ushbu davr oralig'ida amalga oshirilgan sa'y-harakatlar xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotiga bir muncha ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, bosh vazir Narendra Modi 2015-yil aprel oyida jamiyatdagi ayollar tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga yordamlashish maqsadida ularga davlat tomonidan kredit ajratilishi belgilab qo'ydi³ hamda Pradhan Mantri Mudra Yojana sxemasi doirasida jarayonni amalda joriy etish ko'zda tutildi. Shuningdek, dastur orqali ayollarning moliyaviy savodxonligini oshirish ham inobatga olingan edi. Bundan tashqari, qishloq hududida yashovchi xotin-qizlarning savodxonligini oshirish maqsadida 2016-yil 1-may kuni bosh vazir Narendra Modi boshchiligidagi प्रधान मंत्री उज्ज्वला योजना - Pradhan Mantri Ujjwala Yojana⁴ ijtimoiy ta'minot loyihasi ham ishga tushirildi.

Uttar-Pradesh ta'lim tizimi. Hozirda Uttar-Pradesh ta'lim tizimi besh bosqichga bo'lingan, bular quyidagilardan tashkil topgan:

- Maktabgacha ta'lim – 3-5 yoshli bolalar uchun bog'cha ta'limi;
- Boshlang'ich ta'lim – 6-11 yosh o'quvchilar uchun (1-5 sinf);
- Yuqori boshlang'ich ta'lim – 11-14 yoshdagi o'quvchilar uchun (6-8-sinflar)
- O'rta ta'lim – 14-18 yoshdagi bolalar uchun (9-12-sinf);
- Oliy ta'lim – bakalavr, aspirantura, doktorantura va boshqalar.

Uttar-Pradeshdagi ta'lim muassasalarining aksariyati उत्तर प्रदेश माध्यमिक शिक्षा परिषद – Uttar-Pradesh Madhyamik Shiksha Parishad (UPMSP), O'rta ta'lim markaziy kengashi va Hindiston maktablari sertifikat imtihonlari kengashi tomonidan nazorat qilinadi. Uttar-Pradeshdagi boshlang'ich ta'lim shtat hukumatining asosiy ta'lim departamenti nazoratida bo'lib, shtat hukumati 2009-yildagi "Talim huquqi to'g'risida"gi qonunga (RTE) muvofiq 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan barcha bolalarni bepul va majburiy ta'lim bilan ta'minlash mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan. 2022-yil Uttar-Pradeshdagi

¹ Five Year Economic Planning in India: History, List & More | UPSC Notes. <https://testbook.com/ias-preparation/five-year-economic-planning-in-india>

² National Institution for Transforming India (NITI Aayog) - Think Tank, Latest News. <https://byjus.com/free-ias-prep/niti-aayog/cxdsew21>

³ Women Loan Scheme by Government of India (Modi loan Schemes). <https://moneyview.in/insights/government-loan-schemes-for-women-in-india>

⁴ प्रधान मंत्री उज्ज्वला योजना. Pradhan Mantri Ujjwala Yojana | District Amroha, Government of Uttar Pradesh | India <https://amroha.nic.in/scheme/pradhan-mantri-ujjwala-yojana/>



bolalarning umumiy yalpi qamrab olish nisbati 1-8-sinflar uchun taxminan 98.1 foizni tashkil qiladi, shundan o'g'il bolalar foizi 99.5 bo'lsa, qizlarniki 96.9 foizni tashkil qildi¹.

So'ngi yillarda ta'lim muassasalari infratuzilmasi yaxshilanishi uchun bir qancha ishlar amalga oshirilsada, chekka hududlarda joylashgan maktab binolaridagi elektr energiyasi, toza ichimlik suvi, hojatxona, isitish tizimi, o'quv xonalari, pedagog kadrlar yetishmasligi kabi bir nechta muammolar hal qilinganicha yo'q.

Hindistonning Uttar-Pradesh shtatida O'rta ta'lim shtat hukumati O'rta ta'lim departamenti tomonidan nazorat qilinib, 14-18 yoshdagi o'quvchilar bilim olishi tushuniladi. Hozirgi vaqtda 2021-2023-yillarda Uttar-Pradeshda jami 3339581 o'g'il hamda 2793611 nafar qiz bola o'rta ta'limga qabul qilingan². Uttar-Pradeshdagi o'rta ta'lim maktab jihozlari boshlang'ich ta'limnikiga qaraganda ancha sifatliroq. Biroq, maktablarda kutubxona, laboratoriya va sport inshootlari kabi asosiy qulayliklar mavjud emas. Malakali professional pedagog kadrlar soni ham oz.

Uttar-Pradesh hukumati boshlang'ich va o'rta ta'lim sifatini yaxshilash uchun bir qancha tashabbuslarni amalga oshirdi, jumladan, निपॉन भारत मिशन- Niphan Bharat missiyasi – mamlakatdagi har bir bola 3-sinf oxirigacha o'qish va hisoblash qobiliyatini to'liq o'zlashtirishini ta'minlash (2026-2027); कायाकल्प ओपरेट्सिया - Kayakalp operatsiyasi – 2018-yil iyunda ishga tushirilgan bo'lib, uning maqsadi maktab muassasalar faoliyatini qayta tekshirishga qaratilgan; शारदा - Sharda (हर दिन आओ स्कूल – har kuni maktabga kel) – 2009-yildagi “Talim to'g'risida”gi qonunga muvofiq 5 yoshdan 14 yoshgacha bolalarning bilim olishini nazorat qiladi³ va boshqalar.

Uttar-Pradeshda oliy ta'lim davlat va xususiy universitet, kollejlardan iborat bo'lib, hududda bir qancha nufuzli universitetlar mavjud, masalan, Lakhnau universiteti, Banoras hindu universiteti, Aligarh musulmon universiteti va boshqalar. Hududdagi kollej va universitetlarga kirish imtihonlari asosida o'tkaziladi. Nomzodlar o'zlarining oliy o'rta ta'lim ma'lumoti yoki shunga teng minimal talab qilindigan diplomga ega bo'lishi kerak. Uttar-Pradesh oliy ta'limi turli sohalarga mo'ljallangan, xususan, muhandislik, tibbiyot, huquq, san'at, fan, tijorat, menejment, agroiqtsodiyot, qishloq xo'jaligi va boshqalar⁴. Ko'pgina ta'lim muassasalari talabalarga amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun kasbiy va texnik kurslarni ham taklif qiladi. Hozirda Uttar-Pradesh hududida 67 universitet, 700ga yaqin xususiy kollejlari, 13 ta tadqiqot institut, 9 ta xususiy institutlar mavjud. 2016-yili ushbu oliygohlarda tahsil olayotgan o'g'il bolalar 54 foiz, qizlar esa 46 foizni tashkil qilgan edi⁵.

Uttar-Pradesh oliy ta'lim sohasida ham bir qancha muammolar mavjud, misol uchun, an'anaviy kurslar (bu kurslarda o'tilayotgan dastur bugungi ta'lim talabiga to'g'ri kelmaydi), davlat kollejlardagi zaif infratuzilmalar (ko'pgina davlat kollejlarda binolari eski, shuningdek, administratsiyasi ham zamon talabiga mos emas), xususiy universitetlardagi o'qish narxining qimmatligi, institutlardagi yotoqxonalar soni kamligi, davlat universitetlarida malakali pedogoglarning yetishmasligi va boshqalar. Bu muammolarni hukumat davlat universitetlarida ishlovchi ilmiy darajasi yuqori bo'lgan kadrlar maoshini oshirish, iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlar yaratib berish, yotoqxonalar sonini ko'paytirish, kollejlardagi

¹ Geetha Rani Prakasam (2014). Growth and Financing of Elementary Education in Uttar-Pradesh: A Province in India. Education Policy Analysis Archives 12/25. Arizona State University. – P. 487.

² Education in Uttar Pradesh: know about the education system of UP. <https://testbook.com/up-gk/education-in-uttar-pradesh>

³ Behrman J.R., Rosenzweig M.R. (2002). Does increasing women's schooling raise the schooling of next generation? //American Economic Review. 2002 92(1). – P. 323-334.

⁴Dr. Anuj Kumar, Dr. Ambrish. (2015) Higher education: growth, challenges and opportunities. // International journal of arts. Humanities and management sciences. (Feb 2015). – P. 19-32

⁵. UGC. Annual Report. Annual 2014-2015.



davtur hamda o'quv binolari, materiallarni qaytadan jihozlash evaziga hal etishi mumkin. Bu esa o'z navbatida talabalarga sifatli ta'lim olishini kafolatlab, kelgusida malakali kadr bo'lib yetishishida katta yordam beradi.

Uttar-Pradesh hukumat dasturlari – keyingi yillarda hukumat xotin-qizlarning jamiyatdagi faoliyatini kengaytirish, ularning ijtimoiy-siyosiy holatini yaxshilash, erkaklar bilan teng qatori bilim olishiga ko'maklashish maqsadida qator loyiha va dasturlarni ishga tushirdi, xususan -

पति की मृत्यु उपरांत निरक्षित महिला पेंशन - (Pati ki mrityu uprant nirakshit mahila penshan¹) – ushbu sxema bo'yicha ayollar oyiga 1000 rubl miqdorida pensiya oladilar. Unga ko'ra, ayol Uttar-Pradesh shtatining doimiy rezidenti bo'lgan, eri vafot etgan, oila yillik daromadi 2 lakh rupiyadan kam bo'lgan, 18 yoshdan oshgan bo'lishi zarur. Hozirda kelib ushbu dastur doirasida 28.62 million beva ayol nafaqa bilan ta'minlanmoqda.

मुख्यमंत्री कन्या सुमंगला योजना - (mukhyamantri kanya Sumangala yojana²) – dastur 2019-yil 25-oktabrda shtatda jinslar nisbatini tenglashtirish, qiz bola homila farzandlar o'limini oldini olish, xotin-qizlar salomatligi, ularning ta'lim olishini mustahkamlash, moddiy va ma'naviy yordam berish, keng jamoatchilik orasida ularga nisbatan ijobiy fikrlashni shakllantirish uchun ishga tushirilgan. Bugungi kunga qadar dastur yordamida 15.87 lakh qizlarga imtiyoz ajratilgan.

बेटी बचाओ बेटी पढ़ाओ - (Beti bachao, beti parhao³) – sxemaning maqsadi jinsiy nomutanosiblikni yaxshilash, qizlar bilim olishini rag'batlantirish, mahalliy aholida qizlarga nisbatan ijobiy fikrni shakllantirishdan iborat. 2022-2023-yillarda jami 9234ta amaliy tadbir orqali 12.94 lakh xotin-qizlar qo'llab-quvvatlandi.

रानी लक्ष्मीबाई बाल एवं महिला सम्मान कोष - (Rani Lakshmi Bai bal evm mahila sammaan kosh⁴) – ushbu jamg'arma doirasida og'ir jinoyat qurboni bo'lgan xotin-qizlarga 1 milliondan 10 million so'mgacha moddiy yordam, bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatilib kelinadi. 2022-2023-yillarda jami 701 nafar ayolga moddiy yordam ko'rsatildi, 6481 nafar qizlarga kompensatsiya pullari ajratildi.

१८१-महिला हेल्पलाइन - (181- mahila helpalain⁵) – 181 ayollar ishonch telefon raqami Uttar-Pradesh hududida bepul, 24/7 ishlaydi. Xotin-qizlar noqulay vaziyatda qolganida, oilaviy zo'ravonlikka uchraganida foydalanishi mumkin. Ushbu dastur ayniqsa, Covid-19 pandemiyasi davrida oilaviy zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga yordam berdi va hozirgacha 5.57 million ayolga amaliy yordam ko'rsatildi.

वन स्टॉप सेंटर - (Van stop sentr⁶) – ushbu markaz ayollarga tibbiy yordam, qonuniy-psixologik maslahat, yuridik va politsiya xizmati bilan ta'minlaydi. Markaz faoliyat ko'rsatganidan boshlab ayollarga nisbatan sodir etilgan 1.49 lakh jinoiy ish ko'rib chiqilgan.

उत्तर प्रदेश मुख्यामंत्रि बाल सेवन योजना - (Uttar-Pradesh mukhiyamantri bal seva yojana⁷) – Uttar-Pradeshda Covid-19 davrida uyda qolgan o'quvchilarga ta'lim olish, davolash, parvarish qilish va shu

¹ पति की मृत्यु के उपरान्त निराश्रित महिलाओं को सहायक अनुदान | भारत <https://mahilakalyan.up.nic.in/Institution%20PDF/12.pdf>

² DEPARTMENT OF WOMEN & CHILD DEVELOPMENT. https://mksy.up.gov.in/women_welfare/index.php

³ बेटी बचाओ बेटी पढ़ाओ – बालिका शिशु की देखभाल | भारत के प्रधानमंत्री <https://www.cecoedecon.org.in/wp-content/uploads/2020/10/beti-bachao-beti-padhao.pdf>

⁴ UP Rani Lakshmi Bai Mahila Samman Kosh | District Gorakhpur | India <https://gorakhpur.nic.in/service/up-rani-lakshmi-bai-mahila-samman-kosh/>

⁵ Women Helpline Number 181 | Women and Child Development Department, Haryana | India [https://wcdhry.gov.in/women-helpline-number-181/#:~:text=Objective,One%20Stop%20Center%20\(OSC\)](https://wcdhry.gov.in/women-helpline-number-181/#:~:text=Objective,One%20Stop%20Center%20(OSC))

⁶ PinkShakti

<https://pinkshakti.in/onestopdata.php>

⁷ यूपी की एक खास योजना, बच्चों को हर महीने मिलेंगे 2500 रुपये, ऐसे करें अप्लाई - हिंदी



kabi ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun tashkil etilib, pandemiya vaqti 3550 nafar bolaga o'quv qirollar, noutbuklar tarqatildi. Ota-onasi yoxud ulardan biri covid tufayli vafot etgan 13895 nafar bolalar aniqlanib, ularga nafaqa pullari berib kelinmoqda.

उत्तर प्रदेश मुख्यामन्त्री बल सेवन योजना - (Uttar-Pradesh mukhiyamantri bal seva yojana (samanya)¹) – hukumat tomonidan 2021-yil avgust oyida ishga tushirilgan. 2020-yil 1-martidan ota-onasi yoxud vasiysidan ayrilgan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar, 18 yoshdan 23 yoshgacha oliy ta'limda o'qishni xohlovchi a'lochi yoshlar shartnoma pulini qoplash, ularga stipendiyalar ajratish, shu orqali pandemiya davrida tang holatga tushgan ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan dastur hisoblanadi. Hozirda loyiha doirasida 632 nafar bola aniqlanib, yordam ko'rsatib kelinmoqda.

मिशन वात्सल्य - (Mishen vatsalya²) – sxema shtatdagi bolalarni himoya qilish, erta nikohni oldini olish, o'quvchilarga zamon talabiga javob beruvchi, ilg'or texnologiyalar orqali ta'lim beruvchi o'quv maskanlarini tashkil etish, yosh kadrlarni ish bilan ta'minlash, ularning malaka oshirishiga ko'maklashish ishlarini o'z oldiga maqsad qilib olgan.

निरक्षित महिलाओं हेतु श्रियम सुविधा - (Nirakshit mahilaong hetu ashriyam suvidha³) – loyida doirasida xotin-qizlarni himoya qilish va sog'lomlashtirish maqsadida shtatda 700ga yaqin ayollar uchun turar-joy qurib berildi. Bu esa o'z navbatida bir oz bo'lsada ayollarning ijtimoiy hayotini yengillashtirishga o'z hissasini qo'shdi.

बच्चों तथा महिलाओं संबंधी विभिन्न अधिनियमों का क्रियान्वयन - (Bachchong tatha mahilaong sanbandhi vibhinna adhiniyamong ka kriyanvayan⁴) – erta nikohni oldini olish, yosh bolalar mehnatini cheklash, tilanchi bolalar, xotin-qizlarga nisbatan ish joyi yaratish, oiladagi zo'ravonlik, mahr kabi jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan dastur hisoblanib, ushbu holatlar yuzaga kelganida dastur orqali ayollarga qonuniy, moddiy yordam ko'rsatiladi.

Uttar-Pradesh hukumati tomonidan amalga oshirilgan davlat dastur va rejalari xotin-qizlarning ta'limdagi rolini oshirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda, xususan, 2011-yilda hukumat umumiy savodxonligi 67.68 foizni tashkil qilib, shundan erkaklarniki 77.28 foiz, ayollarniki esa 57.18 foizga yetdi. Xotin-qizlar savodxonlik ko'rsatkichi bu yilda 2001-yildagi ko'rsatkich bilan solishtirganda 15 foizga oshgan edi (2001-yilda ayollar savodxonlik ko'rsatkichi 42.22 foiz edi)⁵.

Shtat hukumati tomonidan olib borilgan iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatlarga qaramasdan, Uttar-Pradeshda aholisi savodxonlik ko'rsatkichi milliy ko'rsatkichdan past. Bunga esa yuqorida qayd etilgan kamchiliklar, shuningdek, jamiyatdagi din qatlamlaridagi aholining ta'limga bo'lgan munosabatlari ham o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Masalan, Uttar-Pradesh shtatida eng ko'p din vakillari hindlar bo'lsa, undan keyingi o'rinda musulmonlar turadi (hindlar 80%, musulmonlar 19.3%). Hindiston jamiyatida

<https://hindi.news18.com/news/uttar-pradesh/mathura-mukhiyamantri-bal-seva-yojana-up-for-children-2500-rupees-benefits-per-month-8603048.html#:>

¹ मुख्यमंत्री बाल सेवा योजना (सामान्य) | भारत

<https://ghaziabad.nic.in>

² Mission Vatsalya Guideline. <https://cara.wcd.gov.in/pdf/Mission%20Vatsalya%20Guideline.pdf>

³ PinkShakti

<https://pinkshakti.in/onestopdata.php>

⁴ PinkShakti

<https://pinkshakti.in/onestopdata.php>

⁵ Notes on Uttar Pradesh as per Census 2011.

<https://unacademy.com/content/bank-exam/study-material/general-awareness/uttar-pradesh-as-per-census-2011/#:~:text=Comparative%20Analysis%20of%202001%20and%202011%20Census&text=According%20to%20the%202011%20population,being%2068.82%25%20and%2042.22%25>



aynan ana shu ikki din vakillari ta'lim sohasida eng qoloq diniy guruhlar hisoblanadi¹, xususan mamlakat bo'ylab musulmon ayollarning 48.11 foizi, hindu ayollarning esa 44.03 foizi hatto o'z ismlarini yozish va o'qishni bilmaydi². Ularning jamiyatdagi quyi ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyi to'g'ridan-tog'ri savodxonlik darajasiga, ayniqsa, ayollar ta'lim olishiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Diniy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, davlatda jaynlarda savodxonlik darajasi eng yuqori – 86.42 foiz, xristianlar – 74.34 foiz, buddistlar – 71.83 foiz, sikhlar esa – 67.50 foiz ko'rsatkichga ega. Ular orasida ham erkaklar va ayollar o'rtasida gender nomutanosiblik mavjud³.

Uttar-Pradesh shtatida ayniqsa, musulmon qatlami ta'lim olish holati anchayin past. Ta'lim muassalari aksariyat hollarda musulmon ayollar turar joylaridan uzoqda joylashgani sabab maktabni erta tark etishga yoxud umuman bormasliklariga to'g'ri keladi. Bu shuningdek, ko'p jihatdan dinlararo (hindu-musulmon) munosabatlardagi keskinlik bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida aholi orasida qo'rquv va ishonchsizlik muhiti shakllangan.

Uttar-Pradesh musulmon xotin-qizlar ta'limi. Hindistondagi musulmonlar jamoasi mamlakatda hindulardan keyin ikkinchi o'rinda turadi va 2011-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra⁴, 172,2 million kishi yoxud mamlakat aholisining 14,2 foizini tashkil qiladi. 2001-yil holatiga ko'ra, Hindistonda 138 millionga yaqin Islom diniga ergashuvchilar bor edi. Musulmonlarning deyarli yarmi (47 foiz) aholi zich joylashgan uchta shimoliy shtati Uttar-Pradesh, Bihar hamda G'arbiy Bengaliyada istiqomat qiladi. Birgina Uttar-Pradeshda 200 million aholining 38,5 millioni musulmonlarni tashkil qiladi. Bu ma'muriy-hududiy birlik doirasida musulmon aholi notekis taqsimlangan bo'lib, deyarli hamma joyda diniy ozchilikni tashkil etadi. Birgina Rampur tumanidagina musulmonlar 51 foizni tashkil qiladi.

2000-yillarning o'rtalarida Hindistondagi musulmonlar jamoasining hayotiga e'tibor qaratgan "Sachar qo'mitasi"⁵ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, shaharlarda musulmonlar va "boshqa diniy ozchilik vakillari" o'rtasidagi tafovut pasayish tendentsiyasini ko'rsatgan, biroq qishloq joylarda ko'rsatkichlar yuqoriligidan saqlanib qolgan⁶. Biroq, so'nggi o'n yilliklarda rejalashtirilgan kasta va qabilalar o'rtasida savodxonlikning o'sish sur'ati musulmonlar bilan solishtirganda sezilarli darajada ko'tarilgan⁷.

Tadqiqotchilar⁸ Islom diniga e'tiqod qiluvchi din vakillarining ta'lim sohasidagi qoloqligini tushuntirish uchun bir qancha sabablarni keltirishgan. Bularga quyidagilar kiradi:

- Hindistondagi aksariyat musulmonlarning qashshoqligi;
- Oila a'zolar soni ko'pligi;

¹ М.Н. Старикова. ЖЕНСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В МУСУЛЬМАНСКОЙ СРЕДЕ (НА ПРИМЕРЕ ИНДИЙСКОГО ШТАТА УТТАР-ПРАДЕШ) // ВЕСТН. МОСК. УН-ТА. СЕР. 13. ВОСТОКОВЕДЕНИЕ. 2017. № 3. Москва, Ленинские горы. – С. 87.

² About half of Muslim, Hindu women illiterate (2016).

<https://www.deccanherald.com/india/about-half-muslim-hindu-women-2041536>

³ About half of Muslim, Hindu women illiterate (2016).

<https://www.deccanherald.com/india/about-half-muslim-hindu-women-2041536>

⁴ Официальный сайт переписи населения Индии. URL: www.censusindia.gov.in

⁵ Hindiston sobiq bosh vaziri Manmohan Singh tomonidan tashkil etilgan qo'mita bo'lib, unga mamlakatdagi musulmonlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ta'lim holatini o'rganish uchun Dehli Oliy sudining sobiq raisi Rajinder Sachar boshchilik qilgan.

⁶ Sachar Committee Report. Social, Economic and Educational Status of the Muslim Community of India, Prime Minister's High Level Committee. Cabinet Secretariat Government of India. New Delhi, 2006. P. 54.

⁷ Sachar Committee Report. Social, Economic and Educational Status of the Muslim Community of India, Prime Minister's High Level Committee. Cabinet Secretariat Government of India. New Delhi, 2006. P. 55.

⁸ Masalan: Chanana K. The dialectics of tradition and modernity and women's education in India // Sociological Bulletin. 1990. – P. 75–91; Dwarakanat H.D. Policies and programmes to improve school education in rural India – A critical evaluation // Social Action. 2002. 52. P. 399–411; Siddiqui M.H. Educational Backwardness of Muslims in India and its Possible Remedies // Indian Journal of Applied Research. Vol. 2. Issue: 3 December. 2012. – P. 50–53.



- Professor-o'qituvchilarning (xususan ayol o'qituvchi kadrlarning yetishmasligi) yetarli darajada ma'lumotga ega emasligi;
- Ota-onalarning savodsizligi;
- Musulmon aholi tahsil oladigan maktablarda ta'lim jarayonini munosib tashkil etish uchun mablag' yetishmasligi;
- O'quv muassasalarida hanuz eskirgan o'qitish usullaridan foydalanib kelish;
- Kasb-hunar va texnik ta'limning zamon talabiga javob bermasligi;
- Aksariyat musulmon din peshvolarining noto'g'ri ijtimoiy siyosati;
- Musulmon muassasalarida sifatli infratuzilmaga ega emasligi.

Shuningdek, qiz bolalar uchun alohida maktablarning yo'qligi va musulmon oilalarda ularning ta'lim olishiga norozilik ruhiyati mavjud ekanligi ham asosiy muammolardan biri ekanligi qayd etilgan.

Musulmonlar orasida ta'limdagi gender notenglik muammosi keskinligi tabiiy holat bo'lib, Sachar komissiyasi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki¹, xotin-qizlar savodxonligi darajasi bo'yicha diniy jamoalar o'rtasidagi eng katta farq shaharlarga xosdir. Shaharlik musulmon ayollar ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramay boshqa diniy jamoalar ayollari bilan solishtirganda kamroq ta'lim sohasida ishtirok etadi².

Qishloq joylarda bu farq kichikroq, ammo ayollar savodxonligining umumiy darajasi ancha past. Shahardan tashqarida yashovchi musulmonlar ta'limdagi ishtirokiga sifatli bilim beradigan maktablarga kirishning cheklanganligi sezilarli darajada ta'sir qiladi. Maktabga qatnash mahalliy infratuzilmaning yo'qligi (maktabga borish imkoniyati va boshqalar) bilan ham belgilanadi. Bu sohada tez-tez uchrab turadigan kamchiliklar tufayli, ko'pincha madrasalar musulmonlar yashaydigan qishloqlardagi yagona ta'lim muassasasi vazifasini o'taydi. Biroq, deyarli barcha hududlarda joylashgan madrasalarda Islom diniga e'tiqod qiluvchilarning oz qismi tahsil oladi (maktab yoshidagi musulmonlarning 5 foizdan ko'p emas³, asosan o'g'il bolalar⁴). Musulmonlarnig ko'pchilik qismi dunyoviy ta'limni afzal ko'radi, negaki bu kelajakda davlat tashkilotlariga ishga joylashish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Bundan tashqari musulmonlarning, ayniqsa, qizlarning oliy ma'lumot olishiga to'sqinlik qiluvchi yana bir omil - bu bank kreditlarining mavjud emasligi, shuningdek, musulmonlarning diniy qarashlari tufayli (*ko'pchilik musulmonlar tomonidan kredit tizimi "ribo – sutxo'rlik"ga teng deb ishoniladi*) kredit tizimiga nisbatan ishonchsizlikdir⁵. Musulmonlar uchun kredit olish jarayoni juda murakkab. Buning sabablaridan biri shundaki, aksariyat musulmonlar talaba farzandlari uchun ta'lim krediti olish uchun bank ma'muriyatiga kredit to'lash kafolatini bera olmaydi. Hukumat qarorlariga qaramay, Hindiston davlat banklari qat'iy kafolat yoxud davlat ishida ishlaydigan kafil yo'qligi sababli musulmonlarga kredit

¹ Musulmon ayollarning savodxonlik darajasi 55%, hindularniki 68, nasroniylar 81, sikxlar 73, buddistlar 70,5, jaynlr 86,2%. URL: http://www.censusindia.gov.in/2011census/population_enumeration.html

² Sachar Committee Report... – P. 53.

https://www.minorityaffairs.gov.in/show_content.php?lang=1&level=0&ls_id=14&lid=14

